

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

---

F.XO‘JAYEV, S.XO‘JAYEVA

# **JISMONIY TARBIYA TARIXI**

*Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi ta’lim faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 5112000-Jismoniy madaniyat bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

**“UMID DESIGN”  
TOSHKENT – 2021**

UO‘K 796.413/.418(073)  
KBK 75.6ya7  
S 95

## **F.Xo‘jayev, S.Xo‘jayeva**

Jismoniy tarbiya tarixi [Matn]: darslik / F.Xo‘jayev, S.Xo‘jayeva.- Toshkent :  
“Umid Design”, 2021.-276 b.  
ISBN 978-9943-7292-2-3

Mazkur darslik 5112000-Jismoniy madaniyat bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo‘lib, undan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

### **Taqrizchilar:**

**Taqrizchilar:** A.Hasanov-tarix fanlari nomzodi, dotsent

B.Ne‘matov-pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

UO‘K 796.413/.418(073)  
KBK 75.6ya7  
S 95

Darslik Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2020-yil 1-iyun, 1-son bayonnoma).

ISBN 978-9943-7292-2-3

© F.Xo‘jayev, S.Xo‘jayeva, 2021

© «UMID DESIGN» nashriyoti, 2021

## MUNDARIJA

### Qadimgi dunyoda jismoniy tarbiya

**1-Bob. Ibtidoiy jamoa tuzumida jismoniy tarbiya elementlarining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi.**

1-&. Jismoniy tarbiyaning kelib chiqishi _____	9
2-&. Patriarxat davrida jismoniy tarbiya xususiyatlari _____	13
3-&. Qadimgi dunyo davlatlarida va qadimgi sharq davlatlarida jismoniy tarbiya _____	16
3-&. Sparta sistemasi _____	20
4-&. Afina sistemasi _____	21
5-&. Antik gimnastika _____	24
6-&. Olimpiada o'yinlari _____	25
7-&. Quldorlik. Gretsiyaning tushkunlikka yuz tutish davrida jismoniy tarbiya _____	27
8-&. Qadimgi Rimda va shohlar davrida jismoniy tarbiya _____	29

### II-Bob. O'rta asrlarda jismoniy tarbiya

### III-Bob. Ilk taraqqiy etgan feodalizm davrida jismoniy tarbiya

1-&. Ilk feodalizm davrida jismoniy tarbiya _____	33
2-&. Taraqqiy etgan feodalizm davrida jismoniy tarbiya _____	41
3-&. Feodallar harbiy – jismoniy tarbiyasi _____	42
4-&. Dehqonlarning jismoniy tarbiya _____	46
5-&. Shaharliklarning jismoniy tarbiyasi _____	48

### IV-Bob. Feodalizmning yemirilish davrida jismoniy tarbiya

1-& Jismoniy tarbiya to'g'risida gumanistlar ta'limoti _____	52
2-& Jismoniy tarbiya haqidagi nazariy bilimlarning dunyoga kelishi _____	53
3-& Gumanistlarning ideallari _____	55
4-& Vittorino da Feltre maktabi _____	56
5-& Merkurialistning qo'riqlovchi meditsinasi _____	56
6 -& Rablening jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari _____	57

## **V-Bob. Yangi davrda jismoniy tarbiya**

<b>1-&amp; Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazariy bilimlarning rivojlanishi</b>	<b>60</b>
<b>2-&amp; Jan-Jak Russo (1712-17786).</b>	<b>63</b>
<b>3-&amp; Iogani Genrix Pestalossi (1746-1827)</b>	<b>64</b>
<b>4-&amp; G.Fit (1763-1836 yillar)</b>	<b>65</b>
<b>5-&amp; I.Guts – Muts (1795-1839 yillar)</b>	<b>66</b>
<b>6-&amp; Burjua sport – gimnastika sistemasining vujudga kelishi</b>	<b>67</b>
<b>7-&amp; Gust-Mutsning o‘quvchisi Frans Naxtegal (1776-1847 yillar)</b>	<b>70</b>
<b>8-&amp; Per Ling (1776-1839 yillar)</b>	<b>71</b>
<b>9-&amp; Yangi zamonning ikkinchi davrida chet mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport</b>	<b>74</b>
<b>10-&amp; Sportning taraqqiy etishi va xalqaro sport uyushmalarining vujudga kelishi</b>	<b>79</b>
<b>11-&amp; Xalqaro Olimpiada harakatining vujudga kelishi</b>	<b>81</b>
<b>12-&amp; Eng yangi zamonda jismoniy tarbiya</b>	<b>82</b>

## **VI-Bob. Umumiy krizisning birinchi bosqichida kapitalistik mamlakatlarda jismoniy tarbiya**

<b>1-&amp; Buyuk Britaniya</b>	<b>89</b>
<b>2-&amp; Jismoniy tarbiyadagi yangi metodlar</b>	<b>90</b>
<b>3-&amp; Ishchi sport harakatining rivojlanishi</b>	<b>92</b>
<b>8-&amp; Taraqqiy etayotgan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport</b>	<b>94</b>

## **VII-BOB.**

### **JISMONIY TARBIYA SOHASIDA PEDOGOGIK VA TIBBIY-ILMIY BILIMLAR XALQ QO'SHINLARINING HARBIY-JISMONIY**

#### **TAYYORGARLIGI**

<b>Jaloliddin Manguberdi</b>	<b>97</b>
<b>Amir Temur (1336.9.04-1405.18.02)</b>	<b>100</b>
<b>Mahmud Qoshg'ariy</b>	<b>105</b>
<b>Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy)</b>	<b>107</b>
<b>Abu Ali Ibn Sino (980-1037yy)</b>	<b>109</b>

<b>Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo</b>	<b>118</b>
<b>Alisher Navoiy</b>	<b>121</b>
<b>MILODDAN OLDINGA IX-VI ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA JISMONIY TARBIYA</b>	<b>124</b>
<b>Markaziy Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqichlariga qarshi mustaqillik uchun kurashi.</b>	<b>127</b>
<b>O‘zbekistonga jismoniy tarbiyaning kelib chiqish tarixi</b>	<b>129</b>
<b>XIX asr o‘rtalarida oktabr revolutsiyasigacha Turkistonda jismoniy tarbiya</b>	<b>137</b>
<b>XX asr boshlarida gimnastika, tennis rivoj topdi.</b>	<b>139</b>
<b>O‘zbekistonda 1917-1940-yillarda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.</b>	<b>143</b>
<b>VI-Bob XALQ XO‘JALIGINI TIKLASH VA RIVOJLANTIRISH DAVRIDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>	
<b>1-&amp; Ulug‘ vatan urushi yillarida jismoniy madaniyat va sport (1941-1945 yillar)</b>	<b>168</b>
<b>2-&amp; Urushdan keyingi yillarda jismoniy madaniyat va sport</b>	<b>172</b>
<b>3-&amp; Butun ittifoq miqyosida O‘zbekiston gimnastikachilari terma jamoasi egallagan o‘rinlar</b>	<b>178</b>
<b>4-&amp; O‘zbekiston mustaqilligi davrida jismoniy tarbiya</b>	<b>201</b>
<b>5-&amp; «Umid nihollari» sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish</b>	<b>224</b>
<b>6-&amp; «Barkamol avlod» sport musobaqalarining tashkiliy asoslari</b>	<b>227</b>
<b>7-&amp; «Universiada» sport musobaqalarining tashkiliy asoslari</b>	<b>230</b>
<b>8-&amp; Olimpiada o‘yinlarini qaytadan tiklanishi</b>	<b>234</b>

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan yuksak maqsadimiz - jismoniy va ma’naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan avlodni voyaga yetkazish yo‘lida sport eng muhim va samarali vositaga aylangan. Zero, tinchlik elchisi deya ta’rif berilgan sport – salomatlik, barkamollik, go‘zallik, qat’iyat, mardlik, g‘urur va iftixor kabi tushuncha hamda fazilatlar omili sifatida ham e’tirof etilgan.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya tarixiy fanning mustaqil sohasi, jismoniy tarbiya va sportga doir ilmiy bilimlarning muhim tarkibiy qismidir.

Jismoniy tarbiya tarixining muhim vazifasi O‘zbekiston Respublikasi va boshqa chet el mamlakatlari xalqlari jismoniy tarbiya masalalarining taraqqiy etish xususiyatlarini o‘rganish, mamlakatimizda jismoniy tarbiya sarchashmalari va uning taraqqiy etish yo‘llarini aniqlash; ommaviy jismoniy tarbiya harakatining ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslari; mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roli va o‘rnini bilishidir.

Jismoniy tarbiya unumli mehnat jarayonida paydo bo‘ldi. Inson asrlar davomida tabiat bilan kurashishda o‘z kuchlarini oshirib borish bilan mehnat qurollarini takomillashtirib bordi. Mehnat jarayonida jismoniy va aqliy qobiliyatlari to‘xtovsiz rivojlandi. Kishilarning mehnat qobiliyatida jismoniy tarbiya ham vujudga keldi, hamda rivojlandi.

“Jismoniy tarbiya tarixi” yo‘nalishining asosiy vazifasi, g‘oyasi, rivojlanish darajasi, jismoniy tarbiya nizomining o‘ziga xos xususiyati nuqtai nazaridan milliy istiqlol va ma’naviy-ma’rifiy tomonlarini ilmiy asoslab berishning yakuniy hisobi, ishlab chiqarishning moddiy boyliklariga, ishlab chiqarish kuchiga va har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, ishlab chiqarish munosabatlari usullariga bog‘liq bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya kursi ijtimoiy taraqqiyotning beshta tizimlarini yoritib berdi. Bular: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik tizimi davrlari bo‘lib, jismoniy tarbiyaning asosiy boshlang‘ich davri sotsialistik tizimi hisoblanadi. Tarixiy adabiyotlarda sinfiy jamiyat va quldorlik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya davrini qadimiy dunyo deb atash qabul qilingan. Feodal ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya Yevropada XII asrdan ortiq vaqt hukmronlik qildi, buni O‘rta asr deb, Yangi tarix- bu kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga o‘tish, bunda kishi-kishini ekspluatatsiya qilish demakdir.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada jismoniy tarbiyaning rivojlanishi uchta asosiy davrda o'tadi: yuzaga kelishi (tiklanishi), rivojlanish-krizisga uchrash davri va uning o'rniga yangi progressiv shakllari paydo bo'lishi.

Jismoniy tarbiya tarixini o'rganishning ahamiyati shundaki, u bo'lajak pedagoglarning umumiy madaniy va siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni jismoniy tarbiya tarixiy taraqqiyotining umumiy yo'li va qonuniyatlari bilan tanishtiradi, ularning o'tmish bilan hozirgi vaqtni tushunib olishlariga va respublikamizda jismoniy tarbiya tizimini bundan keyin ham takomillashtirish uchun to'plangan ijobiy tajribalardan yaxshiroq foydalanishlariga yordam beradi.



**I-Bob.**

**IBTIDOIY JAMOA TUZUMIDA  
JISMONIY TARBIYA ELEMENTLARINING  
PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIY ETISHI**





## JISMONIY TARBIYANING KELIB CHIQISHI

Jismoniy tarbiyaning kelib chiqishi haqidagi masala jismoniy tarbiya tarixining eng muhim muammolaridan biri bo'lib, prinsipial metodologik ahamiyatiga egadir. Bu masalani ko'pgina burjuda olimlari hal etishga urinib ko'rdilar. Ularning tadqiqotlari bu muammoni o'rganish borasida ma'lum rol o'ynadi. Biroq ular bu muammoni o'z sinf manfaatlari nuqtai nazaridan hal etib, tarixni buzib ko'satdilar, soxtalashtirdilar.

Leturno, Espinas, Gross, Byuxer, Shiller, Spenser va boshqa olimlar jismoniy tarbiya hayvonlarning o'yinidan kelib chiqqan, degan nazariyani olg'a suradilar. Freyd va uning izdoshlari o'yin individualning to'la qimmatiga ega bo'lmaganligidan dalolat beradi, degan farazni isbotlashga urinib ko'radilar, chunki o'yinda go'yo insonning turmush qiyinchiliklaridan hayolat olamiga ketishiga urinishi ifodalanar emish. Jismoniy tarbiya va diniy marosimlarning kelib chiqishi to'g'risidagi burjua nazariyalari ham xuddi shu ta'limotga asoslanadi. Qator chet ellik tadqiqotchilar - Byuxer, Nering, Maksimov, Shternberg va boshqalar hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi va umuman, mehnat ibtidoiy o'yin va raqslardan kelib chiqqan deb ta'kidlaganlar. Ularning fikriga ko'ra, "o'yin mehnatdan kattadir" yoki "mehnat bu o'yinning bolasidir" deganlar. G.V. Plexanov ibtidoiy o'yinlar jismoniy mashqlar biologik faktorlardan emas, balki odamlarning mehnat faoliyatidan kelib chiqqanligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Ayrim kishilar hayotida o'yin mehnatdan oldin bo'lsa ham, umuman, jamiyatda esa u faqat mehnatni aks ettiradi. U "Mehnat o'yindan kattadir", "O'yin bu mehnat bolasidir" – degan edi.

Odamlarning toshni maydalashga va yorishga hamda yog'ochdan oddiy qurollar yasashga o'rganishlari uchun necha yuz ming yillar kerak bo'ladi.

Ishlab chiqarish faoliyatida bu, aslida, tabiat ehson qilgan narsalarni yig'ish davri edi. Yovvoyi hayvon ovi hali tasodifiy harakterga ega edi. Bu davrda jismoniy tarbiyaning biron nisbatni mustaqil elementlarining borligi haqida ishi ham bo'lishi mumkin emas edi. Kishilar uchun kerakli jismoniy sifatlar, malaka va qobiliyatlar ularning bevosita mehnat faoliyati jarayonida hosil qilinardi. Faqat yoshlar o'sha vaqtlarda mavjud bo'lgan oddiy mehnat qurollarini qanday yasash va ishlatishni hamda yovvoyi hayvonlardan qanday saqlash kerakligini katta yoshdagi kishilardan ma'lum darajada o'rganardi edilar.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi keyinchalik irg'itiladigan turli qurollarning takomillashuviga olib keldi. Turli mustahkam va o'tkir

uchli yengil nayzalarning, so'ngra esa o'q va yoyning paydo bo'lishi ovchilik kishilarning asosiy kasbiga aylantirdi. Buning natijasida ovqat topish uchun sarflanadigan vaqt ancha qisqardi. O'sha davrdagi kishilarning qazilmalar davrida topilgan manzilgohlari odamning ancha yaxshiroq hayot kechira boshlaganidan va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ancha katta imkoniyatlarga ega bo'lganidan dalolat beradi. Chunonchi, o'sha davrdagi odamda yosh avlodning tarbiyalash imkoniyati tug'ildi; bunda jismoniy tarbiya asosiy rol o'ynadi. Odamlarning bir yerga yig'ilishi va tasodifiy ov yo'li bilan ovqat topish hamda birlashgan dastlabki jamoasi ham mustahkam ijtimoiy organizm emas edi. Shuning uchun ham kishilar jamoasining boshlang'ich, ijtimoiy shakli "ijtimoiy poda" deb atalardi.

Xo'jalikni idrok qilishning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan kishilik jamiyatini uyushtirish ishlari ancha mustahkamlanib bordi. Onalik urug'chilik jamoasi paydo bo'ldi, uning a'zolari birgalikda qilinadigan doimiy kollektiv mehnat va qon-qarindoshlik bilan boshlangan edi. Jamoalarning paydo bo'lishi va taraqqiyot etishi bilan asta-sekin madaniyat sohasida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Endi odam o'ziga doimiy turar joy quradi, kiyim-kechak paydo bo'ladi, tasviriy san'at bunyod etiladi. Qo'shiq, o'yin va raqslar ijro etiladigan turli bayramlar keng tarqaldi. Jismoniy tarbiya elementlarining paydo bo'lishi ham xuddi shu davrga to'g'ri keladi. Bevosita mehnat bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina musobaqa o'yinlari mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi va ulardan urug' kollektivning turli yoshdagi guruhlarini foydalana boshlaydi. Mehnatning jins va yoshga qarab tibbiy ravishda bo'linishi endigina tug'ilib kelayotgan ibtidoiy jismoniy tarbiyada ham o'z ifodasini topdi. Jismoniy tarbiyaning yanada rivojlanishida ibtidoiy san'at ham katta rol o'ynaydi. San'at kishilarning fikr va tuyg'ularini boyitdi, ularning ma'naviy dunyosini takomillashtirdi. O'yin va raqslarda taqdirlanadigan mehnat va mudofaa harakteridagi ko'pgina harakatlar endi bevosita mehnat predmetiga yo'naltirilgan edi. Bu harakatlar jismoniy mashqlar sifatida nisbatan mustaqillik kasb etdi.

Jismoniy mashqlarning musobaqa o'yinlari shaklida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat kishisini tarbiyalashda tubdan o'zgarish yasadi. Odamlar kishini hayotga, ayniqsa, mehnat foliyatiga tayyorlashning yangi vositasiga ega bo'ladilar.

Jahonga mashhur rus etnografi va sayohatchisi N. Mikluxa-Maklay, masalan, papuaslarning ota-onalari o'z bolalarini mehnatga juda barvaqt o'rgatganliklarini shu maqsadda o'yinlardan ham foydalanganlarini hikoya

qiladi. “O‘g‘il bolalarning o‘yini” deb yozgan edi Mikluxa-Maklay – tayoqlarni nayzaga o‘xshatib irg‘itishdan, kamalak otishdan iborat edi; ular bu o‘yinlarda salgina yutuqqa erishishlari bilan ularni amaliy hayotga tadbiq etadilar. Men soatlab dengiz bo‘yida o‘tirib, yoy o‘qini biror baliqqa tegizishga harakat qilgan juda kichkina o‘g‘il bolalarni ko‘rganman. Qiz bolalar bilan ham xuddi shunday hol yuz beradi, chunki ular xo‘jalik ishlari bilan juda erta shug‘ullana boshlaydilar va o‘z onalarining noibalariga aylanadilar.

Quyidagi misol, fakt ham ibtidoiy musobaqa o‘yinlarining mehnatni ifodalab, kishilarni mehnatga tayyorlaydigan eng muhim vositalaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Etnogarflarning ta’kidlashicha, XIX asr 60-yillardayoq Avstraliyaning bir qancha qabilalarida ovga chiqish oldidan yirtqich hayvonning shaklini qumga chizib, unga nayza otish rasm bo‘lgan; bunda har bir ovchi o‘z nayzasini mumkin qadar aniqroq va kuchliroq otishga harakat qilgan. Bu yerda mashq va musobaqaning ayrim elementlari qo‘shilgan. Shunday qilib, odamlar nayza otishni mashq qilish bilan o‘zlarining mehnat malakalari va mahoratlarini takomillashtirib borganlar. O‘sha vaqtda mehnat va o‘yin bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan va diniy aqidalar bilan bog‘langan. Kishilik o‘yinlari odamlarning dahshatli tabiat kuchlariga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishga bo‘lgan hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Urug‘lik tuzumi onalik urug‘chilik tuzumi (matriarxat) va otalik urug‘chilik tuzumi (patriaraxat)ga bo‘lingan. Bu urug‘chilik tuzumining har biri o‘ziga xos taraqqiyot va jismoniy tarbiya xususiyatlariga ega bo‘lgan.

Onalik urug‘chilik tuzumining gullab-yashnagan davrida o‘yin uchun maxsus tayyorlangan narsalar (jundan qilingan koptok, shar, nayzabozlik tayoqlari, uchi to‘ntoq nayzalar, o‘yinchoq palaxmon, o‘yinchoq yoy, bosh egri hasa va boshqa narsalar) paydo bo‘lgan.

Yoshlarni, masalan, nayza, tayoq, suyil irg‘itishga, yoydan otishga o‘rgatish ibtidoiy jismoniy tarbiya tarkibiga kirib, uning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Yoy otishga va bumerang irg‘itishga o‘rgatish, ayniqsa, murakkab bo‘lgan.

Onalik urug‘chilik davrida bir qancha o‘yin asboblari ham ixtiro etilgan edi. Masalan, hindularda otalik urug‘chiligi davriga (ularni yevropaliklar kashf etgan davrda) o‘tish bosqichidayoq ichi kovak va yaxlit kauchkli koptoklar, maxsus chana (“tabog‘gan”) lar bor edi; ular bu koptok va chanalardan faqat xo‘jaliklardagina emas, balki musobaqalarda ham foydalanganlar. Kolumb davridayoq yevropaliklar hindularning

koptoklari – kostiliyaliklar (Ispaniya)ning koptoklaridan yaxshi ekanligini tan olishga majbur bo‘lgan edilar. Hindular tomonidan rezina koptokning kashf etilishi ko‘pgina boshqa Yevropa xalqlarida ham koptok o‘yining yanada ravnaq topishida muhim rol o‘ynadi. Ibtidoiy odamlarga suyakdan qilingan chang‘ilar, konkilar koptok bilan o‘ynashga mo‘ljalangan raketkalar ma‘lum bo‘lgan.

Onalik urug‘chiligi sharoitida ayollar mehnat va mudofaa faoliyatida erkak bilan bab-baravar qatnashar edi. Mavjud etnografik materallardan ma‘lum bo‘lishicha, o‘sha vaqtlarda mushtlashish, kurashish, yugurish, tayoqbozlik, nayza irg‘itish, yoy otish yuzasida va boshqa shu kabi sohalarda ayollarning maxsus musobaqasi, ayollar bilan erkaklar musobaqasi o‘tkazilar edi. Ba‘zi bir ma‘lumolarga qaraganda, ayollarning bunday mashqlari masalan, skiflarda, o‘zbek xalqining qadimiy ajdodlarida, shuningdek, patriarxat tuzumi sharoitidagi ayrim boshqa urug‘lar orasida saqlanib qolgan.

Ibtidoiy jamoa jismoniy tabiya sohasida o‘z a‘zolari zimmasiga ma‘lum majburiyatlar yukladi. Yosh qiz va yigitlar hayotda kerak bo‘ladigan epchillik, chidamlilik, chaqqonlik, jasurlik va qat‘iyatlik kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim edi. Ba‘zi qabilalarda masalan, baroro va konella (sharqiy Braziliya)larda yigitlar ma‘lum sinovlardan o‘tmagunlarcha hatto uylanishlari ham mumkin emas edilar. Kurash va yugurish eng asosiy sinovlardan edi. Braziliya tadqiqotchilaridan biri Bo’shan, bu badan mashqlarining qiyinligi shundaki, yugurayotgan kishi yelkasida og‘ir bir yog‘och bo‘lagini ko‘tarib borishi va yugurib borib, nishonga tegizish lozim, deb yozgan edi. Meksikalik hindularda yugurish musobaqasi 20 kmlik masofani aylanib o‘tishdan iborat edi. Etnograf Sobel hindularning karagumar qabilasidagi ayollardan ba‘zilarining ancha katta masofani erkaklar bilan aniq bir vaqtda yugurib o‘tganligini kuzatgan. Sharqiy Afrikadagi ko‘pgina ibtidoiy qabilalarda langarcho‘p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari ham bo‘lganligi ma‘lum. Chunonchi vatusi qabilasida yugurib kelib balandlikka sakrash va langarcho‘p bilan sakrash turli bayramlar vaqtidagi oddiy hodisa bo‘lgan.

Ibtidoiy jamoa sharoitlaridayoq suzishning turli usullari, elementlari (masalan; krol usuli bilan suzish) ma‘lum bo‘lgan, kanoe va baydarka - xilidagi yengil uzunchoq qayiqda eshkak eshish qo‘llanilgan. Etnografik materiallar Janubiy Amerikadagi ba‘zi bir qabilalarda (Yevropaning mustamlaka qilib olishgacha bo‘lgan davrda) turida mashq qilish elementlari mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida dalolat beradi. Shimoliy

Amerika hindularining ayrim qabilalarida (bu qabilalar kashf etilgan vaqtida onalik huquqi asosida urug'ga birlashtirilgan edi) katta rezina koptok, chovg'anlardan foydalanib o'ynaladigan xokkey to'pidagi yozgi va qishki o'yinlar rasm bo'lgan.

Ba'zi bir manbalar ibtidoiy jamoa odamlarida disk uloqtirish mashqi ham bo'lganligini ko'rsatadi. To'g'ri, hali bu musobaqa turi har tomonlama mustaqil bo'lmagan, balki kompleks harakterdagi o'yinlar tarkibiga kirgan.

"Disk" kaktus o'simligidan tayyorlangan va yumaloq shaklda bo'lgan. Oldin kaktusdan tikanlar tozalangan. Disk ham o'ng, ham chap qo'l bilan uloqtirilgan. O'ynovchilar ikki to'daga bo'lingan. Birinchi to'dadagi o'yinchilar navbat bilan diskni uloqtiradigan paytda ikkinchi to'dadagi o'yinchilar (navbat bilan) uchib kelayotgan diskga yoy o'qi bilan tekizishga harakat qilganlar. O'qi nishonga tegmagan o'yinchilar o'yindan chiqarilgan.

Yuqorida aytilgan gaplar hozirgi zamon sporti va jismoniy mashqlarning qator elementlari onalik urug'chiligi sharoitidayoq paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

## **PATRIARXAT DAVRIDA JISMONIY TARBIYA XUSUSIYATLARI**

Temir plug va boltaning paydo bo'lishi, plug bilan ishlash dehqonchiligi va chorvachilikning rivojlanishi ovning xo'jalik ahamiyatini barbod qildi. Chorva mollari tutish va dehqonchilik qilish uyda erkak kishining hukmron bo'lishini ta'minladi. Oila katta patriarxat oilaga aylana boshlaydi. Monogamiyaga-yagona naqohlikka o'tila boshlanadi. Patriarxat oilalar yig'indisi patriarxal, urug'ini yoki urug'chilik jamoasini tashkil etadi, urug'lar yig'indisi va umum qabila yerlariga ega bo'lish qabilalarni hosil qiladi.

Qabilalararo munosabatlarning rivojlanishi bilan o'zaro madaniy ta'siri kuchayadi, jismoniy tarbiya tajribasi ham boyib boradi. Ko'pgina qabila o'yinlari va jismoniy mashqlardan endi bir qancha qabilalar bahramand bo'ldi. Onalik urug'chiligi sharoitida ma'lum bo'lmagan, jangovar musobaqa o'yinlari paydo bo'ladi. Jangovar o'yinlarda shon-shavkat va shuhrat tushunchalari tug'iladi.

Patriarxat taraqqiyotining ilk bosqichida qabilalar o'rtasida tug'iladigan janjallar ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qabila vakillarining kurashi (yakkama-yakka kurashi) bilan hal etilar edi. Ba'zan

janjallar birgalikda shodiyona mehmondorchiliklar tashkil etish, bir-biriga sovg'alar berish, aka-uka tutinish va hokazolar bilan tugar edi.

Jismoniy mashqlar qabilalar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida katta rol o'ynar edi. Qabilalar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalar jarayonida jamoa shon-sharaf, o'zaro bir-birini quvvatlash ancha zaif raqibga rioyagarchilik qilish tushunchalari va boshqa tushunchalar rivojlanib borar edi. Kelishmovchiliklarni musobaqa yo'li bilan hal etish patriarxat sharoitida yashagan ko'pgina qabila va elatlarda ko'rilgan. Masalan, eskimoslarda (XIX asrning boshlarida) turli guruhlarining to'qnashuvi vaqtida har bir guruhdan jangchilar tanlab olishgan. Ular tayoqbozlikda musobaqalashib, ulardan biri yengildim, demaguncha musobaqa davom etgan. Koryaklar, tunguslar va cho'qchilar orasida sport kurashi shaklidagi yakkama-yakka olishuv keng tarqalgan edi. Yangi Tvineyadagi ko'pgina G'arbiy Yevropa tadqiqotchilari musobaqa o'yinlarining bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro musobaqalarni doimiy urushlar shaklida, musobaqa o'yinlarini esa "Bu urushlarning nusxasi" shaklida tasvirlashga harakat qilgan burjua olimlarining uydirmalarini rad etadi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy hayot sohasidagi o'zgarishlar oqibatida jismoniy tarbiya sohasida ham bir qancha yangi hodisalarning sodir bo'lishligi sabab bo'ldi. Eski o'yinlar ko'pincha ilgari ovchilik terminlarini saqlagan holda harakatlar harakteriga ko'ra, jamoa ovchilik mashqlarining ilgari usullari va uslubiyatlariga endi bevosita munosabatda bo'lmas edi. Masalan, ilgari, odatda, jamoa ovchilik o'yinlari majmuasiga kirgan mushtlashish, kurashish, og'irlik ko'tarish va hokazalar asta-sekin erkaklarning individual mustaqil musobaqa turiga aylandi. Ovchilik o'yinlari ovchilar turmush an'analari aks ettirib kelgan eski mazmunini yo'qotdi. Ayni vaqtda dehqonlar va chorvadorlarning mehnati hamda turmushini aks ettiradigan yangi musobaqa o'yinlari paydo bo'ldi. "Zog'ar", "Tariq", "Sichqon va mushuk", "Kalxat" va boshqa shu singari xalq o'yinlari aftidan, o'z ildizlari bilan ibtidoiy jamoa tuzish davridagi musobaqa o'yinlariga borib taqalsa kerak. Bu o'yinlarda XIX asrdayoq ibtidoiy dehqonlar va chorvadorlarning o'yinlari uchun harakterli bo'lgan marosim va musobaqa elementlari ancha aniq saqlangan edi. Ko'pgina xalqlarda ho'kiz bilan olishuv o'yini keng tarqalgan edi. Bu o'yinlarga yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish hamda usullarini aks ettiruvchi jismoniy mashqlar kirar edi.

Patriarxat davrida ibtidoiy jamoa odamlarining o'yin ijodini tarkibiy elementlariga ajratish, ixtisoslashtirish jarayoni kuchayadi. Masalan,

bug'uchilik bilan shug'ullanadigan qabilalarda bug'u bilan olishuv o'yini asosan bolalar o'rtasida saqlanib qolgan. Qatnashganlar o'rtasida esa bu o'yinlardan faqat ayrim mashqlargina foydalanilgan: bu mashqlar sportning mustaqil elementlari sifatida tarkib topdi (bu usullarda tezlikda kim o'zarga poyga qilish, katta yuklarni tashishda poyga qilish, yugurib kelayotgan bug'uning shohiga arqon tashlab, bir joyda turgan buyumga va havoda aylanib turgan buyumga arqon tashlash, keng chang'alarda kim o'zarga poyga qilish va hokazalar). Kurash singari musobaqa turi ham shaklan o'zgardi. Agar ilgari hayvon terisiga o'ralib raqs harakatlari va sakrashlari bilan kurashga tushilgan bo'lsa, endi raqs mustaqil mashq sifatida ajralib chiqdi, kurash esa sport harakteriga ega bo'ldi. Hayvon terisiga o'ralib sakrash musobaqaning mustaqil turi sifatida bajarila boshlandi. O'yinlar va jismoniy mashqlarning bunday evolyutsiyasi Kamchatkadagi bir qancha qabilalar va boshqa xalqlarda kuzatildi.

Jismoniy tarbiya mehnat ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Jismoniy tarbiya dastlab mehnat jarayonida taqlid qiladigan va unga tayyorlaydigan mashq hamda o'yinlardan iborat bo'lgan. Jamiyat urug'chilik tashkilotlarining rivojlanishi bilan o'ynovchilarning o'yinlari va harakatlari asta-sekin takomillashtirib borgan. O'yin uchun sun'iy buyumlar sparyadlar, koptoklar, sharlar, chovg'onlar, raketkalar, qoziqchalar va hokazalar paydo bo'lgan. Bu hol kishilar ijtimoiy foydali faoliyatining nisbatan mustaqil sohasi bo'lgan jismoniy tarbiya elementlarining tarkib topish bosqichining boshlanganligidan dalolat beradi. Jismoniy mashqlar, raqslar, jamoa musobaqa o'yinlari va yakkama-yakka kurashlar diniy marosim bayramlaridagi urf-odatlarining ajralmas qismi bo'lib qolgan.

Ibtidoiy jismoniy tarbiya barcha urug' a'zolarining erkin jamoa mehnati negizida paydo bo'ldi va ibtidoiy jamoa tuzumining ishlab chiqarish usuliga batamom muvofiq keladi. Ibtidoiy jismoniy tarbiya barcha urug' a'zolari boyligi bo'lib, urug'-qabila mehnat turmushi bilan chambarchas bog'langan edi. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davrida jismoniy tarbiya urug'-qabila aslzodalari tomonidan o'zini va o'z drujinalarini harbiy jihatdan tayyorlash uchun foydalanildi, bu drujinalar boshqa qabilalarning har birida kuchli erkaklarni shu yo'l bilan tanlash uchun mo'ljallangan edi. Bu bilan jismoniy tarbiya urug'-qabila aslzodalarining bundan keyingi boyishiga va sinfiy ajralishiga, sinfiy quldorchilik jamiyatining paydo bo'lishiga imkon yaratdi.

## **QADIMGI DUNYO DAVLATLARIDA VA QADIMGI SHARQ DAVLATLARIDA JISMONIY TARBIYA**

Urug'chilik tuzumining yemirilishi jarayonida yangi ishlab chiqarish munosabatlarining asoslari qurila bordi, bu yangi ishlab chiqarish munosabati bilan vujudga kelgan yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Quldorchilik jamiyatining paydo bo'lishi yoki vujudga kelishi bu jarayonning oqibat natijasi bo'ladi.

Qadimgi Sharq quldorlik davlatlari: Misr, Suriya, Eron, Hindiston va Xitoy kishilik tarixidagi eng qadimgi sinfiy jamiyatlari edi. Qadimgi Sharq davlatlarida, qadimgi dunyo davlatlari Gretsiya va Rim quldorlari davlatlaridan farqli o'laroq, quldorchilik ham oila qulchiligi doirasidan tashqarisiga chiqmagan bo'lib, ko'pgina jamoa hayotiy formalari saqlangan holda davom etdi. Bu davlatlarda quldorlar va qullar sinfi bilan birga ozod dehqonlar ommasi ko'plab saqlangan edi. Quldorlar sinfi o'z iqtisodiy va siyosiy qudratini mustahkamlash maqsadida turli xalqlar tomonidan tarixning oldingi davrlarida yaratilgan madaniyatdan keng foydalaniladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitlaridayoq vujudga kelgan din va kohinlar toifasi hukmron sinf hokimiyatini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va ko'pincha sehrgarlik harakateriga ega turli-tuman o'yinlar, raqslar, xorovadlar va musobaqalar barcha, qadimgi Sharq davlatlarining ozod aholisi o'rtasida tarqalgan edi. Xalq orasidagi harbiy mashqlarning ko'pgina turlari ham ko'p qo'llanar edi, chunki ozod jamoalar hali ham sharqiy dispotiya qo'shinlarining asosini tashkil etar edi. Qadimgi Misrning ko'p sonli yodgorliklari Misr falloqlari o'rtasida kurashga, qilichbozlikka doir mashqlar, ko'p sonli akrobatika mashqlari, raqs mashqlar, koptok o'ynash mashqlari va hokazolarning tarqalganligidan dalolat beradi. Suriya, Vavilion, Qadimgi Eron yodgorliklari ham xalq orasida mavjud ko'pgina o'yinlar va musobaqalar to'g'risida xabar beradi. Qadimgi Xitoy kurashi va qilichbozlikning, oyoq to'pi o'ynashining o'ziga xos usullari bo'lgan. Xitoyda saqlanib qolgan "U-shu" jismoniy tarbiya sistemasi juda qadim zamonda tug'ilgan va bu sistemaning ba'zi bir mashqlari quldorlik jamiyati sharoitlarida vujudga kelgan, deb taxmin qilishga asos bor.

Hukmdor quldor boshliqlar hokimiyatining kuchayib borishi bilan xalqning jismoniy tarbiya elementlaridan borgan sari ko'proq darajada hokimiyatning sinfiy maqsadlari yo'lida foydalaniladi. Armiyadagi rahbarlik roliga mansub bo'lgan aslzoda quldorlar mashqlarning xalq



orasidagi turlaridan o'zlariga jangchi uchun zarur bo'ladigan sifatlarni kamol toptirish uchun foydalanganlar. Ular maxsus uyushtirilgan jismoniy tarbiya mashqlarida oddiy xalq ommasidan ajratib ko'rsatadigan va bu bilan o'zlarini yuqori to'tadigan jismoniy fazilatlarini kamol toptirishga intilar edilar.

Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zodagon yoshlarni tarbiyalash sistemasi mavjud edi; bu maktablarda otda yurishga va kamonda otishga o'rgatishga alohida e'tibor berar edi. Qadimgi Misrda harbiy zodagon doiralarni maxsus harbiy jismoniy jihatdan tayyorlash, nayza irg'itishga doir mashqlardagina foydalanganligi haqida ba'zi bir ma'lumotlar bor. Jamiyatning toifalarga ajralishi rasm bo'lgan. Qadimgi Hindistonda hukmron sinflar o'rtasida jangchilarning alohida toifasi-kshatriylar paydo bo'lgan. Bu toifa a'zolari yoshlik chog'laridanoq o'zlarining barcha vaqtini harbiy mashqlarda kamol toptirishga sarflab, jangchi bo'lishga o'rgatilgan.

Ayni bir vaqtda qadimgi sharqning mustabid quldor boshliqlari o'zlarining xalq ommasiga bo'lgan hukmdorligi va ta'sirini kengaytirishga intilib, ko'pgina xalq bayramlari an'analaridan keng foydalanganlar; ko'psonli musobaqa o'yinlari, raqslar va xorovodlar bu xalq bayramlarining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Qadimgi Sharq davlatlarining ko'plarida kohinlar toifasi bu ham an'anaviy xalq bayramlarining dastlabki kunlaridanoq quldorlarning sinfiy hukmronligini mustahkamlash quroli bo'lib qolgan. Yangi rasmiy dinga mohirlik bilan muvofiqlashtira bordilar. Bu xalq Qadimgi Misrda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Qadimgi Misrda rasmiy dini ko'psonli xudolarning urf-odatiga bag'ishlangan bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalar o'yinlari va raqslari bilan birga qo'shib olib boriladi. Jismoniy tarbiyaning xalq elementlari asta-sekin yangi diniy marosimlarining tarkibiy qismi bo'lib borib, bu urf-odatlar yordamida xalq ommasi borgan sari ko'proq ideologik vaziyatga solinar edi.

Hukmron quldorlar doirasi xalq mashqlari turlaridan o'z kamoloti va ko'ngil ochishi yo'lida ham keng foydalangan. Quldorlar, bir tomondan, o'zlarining bo'sh vaqtini o'yin, ov turli mashqlar bilan o'tkazar, ikkinchi tomondan o'zlari uchun tomoshalar tashkil qilib, ularda ancha chaqqon, kuchli va epchil ozod jamoalarni ishtirok ettirar edilar. Qadimgi Misr, Eron, Hindiston va Xitoy yodgorliklari o'sha vaqtlarda aslzodalarga qarashli saroylarda tomosha ko'rsatgan darbozlar, jangchilar, o'ynchi va raqqosalar bo'lganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, Qadimgi Sharq quldorlik davlatlarida jismoniy tarbiya elementlarining rivojlanishidagi harakterli xususiyati shundan iboratki, ozod dehqonlar orasida rasm bo‘lib kelingan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq mashqlarining turlari bilan birga, quldor boshqalarning bu jismoniy tarbiya elementlarini o‘z obro‘yi va hukmronligini kuchaytirish uchun o‘zlashtirish hamda foydalanishga bo‘lgan intilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ibtidoiy jamoaning mehnat faoliyatida tug‘ilgan xalq jismoniy tarbiyasi elementlarini quldorlarning ehtiyojlari maqsadlariga moslashib borish jarayonini Qadimgi Gretsiya misolida ko‘rish mumkin.

Urug‘chilik tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining tug‘ilib kelishi Gretsiya tarixining Gomer davri deb ataladigan eng qadimgi davriga to‘g‘ri keladi; bu davr eramizdan avvalgi XII-VIII asrlarni o‘z ichiga oladi.

Bu sinfiy quldorlik jamiyatiga o‘tiladigan davrni harbiy demokratiya deb atashgan. Urug‘chilik tuzumida hukmronlik mavqeini egallashga harakat qilgan urug‘-zodagonlarining ajralishi va yuqori darajaga ko‘tarilishi bu davr uchun harakterlidir.

Odatda, aslzodalar muhitidan urug‘ oqsoqollari-bosileylar ajralib chiqar edi. Shu bilan birga, urug‘ aslzodalarini xalq ommasi bilan hisoblashishga majbur qiladigan eski urug‘chilik muassasalari ham saqlanib qolgan edi. Bu davrda ibtidoiy urug‘chilik jamoasi uchun harakterli bo‘lgan tartiblar hali-ham saqlanib qolgan, bu tartiblarga ko‘ra, har bir katta yoshdagi erkak-ayol bir vaqtda jangchi ham bo‘lar edi. Lekin bu davrga kelib, xalq ichidan chiqqan jangchi bilan urug‘ zadogonlari ichidan chiqqan jangchi orasida farq mavjud bo‘ladi. Zodagon jangchilar o‘z quollarining zebi-ziynatlari va o‘zining yaxshi tayyorgarlik darajasi bilan farq qilib turar edi. Ular qo‘shinda rahbarlik rolini o‘ynashga harakat qilar va harbiy o‘ljaning katta ulushini o‘zlashtirib olar edilar.

Gomerning “Iliada” va “Odisseya” poemalarida o‘sha davrdagi yunonlar hayotining yorqin manzaralari aks ettiriladi, qahramonlar deb ataladigan zodagon jangchilar obrazi chizilib, ularda oddiy xalqdan ajratuvchi jismoniy fazilatlar ta’kidlanadi. Gomer poemalarining qahramonlari halok bo‘lgan, qahramonlar sharafiga yoki qabila hayotidagi biror muhim vaqtni nishonlash sharafiga tashkil etiladigan ko‘pdan-ko‘p musobaqa o‘yinlarida o‘zlarining jismoniy fazilatlarini namoyish etadilar. Bu o‘yinlarda yugurish, nayza, disk uloqtirish, sakrash, kurashish va boshqa mashqlar yuzasidan musobaqalar o‘tkazilar edi.

Shubha yo‘qki, bu o‘yinlar o‘z ildizlari bilan uzoq o‘tmishga borib taqaladi, an’anaviy urug‘chilik yoki qabilachilik bayramlari bilan bog‘langan. Urug‘chilik tuzumining yemirilishi sharoitlarida bu o‘yinlar asta-sekin o‘zining umumurug‘chilik yoki umumqabilachilik ahamiyatini yo‘qota borib, ulug‘ zodagonlarining bayramiga aylanib borgan. Musobaqalarda faqat zodagon jangchilar ishtirok eta boshladi. Musobaqa o‘yinlarida ko‘rsatiladigan tomoshalar zadagon jangchilarni jismoniy kuchayishi fazilatlarini tekshirish va namoyish qilishining o‘ziga xos bir usuli bo‘lib, bu tomoshalar ularni go‘yo xalqdan yuqori darajaga ko‘targanday bo‘lar edi. “Odisseya” poemasida talqin etilishiga, “antlyot” so‘zi o‘sha vaqtda “olijanob qahramon izidan” tushunchalari bilan bog‘langan va “xalq ichida chiqqan odam”, tushunchasiga qarama-qarashi qo‘yilgan. Gomer poemalarida qabilaning oddiy a‘zolari zodagon jangchilarning o‘yinlarida ishtirok etmaydi, chunki ular faqat tomoshabin bo‘lib ko‘rinadi.

Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib Gretsiya hududida urug‘chilik tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining rivojlanishi jarayoni dastlabki davlatlarning tuzilishiga olib keladi. Kuchayib borayotgan quldorlar sinfining hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan birinchi davlatlar paydo bo‘la boshladi.

Urug‘chilik tuzumi harobolarida taraqqiy etgan yunon quldorlik davlatlari harbiy jihatdan uyushgan polislar (shaharlar) harakteriga ega edi. Davlatlarning bunday harakterga ega bo‘lishi qullarni qurolli kuch yordamida itoatgo‘yolikda saqlash ehtiyojidan kelib chiqqan edi. O‘sha vaqtlarda harbiy tayyorgarlik darajasi bilan belgilanar edi. Shuning uchun yunon harbiy-quldorlik polislarida quldorlarni jismoniy jihatdan tarbiyalashga katta e‘tibor berilar edi. Erkin bo‘lib tug‘ilgan har bir erkak quldor harbiy xizmatni o‘tashga majbur edi. Armiya faqat quldorlardan tarkib topib, ular eng muhim qurollardan biriga aylanar edi. Shuning uchun harbiy tayyorgarlik masalalari va u bilan bog‘liq bo‘lgan quldorlarni jismoniy jihatdan tarbiyalash masalasi bu davlatlarning diqqat markazida turar edi.

Turli davlatlarda bo‘lajak jangchilarni tayyorlash uchun maxsus tarbiya sistemalari yaratila boshlanadi. Bu sistemalar asosini jismoniy tarbiya tashkil etar edi. Sparta va Afinada vujudga kelgan tarbiya sistemalari eng harakterli sistemalardan edi. Bu davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida o‘ziga xos tarbiya sistemasining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

## SPARTA SISTEMASI

Sparta doriyliklarning Lakoniyani bosib olish natijasida eramizdan avvalgi IX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Sparta davlati dastlab harbiy jihatdan uyushgan urug'chilik ittifoqi harakteriga ega edi. Sparta bu ittifoqning ko'pgina xususiyatlarini deyarli butun tarixi davomida saqlab kelgan. Bosib olingan mahalliy aholi bosqinchilar-doriyliklar tomonidan juda qattiq ekspluatsiya qilish ob'ektiga aylanadi. Mahalliy aholi bosqinchilarni barcha qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'minlashga majbur edi; harbiy jamoalarga uyushgan bosqinchilarning o'zlari esa faqat harbiy ish bilan band edilar. O'z zamonlariga qarshi tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turadigan pedonomlar va iloatlar ommasi ustidan hokimlikni qo'llab-quvvatlash zarurligi spartaliklarni doim jangovar holatda turishga majbur qiladi va jamoaning shunga muvofiq harbiy lager va uyushmasining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Spartaning 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan har bir fuqarosi armiya safida bo'lar, buning ustiga ko'p vaqtini oilasidan uzoqda, har kuni biror ma'lum bo'linmaning jangchilari yig'iladigan jamoat oshxonalarida (sissitiyalarda) o'tkazishga majbur bo'lar edi. Harbiylarning lager hayotida o'ziga xos tarbiya sistemasi ham rivojlanib borar edi.

Spartaliklar tarbiya sohasida o'z e'tiborini asosan kuchlilik, chidamlilik va epchillikning o'sishiga qaratar edilar, chunki spartaliklarning qurollanish harakteri va taktikasi shuni talab qilar edi. Tarbiya maqsadi bo'lajak jangchilar hamjihatligini, kuchini va chidamliligini ta'minlaydigan jismoniy fazilatlarini kamol toptirishdan iboratdir. Spartada tarbiya masalalariga katta e'tibor berilar edi. Go'dakning tug'ilgan kunidan boshlab uning hayoti davlat nazorati ostida bo'lar edi. Plutarxning aytishiga qaraganda, biror jismoniy kamchilik bilan tug'ilgan bolalarni o'ldirganlar, so'ngra esa maxsus tashkil qilingan ijtimoiy internat uylarida o'qitganlar. 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar jamoat uylarida yashab ular asosan jismoniy tarbiya olar edilar. Ularni jismoniy mashqlar (yugurish, kurash, irg'itish, sakrash va boshqalar) yordamida har qanday qiyinchiliklarni yengishga o'rgatar, o'z kuchlari va chidamliliklarini o'stirar edi. Ularning murabbiylari va rahbarlari davlat tomonidan belgilanadigan pedonomlar edi. Har yili shu yoshdagi guruhga kiruvchi bolalar uchun sinov (uy) lar tashkil etilib, bu sinovlarda o'g'il bolalar o'zlarining jismoniy fazilatlarini rivojlantirish borasida bir yil ichida erishgan natijalarini namoyish qilar edilar. 14 yoshga yetgan o'smirlar uchun sinov yili deb ataluvchi alohida yil

belgilanar edi; bu o'smirlar qurol olar, maxsus otryadlarga guruhlanar va o'z murabbiylari rahbarligida politsiya xizmati va harbiy xizmatni o'tar edilar. Bu sinov yili davomida ular tungi yugurishlar uyushtirar edilar, bunday tungi yugurishlar vaqtida ularga yo'lda uchragan har bir ilotni o'ldirishga, ilotlarning qishloqlariga xujum qilishga, bu qishloqlarni vayron qilib tashlashga huquq berilgan edi. Bu yurishlar ilotlarni qo'rqitish va yosh spartaliklarni yurish vaqtidagi jangovor holatiga, ilotlarning qo'zg'olonlarini bostirishga o'rgatish maqsadida uyushtirilar edi.

Sinov yil tugashi bilan o'smirlar eyrenlar razryadiga o'tkazilar edi. Eyrenlar (15 yoshdan 20yoshgacha bo'lgan yigitlar) sistemali jismoniy tayyorgarlik bilan shug'ullanar va ayni bir vaqtda kichik yoshdagi o'g'il bolalarni tarbiyalashda pedonomlarga amaliy yordam ko'rsatar edilar.

Yosh spartalik 20 yoshga to'lishi bilan yana sinovdan o'tar va ediblar razryadiga o'tkazilib, ular qatorida 30 yoshgacha bo'lar edi. Ediblar kuyishlar sostaviga kiritilar, yugurishlarda qatnashar edilar. Ular muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar, o'zlarida askar uchun zarur bo'lgan fazilatlarni tarkib toptirar edilar.

Spartalik yoshlarning erkaklar jismoniy tarbiyasining qattiqligi spartalik qizlarning ham qattiq tabiyasiga muvofiq kelar edi. Qizlar yigitlar bilan bir qatorda jamoat bayramlarida ishtirok etib, musobaqa va raqslarga qatnashar edilar: yugurish, sakrash, irg'itish va hatto kurashishga doir mashqlar bilan ko'proq shug'ullanar edilar. Qadimgi manbalarning ko'rsatishicha, qizlarni bunday tabiyalashdan maqsad "Bu qizlardan tug'iladigan bolalarning baquvvat va kuchli bo'lishi uchun ularning tanasini baquvvat qilishdan iboratdir".

Quldorlarning Afinada vujudga kelgan tarbiya sistemasi Spartadagi qattiq, bir tomonlama tarbiya sistemasidan (bu yerda aqliy ta'limga e'tibor berishar edi) farq qiladi.

## **AFINA SISTEMASI**

Afina davlatlari ham, xuddi Sparta singari, harbiy quldorlik polislari harakterida edi. Shu bilan bir vaqtda bu davlatlar konservativ – dehqonchilik orqali Spartadan savdo – sotiq va hunarmandchilik taraqqiyotining yuksak darajasi hamda qullar mehnatining uyushganligi bilan farq qililar edi. Qullar mehnatining o'sishi Afina davlatlaridan erkin fuqarolar (quldorlar)ning mulkiy tabaqalanishiga sabab bo'ladi, bu xol Solonning (eramizdan avvalgi 594 yil) Afina jamiyatining sinflarga ajralishi to'g'risidagi qonunlarida o'z ifodasini topdi. Harbiy quldorlik

polisining harakteriga muvofiq, quldorlik jamoasining barcha a'zolari harbiy xizmat o'tishi lozim bo'lgan. Solon qonuniga ko'ra, tamomila mulkka ega bo'lmay, to'rtinchi sinfga ajratilgan fuqarolar harbiy xizmatdan ozod qilingan. Erkin bo'lib tug'ilgan kishilar ommasining armiyaga jalb etilishi davlat tuzilishining o'ziga xosligi bo'lib, bu davlat tuzilishida harbiy majburiyatni o'taydigan demosning barcha tabaqalari huquqlaridan foydalanar edilar.

Afina iqtisodiy qudratining o'sishi sharoitida madaniyatning barcha sohalari ravnaq topdi, buning natijasida Afina davlatlari Gretsiyaning madaniy hayotida asosiy mavqeni egalladi. Afina davlatining bu xususiyatlari bu yerda tarkib topgan tarbiya sistemasida ham o'z ifodasini topdi. Afina tarbiyasining maqsadi ham, huddi Spartadagi singari jangchi qullarni tayyorlashdan iborat edi. Biroq Afina qo'shinlari spartaliklardan farq qilib og'ir qurol-aslaha bilan qurollangan piyoda askarlardangina emas, balki falinga safidan tashqarida harakat qiladigan yengil qurollangan piyoda askarlardan ham iborat edi.

Afinaning yuksak iqtisodiy va madaniy rivojlanish sharoitlarida jangchini tayyorlash maqsadiga jismoniy tarbiyadagina emas, balki ham aqlan, ham estetik tarbiyadan keng foydalanish yo'li bilan erishgan edi, afinaliklarning o'zlarining guvohlik berishicha, jangchini tayyorlash "tashqi va ichki go'zallikka" erishishdan dalolat edi. Bu o'rinda ichki go'zallik tushunchasi quldorlik davlati fuqarosi zimmasiga yuklanadigan majburiyatlarni bajarish mahorati va qobiliyatini anglatadi.

Afinadagi o'g'il bolalar 7 yoshgacha uyda tarbiyalanar edi. Uy tarbiyasining asosiy vazifasi turli o'yinlar yordamida bolani jismoniy jihatdan chiniqtirishdan iborat edi. Bolalar 7 yoshdan 14-16 yoshgacha xususiy maktablarda o'qitilar edi. Musiqiy maktablarda bolalar savod, musiqa va ashula, gimnastika maktablarida (polestrada) jismoniy mashqlar o'rganar edi. Polestrada jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi sifatida yunonlarning besh kurash musobaqasi; yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish hamda kurashishdan foydalanar edi. Polestralarning asosiy maqsadi jismoniy jihatdan tayyorlash, jangchiga zarur bo'lgan, mardlik va qat'iy irodani tarbiyalashdan iboratdir; shu bilan ayni bir vaqtda polestralar o'z oldiga hushbichim gavgdani tarkib toptirish, epchil va chiroyli harakatlarni hosil qilish vazifasini ham qo'yar edi.

Lunianning so'zlariga ko'ra, gimnastika mashqlari natijasida "yigitlar o'z bilimlarini jangda qo'llashga majbur bo'lganlarida, kutilmaganda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni hosil qiladilar", polestralar esa shu maqsadda "eng yaxshi mashqlardan foydalanshib, yalong'och

a'zoyu badanlarini chiniqtirar, uni sog'lom, baquvvat, chaqqon, hushbichim va dushman zarbiga chidamli qilar" edilar.

Polestralarga pedotriblar ta'lim berar; ular mashqlarning barcha turlari yuzasidan mashg'ulotlar o'tkazar edilar; lekin har bir pedotrib unchalik ko'p bo'lmagan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazardi.

Quldor yigitlar 14-16 yoshidan 18 yoshgacha gimnaziyalarda ta'lim olar edi. Bu masalalar birinchi navbatda yoshlarni gimnastika sohasida kamol toptirishga mo'ljallangan edi. Bu yerda ta'lim oluvchilarga ancha malakali rahbarlar boshchilik qilar edi. Har bir pedotrib mashqlarning barcha turlari yuzasidan mashg'ulotlar o'tkazadigan polestralardan farqli ravishda gimnaziyalardagi pedotriblar mashqlarning ayrim turlari bo'yicha mutaxassis edi. Pedotriblarning ishiga meditsinaga doir ayrim bilimlardan xabardor bo'lgan gimnastikachilar rahbarlik qilardilar. Aristotelning so'ziga ko'ra, gimnastikachilar o'g'il bolalar organizmini tegishli holatga keltirishlari, pedotriblar esa ularni gimnastika mashg'ulotlari bilan rivojlantirishi lozim bo'lgan.

Afinadagi quldorlar yoshlarni tarbiyalashning oxirgi bosqichi efebiya - o'ziga xos harbiy tashkilot bo'lib, bu tashkilotga birinchi (ancho badavlat) uch sinflardan ikki yil muddat bilan (18 yoshdan 20yoshgacha) yigitlar kiritilar edi. Efebiyada qilichbozlikka, yoydan otishga, nayzabozlikni, nayza va disk uloqtirishga va manjaniqdan otishga o'rgatadigan o'qituvchilar ta'lim berar edi. Birinchi yil davomida efeblar gimnaziya bilan aloqasini uzmaguncha qatnashib turar va o'zining umumiy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirib borar edi. Shu bilan aynan bir vaqtda ular otda yurishni, qo'sh g'ildirakli aravada yurishni, suvda suzishni va hokazolarni mashq qilar edilar. Efebiyada ta'lim olishning ikkinchi yilini boshlarida yosh jangchilar o'zlarining bir yillik harbiy tayyorgarlik sohasida olgan bilimlarini xalq oldida namoyish qilar edilar; shundan keyin ularga qalqon va nayza berib, harbiy xizmatini o'tish uchun chegardosh gornizonlarga jo'natishar edilar. Yosh afinalikni tarbiyalash shu bilan tugalanar edi. Lekin keyinchalik ham, katta yoshga kirib qolgan chog'larida ham afinaliklar o'z jismoniy tayyorgarligini saqlab turishi va rivojlanib borishi to'g'risida g'amxo'rlik qilganlar. Ular odatda ertalabdan kechgacha ochiq bo'lgan gimnaziyalarga tez-tez kelib turishar va bu yerda yoshlarning mashg'ulotlarini tomosha qilib qolmasdan, mashqlarda o'zlari ham qatnashar edi.

## ANITIK GIMNASTIKA

Qadimgi Gretsiyaning jismoniy tarbiya sistemasida “gimnastika” degan umumiyashtirilgan jismoniy mashqlar shaklidagi juda ko‘p vositalardan foydalanilgan. Qadimgi yunon gimnastikasi o‘z mazmuniga ko‘ra uch qismga: polestrina, orxestrika va o‘yinlarga ajratilgan.

Polestrina asosan yugurish, sakrash, nayza va disk uloqtirish hamda kurashishdan iborat bo‘lgan besh kurash musobaqasini tashkil etar edi. Yugurishning turli turlaridan foydalanilar edi: stadiodrom-birinchi bosqichdagi masofaga yugurish (192m); diaul- ikkinchi bosqichdagi masofaga yugurshi (qariyb 384m); dolixodrom-chidamli bo‘lish uchun uzoq masofalarga yugurish; odatda, ikkinchi bosqichda o‘tkaziladigan qurollangan holda (nayza va qalqonlarni qo‘lga olib, shlyom va sovutni kiygan holda) yugurish; mash’ala ko‘tarib yugurish. Lukianning ko‘rsatishicha, mashqlar “qattiq yerda emas, balki chuqur qumloq joyda” o‘tkazilgan yugurishda g‘oyat chidamli bo‘lishi yunon yuguruvchilari uchun harakterli bo‘lgan. Buning yorqin misoli shuki, eramizdan avvalgi 490 yil Marafon ostonasida eronliklar bilan bo‘lgan qattiq jangdan keyin bir jangchi g‘alaba xabarini yetkazganligi uchun jang maydonidan Afinagacha (42 kmdan ziyodroq yo‘l bosib) yugurib kelgan.

Sakrash mashqlaridan uzunlikka sakrash ko‘proq qo‘llanilgan. Xandaqlardan va boshqa to‘siqlardan sakrash katta amaliy ahamiyatga ega edi. Musobaqalarda ko‘pincha qo‘lga gontellar ushlab sakrash mashqlari ko‘proq bajarilgan.

Nayza uloqtirish mashqi harbiy ish bilan bevosita aloqador bo‘lgan. Nayzani ma’lum nishonga va masofaga uloqtirganlar.

Disk uloqtirish tosh otishdan kelib chiqqan qadimgi mashq bo‘lib, u ham harbiy amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Toshdan yoki metaldan diskalarning og‘irligi 1.7 kg dan 4.7 kg gacha, dinometri esa 14 sm dan 21 sm gacha bo‘lgan.

Kurash mashqlari ikki xil variantda bo‘lgan. Birinchi variant shundan iboratki, unda qaysi kurashchi o‘z oyoqlarini yerdan uzmaganda holda raqibini uch marta yerga ko‘tarib ursa, u g‘olib hisoblangan. Kurashning ikkinchi variantida raqibning yelkasini yerga tekizish maqsadida turli holatlarda kurashilgan.

Bu asosiy mashqlardan tashqari polestrina tarkibiga mushtlashish va pankrition ham kiritilgan. Pankrition murakkab mashq bo‘lib, unda kurash va mushlashish elementlari qo‘shilgan. Suzish, qilichbozlik, otda yurish, yoydan otish ham polestrina tarkibiga kirgan.



Orxestrika nafis harakatlarni rivojlantirish uchun bajariladigan turli mashqlardan iborat bo'lgan. Bu mashqlar Gretsiyada diniy-urf-odatlar va ommaviy takomillar vaqtida katta rol o'ynab kelgan. Ko'p sonli raqslar ham orxestrikaning tarkibiga kirgan.

O'yinlar ko'pincha bolalar bilan o'tkaziladigan mashqlar vaqtida foydalanilgan gimnastika qismini tashkil qilgan. Koptok bilan o'ynaladigan juda ko'p o'yinlar, bir-biri bilan arqon tortishuv o'yinlari, muvozanatni saqlash o'yinlari, yugurib o'ynaladigan o'yinlar (tutmachocq o'yini singari va hokazolar) ana shunday o'yinlar jumlasiga kirgan.

## **OLIMPIADA O'YINLARI**

Olimpiada o'yinlari qadimgi yunon jismoniy tarbiyasi taraqqiyotini harakterlovchi yorqin palla bo'ladi. Bu o'yinlar Olimpiada Zevsi sharafiga o'tkaziladigan bayramlar bilan bog'liq bo'lgan. Hujjatlarga asoslangan ma'lumotlar bu bayramlarning boshlanishi eramizdan avvalgi 776 yilga to'g'ri keladi, deb ko'rsatadi. Biroq ularning haqiqatda vudujga kelgan yilini ancha ilgari davrlarga bog'lash lozim bo'lsa kerak.

Eramizdan avvalgi 776 yilni bu bayramni yunonlar bayrami sifatida tan olingan yil deb hisoblash lozim. Afsonada shu yili Olimpiada bayrami o'tkazilishi ikki yunon davlati –Elida va Sparta davlatlari o'rtasida tinchlik o'rnatilishi bilan bog'lanadi. O'yinlar o'tkaziladigan vaqtda butun Gretsiya bo'ylab muqaddas tinchlik e'lon qilinadi.

Olimpia bayrami o'yinlari dastlab bir kun o'tkazilar edi. Eramizdan avvalgi V asrga kelib, bu bayramlar 5 kun davom etadigan katta tantanaga aylanib ketdi. Bu bayram vujudga kelgan paytda diniy bayram edi, lekin uning asosiy mazmunini atletika musobaqalari tashkil etardi. Olimpiada musobaqalarining eng qadimgi turi 1-bosqichga (qariyb 192m) yugurishdan iborat edi. 14-o'yinlardan boshlab, musobaqa dasturiga 2-bosqich chopish, 15-Olimpiada o'yinlaridan boshlab chidamliligini sinash uchun yugurish kiritiladi. 18-o'yinlardan boshlab, musobaqa besh kurash musobaqasi bilan to'ldirilib, bu musobaqa keyinchalik bayramning markaziy qismi bo'lib qoldi. Bu vaqtlarda musobaqalar dasturiga kurash kiritilgan edi. Bir muncha keyinroq mushtlashish, qo'sh g'ildirakli aravada yurish va pankration (mushlashish bilan kurashning birlashuvi) qo'shildi.

Grajdan (fuqaro) huquqlaridan faqat erkin yunonlar-quldorlar foydalana olgan harbiy-quldorlik davlatlarining xususiyatlariga asoslanib, Olimpia o'yinlariga faqat erkin bo'lib tug'ilgan grajdanlargina

(fuqarolargina) qatnashtirar edilar. Qullar va var-varlar (boshqa yurt odamlari) ning o‘yinlarda qatnashuvi qat’iyan man etilar edi. Olimpia qoidalari xotin-qizlarning ham Olimpia o‘yinlarida ishtirok etishlariga yo‘l qo‘ymas edi.

Buning ustiga xotinlarning hatto musobaqalarni tomosha qilishlari ham man etilar edi.

Dastlabki vaqtda o‘yinlarda harbiy majburiyatlarini o‘tagan katta yoshdagi yunonlarga qatnashar edi. 37-o‘yinlardan boshlab o‘yinlarda bolalar qatnasha boshladi. Bolalarning chiqishlari uchun bayram paytlarida alohida kun ajratilar edi.

O‘yinlarga ellan odillar (hakamlar) rahbarlik qilar edi; ular Elida fuqoralari orasida o‘yinlar boshlanishidan bir yil oldin chek tashlash asosida (9 kishidan 19 kishigacha) saylanar edilar. Ellanodiklarning vazifasi musobaqalar joyini tayyorlashdan, musobaqa qatnashuvchilarini tanlashdan, musobaqalarning borishini kuzatib turishdan va nihoyat musobaqalarda g‘olib chiqqanlarga mukofotlar berishdan iborat bo‘lgan.

Asosiy mukofot - muqaddas zaytun daraxti novdasidan qilingan gulchambar, beshkurash musobaqasida g‘olib kelgan kishiga berilar edi. Ko‘pincha navbatdagi o‘yinlargacha bo‘lgan to‘rt yillik davr ana shu g‘olibning nomi bilan atalar edi.

Yilning birinchi kuz oyida Olimpiadada Zevs xudosining xotiniga bag‘ishlangan, Geriada musobaqasi o‘tkazildi. Bu musobaqa Olimpia miqyosida va ulug‘vorligi bo‘yicha bir muncha past keladi. Geriadada o‘tkaziladigan musobaqalarda asosan, Sparta va qo‘shnilar bilan Olimpiada shaharlarining qizlari qatnashdilar. G‘oliblar zaytun daraxti novdasidan qilingan gulchambar bilan mukofotlanganlar va o‘zlarining skulptorli tasvirlarini ibodatxonaga qo‘yish huquqiga ega bo‘ladilar.

Sitsiliyalik tarixchi Tiliy eramizdan avvalgi III asrda Olimpiada bo‘yicha umumiy Gretsiya hisobini joriy qildi.

Musobaqalashishning eng ko‘p tarqalgan turi stadionning uzunligiga teng bo‘lgan, yugurish musobaqasidir. Olimpia stadioni eng katta bo‘lib, u 192 m 27 sm ga teng bo‘lgan. Delfa, Istme va Neame stadionlarining kattaligi Olimpiada stadionidan kichik bo‘lgan. Bitta stadiongga yugurish g‘olibning ismi berilgan va keyingi to‘rt yil davomida g‘olib bo‘lib qolgan. 18-Olimpia o‘yinlaridan (eramizdan avvalgi 708 y) keyin o‘yin musobaqalari dasturiga umum-yunon bayramlariga kurash, pentalon, pankrition va ot aravada o‘tkaziladigan musobaqalar kiritildi. Eramizdan avvalgi 632 yildan boshlab 20 yoshdan kichik bo‘lgan o‘smirlarni (37-Olimpiadadan) musobaqalarda qatnashishiga ruxsat etildi, uning davom

etishi 3 kunga uzaytirildi, bayramlar bilan birga qo‘shganda 5 kunni tashkil etadi.

Radoslik mashhur sportchi Leonidis stadionda (eramizdan avvalgi 164-152y) 2 stadiona yugurishda va ekinirovkali yugurishda 12 marta g‘alabaga erishdi. U uch karra “doirada” to‘rt marta g‘oliblikka erishdi. Bu “doirada” Olimpia musobaqalari g‘olibligidan tashqari. Pifia, Istimia va Nemey o‘yinlarida g‘olib chiqqanliklari ham kiradi. O‘yinlarda tarixchi Gerodot, yozuvchi Lukian, faylasuf Suqrot, notiq Demosfen, matematik Pifagorlar ham qatnashdilar. 84-Olimpia o‘yinlaridan boshlab (eramizdan avvalgi 444 y), san‘at konkursleri Olimpia musobaqalari dasturining bir qismi bo‘lib qoladi.

Umumyunion Olimpia o‘yinlari bilan bir qatorda Gretsiyaning ko‘pgina shaharlarida kichikroq ko‘lamdagi o‘yinlar ham o‘tkazilar edi. Lekin bu o‘yinlar ham quldorlik davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynar edi. Bu o‘yinlarning hammasi u yoki bu polis ichidagi quldorlarning jipslashuviga erishishga qaratilgan bo‘lib, ayni bir vaqtda ularning harbiy qudratini ham namoyish qilar edi. Mahalliy o‘yinlar qatorida istmiyliklar, pakafiyliklar, pifeyliklar, nemeyliklar va boshqalarning o‘yinlari ajralib turar edi.

Gretsiyada umumyunion va mahalliy o‘yinlarni o‘tkazish uchun juda ko‘p sonli stadionlar bor edi. Qazilmalar vaqtida Olimpiada, Delfada, Pareyada, Maletda va bir qancha boshqa joylarda stadionlarning qoldig‘i topilgan.

## **QULDORLIK. GRETSIYANING TUSHKUNLIKKA YUZ TUTISHI DAVRIDA JISMONIY TARBIYA**

Eramizdan avvalgi V asr oxiridayoq Gretsiyada quldorlik jamiyatining chirib borayotganligini ko‘rsatuvchi alomatlar yaqqol ko‘rinib qoldi. Afina davlatlarining mag‘lubiyati va Spartaning yuqori darajaga ko‘tarilishi bilan tugagan Pelopones urushi (eramizdan avvalgi 431-404 yillar) tanazzul jarayonini tezlashtirdi va ijtimoiy – siyosiy hayotida keskin o‘zgarishlarga olib keladi. Urush natijasida savdo – sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik tanazzuli va urushni yuzaga keltirgan non va yer bilan o‘zboshimchalarcha savdogarlik qilish quldorlar o‘rtasida mulkiy tabaqalanish jarayonini haddan tashqari kuchaytirib yubordi. Quldorlik davlati va uning armiyasi asosini tashkil etgan o‘rta hol va mayda quldorlar jadal sur‘atda parletariatga aylana boshladi. Davlat endi o‘z armiyasini ko‘pchilikdan tuziladigan qo‘shin bilan to‘ldirishdan iborat eski

prinsipni saqlab qolishga qodir bo'lishi, yonlanma armiyaga o'tishga majbur bo'ladi. Yollanmachilikning vujudga kelishi, jismoniy tarbiya sistemasi ahvoriga ta'sir etmay qolmadi. Harbiy ishdan ketgan quldorlar uchun jismoniy tarbiya shu vaqtgacha namoyon bo'lib kelgan shaklidan o'z amaliy ahamiyatini yo'qotdi. Harbiy zarurat tufayli tarbiyaning oldingi qattiqqo'lligi borgan sari zaiflashib bordi. Yuqori martabaga erishgan boy quldor boshliqlar mo'l-ko'lchilikka qo'shilib ketib, tarbiya ishiga tor estetizm, tantiqlik elementlarini borgan sari ko'proq kirita boshladi. Zodagonlar kuch, epchillik va chidamlilikni o'stirish uchun bajariladigan mashqlar o'rniga borgan sari ko'proq kishini nozik tabiatli qilib tarbiyalaydigan turli rasm-marosimlarga odatlana boshladi. Quldorlar tarbiyasining asosiy sistemasida jismoniy tarbiya emas, balki mohir notiqni tayyorlash bosh rol o'ynay boshladi. Quldorlik jamiyati tushkunligi boshlanganligining shohidi bo'lgan o'sha davrning eng yirik filosofi Plonton bu tarbiyani tiklash yo'llarini izlashga harakat qildi. U tushkunlikka tushish sabablaridan birini tarbiya harakterining o'zgarishida ko'rdi va tarbiyaning eski sistemasini, ayniqsa, spartaliklar sistemasini tiklash uchun jonbozlik ko'rsatdi.

Quldorlarning harbiy ishdan uzoqlashishi va shu bilan bog'liq ravishda eski jismoniy tarbiya sistemasining tushkunlikka tushishi musobaqa o'yinlarida o'z ichiga oladigan an'anaviy bayramlar harakteriga ta'sir etmay qolmadi. Bu o'yinlar, ayniqsa, Olimpia o'yinlari butun Gretsiyada juda ommalashib kelmoqda edi, lekin ularning harakteri va qatnashuvchilarining tarkibi asta-sekin o'zgarib bordi. Har jihatdan sistemali jismoniy tarbiya olmaydigan quldorlar endi o'z muhitlaridan yetarli darajada tayyorlangan musobaqa ishtirokchilarini ajratishga qodir emas edilar. Musobaqa qatnashuvchilari o'rtasida boshqa yurt odamlari, ozod qilingan qullar, qashshoqlashgan quldorlar paydo bo'la boshladi, ular uchun musobaqalarda qatnashish bir kasbga, tirikchilik o'tkazish vositasiga aylanib qoldi.

Professional atletlar quldorlik Gretsiyasining gullab-yashnash davridagi quldor atletlaridan farq qilib, mashqlarning biror xil turini mashq qilar va musobaqalarda qatnashar edi. Buning natijasida Olimpia o'yinlari dasturidan o'tmishda Olimpia musobaqalarining turi bo'lib kelgan besh kurash musobaqasi yo'q bo'lib ketdi. Olimpia o'yinlarining harakteri ham o'zgardi. Ular traditsion, tarixan tarkib topgan umumyunon bayramlaridan hukmron aslzodalarning o'z maqsadlari yo'lida foydalanadigan tomoshalariga aylanib qoldi.

Quldorlik Gretsiyasi eramizdan avvalgi 146-yilda Rim saltanatiga yo‘liqib, mustaqil ravishda yashamay qo‘ydi, lekin Olimpia o‘yinlari uzoq vaqtlar davomida yashab keldi. Bu o‘yinlar eramizning 394-yilda Vizantiya imperatori Feodosiy I tomonidan taqiqlangan edi.

## **QADIMGI RIMDA VA SHOHLAR DAVRIDA JISMONIY TARBIYA**

Rimning vujudga kelishi eramizdan avvalgi 754-yilga (yoki 753-yilga) to‘g‘ri keladi. Rim davlati o‘zining dastlabki uch asri (eramizdan avvalgi VIII-VI asrlar), shohlar davri deb ataladigan davr mobaynida Rim jamiyati urug‘chilik tuzumining chirib borishi va pariarxat quldorlik munosabatlarining rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi.

Shohlar davrida harbiy demokratiya sharoitida harbiy ish bilan bog‘langan va o‘z ildizlari bilan urug‘chilik tuzumi taraqqiyoti davridagi an‘anaviy xalq o‘yinlari va bayramlariga borib taqaladigan ko‘pgina jismoniy tarbiya elementlari keng rivoj topdi. Qadimgi Rim yodgorliklari, rimliklar o‘rtasida harbiy yo‘nalish yaqqol ifodalangan ko‘p sonli bayramlar, o‘yinlar va raqslarning tarqalganligi to‘g‘risida ko‘pgina dalillar bo‘ldi. Suvoriylarning kelib chiqishi chalkashib ketgan labirant yo‘llarida musobaqa o‘tkazishidan iborat bo‘lgan troya o‘yinlari Qadimgi Rim uchun harakterli bo‘lgan o‘yinlardandir. Bu o‘yin urush vaqtida odatda otliqlar otryadli tashkil etadigan rim urug‘chilik zodagonlari (partitsiyalar) uchun, ayniqsa, harakterli edi. Qo‘sh g‘ildirakli aravada yurish, ko‘p sonli harbiy raqslar, nayza uloqtirish, mushtlashish, kurash va boshqa mashqlar ham keng tarqalgan edi. Jismoniy tarbiyaning qadimgi elementlari quldorlik Rimdagi harbiy jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos sistemasining asosini tashkil etar edi.

Rimda jismoniy tarbiya sistemasi quldorlar armiyasi qudratini mustahkamlash vazifalariga muvofiq ravishda qaror topdi. Rim respublika davrida qaror topgan siyosiy tuzumida, ijtimoiy hokimyat harbiy hukumatini o‘tishiga majbur bo‘lgan fuqoralar qo‘lida bo‘lgan bir sharoitda har bir erkin va teng huquqli rimlik o‘zini askarlik faoliyatiga tayyorlashi kerak edi. Bu vazifalarning xalq etilishi uchun maxsus tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Qadimgi Gretsiyadan farqli ravishda Rimda tarbiya ishi uyda beriladigan tarbiyaviy harakterga ega edi. Rimlik yigitlar armiya safiga kirguncha oilada, o‘z tengdoshlari orasida bo‘lar edi. Ko‘p sonli eski xalq o‘yinlari va mashqlari ularni jismoniy jihatdan tarbiyalash vositalari edi. Katta yoshdagi bolalar asosan yugurish, irg‘itish, kurash,

qilichbozlikdan mashq qilar edilar. Patritsiylar oilasidan chiqqan bolalar otda yurishini mashq qilishga ko'p vaqt ajratar edilar.

Rimlik yigitlar oilada dastlabki jismoniy tayyorgarlikni yetarli darajada olganliklaridan keyin 16-17 yoshlarda armiya safiga kirar edilar. Armiya safida ular uzoq yillar davomida qa'tiy paxodlagerlar sharoitida uyushtirilgan va maxsus maqsadga yo'naltirilgan harbiy va jismoniy maktabni o'tar edilar.

Bunday tarbiya sistemasi Rimda eramizdan avvalgi II asrgacha Mariya islohoti bilan professional armiyaga asos solingan davrgacha saqlanib qoldi. Jismoniy mashqlar, o'yinlar, musobaqalar qadimgi rimliklarning butun hayotiga singib ketgan edi. To'p bilan o'ynaladigan turli o'yinlar g'oyat darajada ommalashgan edi. Unday o'yinlar ham patritsian –aslzodalar orasida ham, plebslar orasida ham tarqalgan edi.

Rimliklar hayotida rim tarixining mashhur sanalariga va turli diniy bayramlariga moslab o'tkazilgan ko'p sonli jamoat o'yinlari katta o'rin tutar edi. Rimda jamoat o'yinlarini o'tkazish uchun eramizdan avvalgi IV asrdayoq podsho Trakvinii Prisk tomonidan katta sirk qurilgan edi. Keyinroq eramizdan avvalgi asrda ikkinchi sirk Flaminitlar sirki qurildi.

Rim o'yinlari patritsian aslzodalarning bayrami hisoblangan eng qadimgi o'yinlari eng ommalashgan sirk o'yinlari qatoriga kirar edi. Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab respublika o'rnatilgandan keyin plebey o'yinlari keng tarqaldi. Eramizdan avvalgi V asrdan boshlab uch kechayu uch kunduz davom etgan, yuz ellik o'yinlar zo'r dabdaba bilan o'tkazila boshlandi. Bu o'yinlarni Valeriy Noplikoloyu yaratgan bo'lib yuz yilda bir marta uyushtirilar edi.

Bu o'yinlar dasturiga musobaqalarning ko'pgina turlari kirar edi. Otliqlar musobaqalari va qo'l g'ildirakli aravada chopish eng sevimli o'yinlardan biri edi. Ko'pgina o'yinlar dasturiga kurashchilar, yuguruvchilar, mushtlashuvchilarning musobaqalarini ham kiritdilar.

Vaqt o'tishi bilan, Gretsiya bilan ancha mustahkam aloqalar o'rnatilgach Rimga yunonlarning ta'sirlari kirib kela boshladi. Bu ta'sirlar ma'lum darajada jismoniy tarbiyaga ham aloqador edi. Eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Rimdagi bir qator siyosiy va jamoat arboblari yunon atletika musobaqalarini rimliklar sharoitiga ko'chirishga harakat qilib ko'rdilar. Lekin ularning bu harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqdi. Eramizdan avvalgi 80 – yillarda, Gretsiyaning Rim tomonidan bosib olinishi bilanoq konsul Sulli yunon Olimpia o'yinlarini Rimga ko'chirishga urinib ko'rdi. Uning buyrug'iga muvofiq, 175-Olimpia o'yinlari Rimda o'tkazilishi kerak edi. Lekin bu urinish ham rimliklar tomonidan quvvatlanmadi,

shuning uchun navbatdagi Olimpia o'yinlari (eramizdan avvalgi 76-yilda) qaytadan Olimpiadada o'tkazildi.

Yunon musobaqalarini Rim sharoitiga o'tkazish uchun urinishlarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga sabab shuki, ko'pgina rimliklar o'rtasida yunon gimnastikasiga nisbatan yomon munosabat ildiz otgan edi. Ular yunon gimnastikasining amaliy foydasini ko'rmadilar. Gretsiyada qaror topgan atletika musobaqalariga esa yoshlarni yo'ldan ozdirish xavfi bor deb qarar edilar.

Davrlar o'tishi bilan, ayniqsa, eramizdan avvalgi II-I asrlarga kelib, ko'pgina jamoat bayramlarida qadimgi Rim an'anaviy o'yinlari asta-sekin o'zlarining dastlabki ahamiyatini yo'qotib, hukmron aslzodalar to'dasi tomonidan o'zining sinfiy maqsadlari yo'lida keng foydalanadigan tomoshalarga aylanib ketdi. An'anaviy jamoat bayramlari va o'yinlarining bunday tomoshaga aylanib ketish jarayoni respublika davridagi Rimning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Butun Rim tarixi patritsiylar va plebeylar o'rtasidagi lavozimlarda o'tirish va davlat yerlarini egalash uchun olib borgan kurash bilan to'lib-toshgan edi. Bu kurash natijasida patritsiy aslzodalar harbiy xizmat tufayli qashshoqlashib ketgan plebey-dehqonlarning barcha yerlarini asta-sekin egallab olgan, yangi yirik yer egalari borgan sari ko'proq kirib borar edi.

Mayda yer egalari ommasi yil sayin ko'payib borayotgan lyupen-proletarlarga aylanardi. Eramizdan avvalgi II asrdayoq proletariotga aylangan kishilarning katta olomoni Rim shaharlarini to'ldirib yuborgan edi. Hokimiyat uchun kurash olib borayotgan hukmron aslzodalarning turli guruhlari proletarlashgan, o'z sinfidan tamomila aloqasini uzgan, bu ommadan o'z maqsadlariga erishish yo'lida foydalanishga harakat qiladilar. Ular sadaqa berish va hushomadgo'ylik qilish yo'li bilan siyosiy kurashda ommani o'zlariga jalb etishga erishar edilar. Eski an'anaviy jamoa bayramlari asosida ommaga tantanali tomoshalar tashkil etish ommasiga hushomadgo'ylik etish shakllaridan biri edi.

Tomoshani tashkil etuvchilar tomoshalarni uyushtirish vaqtida an'anaviy qadimgi rim o'yinlari dasturi bilangina cheklanib qolmasdan, tomoshalarning yangi, ancha o'tkir elementlarini, bebosh olomonning diqqatiga jalb etadigan elementlarni topishga harakat qilar edilar. Eramizdan avvalgi II asrda vujudga kelgan ancha yaqqol yangi o'yinlardan biri gladiatorlar jangi bo'lib, keyinchalik u Rim tomoshalarining asosiy elementlaridan biriga aylanib qoldi. Dastlabki vaqtlarda bayram kunlari ayrim gladiatorlar sirk maydonlarida chiqar edi; so'ngra ularning musobaqalari ommaviy harakter kasb etdi. Agar qadimgi Rim sirk

o‘yinlarida otliqlarning musobaqalarida, qo‘sh g‘ildirakli aravalarda, yugurishlarda va hokazolarda quldorlarning o‘zlari qatnashgan bo‘lsa, qonli gladiatorlik janglarida esa o‘yinlarni tashkil etuvchilar qilichbozlik san‘atini yaxshi egallagan qullardan foydalanar edilar. Eramizdan avvalgi I asr Rimda gladiatorlarni tayyorlash uchun maxsus maktablar tashkil etila boshlandi. Bu maktablar ham yakka shaxslar, ham davlat tomonidan tashkil qilinardi. Bu maktablarga odatda, biror gunohi uchun hukum qilingan qullar tanlab olinardi. Bu maktablarda qullar tajribali instruktorlar rahbarligida qurollarning turli shakllaridan qilichbozlik qilishni o‘rganardi edilar. Epchilikning o‘sishiga va chiroyli harakatlarining rivojlanishiga katta e‘tibor berilardi edi. Zarurligiga qarab, tomoshalarning tashkilotchilari maktab egalaridan ma‘lum to‘lov badaliga gladiatorlarni olardi edi. Sirk maydonida yoki amfiteatrlardagi olishuvda omon qolgan gladiatorlar yana maktab ixtiyoriga qaytib borardi edi.

Gladiatorlarning maktablarda qullarni ekspulatsiya qilishning nihoyat darajada qattiq shakllari mavjud edi. Lekin bu maktablarda qullarni birlashtirish uchun eng yaxshi sharoit ham bor edi. Shuning uchun gladiatorlarning maktablari ko‘pincha qullar qo‘zg‘olonining o‘chog‘i hisoblanardi. Rim tarixidagi qullarning gladiator Spartak boshchiligida ko‘tarilgan eng yirik qo‘zg‘olon Kapus shahridagi maktab gladiatorlarining qo‘zg‘oloni bilan (eramizdan avvalgi 73 yilda) boshlangan edi. Bu qo‘zg‘olon juda katta qullar ommasini harakatga keltirdi. Rim quldorlik davlati qullarga qarshi kurashish uchun o‘zining barcha kuchlarini safarbod etishga majbur bo‘ldi. Qo‘zg‘olon shafqatsizlik bilan bostirildi, lekin u quldorlik tuzimi asoslarini larzaga keltirishda imkon bergan qullar revolyusiyasining boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Quldorlar tuzumining chirish jarayoni Rim imperatorligida davom etardi. Yemirish alomatlari Rim ijtimoiy va madaniy holatining barcha sohalarida, shu jumladan, jismoniy tarbiya sohasida ham borgan sari ko‘proq darajada namoyon bo‘la boshladi.

Professional armiyaga o‘tilishi, xuddi Gretsiyadagi singari, quldorlarning ilgari qaror topgan harbiy – jismoniy tarbiya qattiq sistemaning tushkunligiga sabab bo‘ladi. Mo‘l-ko‘lchilik noz-ne‘matlariga ko‘milib qolgan quldor aslzodalar jismoniy tarbiya vositalari xazinasida o‘zlari uchun fuqat nozik badan ehtiyojlarini qondiradigan elementlarigina saqlab qoldilar. Maxsus qurilgan hashamatli termlardan (cho‘miladigan joylarda)gi iliq suvda cho‘milish eng sevimli mashg‘ulot bo‘lib qoldi; termlar joylashgan binolarda massaj qiladilar, yengil gimnastikani mashqlarini bajaradilar va to‘p o‘yinlari o‘ynardi edi.



Tomoshalarning yanada rivojlanishi imperiya davrida Rim jismoniy tarbiyasi uchun, ayniqsa, harakterli edi. Tomoshalarning yanada rivojlanishi tomoshalar soni va ko‘lamining oshishi yo‘li bilangina emas, balki ular harakterlarining o‘zgarishi bilan ham olomonning yaramas niyatlarini qo‘zg‘atadigan dahshatli ovunchoqqlariga aylanishi yo‘li bilan ham bordi.

Imperatorlik davrining boshlariga kelib (eramizdan avvalgi I asrning dastlabki yillarida) tomoshalar jami bo‘lib yiliga 66 kun o‘tkazilar edi. Eramizning II asri o‘rtalarida ular uchun endi 135 kun, IV-asr yarmida 175 kun ajratilar edi.

Sirk o‘yinlari ko‘lamining yanada kengayib borishi bilan bir qatorda (asosan qo‘sh g‘ildirakli aravalarda chopish) gladiatorlik janglari ham g‘oyat katta ko‘lamda rivojlandi. Gladiatorlik o‘yinlarini o‘tkazish uchun maxsus inshootlar-amfiteatrlar qurilgan edi. Bu inshootlardan kattasi eramizning I asrida qurilgan Kolizey amfiteatri edi; bu amfiteatrning vayronalari Rimda hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Amfiteatr maydonlarida olomonning vaqtichog‘ligi uchun yuzlab gladiator jang qilar edi. Maydonda chinakam jang bo‘lib, ularda faqat piyoda gladiatorlargina emas, balki otliq gladiatorlar ham qatnashar edi. Uddaburon o‘yin tashkilotchilari bu o‘yinchilarga qanoat qilmasdan, gladiatorlarni yirtqich hayvonlar bilan jang qildirar edi. Tomoshaning bu turi Rimda birinchi marta eramizdan avvalgi II asrlardayoq paydo bo‘lgan edi, lekin imperiya davrida juda keng ko‘lamda tarqalgan edi. Maxsus kavlangan katta qullarda o‘tkaziladigan dengiz janglari qonli gladiatorlik janglarining alohida turi edi. Avgust tomonidan tashkil etilgan ana shunday janglardan birida 19 ming gladiator qatnashgan edi.

Tomoshalarning barcha bu turlari “mag‘rur Rim” tashqi go‘zalligining va shu bilan birga, Rim quldorlik jamiyati eng chuqur ichki tushkunligi, xunuk chirishining yorqin yoki yaqqol ifodasi bo‘lib, ularda qatnashuvchilar o‘z xo‘jayinlarini ixtiyorlari bilan qonli olishuvlarda bir-biriga qarshi chiqish uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikni o‘tashlari lozim edi.

Shu bilan birga ayni bir vaqtda Rim hukumron doiralari yunon namunalari zaminidagi atletika musobaqalaridan Rim sharoitida mustahkamlab qolishiga erishish uchun ozmuncha harakat qilmadilar. Imperator Avgust Rim Aksaum g‘alabasi sharafiga har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan “aktineya” atlantika o‘yinlarining ta’sir etishiga urinib ko‘rdi. Lekin bu urinishi muvaffaqiyat qozonmadi. Neron eramizning 60-yilida qo‘sh g‘ildirakli aravalarning chopishidan va atletlarning

musobaqalaridan iborat bo'lgan "neroniya" bayramini tashkil qildi. 86-yilda kapitoliy o'yinlarini ta'sis etgan imperator. Domikanning urinishi ancha o'rinli bo'lib chiqdi; bu o'yinlar Rim imperiyasi tugatilguncha yashab keldi. Atletika musobaqalaridan kurash va mushtlashish musobaqalari ancha keng ommalashgan edi.

IV asrda Rimda xristian diniy davlat tomonidan quvvatlana boshlandi. Cherkov ta'siri asta-sekin davlat va jamoa hayotining barcha sohalariga tarqaldi. Cherkov o'z hukmronligini mustahkamlashga halaqit beradigan Rim an'alariga qarashi aktiv kurash olib bordi. Cherkov Rim tomoshalariga, ayniqsa, qonli gladiatorlik janglariga qarshi chiqdi. Tomoshalarning kishilik ahloqi normalari elementlariga zid kelganligi uchungina emas, balki ularning ommaning o'ziga jalb etib, cherkov ta'sirining yanada tarqalishi va mustahkamlanishiga to'siq bo'lganligi uchun ham tomoshalarga qarshi kurash olib bordi.


Buning natijasida IV asrdayoq gladiatorlar o'yinlarining ko'lami va soni kamaya boshladi, 404-yilda esa ular tamomila taqiqlandi.

Lekin cherkov rimliklar hayotiga mustahkam kirib qolgan tomoshalarni darhol tugatishga qadur emas edi. Rim olomoni Rim davlatining yemirilishiga qodir tomoshalar ko'rsatilishini talab qilib keldi va ularni ko'rishga muvaffaq bo'ldi. Biroq bu tomoshalar endi asosan, qo'sh g'ildirakli aravalarning sirkda chopishi va professional kurash hamda mushtlashuvchilarning chiqishlari bilan cheklangan edi.

Qachonlardir qudratli bo'lgan Rim quldorlik davlati ichki ziddiyatlar tufayli ichidan zil ketib, har jihatdan bosib kelayotgan varvar qabilalarning hujumiga bardosh bera olmadi. 476-yilda G'arbiy Rim imperiyasining hukmronligi tugatildi. Bu tuzum o'rniga yangi ijtimoiy tuzum, quldorlik munosabatlariga nisbatan yangi, ancha progressiv feodal ishlab chiqarish munosabatlari vujudga keldi.



**II bob.**  
**O'RTA ASRLARDA**  
**JISMONIY TARBIYA**



Oʻrta asrlar Osiyo, Yevropa mamlakatlari va Afrikaning bir qancha davlatlarining koʻpchiligida feodal ishlab chiqarish usuli hukmronlik qilgan davr edi. Tarix maydonida yangi-yangi xalqlar paydo boʻlgan va Gʻarbiy Sharqiy Yevropaning, Hindi-Xitoyning koʻpgina davlatlari, Turkiya, Yaponiya va boshqalar qaror topdi. Xitoy, Hindiston, Eron va Oʻrta Osiyo hududlarida ilgari paydo boʻlgan davlatlar ham rivojlandi.

Xitoy eramizning sh-IV-asrlarida Hindiston va Oʻrta Osiyo mamlakatlarida, Shimoliy Afrikada va Yevropa eramizning Sh va VII asrlarida feodal munosabatlar vujudga keldi. Baʼzi bir xalqlar quldorlik tuzumini chetlab, toʻgʻridan-toʻgʻri ibtidoiy jamoa tuzumidan feodal munosabatlarga oʻtdilar.

Feodalizm darvi yer feodallarning mulki hisoblanar edi. Yer oqsuyak feodallarga va chernov feodallariga qarashli boʻlgan vaqtdagina emas, balki, baʼzi bir sharqiy mamlakatlarda boʻlganidayoq, feodal davlatiga qarashli boʻlgan vaqtda ham feodalning mulki hisoblanar edi. Mehnat qurollari, mollar, xoʻjalik imoratlar va urugʻchiliklar feodallarda ham bevosita ishlab chiqaruvchilar, dehqonlarda ham shuningdek, hunarmandlarda ham bor edi.


Ekspluatatorlar sinfi-oqsuyak feodallar va cherkov feodallari hamda ekspluatotsiya qilinuvchi sinf-krepostnoy dehqonlar feodal jamiyatning asosiy sinflari edi. Ular oʻrtasida butun oʻrta asrlar davomida qattiq sinfiy kurash olib bordi. Bu kurash oʻsha davrdagi ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalariga, shu jumladan, feodal va xalq ommasining jismoniy tarbiyasi ham xal qiluvchi taʼsir qilar edi.

Cherkov feodal jamiyatning gʻoyat reaksion kuchi edi. U anitik madaniyat qoldiqlarini yoʻq qilishga harakat qildi, xalq ijodiga, fanga qarashi kurash olib bordi. Cherkov xalqining jismoniy kamolotga tomoshalarga intilishini majusiylilikning, antik diniy – urf-odatlarining koʻrinishi deb biladi. Cherkov sergunohlikka qarshi kurash niqobi ostida xalq hayotidan jismoniy mashqlar va oʻyinlarni zoʻr berib chiqarib tashlay boshladi. Cherkov, xuddi oqsuyak feodal kabi dehqonlar va shaharliklar jismoniy mashqlar yordamida oʻz jismoniy tayyorgarligini yaxshilay olishlari va undan feodallarga qarshi kurashishlari uchun foydalanishlari mumkin deb xavfsiradi.

Ilk oʻrta asrda cherkov feodallarning jismoniy tarbiyasiga ham salbiy munosabatda boʻldi. U salb yurish davridagina rahbarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga boʻlgan oʻz munosabatini oʻzgartirdi.

Bu vaqtlarga kelib oq suyak feodal aslzodalarning jismoniy tarbiyasini qoramadi va hatto bu tarbiyani ruhoniylar hamda monarxlar jamiyatiga ham olib kirdi. Cherkov Xudoga va feodal tartiblarning mustahkamligiga bo'lgan e'tiqodni faqat butlar yordamida emas, balki qilich yordamida ham quvvatlar edi.

**III bob.**  
**ILK TARAQQIY ETGAN FEODALIZM**  
**DAVRIDA JISMONIY TARBIYA**



## ILK FEODALIZM DAVRIDA JISMONIY TARBIYA

Eramizning XI asrlarida feodal ishlab chiqarish usulining qaror topishi va yirik yer egalari tomonidan erkin jamoatdagi dehqonlarning asta-sekin krepostnoylikka aylanishi davom etdi. Bu davrda sinfiy kurash dehqonlarning krepostnoylikka aylantirilishiga qarshi kurash sifatida rivojlanadi. Bu kurash jarayonida dehqonlar ommasini bostirish organlari sifatidagi feodal davlatlar qaror topa boshladi.

Bu davrda (taxminan V asrda) G'arbiy Yevropada yangi davlatlar tarkib topib, ularda asta-sekin feodal munosabatlar o'rnatila boshladi. Birmuncha keyinroq Markaziy va Sharqiy Yevropada slavyan davlatlari paydo bo'ldi. Shimoliy Afrikaning katta qismida arablar vujudga keldi.

Dastlabki vaqtlarda bu davlatlarda barcha mehnatkashlar harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lgan erkin yer egalari iborat edi. Ular qirol yoki harbiy boshliq chaqirig'i bilan qurollangan holda yetib kelishlari va harbiy yurishlarda qatnashish uchun tayyor bo'lishlari kerak edi. Lekin harbiy ta'lim yaxshi tashkil etilmagan edi. Aholini harbiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning o'ziga xos xalq shakllarining jadal suratda rivojlanishiga sabab ham ehtimol, uyushgan, harbiy ta'limning yo'qligi bo'lsa kerak. Dehqonlar uchun harbiy va jismoniy tarbiya faqat jangovar faoliyat uchungina emas, balki mehnat faoliyati uchun ham zarur edi.

Bu davrda jismoniy tarbiyaning sinfiy harakteri birinchi navbatda jismoniy mashqlardan foydalanish maqsadlarida namoyon bo'ldi. Dehqonlar jismoniy tarbiyadan mehnat va jangovar faoliyatga tayyorlash hamda yuqori martabaga erishgan feodal aslzodalar esa o'z qudratini mustahkamlash vositasi sifatida foydalandilar. Feodal aslzodalari faqat o'z mavqe, hokimligi bilangina emas, balki jismoniy kuch bilan ham xalqdan ajralib turishga harakat qilar edi. Buning uchun aslzodalarda xalqqa nisbatan beqiyos darajada katta imkoniyatlar bor edi. Feodal aslzodalar o'zlarining harbiy-jismoniy tarbiya sistemalarini yaratishda xalqning jismoniy mashqlar va o'yinlar borasidagi ijodidan keng foydalandilar.

O'sha davrdagi G'arbiy Yevropa davlatlarining eng yirigi Franklar davlati edi. Franklar qo'shni davlatlar bilan olib borgan ko'p urushlarda juda kuchli qo'shini vujudga keltirgan edilar. Bu qo'shin drujnikalardan va dehqonlar lashkaridan iborat edi. Dehqonlar lashkarlarida barcha dehqonlar qatnashar edi, shuning uchun franklar xalqni harbiy jihatdan tayyorlashga katta e'tibor berdilar. Har yili harbiy ko'riklar tashkil etilib, ularda harbiy manervlar o'tkazilar edi. Franklar og'ir qurollar – qilichlar, nayzalar, katta yo'plar, palahmonlar va oyboltalar bilan qurollanar edilar.

Bu qurollarni ishlatish juda katta jismoniy kuch, chidamlilik va epchillikni talab qilar edi. Urug'chilik tuzumining yemirilishi davridan boshlab xalq hayotida saqlanib kelayotgan jismoniy mashq va o'yinlar bu fazilatlarning takomillashuviga yordam berar edi.

Asta-sekin feodal munosabatlarning taraqqiy etib borishi bilan feodallar xalqni harbiy ishdan chetlashtirib bordi. Otliq ritsarlar asosiy harbiy kuch bo'lib qoldi. IX asrda franklarda otliq ritsarlar qo'shinining asosiy negiziga aylangan edi. Yirik yer egalari qirol chaqirig'iga muvofiq, yaxshi qurollari va aslahalarini olib, otliqlar guruhi hamkorligida yurishga otga minib chiqishi lozim edi. Qirollar ritsarlarning jangovor tayyorgarligini tekshirish uchun maxsus ko'riklar tashkil etar edi. Dastlabki vaqtda bu ko'riklar harbiy namoyish harakterida edi. Keyinroq ular turnirlar nomini olib yakkama-yakka olishuvlarga aylandi; bu ko'rik qatnashchilari to'mtoq nayzalar, gurzilar va qilichlar bilan harakat qilishar edi.

VII-IX asrlarda vujudga kelgan Markaziy va Sharqiy Yevropaning qadimgi slavyanlari ham mehnat va jangovar faoliyati bilan bog'langan juda ko'p jismoniy mashqlarni tadbiq etganlar. Qadimgi slavyanlar jangovar, kuchli va jasur xalq bo'lgan. Slavyanlar Boltiq dengizining sharqiy qirg'oqlarida turib yengil kemalarda hozirgi Domiya va hatto Buyuk Britaniya qirg'oqlariga harbiy yurishlar uyushtirganlar. Ular Kiev Rusidan xuddi shunday kemalarda Dneper bo'ylab quyi oqimga tushib kelganlar va Vizantiyaga hujum qilib, Qora dengizdan kechib o'tganlar. Ular qurollarni yaxshi ishlata olishgani uchun qo'l jangida alohida mahoratga ega bo'lganlar. Slavyanlarda yugurish, to'siqlardan sakrash, mushtlashish, kurash, og'irlik ko'tarishiga doir mashqlar va ovchilik juda ommalashgan edi. Slavyanlarda azaldan jismoniy kuchga, chaqqonlikka, jasurlikka va harbiy mahoratga doir musobaqalar bo'lar edi.

Chexlar juda uzoq muddat davomida o'z mustaqilligi uchun nemis ritsarlarining tajovuziga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ldilar. Bu kurash davomida chexlarda jang qilish shakl va metodlari tarkib topdi. Bu kurashda chexlar qurollarning har xil turlarigina emas, balki mehnat qurollarini ham (chalg'ilarni, g'alla yanchish zanjirlarini va hokazalarni) ishlatdilar. Chex dehqonlarining erksevarligi, yuksak axloqiy va jismoniy tayyorgarligi yuz yillar davomida nemis ritsarlari otryadlariga qarashilik ko'rsatishga imkon berdi.

VII asrda arablar davlati tarkib topdi. Arab aslzodalari yoshlarning harbiy –jismoniy tayyorgarligiga katta e'tibor berdilar. Shuning natijasida yengil qurollangan arab otliq askarlari jangda yaxshi monevr qilar edilar.



Ular tezlik bilan chopib ketayotgan otning ustida yoydan mohirona otar, yengil nayzalarni uloqtirar, qilich va uzun nayzalarni mohirlik bilan ishlata, epchillik bilan egardan sakrab to'shar va unga sakrab chiqar edilar. Bundan tashqari, otliq askarlar turli qurollarda qilichbozlik qilishni va suzishni yaxshi biladilar.

Arablar Vizantiya va G'arbiy Yevropa davlatlarining jismoniy tarbiyasiga bir muncha ta'sir ko'rsatdilar. Otda yurish va yoydan o'q otish usullarining ko'plarini g'arbiy yevropaliklar arablardan o'zlashtirgan edilar. O'yinlar to'g'risida ham, masalan; ilgari G'arbiy Yevropada ma'lum bo'lmagan "chovg'on" o'yini haqida ham xuddi shunday deyishi mumkin. XII-XIII asrlarda bu o'yinlar Vizantiyadagi saroy aslzodalarining sevikli tomoshalaridan biriga aylandi. G'arbiy Yevropada (Fransiyada) bu o'yin "chikane" nomi bilan taraqqiy etdi va keyingi vaqtlarda ot ustidagi to'p o'yini sifatida tarkib topgan.

## **TARAQQIY ETGAN FEODALIZM DAVRIDA JISMONIY TARBIYA**

VII-XI asrlarda feodal ishlab chiqarish usuli taraqqiy etdi. Mehnatning ijtimoiy taqsimot va hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralishi, shaharlarning vujudga kelishi feodalizm taraqqiyot davrining harakterli xususiyatlari edi.

Taraqqiy etgan feodal jamiyatlarida krepostnoy va qaram dehqonni ekspluatatsiya qilish ancha kuchaydi. Bu xol xalq ommasining feodallarga qarshi sinfiy kurashishni keskinlashtirishga olib keldi. Taraqqiy etgan feodalizm davrining oxirlariga kelib, bu kurash g'oyat keskinlashib qoldi va bir qancha yirik dehqon qo'zg'olonlarining ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Shaharlarning o'z mustaqilligi uchun feodallarga qarshi kurashi ham o'sha vaqtda kuchayib ketdi.

Harbiy ish borasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Eski xalq lashkari o'rniga hukmron sinf vakillaridan tuzilgan feodal qo'shin tashkil topadi. Harbiy ish feodallarning imtiyozi va majburiyat bo'lib qoldi. Feodal armiyasining soni xalq lashkarlariga nisbatan ancha oz edi. Feodal qo'shinda kavaleriya (otliq ritsarlar) rahbarlik mavqeni egalladilar.

Taraqqiy etgan feodalizm jamiyatida xalq ommasining (dehqonlar va shaharliklar) jismoniy tarbiyasi va hukmron sinf (feodal -ritsarlar)ning jismoniy tarbiyasi mavjud edi. Bu tarbiyaning har ikkalasi, har biri o'ziga xos yo'l bilan, sinfiy kurash ta'sirida taraqqiy etib boradi. Xalq ommasining jismoniy tarbiyasi alohida-alohida bo'lingan harbiy –jismoniy

mashqlar va an'anaviy o'yinlardan iborat edi. Feodallarning jismoniy tarbiyasi ancha xilma-xil edi. Moddiy resurslar va bo'sh vaqtning mavjudligi feodallar uchun o'zlariga harbiy-jismoniy tarbiyaning tugallangan sistemasini yaratishga imkon berdi.

## **FEODALLAR HARBIY – JISMONIY TARBIYASI**

Feodallar qo'shini hujum va mudofaa qilish uchun mo'ljallangan og'ir qurollar, shuningdek, maxsus muhofaza aslahalari bilan qurollangan edi. To o'q otadigan qurol kashf etilgunga qadar feodal-ritsarlar jangda zarba yemaydigan darajada edilar. Chunonchi 1119-yili Bryumelda bo'lgan jangda qatnashgan 900 ritsardan, 3 kishi halok bo'lgan, 140 kishi esa otlardan yiqitilib, asirlikka olingan edi.

Og'ir qurollardan foydalanish (yarog'-aslahalarni ishlatish) feodaldan katta jismoniy kuchni, epchilik va chidamlilikni talab qilar edi. Sovutga o'ralib olgan feodal otda mohirlik bilan yurar, og'ir qilich, uzun nayza, to'qmoq va boshqa qurollarni yaxshi ishlatar edi. Harbiy harakatlarga o'rgatish feodallarni harbiy-jismoniy tarbiyalash sistemasining asosi qilib olingan edi. Bu sistema G'arbiy Yevropada salb yurishlari davrida topgan edi.

Feodallarning tarbiyalash "etti xil ritsarlik fazilatlarini" otda yurish, qilichbozlik, kamalak otish, suzish, ov qilish, shaxmat o'ynash va she'r to'qishni bilib olshidan iborat edi. Feodallar o'zlariga faqat harbiy ishchini munosib ko'rib, jismoniy mehnatni pisand qilmas edilar, ular qo'pol va johil edilar.

Feodallarni harbiy-jismoniy tarbiyalash faqat manfaatparastlik maqsadi - ham tashqi bosqinchilik urushlari uchun, ham mamlakat ichidagi krepostnoy dehqonlar va hunarmandlarning ozodlik harakatlarini bostirish uchun bir xilda qodir bo'lgan jismoniy jihatdan kuchli harbiy ritsarlarni tayyorlashni ko'zlar edi.

Bo'lajak ritsarlarni harbiy-jismoniy tarbiyalash ularni juda yoshlik chog'laridanoq, odatda, yirik feodallarning saroylarida boshlanar edi. Syuzerenlar qal'alari yosh ritsarlarning maktablari edi, desak bo'ladi. Bu "maktab" tarbiyasi garchi ma'lum darajada tartib va qoidalarga solingan bo'lsa-da, xususiy oilaviy karakterda edi.

Erkak feodallar ritsarlikka bag'ishlangan tarbiyaning ikki majburiy bosqichini - ixtiyoriy va oliy bosqichni o'tar edilar.

Oddiy feodallar o'zlarining 7 yoshlik o'g'illarini sen'or (ancha boy feodal) qal'asiga yuborar edilar; qal'ada bu bolalarga paj(maxram)

unvonini berar edi. Pajlar ritsarlar tayyorlash va xizmat o'tashning dastlabki (quyi) bosqichini o'tar edilar. Ular kuchli va epchil bo'lishi uchun kamalak otish, tosh va nayza uloqtirish, sakrash, yugurish, kurash, suzish va otda yurish bilan shug'ullanar edilar. Ayni bir vaqtda ularga ov qilish, harbiy-jismoniy mashqlarni bajarish va ritsarlik odob-qoidalari o'rgatilar edi.

Pajlik yoshida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar navbatdagi bosqichda, 14 yoshga yetgan pajlar, qurolbardorlikka o'tkazilib, ular qilich va shpor taqish huquqiga ega bo'lganlaridan keyin, takomillashtirilar edi. Qurolbardorlar maxsus o'qituvchilar rahbarligida asov otlarni minib o'rgatar, og'ir temir qalqonlarni kiygan holda va ularsiz uzoq masofalarga chopishar, handaqlardan va devorlardan sakrab o'tishlari kerak edi. Qal'a devorlariga narvon bilan, narvonsiz chiqishar edi. Qurol bilan va qurolsiz suvda suzishar, ov qilishar, itlarni o'rgatishar, shaxmat o'ynashar edilar. Qurolbardorlikning oxirgi yillarida bu yoshlar qilichbozlik, nayza uloqtirish hamda to'la asbob-aslahalari bilan otda yurishni mashq qilar edilar. Qurolbardorlikning umumiy jismoniy va harbiy tayyorgarligi ana shunday amalga oshirilar edi. 21 yoshga kirganlarida ularga ritsarlik unvonini berilar edi. Ana shu davrdan boshlab ularning ko'pchiligi uchun jismoniy mashq mashg'ulotlari ko'ngil ochish vositasiga (otda yurish, ov qilish) aylanar yoki turnirlarda ishtirok etish vositasi sifatida xizmat qilar edi.

Ritsarlik tayyorgarligi – jismoniy kamolotining uchinchi bosqichi-faqat yirik sen'orlar uchun mo'ljallangan edi. Bu tarbiya bosqichi shaxsiy mayllarga muvofiq keladigan jismoniy mashqlar (masalan kurash, qilichbozlik va boshqalar) turlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda guruhlar ta'limi emas, balki individual ta'lim ustun turar edi.

Qal'alarga professional o'qituvchilar, qilichbozlik ustalari, eng mashhur kurashchilar va boshqa mutaxassislar taklif etilar edi.

Bunday tarbiya sistemasi natijasida ritsarlar, odatda, jismoniy jihatdan kuchli, epchil va matonatli kishilar bo'lib, ular harbiy harakatlarning asosiy usullaridan xabardor bo'lar edilar. Dag'al jismoniy kuch ularning iftixori edi. Ular o'zlarining doirasida ritsarlik adab-qoidalari degan axloqqa amal qilar edilar. Lekin ular dehqonlarga va shaharliklarga nisbatan har qanday qo'pollik hamda zo'rlikni ishlatar edilar.

Ritsarlarning turnirlari ritsarlar harbiy sport musobaqalarining o'ziga xos shaklidan iborat edi. Ularda go'yo feodal aslzodalarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga va ritsar otryadlarining harbiy harakatlari

tayyorgarligiga yakun yasar edi. Turnirlar ilk oʻrta asrda vujudga kelgan. Ular Fransiya, Germaniya, Angliya, Chexiya va Ispaniyada salb yurishlari davrida, ayniqsa, ravnaq topgan. Turnirlar oʻz taraqqiyotida ikki bosqichni bosib oʻtgan, birinchi bosqich-realistik harbiy oʻyinlar boʻlib, bunda turnirlar namunali kurashdan iborat edi, ikkinchi bosqich sport yakka kurash boʻlib, u fransuzlarda “jut”, nemislardan “tʻost” deb atalgan.

Ommaviy realistik kurashlar (“bugʻurtlar”) keng katta maydonlarda oʻtkazilgan va biror harbiy harakat manzarasini eslatgan. Vaqtlar oʻtishi bilan bu kurashlar cheklangan maydonda, maʼlum vaqt, qoida va tartibga asoslanib oʻtkazila boshlangan.

Keyinchalik ommaviy turnirlar jut va tʻost turnirlari shaklini olgan. Tʻost turnirlari XI asrda yakkama-yakka olishuvning ancha aniq shakli sifatida paydo boʻldi. XII asrda ular turnir dasturining asosiy qismiga kiritila boshlandi va ritsarlar doiarsida juda keng tarqaldi. Poyga va nayza bilan harakat qilish jut yoki tʻostda-ogʻir aslaha bilan qurollangan ritsarlarning yakkama-yakka olishuvida asosiy mashqlardan edi. Belgilangan qoidaga muvofiq, chopib kelayotgan otning ustida turib, nayza zarbi bilan raqibini egar ustidan uchirib yuborishi lozim edi.

Turnir maxsus maydonlarda - poyga va boshqa musobaqalar oʻtkaziladigan maydonlarda oʻtkazilar edi. Dastlab turnarlar vaqtida qalʼa va shaharlar yaqinidagi atrofi oʻralmagan joylar ana shunday maydonlar vazifasini oʻtar edi. XI asrdan boshlab maxsus maydonlarning xajmi maʼlum bir tartibga solina boshladi, lekin bu hamma joyda ham bir xil emas edi. XIV asrda turnir ishtirokchilarining xavfsizligini taʼminlash maqsadida maydonlar toʻsiqlar bilan toʻsib qoʻyiladigan boʻldi; raqiblar shu toʻsiqlar boʻylab bir-birlariga qarshi harakat qilar edilar. Asta-sekin ana shunday yakkama-yakka olishuvlardagi jang sanʼati uchun toʻmtoq nayzalar bilan kuchli va aniq zarba berishdan iborat boʻlib qoldi.

Qurollangan ikki otryadning olishuvidan iborat boʻlgan ommaviy turnirlar ancha jiddiy harakterga ega edi. Otryadchilar maydon chekkasidagi arqon bilan toʻsib qoʻyilgan joyda saf tortib tizilishar edi. Signalchiga muvofiq, arqon uzib tashlanar va otryadlar bir-biriga qarshi hujumga oʻtar edilar. Oʻz shlyomini yoʻqotgan va otdan urib tushirilgan ritsarlar safdan chiqar edilar. Eng kam zarar koʻrgan otryad turnirda gʻolib chiqqan hisoblanar edi. Turnirda alohida ajralgan ishtirokchilar xonimlar qoʻlidan qimmatbaho mukofot yoki yodgorlik sovgʻasini olar edilar.

XIV asrdan boshlab otliq ritsarlar va ritsarlik turnirlari tushkunlikka yuz tuta boshladi. Turnir feodal zodagonlari uchun tomoshalarga aylanib qoldi,

kambag'allashgan kichik ritsarlar esa turnirlardan boyish va talash manbai sifatida foydalanar edilar.

O'yin va tomoshalar feodallarning, ayniqsa, ularning bolalarining harbiy-jismoniy tarbiyasida katta o'rin tutar edi. O'g'il bolalar va yigit ixtiyorida yog'och oyoqlar, arg'imchoqlar, shag'am toshlar, pildiroqlar bo'lar edi. Bolalar har jihatdan ko'ngil ochishar, parklarda, o'rmonlarda, dalalarda erkin yugurishar, daryoda cho'milishar edi. Yigitlar o'yinchoq qal'alar uchun kurashishar va ularga hujum qilib, "bosib" olishar edi.

Musobaqa o'yinlari feodallarning tarbiyasida katta ahamiyatga ega edi. Musobaqa o'yinlarini ikki guruhga: harbiy va sport guruhlariga ajratish mumkin.

Harbiy o'yinlarda harbiy operatsiyalardan, asosan, salb yurishlaridan, shuningdek, qahramonlik romanlaridan turli harbiy epizodlar (qal'ani qamal qilish, shahar qal'asiga hujum qilish va hokazolar) qaytarilar edi. O'rta asrlarda bunday harbiy o'yinlar soni g'oyat ko'p edi. "Salidin darasi" nomi bilan ataladigan o'yin, ayniqsa, ommalashgan edi.

Feodallarning eng sevimli sport o'yini kichik koptok - hozirgi tennis koptogiga o'xshash koptok o'yini edi. Fransiyada bu o'yin "jedekam" (olma o'yini) deb atalar edi. Bu o'yin uchun maxsus koptoklar, raketkalar tayyorlanib, maxsus bino - "o'yin uyi" kurilar edi. Katta to'p bilan "sul"-futbol o'yinini eslatuvchi o'yinlar o'ylanardi. Bu o'yinlar asosan xalq o'yini edi. Lekin qarol va uning atrofidagi aslzodalar, ayniqsa, qishloq dvoryanlari undan hazar qilmas edi.

Feodallarning ko'ngil ochish o'yinlaridan akrobatika mashqlari, masalan, tikka ko'tarilgan devorga qo'shimcha taxta bilan yugurib chiqish, qiyin to'siqlardan sakrab o'tish, yog'och otda o'ynash mashqlari ma'lumdir. Ba'zi bir qarollar va boshqa feodallarning saroylarida maxsus akrobatika o'qituvchilari ham bo'lgan.

Yovvoyi hayvonlarni ov qilish ancha ommalashgan ko'ngil ochish o'yini bo'lgan. Ovda ritsarlar, xonimlar, qurolbardorlar, pajlar va ko'p sonli mulozimlar qatnashgan. Maxsus kishilar hayvonlarning uyasidan haydab yoki quvib, ovchilar kelayotgan tomonga chiqarganlar, ovchilar esa hayvonlarni otganlar yoki qurol bilan yaralanganlar. Odatda, ot ustida turib ov qilgan. Quturgan hayvonlar ba'zan ovchilarga hujum qilgan, shuning uchun ovchilar jasurlik, epchillik bilan chaqqon harakatlar qilishiga to'g'ri kelgan. Bu esa omadli ovchilar dong'ini chiqargan.

O'yin va tomoshalar oq suyak va feodallarning hech qanday qonun bilan belgilanmagan, tartibga solinmagan harbiy-jismoniy sistemasi edi.

Bu tarbiyaning maqsadi feodallarning feodal tuzumini mustahkamlash hamda dehqon va hunarmandlarni itoat-go'ylikda saqlash uchun kurashga tayyorlashdan iborat edi. Taraqqiy etgan feodalizm davrida Vizantiyada va rus feodal knyazliklarida jismoniy tarbiya birmuncha boshqacharoq ravnaq topdi. Vizantiya turklar tomonidan bosib olinishiga qadar (1453 yil) u yerda sirk tomoshalari o'yinlari va ko'ngil ochish vositalari sifatida antik jismoniy tarbiya izlari saqlanib qoldi.

Rus feodal knyazliklarida knyazlarning harbiy-jismoniy tarbiya sistemasi, G'arbdan keskin farq qilmas edi. Rus knyazlari Rus yerining ko'p sonli dushmanlariga - cho'l ko'chmanchilari va G'arbiy Yevropa ritsarlariga qarshi kurashda xalq lashkarlariga tayanishiga majbur edi. Shuning uchun xalq ommasi bu yerda harbiy ishdan chetlashtirilmagan edi. Knyazlar va ularning drujinalarining harbiy-jismoniy tarbiyasida jismoniy mashq va xalq o'yinlarining turlari ko'p ishlatilganki, bu hol ham ehtimol, shu bilan izohlansa kerak.

## **DEHQONLARNING JISMONIY TARBIYASI**

Ozod dehqonlarning qullikka solinishi, ularni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va ularning harbiy ishda qatnashishdan chetlashtirilishi natijasida ommaning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan moddiy imkoniyatlar kamayib ketdi. Buning natijasida o'yinlar, raqslar, turli mashqlarni o'z ichiga olgan musobaqa turlari bilan nishonlanadigan ko'pgina eski xalq bayramlari unutildi.

Biroq dehqonlar o'zlarining og'ir va huquqsiz ahvollariga qaramasdan, o'z muhitida, ilgarigi davrlardagi an'anaviy jismoniy mashqlarining saqlanib qolishiga harakat qildilar. XIV-XV asrlardagi gravyuralarda dehqonlarning otda chopishi, raqslari, yugurishi, kurashga va langar cho'pga tirkalib chiqishga doir musobaqalar aks ettirilgan. Nemis knyazliklarida yerga tashlab qo'yilgan shamshir atrofida raqsga tushishar g'oyat ommalashgan edi. Yevropaning shimoliy rayonlarida, jumladan, Skadinaviyada chang'ida yurish va konki uchish ancha keng qo'llanar edi. Fransiyada tulki bilan o'ynaladigan o'yinlar mashhur edi. "Sul" o'yinida ko'pincha aksari qishloqlarning aholisi ishtirok etardi. O'ynovchilar ikki guruhga bo'linib olib ketishida va oldindan belgilab qo'yilgan nishonga tashlashdan iborat edi. O'ynovchilar soni ko'pincha bir necha yuz kishiga yetar edi.

Xuddi shunga o'xshash o'yinlar Angliyada ("futbol", "xerling", "kemping" va boshqalar) turli nomlar bilan mashhur edi. "Lapta" turidagi o'yinlar (nemis o'yini "shlagball", ingliz o'yinlari "kriket", "raundres"), shar o'yinlari, kegli o'yinlari ham ancha ommalashgan edi.

Xalq hayotida saqlanib qolgan o'yin va mashqlar dehqonlarda sistemali jismoniy tarbiyaning yo'qligini bir muncha to'ldirar va ularda mehnat qilish hamda feodallarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan ma'naviy va jismoniy fazilatlarni tarbiyalashga imkon berar edi. Dehqonlar ommasidagi jismoniy tayyorgarlikning xalq formalari ahamiyati shveysariyaliklar misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Gabsburglar imperiyasiga qarshi kurash davrida Marganteka yonidagi bo'lgan jangda (1315-yil) va boshqa janglarda uch shveysariya kontonlari Shvetsia, Urvi, Untervalden ittifoqi dushmanning otliq ritsarlariga jiddiy zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Shveysariyaliklarning yaxshi jismoniy tayyorgarligi va ularning jangda kamalak otish, tosh uloqtirish va boshqa harakatlarni mohirona qo'llaganliklari ma'lum darajada bu kurashning muvaffaqiyatli borishiga sabab bo'ladi.

XIV asrda Shveysariya yoshlarining o'ziga xos jismoniy tarbiya sistemasi qaror topadi. 16-18 yoshdagi jiddiy jismoniy tayyorgarlik maktabini o'tar edilar. Ular yugurish, sakrash, kurash, tosh uloqtirish, uzun nayza, oyboltani ishlatish, zich saf bo'lib harakat qilishni o'rganar, shuningdek, to'p o'yini va boshqa o'yinlar bilan shug'ullanar edilar.

Yigitlarning harbiy va jismoniy tayyorgarligi o'z-o'zini idora qiladigan koptoklar orasida saylab qo'yiladigan maxsus shaxslar tomonidan tekshirilar edi. Bunday tekshirish alohida xalq yig'ilishlarida amalga oshirilar va yugurish, sakrash, tosh uloqtirish, kurash, otda yugurish, kamonda otish va qilichbozlikka doir musobaqalardan iborat bo'lar edi.

Keyinchalik shveysariyaliklar knyaz va qarollar qo'shiniga yollana boshladilar, lanuskxextlarga-absalyutizm malaylariga aylanadilar. Ular kim ko'p haq to'lasa, ana shuncha pulga o'z kuchi va hayotini sotar edilar. Shveysariyaliklar boshqacha qilib aytganda, o'zlarining jangovar shuhratini pulga almashtirib yubordilar.

Feodallarga qarshi chiqadigan xalq lashkarlarini tayyorlashda jismoniy mashqlar katta o'rin tutar edi. Yomon qurollangan piyoda dehqonlar sovutga o'ralib olgan otliq ritsarlarga qarshi jang qilishga majbur bo'lar edi. G'allayonchilar birinchi navbatda, ritsarlarni otdan urib tushirar edilar. Buning uchun esa ular otliqlarni arqon bilan urar yoki otlarning oyog'ini chopib tashlar edilar. Piyoda qolgan ritsarlarni

qo‘zg‘olonchilar so‘yil, to‘qmoq, gurzi va toshlar bilan urar edilar. Bu usullar ularga dushmaniga jiddiy zarar yetkazish imkonini berar edi. Masalan, o‘rta asr taboritlar –asosan, chex dehqonlaridan iborat bo‘lgan xalq lashkari harakat qildi. XV asrning boshlarida gusit urushlari olib borilayotgan paytda taboritlar o‘zlarining yo‘lboshchisi Yan Jijin boshchiligida nemis ritsarlari qo‘shiniga bir qancha kuchli talofatlar yetkazdi. Taboritlarning asosiy quroli qisqa nayza, so‘yil, toshlar, dehqon to‘qmog‘i va palaxmondan iborat edi. Jijin lashkari kurashga yaxshi tayyorgarlik ko‘rar edi. Hatto o‘smirlar ham palaxmondan tosh otish mashqiga qatnashar va bunga maxsus o‘rgatilar edi. To‘qmoq bilan bir daqiqada 20-30 zarba urish mumkin edi, bu esa oldindan jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni talab qilar edi.

## **SHAHARLIKLAR JISMONIY TARBIYASI**

Savdo va sanoatning bir muncha taraqqiy etishi o‘rta asr shaharlarining o‘sishiga olib keldi. Sex uyushmalariga birlashgan hunarmandlar shaharlarning markaziy figurasi va moddiy madaniyatining chinakam yaratuvchilari bo‘ldi. Shaharliklar shaharni talab kelgan va ularning savdosiga to‘siq bo‘lgan feodallarga qarshi kurashda o‘zlarining qo‘lida bo‘lgan barcha vositalardan, jumladan, jismoniy tarbiyadan ham foydalandilar. Jismoniy tarbiyaning asosini xalq jismoniy mashqlari va o‘yinlar tashkil etar edi. Sex ishlab chiqarish uyushmalari ritsarlarning hujum vaqtida piyoda askarlar otryadiga aylanib, shahar lashkarlarini tashkil etar va feodal otliq askarlariga qarshi muvaffaqiyatli harakatlar qilar edi. Keyinroq shaharlarda maxsus yoy otuvchilar hamda qilichbozlar va nayzabozlarning birlashmalari vujudga kelib, ular qardoshlik birlashmalari deb nom oldi.

Qilichbozlar qardoshliklarida nayzabozlik, qilichbozlik va oybolta irg‘itish o‘rgatilar va mashqlar qilinar edi. Bu yerda qurol bilan zarb berish va zarbni qaytarish usullari, qurolsiz askarlarning qurolli otliq askarga qarshi kurash usullari; tutish, bo‘g‘ish va boshqa elementlarni o‘z ichiga olgan erkin kurash usullari o‘rgatilar edi. Qilichbozlar qardoshliklarida ishtirok etishni xohlagan barcha shaharliklar o‘rtasida ochiq musobaqa o‘tkazilar edi. Masalan, Frankfurt shahrida har yil kuz oyi yarmarkasida “shamshir sohibi” unvoni uchun musobaqa o‘tkazilar edi. Musobaqalar ko‘pincha xalq bayrami kunlariga to‘g‘ri kelar edi. Qilichbozlar qardoshliklarining o‘z unvoni, gerblari va alohida nomlari, masalan,



“Sher tog‘idagi muqaddas Mark jamiyati ”, “Erkin qilichbozlar” va boshqa nomlari bor edi.

Yoy otuvchilarning qardoshlik uyushmalarida shaharliklarga kamalak va kamondan, keyinchalik esa XIV-XV asrlardan boshlab, o‘q otadigan quroldan otishga o‘rgatilar edi. O‘q otish musobaqalari turli masofadan turli nishonlarga otilar edi. Langar cho‘p uchiga bog‘langan qush ko‘pincha nishon vazifasini bajarar edi. Yoy yoki kamon otish vaqtida masofa 125-150 qadamga yetar edi. O‘q otadigan qurol paydo bo‘lgan vaqtda otish masofasi ancha o‘zgardi, chunki dastlabki miltiqlar hali takomillashmagan edi. Xalq bayramlari dasturiga qilichbozlik va o‘q otish musobaqalaridan tashqari, odatda, yugurish, sakrash, kurash, poyga va eshkak eshishga doir musobaqalar ham kiritilar edi.

Qurollar o‘zboshimcha mahalliy feodal ritsarlarga qarshi kurashda shahar lashkarlarining harbiy qudratiga edi va shuning uchun shaharliklarning harbiy –jismoniy tayyorgarligi ancha takomillashgan edi. Shaharlarda kamalak otish odatini rag‘batlantirish yuzasidan qarollarning ko‘p sonli farmoyishlari chiqarilgan edi. Qurollar shaharlarning bevosita harbiy tayyorgarlikdan chalg‘itadigan o‘yinlarinigina taqiqlar edilar.

Shaharliklar hayotida to‘p bilan o‘ynaladigan turli xalq o‘yinlari keng tarqalgan edi. Ingliz shaharlari ko‘chalarida futbol o‘ynalar edi. Fransiyada “kross” va “nom” singari o‘yinlar juda ommalashgan edi. Shaharlar katta bo‘lmaguncha, barcha o‘yinlar va musobaqalar shahardan tashqaridagi dala va yaylovlarda o‘tkazilar edi. Biroq shaharlar rivojlanib, shahar atrofidagi yerlar poliz ekinlari va bog‘lar bilan band bo‘lgandan keyin holat jiddiy o‘zgardi - o‘yinlar shahar ko‘chalarida o‘tkazila boshlandi. Rivojlanayotgan shahar bu o‘yinlarni taqiqlash uchun harakat qila boshladi. Masalan, 1313-yili London savdogarlari iltimosi bilan ingliz qirolu Eduard II shahar ichida katta to‘p bilan o‘ynaladigan o‘yinlarni tasodifiy tomoshabinlar, yo‘lovchilar va hatto imoratlar uchun xavfli, deb taqiqladi.


“Pom” o‘yinidagi o‘zgarishlar shahar sharoitlarining o‘yinlari taraqqiy etishiga bo‘lgan ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi. XIV asrgacha “pom” o‘yini hamma joyda, dalada, ritsarlik qal’alarida, shahar qal’alari yonida, cherkov maydonlarida va boshqa yerlarda o‘ynalar edi. Endi esa bu o‘yin uchun atrofi yopilgan maxsus maydonlar qurila boshlanadi. Bu maydonlar ustiga to‘r o‘rnatilib, bu to‘r ustida to‘pni ilgargidek qo‘l bilan emas, balki raketka yordamida qaytarib otish lozim edi. XIV asr oxirida Fransiyada bu o‘yin uchun maxsus binolar ham qurilgan.

Shotlandiya va Angliyada futbol o'yini ham taxminan xuddi shunday taraqqiy etdi. Ilgarigi vaqtlarda bu o'yin dehqonlar o'yini edi. Hosil yig'ib olingandan keyin qo'shni qishloq dehqonlari hosili o'rib olingan dalalarda katta to'p bilan o'ynar edilar. Shaharliklar markaziy bozor maydonida va ko'chalarda futbol o'ynar edilar. Bu hol ko'pincha tartibsizlikka, shahardagi normal harakatning buzilishiga olib kelar edi. Shuning uchun asta-sekin o'ynaladigan joy va o'yinchilar sonini cheklovchi qoidalar yaratila boshlandi. Biroq ba'zi shaharlarda ko'chada o'ynaladigan o'yinlar XIX asrning o'rtalariga qadar davom etib keldi.

O'rta asr shaharlarida akrobatika va, ayniqsa, darbozlarning chiqishlari juda ham ommalashgan edi. Darbozlar baland qilib tortilgan arqon ustida yuribgina qolmasdan, shu bilan birga, unda turli mashqlarni ham bajarar edilar. Ularning ko'pgina mashqlari, masalan, osilgan holatda tiralib gavdani ko'tarish va turli-tuman aylanma harakatlar, keyinchalik garizontal langar cho'pga-turnikning timsoliga o'tkazilgan edi. Akrobatik mashqlar shaharliklar ichida g'oyat ommalashgan edi va turli murakkab sakrashlarni ham bajarishar edi. Keyinroq shaharlarda oshiq o'yini, karta o'yini va shunga o'xshashlar ham keng tarqaldi.

O'rta asr universitetlarning dasturlarida jismoniy tarbiyaning yo'qligi studentlar orasida jismoniy mashqlarning tarqalishiga halaqit bermadi. Ko'pgina studentlar yoy otish va qilichbozlik uyushmalariga kirar edilar. Studentlar o'rtasida ko'pgina kurash va mushtlashish musobaqalari uyushtirilar edi. Studentlarning klublarida qilichbozlik, yog'och otda chavondoqlik qilish va akrobatika mashqlari ham o'tkazilar edi.

**IV bob.**  
**FEODALIZMNING YEMIRILISHI**  
**DAVRIDA JISMONIY TARBIYA**



## **JISMONIY TARBIYA TO‘G‘RISIDA GUMANISTLAR TA‘LIMOTI**

XIV va XVII asrlarda G‘arbiy Yevropa feodal ishlab chiqarish usuli ham hukmron edi. Faqat ancha ilg‘or mamlakatlardagina bu usul kapitalistik munosabatlar tomonidan siqib chiqarilmoqda edi. Bu davr dehqonlarni yerdan mahrum qilish, mustamlaka xalqlarni tinimsiz tanlash, kapitalning dastlabki jamg‘arilishi davri edi.

Yevropaning feodal tarqoqligi savdo va sanoatning taraqqiy etishiga halaqit berar edi. Shaharlarning iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan burjuaziyasi uchun barqaror markazlashgan davlat hokimiyati kerak edi. Feodallar o‘rtasida doimiy uchrashuvlardan zarar ko‘rib kelayotgan xalq ham huddi shuni istar edi. Oqibat natijada XIV asrning ikkinchi yarmida “qirol hokimiyati” shaharliklarga tayanib, feodal dvoryanlarning qudratini sindiradi va chinakam millatlarga asoslangan yirik monarxiyalar barpo etdi; bu monarxiyalarda hozirgi Yevropa millatlari va hozirgi butun jamiyati taraqqiy etib bordi.

Burjuaziya uzoq vaqt davomida feodal absolyutizm bilan murosasiz qilib kelgan va uni qo‘llab-quvvatladi. Biroq o‘rta asrning oxirlariga kelib, burjuaziya shunchalik mustahkamlandiki, endi u feodal absolyutizm qarshi chiqishga va G‘arbiy Yevropaning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarida o‘z siyosiy hukmronligini o‘rnatishga (Angliya burjua revolyusiyalari) qodir edi.

O‘sha vaqtlarda Yevropaning sharqida rus xalqi unga ko‘p asrlik tatar zulmidan yetkazilgan jarohatlarni tuzatib oldi va qudratli davlat barpo qildi. Ivan II podsholik qilgan davrning boshlarida deb yoziladi. Moskva davlatining borligini hatto xayoliga keltirmay, hayratga tushgan Litva va tatarlar o‘rtasida saqlanib qolgan Yevropa o‘zining sharqiy chegaralarida to‘satdan katta imperiyaning vujudga kelishidan dovdirab qoldi, hatto Sulton Boyazidning o‘zi garchi (G‘arbiy Yevropa -T) uning oldida titrab tursa ham, moskvaliklardan birinchi marta takabburona nutqlarini eshitdi. Rus davlati, uning iqtisodiyoti va madaniyati jadal sur‘atlar bilan taraqqiy etib bordi. Rus xalqining fan va madaniyatning ba’zi sohalarda erishgan yutuqlari G‘arb xalqlari erishgan yutuqlardan o‘zib ketdi.

Jadal taraqqiy etib borayotgan burjua ishlab chiqarishining ehtiyojlari oyoq charx, suv parragi va hokazolarning ehtiro etilishiga sabab bo‘ldi. Bularning o‘zi esa matematika tadqiqot metodlarining takomillashuviga sabab bo‘ldi va astronomiya, mexanika, optika hamda kimyo singari fanlarni hayotga chorladi. Fan va texnika ishlab chiqarishni kengaytirishga

yordam berdi, texnika esa olimlar qo‘liga juda ko‘p sonli yangi fanlarni berib, bu faktlar fanni boyitdi va uni ilgari siljitdi. Leonardoda Vinchi (1452-1519-yillar) qushlarning uchishini kuzatib, uchuvchi apparatining tuzilishi to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bayon etdi. Rus krspostoy dehqoni esa o‘sha vaqtdayoq odamni ko‘tarishga qodir bo‘lgan qanotlarning aniq hisobini oldi, ularni yasadi va ularni tomdan hamda qal’a gumbazlaridan yerga muvaffaqiyat bilan qo‘nishiga erishdi. G‘arbiy Yevropa va Rossiyada kitob nashr qilish vujudga keldi va qimmatbaho pergament o‘rnini qog‘oz egalladi. Dengizda suzish ehtiyoji natijasida kemasozlik taraqqiy etdi, ispanlar, gollandiyaliklar, so‘ngra inglizlar ham janubiy yarim sharda ko‘pgina geografik kashfiyotlar qildilar, yangi yerlarni topuvchi rus sayyohlari va dengizchilari esa Shimoliy muz okeanini tadqiq qilish ishini boshlab berdi va Osiyo Amerikadan ajratib turuvchi bo‘g‘ozni kashf etdi. Poroxning kashf etilishi o‘q otadigan qurolning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Arxitektura sohasida bir qancha yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Odamning o‘rganishiga taalluqli bo‘lgan tabiatshunoslik sohasida katta kashfiyotlar qilindi. Leonardo da Vinchi odam gavdasining mutanosibliigi va uning harakati mexanikasini o‘rgandi. Meditsina ham jadal sur‘atlar bilan taraqqiy etib bordi. Shveysariyada tug‘ilgan Parsels (1493-1541 yillar) o‘z shogirdlarini birinchi marta bemor yotgan joyda o‘qitdi va jarrohlik bilan terapiyaning chambarchas bog‘liqligini ta’kidladi. Ispan vrachi qon almashishi haqida ba’zi bir mulohazalarini bayon etdi, ingliz olimi Garvey (1578-1657 yillar) “Yurak va qon harakati” haqida kitobni yozdi. Tabiatshunoslikning tarraqiy etishi yangi falsafa fanining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi; bu falsafa diniy qoidalarni rad etdi va tajribani haqiqatni yagona mezon deb e’lon qildi. Ingliz F. Bekon (1561-1626 yillar), faqat tuzatish va tajriba (induksiya, ananamiz taqqoslash, tajriba) chinakam ilmiy metod hisoblanadi, deb isbotladi. Dekart deduksiyaning muhimligini isbotladi, Gassenadi esa molekulalar nazariyasiga asos soladi.

## **JISMONIY TARBIYA HAQIDAGI NAZARIY BILIMLARNI DUNYOGA KELISHI**

Mashhur qadimiy yunon va qadimgi rim filosoflari hamda tibbiyotlari o‘zlarining asarlarida, yoshlarni tarbiyalashda va sog‘lig‘ini mustahkamlash uchun jismoniy tarbiyadan foydalanishni ko‘rsatib o‘tganlar. Quldorlik davlatlarida jismoniy tarbiya xalq ommasini ezish

uchun harbiy quvvatni tashkil etishda ekspluatatotlarni tayyorlashda birdan bir asosiy vosita bo'lgan.

Mehnatga bo'lgan ehtyojning tug'ilishi, jismoniy tarbiya vositasi esa badavlat quldorlarni o'yin musobaqalari va feodallar turnirlarida mehnat bilan aloqasini yo'qotadi. Shuning uchun quldor va feodal o'zi uchun moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda mehnat qilishini sharmandalik deb hisoblaydi.

Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399-yil) o'zining o'quvchilari bilan suhbatda raqsga tushuvchilarning nayrangbozligini va xiyla-nayrangini qoraladi, gimnaziya hamda palestrlarda shug'ullanuvchi yoshlarni olqishladi.

PLATON (eramizdan avvalgi 427-347-yil). Kimda-kim o'qish va yozishni yugurish va suzishni bilmasa, ularni cho'loqlar deb atagan. Platon tomonidan taklif qilingan ta'lim va tarbiya asosida, ayniqsa, davlat, gimnastika va musiqa san'at "qoravullar"ga xosdir; musiqa ma'naviyatni (ruhni) takomillashtirishi uchun, atlantika-tana uchun kerak. Platon o'qitish va tarbiyalashni uchta yosh davriga ajratadi: 7 yoshgacha, qachonki bola uyda bo'lgan holda, o'yinlarda qatnashadi. 7-10 yoshda esa yana gimnastika bilan shug'ullanishi zarur; 10 yoshdan 20 yoshgacha albatta, shaxsiy va davlat maktablariga borishlari majburiydir, bundan eng asosiy maqsad yoshlarning fikri, maktabda bolalarni zo'rlab o'qitish emas, balki kattalarning qiziqishi va yutuqlariga qarab, ayniqsa, eng kuchli va qobiliyatlarini tanlab olishga imkon beradi.

GIPPOKRAT (eramizdan avvalgi 460-356)ni tibbiyotning otasi deb atashgan. U tibbiy xodimlarni kasallarni davolashga o'rgatdi. Gippokrat kasalni jismoniy tarbiya vositalari bilan davolash prinsiplarini asoslab berdi va kun tartibi, ovqatlanish tartibi yoki parhezini, shuningdek, gimnastika agonistik bilan shug'ullanuvchilar uchun gigiyenik talabalarni taklif qildi. Sog'lom, kuchli, jasur kishi, g'alabalarga erishishida ilhom bahsh etishi Gippokratning diqqatini jalb qilgan. Birinchi bo'lib filosofiyani tibbiyot bilan, tibbiyotni filosofiya bilan birga qo'shib olib borishni taklif qilgan.

Gippokrat ko'p sayohat va sayrda bo'lib, yunonlarga boshqa xalqlarning urf-odatlarini o'rganishni taklif qiladi. O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarning qo'rqmasligi va tartibligini hisobga olib, ularning otda yurishini, kamonda otishni va shikastlanishning oldini olshi usullaridan foydalanishni tavsiya qilgan bo'lishi mumkin.

KLAVDIY GALEN (131-201). Pergama shahridagi maktabda sirk arenasida shikastlangan va jarohat olgan gladiatorlarning sog'lig'ini

tiklagan. U jamoat oldida chiqishning mahoratini oshirish uchun mashqlar majmuasini taklif qildi hamda arenaga chiqish oldidan va jangdan keyin gladiator uchun uqalashning to‘qqizta turini yozdi. Galen anatomiya va fiziologiyaning asosini bayon qildi. Ovqatlanish gigiyenasini va jismoniy mashqlar gigiyenasini alohida fan darajasiga ko‘tardi.

Galen qarashlariga ko‘ra, barcha dorilarni jismoniy mashqlarga almashtirish mumkin. K.Galen ijtimoiy pedagogik faoliyatiga shunday yordam beradiki, ya‘ni quldorlar hamomlar, bular uqalash (massaj) xonalari va jismoniy mashqlar uchun zallar qura boshladilar. Bunday ajoyib bog‘lar bilan qurilgan hammomlarda bir-birlarinikiga borib ko‘ngil ochishardi. Bunday hamomlarning qoldiqlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Italiyada barcha o‘quv yurtlarda tiklanish davrida qilichbozlik majburiy fan bo‘lgan, qilichbozlik nazariyasi bo‘yicha birinchi ish italiyalik mualliflar P’etro Monga (1509) va Anile Marosso (1536) tomonidan yozilgan. Italiyada eng yaxshi tarbiyaviy o‘quv yurtlarining birida – “Dom radostda” gumanistlarning vakili Vattorino da Feltra ishlagan.

## **GUMANISTLARNING IDEALLARI**

Burjuaziya ideologlari o‘rta asr ilohiy qarashlariga qarama-qarshi o‘laroq, inson shaxsini ulug‘ladilar, insonga, uning kuchi va qobiliyatiga ishonch bilan qaradilar. Qarashlardagi bunday o‘zgarish odatda “gumanizm” (insonparvarlik) tamoyili bilan anglatiladi. So‘ngra o‘rta asr davridagi gumanizm ikki asosiy manbadan: qadimgi xalqlar madaniyati va xalq ijodidan oziqlandi. Xalq ijodidan kam foydalanilar edi, shuning uchun so‘nggi o‘tish asrining gumanizmi qadimgi dunyoda yaratilgan nimaniki bo‘lsa, asosan shuni tiklashdan iborat edi. Burjuaziya va feodal aslzodalar esa o‘zlarini narigi dunyo hayotiga emas, balki yerdagi hayotdan lazzatlanish uchun tayyorlashga harakat qila boshladilar. O‘rta asrning ozgina badanga topshinishi his uyg‘otadigan sog‘lom badanga topinish bilan almashtirdi. Bu hol arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik va adabiyotda o‘z aksini topdi.

Gumanistlar o‘rta asrdagi quruq pedagogikaga qarama-qarshi o‘laroq, kishining faqat aqligina emas, balki tanasini tarbiyalashga qaratilgan yangi pedagogikani ilgari surdilar. Ular o‘z hukmronligini o‘rnatish, uzoq muddatli sayohatlar qilish, yangi yerlar kashf etish, bu yangi yerlarga ko‘chib kelgan xalqlarni talash va bo‘ysundirishga qodir bo‘lgan uddaburon, jismoniy jihatdan yetuk burjualarni tarbiyalashni istar edi.

## VITTORINO DA FELTRE MAKTABI

Romboldino Vittorano da Feltre (1378-1446-yillar). Italiyadagi pedagogika sohasida ko'zga ko'ringan dastlabki gumanist edi. Vittorino Mantuan hukmdori va uning saroyidagi kishilarning bolalarini tarbiyalab, saroyda yangi tipdagi maktab yaratdi va uning rahbari bo'ldi. Uning maktabida o'quvchilarning bilimga qiziqishi, aqliy va jismoniy tayyorgarligi har tomonlama rag'batlantirilar edi. O'quvchilarni erinchoqligi, beadabligi va manmanligi uchun ayovsiz jazolar edilar. Quruq yodlash o'rnini ko'rsatma ta'lim metodlari egalladi.

Vittorino o'quvchilarning sog'lig'i va jismoniy kamoloti to'g'risida, ayniqsa, ko'p g'amxo'rlik qilar edi. U o'quvchilarni toza havoda harakatli o'yinlar o'ynashga o'rgatar, suvda suzishga va jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirar edi; bu esa o'quvchilarning jismoniy kuchini, epchilligini taraqqiy ettirar edi. Uning maktabi o'quv rejasida qilichbozlik, harbiy mashqlar, otda yurish va suvda suzish ko'zga ko'rinarli o'rinni egallar edi. Vittorino o'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash to'g'risida ham g'amg'o'rlik qilib, ularda o'z qadrini bilish tuyg'usini, gigiyena elementlari qoidalariga rioya qilish odatini va hokazalarni hosil qilar edi. Vittorino do Feltre maktabi oqsuyak ota-onalarning bolalarini tarbiyalash borasida ilgari tashlagan katta qadam edi.

## MERKURIALISNING QO'RIQLOVCHI MEDITSINASI

Mashhur italiyan gumanist vrachi Ieronim Merkurialis (1530-1606-yillar) gimnastkaga doir oltita kitob yozdi. Dastlabki uch kitob jismoniy mashqlar tarixini yoritishga, so'nggi uch kitob esa jismoniy mashqlarni meditsina jihatidan tahlil qilishga bag'ishlangandir. Merkurialis meditsinani davolash meditsinasi va saqlovchi meditsina deb ikkiga ajratadi. Saqlovchi meditsinani u buzuqchilikka va oziq-ovqat hamda tanani ortiqcha iste'mol qilishga qarshi kurashga mo'ljalladi; bunday hollar oqsuyaklarning vakillariga muvofiq edi.

Merkurialis gimnastika va boshqa jismoniy mashqlarni saqlovchi meditsina vositalari kiritadi. U barcha mashqlarni haqiqat (davolash), harbiy (hayotiy, zaruriy) va sohta (atletik) mashqlar bo'lgan edi.

Merkurialis ayrim mashqlarning ahamiyatini baholab, ko'proq jismoniy kuch talab qiladigan mashqlarni salbiy tavsifladi va sog'lomlashtirish-gigiyena jihatidan foyda berishi mumkin bo'lgan



mashqlarnigina bajarishni tavsiya qildi. U mushtlashishni inkor qilmadi, lekin yakkama-yakka mushtlashishni emas, balki kishining soyasi bilan mushtlashishni taklif qildi, chunki kishining soyasi bilan mushtlashishi “katta kuch ishlatishni” talab qilmaydi. Merkurialis suvda suzishni emas, balki cho‘milishni maqtaydi va baliq ovini taklif qiladi. U jismoniy tarbiyaning musobaqa metodini foydali deb hisoblamadi va sportni inkor qildi. Merkurialisning “bir vaqtlar katta e’tiborga sazovor bo‘lgan gimnastika san’atining tiklash uchun harakati” haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Uning xizmati shundan iboratki, u davolash-profilaktika mashqlarini tikladi va ularni meditsinaning muhim vositalari sifatida himoya qiladi.

Merkurialis ko‘zga ko‘ringan cherkov arboblarning saroy vrachi, so‘ngra esa imperator Maksimlion II ning ham vrachi edi. U feodal buyuk aslzodalarning boshliqlariga ko‘rsatgan xizmatlari uchun ritsarlik unvoni bilan taqdirlangan edi.

## **RABLENING JISMONIY TARBIYA TO‘G‘RISIDAGI FIKRLARI**


Fransuz gumanist yozuvchisi Fransua Rable (1494-1553-yillar) o‘z g‘oyalarini qadimgi yozuvchilarning asrlaridan ko‘ra, ko‘proq xalq ijodidan olar edi. U o‘z asrlarini lotin tilida emas (o‘sha vaqtlarda yozganlaridek), balki ona tilida yozar edi. O‘z asrlarida u cherkov xodimlari, oq suyak hukmdorlar, ustidan kular edi. Rim, Jeneva va Sarbonna bir necha bor uni la’natlagan va har xil yo‘llar bilan ta’qib qilgan edi. O‘sha vaqtlarda Rablening asarlariga bo‘lgan talab g‘oyat darajada katta edi. Uning “Gargantuya va Pantagryuel” nomli romani ikki oy ichida shunchalik ko‘p nusxada tarqalgan ediki, hatto “Tavrot” o‘n yil ichida shunchalik tarqalmagan edi. Bu roman barcha tillarga tarjima qilgan bo‘lib, hozirga qadar qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda. Rable o‘zining asrlarida kuchayib kelayotgan burjuaziya ideologiyasini ma’qulladi va dunyoni ilmiy anglash g‘oyasi targ‘ib qildi.

Rable sxalostlar ustidan ochiq kulib: “O‘g‘il bolaning o‘z murabbiylari rahbarligida ilohiy kitoblarni o‘rganganidan ko‘ra, umuman o‘qimagani ma’qul, chunki ularning fani-be‘manillik, ularning bilimdonligi esa batamon uydirmadir ” – degan edi. U o‘quvchilarning erkin fikrlashga va erkin harakat qilishga olib keladigan tarbiyani ilgari surdi. Rable tarbiya orqali inson shaxsiy, axloqiy, aqliy va jismoniy tomonlarini tarkib toptirishni istadi. U butun tarbiya va ta’limni o‘quvchilar uchun yoqimli formada ifodalashni tavsiya qiladi.

Rable tarbiyalanuvchilar uchun rejim zarurligini, ularning maishiy hayoti uchun gigiyena zarurligini, jismoniy mashqlarni aqliy mashg'ulotlar va ovqatlanish rejimi bilan qo'shib olib borish kerakligini talab qiladi. U badanni yuvib turishni, massaj qilishni, terlagandan keyin kiyimni almashtirishni; mashqlarni va jismoniy kuch me'yorini asta-sekin murakkablashtirib borishini tavsiya qiladi. U faqat qadimgi mashqlarni emas, balki o'sha vaqtlarda dvoryanlar, shaharliklar va dehqonlar o'rtasida odat bo'lgan mashqlarni ham ilgari suradi. Tarbiyalanuvchilar yugurishlari, sakrashlari va irg'itishlari; kamalakdan, kamondan, eski og'ir miltiq va zambarakdan otishlari; ko'krak bilan, chalqanchasiga, yon bilan suzishlarni o'rgatar edi.



**IV-bob.**  
**YANGI DAVRDA JISMONIY TARBIYA**



XIV-XVI asrlardayoq feodal jamiyat ichida yangi ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy etdi va yangi ishlab chiqarish munosabatlari tarkib topa boshladi. Lekin XVII asrning o'rtalarida feodal munosabatlar hukmron bo'lib, kapitalizmning taraqqiy etishiga xalaqit berar edi. Bunday ahvol uzoq vaqt saqlanib turishi mumkin emas edi. Burjuaziya asta-sekin Yevropa mamlakatlarining iqtisodini o'z qo'liga ola bordi va siyosiy hokimyatni zabt etishga harakat qildi. Burjua revolyusiyalari yetilib kelmoqda. 1648-yilda Angliyada va 1789-yilda Fransiyada sodir bo'lgan burjua revolyusiyasi kapitalizm g'olib bo'lganligi va qaror topa boshlaganligidan dalolat berar edi. Yevropa mamlakatlarida feodalizmdan kapitalizmga, skolostik maktabdan burjuaziya jismoniy tarbiyasiga o'ta boshladi.

Yangi davrning birinchi bosqichida (Angliyada sodir bo'lgan burjuaziya revolyusiyasidan to Parij kommuniyasigacha). Bu davrda jismoniy tarbiyaning o'sib kelayotgan nazariy asoslari tashkil etila boshladi, ular hozirgi vaqtda sotsialistik, rivojlanayotgan va kapitalistik mamalakatlarning jismoniy, madaniy va sport amaliyotida foydalanib kelinmoqda.

Ikkinchi davri (Parij kommunasidan to oktyabr revolyusiyasigacha). Ikkinchi davrda jismoniy tarbiyaning burjuaziya sistemasida rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundanki, bunda siyosiy g'oyalarni keyinchalik takomillashtirish davom etadi. Shu bilan birga sanoat rivojlangan davlatlarda burjuaziya reaksiyon rivojlanish yo'liga o'ta boshlaydi va jismoniy tarbiya yoshlarni urushga tayyorlash manfaatlariga ham Yevropa va Amerika milliy-ozodlik xalq harakatlarini bostirish maqsadida ham foydalaniladi.

Uchinchi davr-jismoniy tarbiya va sportning burjuaziya sistemasining rivojlanishiga hozirgi vaqtgacha davom etadi.

## **JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA NAZARIY BILIMLARNI RIVOJLANISHI YAN AMOS KOMENSKIY (1592-1670 yy)**

Buyuk slavyan pedago-demokrati, u to'g'ridan-to'g'ri nemis feodallari va katolik cherkovlariga qarshi kurashda qatnashdi. Komenskiy «chex qardoshlarni» jamoasi oilasida tug'ildi va o'sdi, keyin esa turli mamlakatlarda pedagog bo'lib ishladi. Ya.A. Komenskiy darsliklar va qo'llanmalar yozdi, bu darsliklar bo'yicha jahondagi juda ko'p bolalar o'qidi. Kishi ishini to'g'rilash haqida umumiy sovet asarlarini yozdi.

Komenskiy xalqlar o'rtasida do'stlik va to'g'ri munosabatlarni o'rnatishida tarbiyaning birdan-bir muhim asosi deb qaradi. Komenskiyning shaxsan o'zi Angliya, Vengriya, Shvetsiya va Gollandiyada ta'lim-tarbiyani tashkil etishda qatnashdi. 1656-yili Polshana Leshko shahrida «chex qardoshlari» jamiyati yo'q qilingandan keyin o'zining pedagogik faoliyatini Amsterdamda davom ettirdi.

Komenskiyga har qanday pedagogik holat, qoida bo'yicha, diniy obro' bilan asoslangandi. Ya.A.Komenskiy «Buyuk didaktika» kitobida «Hammani hamma narsani bilishni o'rgatadi» degan universal nazariyani saqlaydi. U quyidagicha isbot qiladi: «Barcha bolalar uchun maktabda o'qitish universal bo'lishi shart», har biri boshqalardan qancha ustun bo'lsa, u boshqalarga nisbatan ko'proq shug'ullangan deb aytadi.

Komenskiy bo'yicha, maktab, ijodkorlik ustaxona bo'ladi. Maktab ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarning kelajakda o'z-o'zini tarbiyalashga va o'zini bilim olishga tayyorlaydi. Komenskiy to'rtta yosh davrni aniqlab berdi.: go'daklik (tug'ilgandan to 6 yoshgacha), o'smirlik (6-12 yosh), yosklik (12-18 yosh), balog'atga yetganlik (18-24 yosh), maktabning maqsadi, o'rab turgan dunyoni va o'z-o'zini boshqarishga intilishdir. Komenskiy odatdagi sinfda o'rgatish sistemasi asoslab berdi va o'quv yilida maktabga bir marta qabul qilishni, talab qilib turib oldi, chunki o'qituvchilar barcha fanlar bo'yicha darsning vazifasi va jamoa ishini o'quvchilar bilan olib borishi kerak. Bilim va malakalarni to'g'ri o'rgatish uchun Komenskiy nazariyani to'g'ridan-to'g'ri hayot bilan bog'lab borishni, «amalda o'rgatishini», ma'lum pedagogik shaklga va taqsimlashga rioya qilishni tavsiya qiladi.

Ya.A.Komenskiy o'yin va jismoniy mashqlarga axloqiy tarbiya vositasi sifatida qaradi, eng muhim o'yin jarayonida bolalarda yaxshi xislatni (mo'tadillikni va jasurlikni, donolikni va haqiqatgo'ylikni) shakli turadi. Komenskiyning jismoniy tarbiya to'g'risidagi qarashlari faqat XIX asrning yarmidan boshlab Chexoslovaniya maktablarida amalga oshdi. Hozirgi vaqtda Chexoslovaniyada pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Komenskiy nomi bilan ataladi, mamlakatda jismoniy tarbiya bo'yicha ishga rahbarlik qildi.

JON LOKK (1632-1704) – Angiliyalik zodagon va burjuaziya jismoniy tarbiyasini idealogi. U sxolstik maktablarga qarshi kurashda va sinfiy o'zaro kelishuvga, yani yuqori tabaqadagi oq suyaklar va burjuaziya zodagonlari bilan ruhoniy feodallarni murosaga olib keldi. J.Lokk o'rta asr sxolostik maktabini “sog'lom fikr”ni va jentelmini amaliy ehtiyojiga qarshi qo'ydi. Lokk hukmron sinflarning bolalarini qattiqqo'llik bilan

tarbiyalash zarurligini nazariy jihatdan isbotladi va musobaqa-o'yin metodi yo'li bilan tarbiyani amalga oshirilishining yaxshi natija berishni asoslab berdi. Shundan keyin jismoniy tarbiyaning xalq vositalaridan eng maqsadga muvofiq jismoniy mashqlarni va o'yinlarni tanlab olish, ularni ma'lum bir uslubga va tartibga solish jarayoni boshlandi.

Mashhur qadimgi rim pedagogi Mark Fabiya Kvaptlimana (42-118) "Sog'lom tanda-sog'lom aql" shiorini targ'ib qilish bilan birga, Lokk bu shiorini yangi materialistik holatlar- "muskullari rivojlangan tanada-gulday ochilayotgan aql" bilan to'ldiradi. Lokkning fikricha eng kuchli jismoniy xususiyatlarning ishtiyoqini kishining ongi bilan aniqlash mumkin. J.Lokk shunday hisoblaydiki, bilish tarbiyachilarni rahbarligida va kuzatishi ostida "amaliyotda takrorlash yo'li" bilan sezgi organlar va sezishi orqali kishi ongiga kirib keladi. D.Lokk "Tarbiya haqida fikrlar" (1693-yil) kitobida bolalarni tarbiyalashda birinchi o'ringa jismoniy tarbiyani qo'yadi. U maktabni o'rab turgan muhitini, maktab o'quvchisining sport faoliyatini bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydi,- deydi.

D.Lokkning g'oyasi shundan iboratki, ya'ni bilish bilim va malakalar inson hayoti uchun juda zarurdir, uni sport o'yini metodi yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish mumkin, shuning uchun ham Angliyadan tashqari ga tezda tarqala boshladi. D.Lokkning "Tarbiya haqidagi fikrlari" anglosakson davlatlarida burjuaziya jismoniy tarbiya sistemasining rivojlanishiga va tiklanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

D.Lokk o'qituvchilardan tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos yakka-yakka xususiyatlarini o'rganishni va barcha o'qitish yoki o'rgatish jarayonida mohirona boshqarishni talab qildi. U bolalarni o'qishga chaqirmaslikka, balki o'zlari ularni o'qitishni iltimos qilishini, o'rtoqlari ular bilan birga o'ynashini so'rashga erishishni tavsiya qiladi. Bolalarning injiqligini, dangasaligini, tez-tez o'zgarib turishlarini yengish uchun o'quvchilarning birinchisi yoki eng kattasini to'g'ri yo'lga qo'ysangiz, unda ular yordamida qolganlarini barchasini xohlagan usulda boshqarishning qiyin bo'lmasligini maslahat beradi. Lokkning usuli bo'yicha o'rgatishni mazmuniga shunday jismoniy tarbiya vositalari kirishi kerakki, u har doim va hamma vaqtda qo'lga qurol olib askar bo'lishiga yordam bersin. D.Lokkning "Tarbiya haqidagi fikrlar" kitobi jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport ishlarining amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatadi va shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy tomondan kam rivojlangan ajnabiy xalqlarni bosib olish uchun Angliyada qo'shinlarni tayyorlagan.

Lokk mehnatkash xalq bolalari uchun har bir chernov qoshidagi qavmlarga reaksion maktab loyhasini taklif qiladi, bunda juda oz bilim, ta'lim va tarbiyaga saflanadigan mablag' oz bo'lishini uning uchun ular o'zlari ishlab topishlarini taklif qiladi: ip yigirish, to'qishni va h.k. Lokkning "ishchi maktablariga" majburiy tartibda ishsiz va ishlamaydigan, muhtoj ota-onalarning 3 nafar 14 yoshgacha bo'lgan bolalariga yo'llanma beriladi. Lokk tamonidan loyihalashtirilgan maktabda bolalar faqatgina "nonga to'yguncha va jismoniy tarbiyaning o'rniga uzoq davom etadigan va kam harakatli mehnatni oladilar.

### **JAN-JAK RUSSO (1712-1786yy)**

Jan-Jak Russo fransuz ma'rifatchilari Didra, Galevesi, Golbax va boshqalar inson shaxsining tarkib topishida katolik diniga, sxolostik maktablarga, kuchli idrok etadigan va yangi tarbiyaga faol ravishda qarshilik qildilar. Biroq ular inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhitning hal qiluvchi roli haqidagi ta'limotni taraqqiy ettirdilar. Ular jamiyatning oqilona surishda suratlarda taraqqiy etilishini inson shaxsining yaxshilashning asosiy sharti deb hisobladilar. Bu ta'limot o'sha vaqtlarda burjuaziyaning buzuq va g'ayritabiiy feodal tartiblarini bekor qilish uchun olib borgan kurashni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Pedagogika sohasidagi qarashlarning ancha mukammal sistemasini Jan-Jak Russo ilgari surdi. Russo Didroning maslahati bo'yicha 1750-yili "Fan va san'at haqida mulohazalar" kitobini ko'rgazmaga yubordi va Dijonsk akdemiyasining manfaatini oldi. Ikkinchi "Xalqlar o'rtasidagi tengsizlikning sabablari va kelib chiqishi haqida fikr" asarida xususiy mulkni kishilar tengsizligining asosiy sababi deb bildi va u mulkchilikni tamomila tugatish tarafdori edi. U mayda xususiy hunarmandlarni ideallashtiradi va kelajakdagi davlatni ijtimoiy shartnoma bilan mustahkamlangan hunarmandlarning natiarxal ittifoq shaklida tasavvur qiladi. U o'zining asosiy pedagogik qarashlarini "Emal yoki tarbiya to'g'risida" (1762) asarida ilgari surdi. Russo bu asarida "tug'ilgandan to balog'atga yetganligini" Emal rivojlanishida yangi tarbiya to'g'risida yozgan. Emalning rivojlanishida Russo erta bolalik (2 yoshgacha), bolalarga xos bo'lgan yosh (12 yoshgacha) o'smirlik davridagi va o'smirlik yoshdagi hayotga ajratdi. Emal to'rtinchi davrdagi hayoti "kuchli his tug'ilish davri" u 15 yoshdan to balog'at yoshigacha davom etadi.

Russoning fikricha, inson erkin bo'lib tug'iladi, lekin u yo'rgakdalik chog'idayoq o'z odamlarining dastlabki odatlarining quliga, so'ngra jamiyat quliga aylantiriladi. Hech qanday odatlarga ega bo'lmaslik

- eng yaxshi odatdir. Uning tasqidlashicha, erkin individual tarbiya an'anani ham o'z odatlaridan, ham obro' oldida sajda qilishdan xalos qilishga qodirdir. Russo kishi hayotining har bir yoshdagi davrida, shakllar va metodlarni ilgari surish kerak, deb hisobladi.

Emil barcha to'rtinchi davrlarda rivojlanish uchun chiniqishning usta bosqichini jismoniy, ahloqiy mehnat va diniy tarbiya bilan birga qo'shib olib borishni taklif qiladi. Russo, ya'ni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi Emilning rivojlanishida asosiy hisoblanadi, ya'ni 16 yoshda hayotiga tayyorlanadi va jamiyatga qaytadi. Emil shahar hayoti sharoitida yaxshi mulohaza, yaxshi irodani tarbiyaladi. Russo har bir to'rtta davrdagi rivojlanishda tarbiya usullarini va metodik talablarni aniqlaydi.

Emil yangi tarbiyaning ta'siri ostida Russo uchun xohlagan yo'nalishga o'zgardi "Emil yoki tarbiya to'g'risida" asari muallifga olamshumul shon-shuhrat olib keldi. Russo o'sib kelayotgan organizmning rivojlanishiga jismoniy tarbiya vositasining ta'sir etishini nazariy jihatdan asoslab berganlar qatoriga kiradi.

### **IOGAN GENRIX PESTALOSSSI (1746-1827yy)**

Shveysariyalik vrach oilasida tug'ilgan, buyuk pedagog-demokrat Iogan Pestalossi Russo g'oyalari ta'siri ostida o'z hayotini xalq ta'limiga bag'ishladi. U tug'ilib kelayotgan kapitalizm ta'siri ostida qashshoqlashgan dehqonlarga vujudga kelgan kapitalistik fabrikalardagi mehnatga moslashtirish yo'lida yordam berishni istadi. Ayniqsa, u dehqonlarning bolalari va qarovsiz bolalar tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Pestalossi o'zining amaliy faoliyatida, hatto unumli mehnat bilan ma'lumot va ta'limni qo'shib olib borishga ham harakat qildi.

Pestalossi tarbiya asosini odamning tibbiy qobiliyatlarini o'stirishdan, tarbiya maqsadini odamning ma'naviy qiyofasini tarkib toptirishdan iborat deb biladi. U odam tanasini aql (idrok) va axloq (yurak)ning quli deb hisobladi. Bu qul (tana) sog'lom va kuchli bo'lsa, o'z vazifasini yaxshi bajarishi mumkin. Shuning uchun tanani (aql va axloq qulini) sistemali ravishda chiniqtirib borish lozim. Buning uchun Pestalossi bolalarning o'yinlaridan, bolalarning uydagi mehnat jarayonida ishtirok etishidan va bo'g'inlar gimnastikasi elementar kursidan (jismoniy ma'lumot); xalq o'yinlari va hazillaridan tashkil topadigan jismoniy tarbiyani tavsiya qildi.

Pestalossining fikricha, tana faoliyati harakatlarda namoyon bo'ladi, harakatlar esa bo'g'inlar tuzilishi va harakatlanganligiga bog'liqdir. Shu maqsadda Pestalossi bo'g'inlarning elementar gimnastikasini ishlab



chiqdi. Bu gimnastikaning mazmuni odamni har qanday holda kerak bo'ladigan barcha harakatlar qilishga o'rnatishdan iborat edi. Shundan keyin ikki, so'ngra bir necha bo'g'inglarda turli xildagi harakatlarni ayni bir vaqtda bajarish yo'li bilan asta-sekin mashqlarni murakkablashtirib borish nazarda tutilar edi.

Pestalossi oilada, maktabda va ishlab chiqarishda jismoniy tarbiyaning asosini aniqlab borib, shuni hisobga oldiki, "bilish alifbosi" shunda qo'yiladiki, qachonki, ona bolaga dastlab turishiga, so'ngra birinchi qadamini tashlashiga yordam beradi, shu bilan birga "tabiiy ravishda" uy gimnastikasini amalga oshiradi. Maktabda elementar gimnastikani tabiiy uy gimnastikasi asosida tuzishi zarur va bu esa alohida har bir odamga u yoki malakalarni egallashni yengillashtirishga harakat qiladi, unga hayotda ko'proq foydali ekanligini ma'lum bo'ladi. Pestalossi maktab gimnastika jismoniy mashqlarini elementlarga va murakkabga bo'ldi. U elementlarga shunday harakatlarning kirishidan, ular bo'yin, yelka, son bo'g'inglarida bajariladi va x.k, murakkablariga - bir necha bo'g'inglarda bajariladigan, harakatlar kiradi: yugurish, sakrash, uloqtirish, suzish, mehnat faoliyatning oddiy turlari va boshqalar.

### **G.FIT (1763-1836 yillar)**

Nemis filakitroninlari - yangi yo'lnalishdagi maktablar-Russiya podshosining maktab ish reglamantining qat'iy belgilanishiga javobgarlik paydo bo'ladi. Bular filakitroniklar yoki insonsevar maktablar edi. Filakitronikalarning o'quvchilari akademiklar, pedagoglar va fabulkyatlarga bo'linar edi. Akademistlar – aslzodaning bolalari, pedagogistlar-amaldorlarning bolalari va fabulyaktlar mehnatkashlarning bolalari edi. O'quvchilarning bunday tartibda bo'linishi shuni ko'rsatadiki, filantroniklar feodal tabaqachilik tartiblariga qarshi kurashmas, balki ularni qo'llab- quvvatlar edi. G.Fitni tashabbusi bo'yicha bu maktablarga majburiy fan sifatida jismoniy tarbiya kiritiladi. G.Fit "jismoniy tarbiya ensiklopediyasi tajribalari" nomli uch tomli kitob yaratdi. Bu kitoblarda Fit o'sha vaqtlarda qadimgi dunyodan va to XIX asrgacha bo'lgan jismoniy tarbiya tarixiga ma'lum bo'lgan voqealarni bayon etadi, jismoniy tarbiyaning muhim ekanligini nazariy jihatdan asoslab berishga jismoniy mashqlar texnikasini va ularni o'qitish metodikasini bayon etishga harakat qildi.

G.Fit jismoniy mashqlarni "hammabob" va "ritsarlarga", "oddiy va murakkabga" bo'ladi. G.Fitning ta'biri bo'yicha gimnastikaga shunday mashqlarni qo'shish zarurki, u salomatlikni saqlaydi, mo'shak kuchini

oshiradi, tanani chiroyli shaklda rivojlantiradi, aniq va ishchi bilan harakat qiladi.

### **I.GUTS – MUTS (1795-1839 yillar)**

I.Guts-Muts gimnastika tushunchasiga birinchi bo‘lib tasnifni berdi. Uning qayd qilishiga ko‘ra, har qanday qo‘l mehnat tanani mashq qildiradi, biroq bunday gimnastika bo‘lolmaydi, chunki mehnatning maqsadi-birorta joyni qurishdan iborat bo‘lib, u mashq qilishdan tashqarida bo‘ladi, gimnastikaning maqsadi esa - o‘z tanasining fazilatlarini oshirish, uni har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Gimnastika bilan shug‘ullanish - bu o‘spirinning xursandligini yoritadi.

Guts-Muts “Yoshlar uchun gimnastika” “O‘spirin va erkaklar uchun texnik mashqlar” kitobini yozdi (1793-yilda); bu kitob Germaniya davlatlarida va Yevropaning boshqa mamalakatlarida bir necha bor nashr etiladi. Bu kitobning ommalashib ketishiga sabab shuki, muallif unda nazariy fikrlarini jismoniy mashqlarning jonli tasviri va ularni qo‘llanish metodikasi bilan birga qo‘shib bera olgan. Masalan, u mehnat harakatlari bilan jismoniy mashqlar o‘rtasidagi farqni shundan iborat deb biladiki, mehnat harakatlarida odamning g‘ayrati inson ixtiyoridan chetda bo‘lgan buyumlarni yaratishga, jismoniy mashqlarda esa insonning o‘zidagi boyliklarni yaratishga qaratilgan. Shuning uchun mehnat kishini charchatadi, deb yozgan edi u, -jismoniy mashqlar esa yaxshi kayfiyat va quvnoq kechinmalar hosil qiladi. Lekin yaxshi taqsimlangan qo‘l mehnati ma’lum darajada tanani takomillashtirishi mumkinligini inkor qilmaslik kerak, ammo qo‘l mehnatining o‘zi shu maqsadga bo‘ysunganligi uchun uning o‘zi gimnastikaning bir qismi bo‘lib qoladi.

Guts-Mutsning fikricha, gimnastikaning muskullarni mustahkamlashi, qon almashinishini tezlashtirishi, badanni chiniqtirishi, tanadagi ayrim muskullar va a‘zolarida epchil, tejamli va foydali harakatlar qilish malakasini o‘stirish va sezish organlarini takomillashtirish lozim: Guts-Muts tasvirlagan gimnastika mashqlari orasida kurashish, yugurish, sakrash, uloqtirish suzish, arqonga, langar cho‘p va daraxtlarga tirmashib chiqishga doir mashqlar, shuningdek, qo‘l mehnati va o‘yinlar ko‘zga ko‘rinarli o‘rinni egalladi.

## **BURJUA SPORT – GIMNASTIKA SISTEMASINING VUJUDGA KELISHI**

Angliyada sanoatning keskin o'zgarishi davrida sport musobaqalarini o'tkazish uchun muxsus bino va maydonchalar qura boshladilar. 1662-yildagi qonun bo'yicha, barcha o'qituvchilar anglikap butxonasiga yoki diniy jamoatga a'zo bo'lishlari va shu bilan birga jahonda kuchli harbiy-dengiz flotini tashkil etish va katta komeial mamlakatlar uchun, jismoniy tomondan rivojlangan yangi kishilarni tarbiyalashda faol qatnashishlari majburiy edi. Biroq Angliyada o'quvchi uchun jismoniy tarbiyalash uchun umumiy sistema yo'q edi. Bolalar bir necha xususiy tipdagi diniy va mutsinaltet maktablarda o'qirdilar. Shaxsiy kapitalistik maktablar orasida alohida yo'nalish bo'yicha Vinchester, Iton, Shrusberi va boshqa shaharlarda Pablik skulyoz egallardi, u feodalizmning rivojlangan davrida tashkil etilgan. Bu maktablar D.Lokk g'oyalarini tarqatishga va yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan otryadlari tayyorlovchi markazi bo'lgan.

ROBERT OUEN (1771-1858 yillar) Ishchi klub uchun yoki "harakterni shakllantirish uchun Yangi institut", ularning bolalari uchun bolalar bog'chasi, boshlang'ich maktab va ishlovchi o'smirlarga maktablar tashkil etdi. R.Ou Enni islox qilish faoliyati o'sha davrdagi Shotlandiyadagi Nyu-Lenorke ip-yigirish fabrikasining rahbari sifatida, bolalarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport vositalaridan keng foydalanishga yordam bergan, shu bilan birga 1819-yilda parlament ishlayotgan o'smirlarni va ayollarni ekspluatatsiya qilishni chegaralash haqida qonun qabul qildi. K.Mark va F.Engels R.Ou Enni tarbiyalash sistemasini yuqori baholadilar va Angliya mehnatkashlarining yutug'i uning nomi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib o'tdilar.

Angliya parlamenti 1838-yildan boshlab qisman bo'lsa ham xalq ta'limini mablag' bilan ta'minlab turdi. Mablag' asosan shaxsiy maktablarga berilardi, ularga o'quv rejasi bilan mos keladigan ertalabki va kechqurungi darslar o'rtasida jisomniy tarbiya va sport bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazishni tavsiya qilgan. Elementar maktabni bajarib chiquvchilar orasidan, universitet va kollejlarda ta'lim olishini davom ettirayotganlar rahbarligi ostida dengizdan tashqariga sayrga chiqishga trenirovka qilganlar orasidan otryad va komandalar tuzilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Kembrij va Oksoford universitetlarida xalq uchun ko'rgazmali sport chiqishlari va ommaviy ravishda ma'ruzalar o'tkazilardi, bu esa 5-12 yoshli bolalarni o'rgatishiga

majburiy ravishda kiritishga imkon beradi. (1870 yil. Forster akta), shu asosida jismoniy tarbiya elementlari amalga oshiriladi.

XIX asrning o'rtalarida Buyuk Britaniya burjuaziya havaskorlik sport assotsiatsiyasi sportning 18 ta turidan musobaqa o'tkaza boshladi. Qo'l jangi va kurash, masalan, bular ko'pchilik xalqlar orasida keng tarqalgan edi, biroq sport turi sifatida angliyaliklar orasida ommalashdi. Ular 1719-yilni rasmiy ravishda boks tarixining boshlanishi deb hisoblaydilar. 1741-yili mashhur bokschi Brouton o'yin qoidalarini yozdi. Ana shu qoida bo'yicha yuz yildan oshiq vaqt ichida eng kuchli bokschilar orasida musobaqalar o'tkazilib kelindi, 1866-yilga kelib Kuinsberg boks bo'yicha xalqaro musobaqalarning qoidasini takomillashtiradi. Xuddi shunga o'xshash harakterdagi o'zgarishlar boshqa sport turlarida ham bo'ldi.

Shimoliy Amerikadagi elementar va o'rta shaxsiy maktablarda jismoniy tarbiya 1775-1783-yillardagi mustaqillik urushida kolonistlarning g'alabasiga qadar kiritilgan edi. 1852-yili Massachusets shtatida boshlang'ich ta'lim bo'yicha umumiy majburiy qonun qabul qilindi, bunga qarshi grajdanlar urushi yillarida janubiy – irqchilar jon-jahdi bilan kurashdilar. Siyosiy-ijtimoiy jihatdan qayta qurilishlarning cho'zilib ketishiga imkon beradi va negrlar, indeyslar va meksikaliklardan kelib chiqqan amerikaliklarning ochiqdan-ochiq kamsitishlari hozirgi vaqtgacha saqlanib kelmoqda. Umumiy majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonunning barcha shtatlarda qabul qilinganiga yuz yildan oshib ketganiga qaramasdan, 1975-yilda negrlarning o'g'il va qizlaridan faqatgina 30 foizi o'rta maktabni tugatdi.

1860-yilda Amxersta universitetida jismoniy tarbiya va gigiyena kafedrasiga asos solindi. Keyinchalik shunga o'xshash kafedralar qariyb jahonning barcha oliy o'quv yurtlarida tashkil qilindi. AQSh – basketbol, voleybol va boshqa sport turlarining vatani hisoblanadi. Biroq AQSh federal davlati tomonidan bolalar va o'smirlar o'rtasida jismoniy tarbiya sporti rivojlantirishga 1959-yilgacha harajat qilinmadi. Musobaqani tashkil etish va o'tkazish munitsinalitetlar va havaskorlik assotsiatsiyalari tashabbusi bilan amalga oshirib kelindi.

Germaniya, Daniya, Shvetsiya, Fransiya va boshqa Yevropa kontenital davlatlarida tarbiyaga, gimnastikaga katta rol ajratilgan va o'sha davrda jismoniy tarbiya va sportning barcha arsenal vositasi gimnastika deb aytilgan. Napoleon armiyasi tomonidan Germaniyani bosib olgan davrda fransiyaliklarni hukmronligi davrida ularga qarshi qurollanganlarni tashkil qilishi uchun sirli uyushma va sport gimnastika jamiyati tashkil

qilinadi. 1810-yilning yozida Karl Frizen tomonidan chet elliklarning hukmronligiga qarshilik ko'rsatadigan qonuniy shaklda birlashgan kuchni tashkil etadi - bu havaskorlik gimnastika to'garagi edi. K.Fizen Napoleonga qarshi ozodlik uchun kurashda halok bo'ldi, biroq Germaniyaning yangi shakldagi vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan kuch birlashmasini milliy ozodlik harakatining qatnashchisi F.YaN tomonidan foydalanilgan.

Fridrix Yanning 1778-1852 yillar "Nemis xalqchiligi" kitobida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik qarashlarini ifoda qiladi. Fridrix Yan gimnastika yordami bilan o'rmondagi yalanglikda (hozirgi Berlindagi Yan nomidagi parkda) gimnastika shaharchasini qurdi, bu yerda shunday qasamyod qiladiki, gimnastika Prusslarni dushmani do'stlari haqida xabar qiladilar. F.Yan amaliy mashg'ulotlar o'rtasida germaniyalik ritsarlarni ko'klarga ko'tarishda millatchilikni tashviqot-targ'ibot qilish uchun foydalandi.

F.Yan Germaniya Napoleon armiyasidan ozod qilingandan keyin hamma yerda gimnastika maydonlarini jihozlashga chaqirdi-harbiy mashq o'tkaziladigan maydon, katta yoshdagi aholi uchun pulli tir, qayiqlar bekati va fektovaniya zallari qurdilar. F.Yan va Ye.Eyzlenlar "Nemislarning gimnastika san'ati" kitobida gimnastika asbob-anjomlarida harakatlarni o'rgatish usullari va bir qator metodik tavsiyanomalarni yozadilar. F.Yan fikricha, musobaqaning eng yuqori shakli, turnirlik harakati - bu tabaqa bo'yicha tashkil qilingan nemis qiroli sharafiga bayramdir ya'ni zodagonlar, burjuaziya, dehqon va ishchilar orasidagi bayramdir.

F.Yanning harbiylashtirish jismoniy tarbiyasi harbiylashtirish toji (cho'qqisi) - bu aholi o'rtasida erkaklarning harbiy xizmatga layoqatlarini, jangovor tayyorgarligini namoyish qilishdan iborat. Taraqqiyparvar nemis pedagoglari va jamoat arboblari jismoniy tarbiyani tevtonomiyasiga qarshi chiqdilar, ular F.Yanni josuslikda aybladilar.

Biroq Germaniyaning janubiy-g'arbidagi yerda gimnastika tashkilotining ichki reaksiyasiga kurashish chog'ida asta-sekin aylanabordi, buni tanasida Prusslarni yunkerlar hukumatlari turardi. Karl Follen (1796-1840) turner-respublikachilarni boshqardi, bu Germaniyani birlashtirishga jonbozlik ko'rsatdi. Germaniyaning ko'pchilik turnerlari feodal reaksiyaning taqibi ostida chet elga ketishga majbur bo'ldilar va chet elda nemislarning gimnastikasi ommalashtirdi. 1842-yilga kelib gimnastika harakatlarini taqiqlash bekor qilindi va har bir yoshdagi

o'quvchi yoshlar uchun metodik talab taqdim qiladigan G.Egerni jismoniy tarbiya sistemasini ommalashtirdi.

Gimnastika pedagogikasining rivojlanishiga hissa qo'shgan Adolf Shpis (1810-1858 yillar), bir necha yil davomida Shveysariya maktablarida ishladi va o'zining to'rt qismdan iborat bo'lgan. "Gimnastika san'ati to'g'risidagi ta'limot" nomli asarini nashrga tayyorladi. P.F.Lesgaftning ta'rifi bo'yicha maktabdagi gimnastika mashqlarini o'qitish qoidasini aniqlab berdi. Dars tartib nomeri, ya'ni sof va gimnastika qayta saflanishilar bilan boshlanadi, keyin esa erkin umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o'tkaziladi. Bu yerda Shpies ilgari Pestalossi va Fit tomonidan tavsiya etilgan elementlar mashqlaridan foydalanadi va o'zining ham huddi shunday tipdagi bir qancha mashqlarini ishlab chiqdi. Bu mashqlarning yo'nalishi va maqsadi-shug'ullanuvchilarning organizmini apparatlarda kombinatsiyaning bajarishiga tayyorlaydi, ya'ni gimnastika asbob-anjomda harakatini o'rganish uchun optimal imkoniyat yaratdi. Nemis tilida dars o'tkazilayotgan F.YaN va Ye.Eyzeleenni maktabida udabburonlik san'ati A.Shpisni "Turikdist" ini ommalashtirdi.

Nemis gimnastikasidagi jismoniy mashqlarning o'quvchilar organizimga ta'sir etishi hisobga olinmagan, biroq ular murakkabligi bo'yicha to'rtinchi bosqichga ajratilgan bo'ladi. Darsning oxirida, darsning boshlanishidagidek qayta saflanishlar o'tkaziladi, u o'sha vaqtda harbiy-taktik (chiziqlar) tayyorgarlikda askarlarni bajrishiga to'g'ri keladi. Shpis barcha mashqlarni qiyinligi jihatidan uchta bosh yo'nalishini aniqladi: F.Yan va Ye.Eyzeleanning asbob-anjom kasbiy gimnastikasi; b) A.Shpissni ko'r-ko'rona qattiq intizomga asoslangan gimnastika; v) G.Egerni sport-amaliy gimnastikasidir.

## **GUST-MUTSNING O'QUVCHISI FRANS NAXTEGAL (1776-1847 yillar)**

Naxtegal Daniyada "Jismoniy tarbiyani rag'batlantirish jamiyati" tashkil qildi, 1799-yilda esa gimnastika maktabini tuzdi. Gimnastika maktabini bitirib chiquvchilar tezda qaytadan tashkil qilingan gimnastika institutiga aylantiriladi va jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirib yubordilar. F.Naxtegal harakatlantiruvchi harakatni o'rgatishida ma'lum sistemalarni taklif qiladi. Biroq uning tashabbusi bo'yicha gimnastika o'quv fani sifatida aniq dastur bo'yicha Daniyaning o'quv yurtlariga kiritildi. F.Naxtegal tarbiya bo'yicha pedagoglarning va jamoat arboblarning asarlaridan unumli foydalandi va shaxsiy gimnastika bo'yicha kitobni nashr qildirdi, uning gimnastika bo'yicha shahar va

qishloq xalq maktablari uchun yaratilgan darsligi bir necha marta qayta nashr qilindi va boshqa davlat maktablari uchun ham tarjima qilindi.

F.Naxtegalning ish tajribasi chet tili, qilichbozlik o'qituvchisi va shvetsiyalik mifolog Per Ling (1776-1839 yillar) takomillashtirdi. U bir qator yevropa davlatlarining jismoniy tarbiyani tashkil qilishi bilan tanishib chiqib, Shvetsiyada aqlga (maqsadga) muvofiq – gimnastika maktabini yaratadi. 1813-yili Ling Stokgolmda gimnastika institutini, u hozirgacha Qirolga qarashli deb aytiladi. Bu yerda u gimnastikani o'qita boshladi. P.Ling shuni ko'rsatib o'tdiki, harbiy gimnastikani tashkil qilish bo'yicha qilingan ishlardan tashqari, pedagogika, tibbiyot va estetik aqlga (maqsadga) muvofiq gimnastika maktabi sohasida tadqiqot ishlarini olib borish juda zarur degan edi. P.Lingning o'quvchilari uning o'g'li Yalmar Ling (1820-1886 yillar) boshchiligida pedagogika gimnastikasini takomillashtirdilar. Pedagogika gimnastikasida gimnastika skameykasida, yakka cho'pda, devorda bajariladigan mashqlardan, shuningdek, chang'i, konki, otda va qayiqda harakatli o'yinlarda o'quvchilarning musobaqalarda keng foydalanildi.

Gimnastika asbob-anjomlarida mashqlarni bajarishdagi zo'riqishdan keyin shug'ullanuvchilarni chalg'itish maqsadida harakatli o'yinlar va qo'l mehnati o'tkazilardi. Shu bilan bog'liq bo'lgan shved gimnastika darsi 12-18 qismdan iborat bo'lar edi. Darsning bunday murakkab sxemasi hech bir jihatdan oqlanmagan edi.

Dars jarayonida, ayniqsa, harakatni boshlashdan oldin, hozirgi vaqtgacha o'zining rolini yo'qotmagan dastlabki holatga katta ahamiyat beriladi. Qo'l va oyoqni qa'tiy simmetrik harakatini har bir harakatdan keyin pauza qilib tezda to'pni to'g'ri chiziq va burchak bo'ylab to'xtash bilan (qo'llar yon tomonga uzatilgan, qo'llar ko'krak oldida, oyoqlar yelka kengligida va b.q) harakat har doim dastlabki holatdan bajarilishini tavsiya qilingan. Mo'shak guruhlari bo'yicha jismoniy mashqlarning tavsifi va gavdaning barcha qismlarining har tomonlama rivojlanishida shved gimnastikasi yaxshi reklamani tashkil qiladi, bu esa dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarga tarqalgan edi.

### **PER LING (1776-1839 yillar)**

Shvetsiyada ham jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish ishi xuddi Daniyadagidek o'xshash edi. Farqi shunda ediki, shvedlar filantroninlarning ko'rsatmalariga emas, balki o'zlarining vatandoshi Per Ling tomonidan yaratilgan gimnastikaga tayandilar.

1813-yili Ling Stokgolmda gimnastika institutini (u hozir ham Qirol instituti deb ataladi) tashkil qildi, bu yerda u o'z gimnastikasini o'qita boshladi. Ling gimnastikaning to'rt turini harbiy gimnastika, pedagogik gimnastika, shifobahsh gimnastika va estetik gimnastikani ajratdi, lekin harbiy gimnastikani yaratish ustida ish olib bordi. Hatto Shved pedagogik gimnastikasi yaratilgan vaqtda ham, Ling bu gimnastikani harbiy gimnastikaga tayyorlovchi qism sifatida tan oldi va uni maktablarning kichik va o'rta sinflarida o'qitish uchun tavsiya qildi. Shved shifobahsh gimnastikasi pedagogika gimnastikasini to'ldirar va o'z prinsipi jihatidan undan hech bir farq qilmas edi, chunki pedagogika gimnastikasining o'zi gigiyena harakteriga ega edi. Estetik gimnastikasi esa o'sha vaqtlarda Ling tomonidan ishlab chiqilmagan edi.

Pedagogik gimnastikani Per Lingning o'g'li Yalmer Ling (1820-1886 yillar) boshchiligida uning o'quvchilari ishlab chiqdi va takomillashtirdilar. Pedagogik gimnastikaning devorchasi skameykasi yakka cho'pda va hokazolarda shuningdek, chang'ida, konkida, otda, qayiqda harakatli o'yinlarda va o'quvchilarning mehnat harakatidan kengroq foydalandilar. Harakatli o'yinlar va qo'l mehnati gimnastikani asbob-anjomlarida zo'riqishdan keyin shug'ullanuvchilarning chalg'ishi maqsadida o'tkazilardi. Shu bilan birga Shved gimnastika darsi 12-18 qismdan iborat bo'lar edi. Darsning har bir qismida tananing biror qismiga ta'sir qilishi yoki unidan oldingi zo'r kuch bilan bajarilgan mashqlardan chalg'itish nazarda tutilardi. Keyinchalik yuklamani darslarda "egri" chiziq deb ataladigan siniq chiziq shaklida tasvirlay boshladilar: bu chiziq so'nggi chorakka oshirish tendensiyasiga ega edi, so'ngra boshlang'ich nuqtaga qadar keskin pasayib ketar edi.

Dars jarayonida, ayniqsa, harakatlantiruvchi harakatning boshlanishi oldidan hozirgidek o'z rolini yo'qotmagan, dastlabki holatlar qo'llar, oyoqlar va gavda uchun turli – tuman bo'lgan. Ularning ko'pchilik qismi foydali bo'lib bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan; masalan, "Qo'llar ko'krakka qo'yilsin", "qo'llar balandlikka ko'tarilsin", "Qo'llar ensaga qo'yilsin", "Qo'llar yon tomonga uzatilsin", "Oyoqlar yelka kengligida qo'yilsin", "Bir oyoq yon tomonga qo'yilsin" mashqlarning dastlabki holati. Shved gimnastikasining mashqlari juda haqli ravishda, mashqlarning to'g'ri bajarilishi ko'proq dastlabki holatni to'g'ri tanlashga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Ko'pgina tibbiyot xodimlari va pedagoglar masalaning mohiyatini anglamasdan, gimnastika mualliflarining so'ziga ishonib Shved gimnastikasini ilmiy jihatdan asoslangan gimnastika, deb keldilar.



P.F.Lesgafiy birinchi bo‘lib bu sistemani keskin tanqid qilib, unda hech qanday ilmiy asosning yo‘qligini isbotladi. Gimnastika mualliflarining anatomiyadan keltirgan ayrim dalillari noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Shved pedagogika gimnastikasi emas edi, chunki uning hech qanday ta‘lim-tarbiyaviy asosi yo‘q edi. Uning metodikasida marakziy nerv sistemasi e‘tiborga olinmas edi va chidamlilik, epchillik, harakatlarning chaqqonligi, shuningdek, jasurlik, dadillik, talabchanlik singari eng muhim fazilatlarni tarbiyalash nazarda tutilmas edi.

Fransiyada revomotsiya yillarda tarbiyaning yangi sistemasini loyihalari tashkil etildi. O‘smirlar guruhlarini tashkiliy ravishda harbiy mashqlar va gimnastika, o‘yinlari bilan shug‘ullanganlar Napoleon davrida yoshlar komandalari maktab batalonlariga aylantirilgan bo‘lib, hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanar edi. Fransiya burjuaziyasi kelib chiqishi ispaniyalik Fransisko Amorosning shaxsiy gimnastika maktabining ochilishini qo‘llab-quvvatladilar. Fransisko Amoros (1770-1848 yillar) hukumat tomonidan inspektor-metodist qilib tayinlandi. U Parijda harakatdagi va hozirgi vaqtda sport markazi deb ataladigan “Harbiy gimnastika tartib”. “Jismoniy, gimnastika va axloqiy tarbiya bo‘yicha boshqarishni” hukumatga tasdiqlashga taqdim qildi.

Amorosning “Jismoniy, gimnastika va axloqiy tarbiyaga doir qo‘llanma” nomli kitobi mukofotga taqdim etilgan va oliy ta‘lim soveti tomonidan Fransiyadagi barcha maktablarning kutubxonalari uchun tavsiya qilingan edi.

Elementar jismoniy mashqlar, Amorosning fikricha, “o‘qishni o‘rganish vaqtida harflar qanday rol o‘ynasa, gimnastikada ham xuddi shunday rol o‘ynaydi”. Bu mashqlar odamning barcha qobiliyatlarini o‘stirish uchun zarur bo‘lgan asoslarni yaratishi lozim. Amoros ko‘krak qafasining taraqqiy ettirishiga alohida ahamiyat berdi. “O‘z muskullarini chiniqtirib, o‘pkasini taraqqiy ettirmagan kishi”, - deb yozgan edi u - mutloqo chidamli hisoblanmaydi, balki bir tekisda uzoq vaqt va chuqur nafas olish qobiliyatini o‘stirgan kishi chidamli hisoblanadi.

Amoros jismoniy tarbiya vositalari bo‘yicha gimnastikani fuqaro gimnastikasiga, harbiy gimnastikaga, davolash gimnastikasiga va sahna (artistlar) gimnastikasiga ajratdi. Metodik ko‘rsatmalar esa gimnastikaning barcha turlarida o‘zgarmasdan qolaverar edi.

Amorosning fikricha jismoniy tarbiya pedagoglarining tashabbus va ijodini cheklab qo‘ymaydi. U o‘sha vaqtlarda ma‘lum bo‘lgan eng qimmatli jismoniy mashqlarni o‘n besh guruhga ajratdi. Har bir pedagog o‘z o‘quvchilariga to‘g‘ri keladigan mashqlarini tanlab olishi mumkin edi.

Pedagog o'z o'quvchilarining ularning o'rganishi qiyin bo'lgan mashqlar bilan shug'ullantirishga va ularda kam rivojlangan sifatlarni mukammallashtirishga yordam beradigan mashg'ulotni rag'batlantirishga yo'l ko'rsatishi lozim edi. U har bir mashg'ulotning qiziqarli o'tishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerak edi. Bunga qisman har bir mashqni egallash texnikasining musobaqa metodi yo'li bilan erishilar edi. Tabiiy-amaliy gimnastika jismoniy tarbiya taraqqiyoti sistemasini yaratishda jiddiy urinish bo'ldi. Bu gimnastika xalq ta'limi ilg'or loyihalarini ham esidan chiqarmagan fransuz burjuaziyasining kamroq qismi manfaatlariga muvofiq kelar edi. Biroq burjuaziyaning bu qismi hech qanday ta'sirga ega emas edi va Amoros rejalarining amalga oshirilishiga yordam bera olmas edi.

## **YANGI ZAMONNING IKKINCHI DAVRIDA CHET MAMLAKATLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT**

1871-yildagi Parij kommunasi yangi zamonning ikkinchi davrini boshlab berdi. Parij kommunasidan keyin ilg'or kapitalistik mamlakatlar proletariatining siyosiy hokimiyat uchun kurashga tayyor ekanligi ma'lum bo'ldi. Endilikda kapitalistik tuzumini ishlab chiqarish kuchlari va jamiyat madaniy hayotining taraqqiy etishiga to'sqinlik qila boshladi. "Ozod" deb atalmish kapitalizm o'sib, asta-sekin imperalizmga aylana boshladi.

Ko'pgina mamlakatlarda kapitalistik industrlashtirish jarayoni yuz berdi. Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarning katta hududlari yirik kapitalistik davlatlar o'rtasida taqsimlandi. Keng xalq ommasining qashshoqlanishi kuchaydi. Ishchilar sinfi son jihatidan o'sib bordi.

Bu davrda ko'pchilik kapitalistik mamlakatlarda ishchilar harakati keng quloch yoya boshladi. Shu bilan birga ishchilar sport tashkilotlarining taraqqiy etishi uchun ham qulay sharoitlar vujudga keldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kapitalizm o'z taraqqiyotining imperalistik bosqichiga uzil-kesil o'tdi.

Burjuaziya jahonning turli mamlakatlarida, ayniqsa, Yevropada burjua millatchiligi ruhida tarbiyalaydigan yarim harbiy-yarim sport tashkilotlarini vujudga keltirishga kirisha boshladi. Masalan, XX boshlaridayoq dastlab Angliyada, ko'p o'tmay boshqa mamlakatlarda boyskautlar (razvedkachi bolalar) otryadlari paydo bo'ldi. Fransiyada yigitlar batalonlari tuzildi. Rossiya esa "erman" otryadlari maydonga keldi.

Chex yoshlarini barlashtirishning asosiy shakli 1862-yilda tashkil topgan “Soqol” gimnastika jamiyati bo‘lib qoldi. Jamiyat tashkilotlarining soni jadal o‘sib bordi.

“Soqol” gimnastikasining muallifi, gimnastika mashqlarining asosiy texnikalari va metodlarini ishlab chiqqan falsafasi va estetika professori Miroslov Tirsh (1832-1884 yillar) edi.

1871-yilga kelib, Chexiyada allaqachon 130 ta “Soqol” jamiyati bor edi va xuddi shu nom bilan maxsus jurnal chiqarilar edi. Jamiyatda chex burjuaziyasi jismoniy tarbiyasining milliy sistemasi tarkib topib, “Soqol” gimnastikasi deb atala boshladi. Bu gimnastika ayrim jihatlari bilan nemis gimnastikasini eslatar edi, chunki uning asosiy vositalari gimnastika asbob-anjomlarining qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlardan iborat edi. Xuddi nemis gimnastikasi singari bunda ham mashqlarning kishi organizmiga bo‘lgan ta‘siriga emas, balki harakatlar shakliga asosiy e‘tibor berilar edi. “Soqol” gimnastikasining mualliflari o‘z o‘quvchilarini bir xil mashqlarni o‘n martalab bajarishga majbur qilmasdan, gimnastika mashqlarining murakkab va chiroyli kombinatsiyalarni ishlab chiqdilar. Hozirgi sport gimnastikasi ham xuddi ana shu “Soqol” gimnastikasidan o‘sib chiqqan. Chexlar harakatlarning, qayta safga turishlarning va hatto kiyimlarning go‘zalligiga g‘oyat katta ahamiyat berar edilar. Har qanday noto‘g‘ri harakat bekor qilinardi. Gavda va oyoqlarning nozik, aniq va tashqi ko‘rinishidan go‘zal holatlarigina amalda qo‘llanilar edi. Gimnastikani juda ham chiroyli qilish uchun har xil buyumlardan: tayoqlar, sharflar, qadimiy qurol turlari (nayzalar, qalqonlar, gurzilar) va hokazolardan foydalanar edi.

Turnik, parallel bruslar, qorinda bajariladigan mashqlar, shuningdek, erkin mashqlar va muzikaga jo‘r bo‘lib, buyumlar yordamida bajariladigan mashqlar, akrobatika mashqlari, ayniqsa, puxta o‘ylab ishlab chiqilgan edi. Barcha mashqlar to‘rt guruhga bo‘linar edi: 1) asbob-anjomsiz bajariladigan mashqlar va hokazolar; 2) asbob-anjomlar bilan bajariladigan mashqlari ya‘ni buyumlar yordamida bajariladigan mashqlar; 3) Guruh bo‘lib bajariladigan mashqlar piramida o‘sishlar va hokazolar; 4) Harbiy mashqlar, qilichbozlik. kurashish. Mushtlashishda qo‘llaniladigan mashqlar.

Darsda mashqlar sof tashqi xususiyatlariga qarab vaqtlar bo‘yicha taqsimlanar edi: avval tartibli mashqlar, ya‘ni saflanish mashqlari, so‘ngra esa erkin mashqlar, undan keyin asbob-anjomlarda bajarilar edi. Asbob-anjomlarda bajariladigan mashqlarni o‘rganish vaqtida shug‘ullanuvchi o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, keyin bir – biri bilan o‘rin almashtirar

edi. Nihoyat, guruh bo'lib bajariladigan mashqlar o'rgatilar edi. Kiyimlarning bir xilda bo'lishi va mashqlarning turli xildaligi mashg'ulot ko'rinishini ancha ko'rkam va chiroyli qilar edi.

Sport va sport o'yinlarining yangi burjua idealogi, ingliz faylasufi va pedagogi Spenser (1820-1903 yillar) edi. Spenser pedagogikada inson o'z-o'zini himoya qilish istagini taraqqiy ettirish, o'zining menini qaror toptirish va o'z urug'ini himoya qilish zarurligini birinchi o'ringa surdi. Spenserning fikricha, jismoniy tarbiya burjuaziya bolalari uchun boshqa kishilar bilan raqobatlashish, kurashish malakasini hosil qilishga imkon berishi kerak edi. Bolalarni kelajakdagi kurash uchun axloqiy jihatdagina emas, balki jismoniy jihatdan ham tayyorlash kerak, deb yozgan edi u, chunki urushdagina emas, balki turmushda ham yaxshi jismoniy tayyorgarlik natijasida muvaffaqiyatga erishish mumkin emish. Mehnatkashlarning bolalari uchun esa u bolalarning kapitalistik korxonalarda yaxshi ishlashi uchun yordam beradigan jismoniy tarbiyani tavsiya etdi. Spenser ko'proq sport va o'yinlar bilan shug'ullanishni tavsiya qiladi. Gimnastikaning u bunday holda foydasi yo'q deb hisoblaydi.

Nemis faylasuf – xayolparast reaksioneri Fridrix Nisshe (1844-1900-yillar) mehnatkashlarga qarshi va dushmanlik qilish jismoniy kuchni madh qilish va kuch qo'llash nuqtai nazaridan qaraydi. U har xil yo'llar bilan xalq ommasini ekspluatatsiya qilishni va harbiy bosqinchilikda aybsizligini oqlardi. Fridrix Nisshe “odamning qo'lidan kelmaydigan”, yuqori tabaqalarini tarbiyalash, irqning ustunligi nazariyasini ilgari surdi. U armiyani toza asl ariylardan (nemislardan) gimnastika mashqlari, ayollarni jismoniy rivojlanishi maqsadga muvofiq bo'lgan, sog'lom otionalarni sun'iy tanlab olish yordamida tuzishni taklif qiladi.

G.Spenser va F.Nisshening falsafiy va pedagogik g'oyalari kapitalizm va boshqa vakillar, ko'proq burjuaziya sport-gimnastika harakatining faoliyati yo'nalishi hamda mazmunini aniqlab beradi.

XIX asrning 70-yillarigacha vujudga kelgan gimnastika sistemasi bilan taqqoslaganda ko'proq fransuz gimnastikasining tobora o'sib borishi Jorj Demeni (185-1917 yillar) va Jorj Eberlar (1875- 1957 yillar) bilan bog'liqdir. J.Eber o'zining jismoniy tarbiyasini “tibbiy metodi” qo'llanmasida “yovvoyi odamlarning” zamonaviy odamlardan ustunligini, go'yoki ularda tibbiy harakatning boy xazinasini borligini asoslab berdi. Shu bilan birga Eber “Kuchlar kodeksi”ni taklif qiladi, unda asosiy tibbiy harakatning sakkizta guruhga tayangan: yugurish, sakrash, uloqtirish, otish, suzish, og'irlikni ko'tarish, himoya va hujum, Eberning

gimnastikadagi tibbiy harakatni harbiy-amaliy mashqlari keng foydalanilgan, u esa askarlarni tayyorlashda jismoniy tarbiyaning tibbiy metodlarini o'quv yurishlarida, armiya va flotda tarqatdi. Eber shuningdek, jismoniy mashqlarning turlari bo'yicha qatnashganlarni baholashda yetti balli shaklini o'rnatdi. U sport iqtisosligiga qarshi chiqdi va chaqiriqqa yoshlarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun kompleks musobaqa o'tkazishni taklif qildi. Eberning jismoniy tarbiyaning tibbiyot metodi yoshlarning harbiy – amaliy tayyorgarligi talablariga mos keladi. Eber askarlarni, kuchli va epchil egiluvchan va chidamli, tez va tejamkorlik bilan harakat qilishga qodir, miltiq, qilich, to'ponchani dadil tuta oladigan qilib tarbiyalashga harakat qildi. Biroq ilmiy asosga mos kelmasligi tufayli Eberning jismoniy tarbiyaning tibbiy metodi jismoniy tarbiya vositasini sog'lomlashtirishga yo'naltirilganiga qarshi chiqadi, ayniqsa, inson organizmining o'sish davrida.

Jorj Demeni 1880-yili o'spirinlar va qizlar uchun maqsadga muvofiq gimnastika klubini tashkil qildi. O'spirinlar uchun Demening maqsadga muvofiq gimnastikasi Eberning "Kuchlar kodeksi" va jismoniy tarbiyaning tibbiy metodlarining maqsadi va me'yoriy ko'rsatmalaridan hech qanday farqi yo'q edi. Biroq shu bilan birga Demening gimnastikasi sog'lomlashtirish vazifasini hal etardi va sport mashqlarining har bir turida ko'proq xili bo'lardi. Darsga qizlar uchun juft – juft, guruh bo'lib raqs qadamlari va bulavalar, metallar bilan bajariladigan mashqlar qo'llanilgan. Bir qator Yevropa davlatlarida jismoniy mashqlar mashg'ulotini o'tkazish metodikasini o'rganib, Demeni shunday xulosaga keldiki, jismoniy tarbiya va sportni haddan tashqari sun'iy vositalaridan voz kechdi, ayniqsa, shvedlar metodi bo'yicha o'zining klubidagi amaliy faoliyatdan keyin, Demeni birinchi jahon urush yillarida o'z sistemasi ustida ishlashni tugatdi. Demeni gimnastika mashqlari, mukammaligining quyidagi belgilarini ko'rsatib o'tdi.

1. Mashqlar turg'un emas, balki serharakat bo'lishi kerak.

Mashqlarning asosiy belgisi - holat emas, harakatdir. Harakat tezligi massaga teskari proporsional, ya'ni qo'llar harakati bir muncha tezroq, oyoqlarniki sekinroq bo'lishi lozim. Gavda harakati yanada sekinlik bilan bajarilishi kerak.

2. Harakatlarning tugallangan tebranish kengligi mashqlarning bajarilishida zarur shartidir. Harakatlar tugallanmasdan turib sun'iy ravishda to'xtatilmasligi kerak. Agar muskullarning bir guruhi to'liq qisqarguncha taranglashsa, unga qarama-qarshi muskullar to'liq uzaytirilgan bo'lishi lozim.

3. Harakatlar shakli jihatidan silliq bo'lishi, ammo eski gimnastika sistemalarida qabul qilinganidek, o'tkir burchaklar va to'g'ri chiziq ko'rinishida bo'lmasligi kerak. Harakatlar yo'nalishi turli-tuman bo'lgani ma'qul.

4. Mashqlar bajarilayotgan paytda ishtirok etmayotgan muskullar bo'shashgan bo'lishi kerak. Bu charchash darajasini kamaytiradi va ortiqcha harakatlar qilmaslikka o'rgatadi.

Harakatlarni o'rganishni oddiylardan boshlash zarur. Dastlabki gavdaning ayrim qismlari uchun bir – biriga bog'liq bo'lmagan mashqlar alohida – alohida bajariladi. (qo'l panjasi bilan, boldir, oyoq, gavda) so'ngra gavda ayrim qismlari: harakatining birgalikda bajarilishi kerak (ikki qo'l; qo'llar va gavda; qo'l va oyoqlar) va nihoyat, ularni gavda o'zgarishilari bilan birga, ya'ni yurish, yugurish va sakrash holatida (masalan, qo'llarni aylantirib yugurish va shu kabilar) bajarish lozim.

Shunga oid gimnastika mashqlari sport mashqlari oldida tayyorgarlik rolini bajaradi. Sport mashqlarida gimnastikaning ortiqcha harakatlar qilmasligi prinsipi qo'llanishi kerak. Demenining sport mashqlari ham o'z mohiyati bilan gimnastika mashqlari murakkabroq mashqlar edi. Agar yosh yigit tayyorlovchi gimnastika mashqlari vositasida asta-sekin murakkablashib boruvchi harakatlarni o'rganib oladigan bo'lsa, unda sport mashqlarida bu harakatlarning murakkab faoliyat jarayonlaridayoq bajaradigan bo'ladi, - degan edi. P.F.Lesgeaft.

Demeni sport mashqlarini yetti xilga bo'lgan edi. Bular yugurish; sakrash, tirmashish, og'irlik ko'tarish va kurashish, irg'itish yoki uloqtirish, himoyalash va hamla qilish. Bu turdagi har bir mashq turli ko'rinishga ega edi (masalan, turgan joyda sakrash, oldindan orqaga yoki tomonlarga siljitib sakrash, yugurib kelib sakrash). Binobarin, Demeni sport mashqlari uchun gimnastika metodini qo'llab, sportni gimnastikaga singdirib yuborgan edi. Bunda sportning harakterli xususiyatlari va uning ijobiy tomonlari yo'qolib ketgan edi.

Demeni mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'zi ishlab chiqqan darslarni shartli tasvirini taklif etadi. Bu shartli tasvir yetti qismdan iborat bo'ladi. Har bir qismda mashqlarni bajarishdan ko'zda tutilgan maqsad va unga erishish uchun bir necha vosita taklif qilinar edi. Demeni sistemasi burjua gimnastika sistemasiga xos vazifalarni hal qilish imkonini berar edi. Garcha o'sha vaqtda Demeni gimnastikasi ilmiy jihatidan asoslangan tizimlaridan bir bo'lsa-da, biroq amalda kam qo'llaniladi.

## **SPORTNING TARAQQIY ETISHI VA XALQARO SPORT UYUSHMALARINING VUJUDGA KELISHI**

XIX asrning 70-80-yillariga kelib rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda sport shuhrat qozongan edi. Ammo ko'pchilik kishilar sportga bo'sh vaqtda sport bilan mashg'ul bo'lish hamda o'yin – kulgi uyushtirish vositalaridan biri deb qarar edilar. Yaxshi tarbiya olgan yosh yigit uchun sport mashg'ulotlarida ishtirok etish hamma vaqt ham munosib mashg'ulot hisoblanavermasdan. Ammo yoshlarda sportga bo'lgan qiziqish ortib borardi, ular sport musobaqalar jarayonida o'z jismoniy kuch va irodaviy fazilatlarini namoyish qilishga harakat qilardi. Shuningdek, yoshlar sport yordamida organizmlarini o'stirish va takomilga yetkazish uchun tirishardilar.

Yangi paydo bo'lgan sport klublari va to'garaklari ham (garchi bu tashkilotlar dastlabki paytlarda uncha ko'p bo'lmasa-da) yoshlarda sportga qiziqish uyg'otishda muhim rol o'ynaydi. Sportning turli-tuman turlaridan o'tkaziladigan ommaviy musobaqalar katta tashviqot-targ'ibot ahamiyatiga ega bo'ladi. To'g'ri, dastlabki yillarda ko'pgina musobaqalar sirk tomoshalariga yoki ot poygalariga o'xshab ketardi, ammo bunday hollar uzoq davom etmadi. XIX asrning 70-80-yillaridan boshlab sportning ko'pgina turlari bo'yicha musobaqalar muntazam ravishda o'tkazila boshlandi.

Sport musobaqalari tasodifan bir hol bo'lmasdan, balki muntazam ravishda o'tkazila boshlaganligi sababli o'tgan asrning 80-90-yillarida xalqaro uyushmalar vujudga keltirish zarurat tug'ildi. 1880-yili Yevropa gimnastika soyuzi, 1892-yili esa eshkak eshish bo'yicha xalqaro federatsiya, konkichilar xalqaro soyuzi tashkil topdi. 1894- yili Fransuz faylasufi, olim, sport arbobi de Kubertenning tashabbusi bilan xalqaro Olimpiada o'yinlarini o'tkazish vazifasini o'z zimmasiga olgan Xalqaro Olimpiada qo'mitasi tuzildi.

1896-yilda Gretsiyaning Afina shahrida bo'lib o'tgan birinchi Olimpiada o'yinlari sportga va xalqaro sport musobaqalariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi. Yangi xalqaro uyushmalar vujudga kela boshladi. 1897-yilda Xalqaro gimnastika federatsiyasi, 1900-yilda Xalqaro velosipedchilar Soyuzi, 1904-yilda Xalqaro futbol federatsiyasi, 1908-yilda Xalqaro havaskorlar suzish federatsiyasi va xalqaro muzda o'ynaladigan xokkey soyuzi, 1912-yilda Xalqaro havaskorlar yengil atletika federatsiyasi, 1913-yilda esa Xalqaro qilichbozlik federatsiyasi yuzaga keldi.

Havaskor sportchilar uyushmalaridan tashqari sportning ayrim turlaridan professional sportchilar xalqaro uyushmalari ham vujudga keldi.

Barcha mamlakatlar burjuaziyasi va burjua hukumatlari yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini har jihatdan qo'llab-quvvatladilar va sport tashkilotlarining o'sishini rag'batlantirdi. Ular yuqorida aytib o'tilganidek, sportdagi yoshlarni burjua millatchiligi ruhida tarbiyalash vositalaridan birigina emas, balki harbiy xizmatga chiqaruvchilarga harbiy tayyorgarlik berishining va yoshlarni siyosiy hayotdan chalg'itishning yaxshigina vositasi ham deb bildilar.

Burjuaziya yoshlarga ta'sir ko'rsatishni tobora kuchaytirishga urinar edi, shu maqsadda sport ishlarini sportdan hali tashkilotlar ishlariga aralashtirar hamda yangi sportdan boshlab Xristian yoshlari sayuzida (UMSA) majburiy ravishda sport mashg'ulotlari joriy qilindi, keyinchalik esa UMSA tashkilotlarida ishlash uchun sport o'qituvchilari tayyorlana boshlandi. 1896-yili sayuzda sport uyushmalari tuzilgan edi. Bu uyushmalarning birinchi jahon urushining boshlanishi oldida qariyb yarim million a'zosi bo'lgan. Sayuzning faoliyati faqat Amerika qit'asigagina emas, balki jahonning boshqa qismlariga ham tez yoyildi. Xristian yoshlar soyuzi tashkilotlari hozirgi vaqtda ham ko'pincha kapitalistik mamlakatlarda ishlab turibdi. Bu tashkilotlar o'z a'zolarini jismoniy jihatdan tarbiyalashni diniy tarbiya bilan birga bog'lab olib bormoqdalar.

Shunday qilib, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida kapitalistik mamlakatlar keng tarmoqli turli asosda tuzilgan hamda har xil kishilar – hukumat amaldorlaridan tortib ruhoniylargacha, kapitalistlardan tortib sotsial-demokratlargacha rahbarlik qilgan turli-tuman sport tashkilotlari, soyuzlari, klublar va uyushmalarga ega edi. Bu tashkilotlarning ko'pchiligi burjuaziya qo'lida bo'lib, ular hukmron sinfnning siyosiy va ideologik manfaatlariga xizmat qilar edi. Mehnatkashlar uchun ayrim sport klublarining eshigi berk edi. Ammo ularga mo'ljallab tuzilgan alohida sport klublari ham bo'lar edi. Kapitalizm davrida jismoniy tarbiya sistemasida muqarrar ravishda ikki taraflama sistema vujudga keladi. Ulardan biri imtiyozli kishilar uchun, ikkinchisi esa xalq uchun mo'ljallangan sistemadir.

Barcha burjua sport tashkilotlari yoshlarni burjua axloqi ruhida tarbiyaladi. Ba'zan bu diniy tarbiya, ba'zan harbiy tarbiya yo'nalishida ro'yobga chiqarilar edi. Ayrim hollarda go'yo siyosiy sinflar va egallagan lavozimidan qat'iy nazar, yoshlarning qiziqishlari shunchaki "sof" sport sohasiga qaratilgan bo'lardi.



## XALQARO OLIMPIADA HARAKATINING VUJUDGA KELISHI

Keyingi bir necha o'yinlar davomida sport ishlari sohasida katta tajriba to'plandi. Sportning ayrim turlari texnik jihatdan taraqqiy etdi. O'qitish va mashq qilish metodlari tarkib topdi. Sport musobaqalari sistemasi belgilandi va ularni o'tkazish qoidalariga saqlab berdi. Xalqaro Olimpiada komitetining faoliyati sportning yanada taraqqiy etishida va xalqaro musobaqalarni o'tkazishda katta ahamiyat kasb etadi. 1896-yildan boshlab bu komitet hozirgi zamon yozgi Olimpiada o'yinlarini o'tkaza boshladi.

1896-yilda Gretsiyaning Afina shahrida 1 Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Bu o'yinlar uchun qadimgi Gretsiyaning stadioniga sal o'xshab ketadigan maxsus stadion qurilgan edi. O'yinlar nihoyatda tantanali vaziyatda o'tdi. Musobaqalar dasturiga sportning yengil atletika, gimnastika va boshqa turlari kiritilgan edi.

Musobaqada 13 ta mamlakatdan kelgan 285 sportchi qatnashdi. Gretsiya sportchilari eng ko'p oltin medalni oldi. AQSh sportchilar ikkinchi o'rinni egalladi.

Olimpiada o'yinlarini o'tkazish do'stona hamkorlik g'oyalarini va barcha mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi ma'daniy aloqalarni mustahkamlashni tashviqot qilish bilan birga davom etdi. Bu faqat ezgu niyatlar edi, xolos. O'sha vaqtlarda tinchlik maqsadlarini ko'zda tutib ish yuritgan birorta ham davlat bo'lmagan. Urushning oldini olishdan chinakam manfaatdor bo'lgan birorta hukumat ham yo'q edi.

1900-yil Parijdagi Xalqaro ko'rgazma paytida bu shaharda II-Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Bu gal o'yinlar jamoatchilikning diqqatini unchalik torta olmadi. O'yinlar dasturi cho'zilib ketgan bo'lib, ko'rgazma davom etib turgan vaqtning boshidan oxirigacha namoyish qilindi, bu esa ularga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi; ko'rgazma eksponotlari tomoshabinlarning diqqatini sportdan chalg'itardi. O'yinlarda 20 mamlakatdan 1066 sportchi ishtirok etdi. Eng ko'p oltin medalni amerikaliklar oldi.

III – Olimpiada o'yinlari AQShning Sent-Luns shahrida o'tkazildi. Yevropa mamlakatlaridan Olimpiadaga sportchilar kam keldi va o'yinlar, aslida, Amerika sportchilarining musobaqasiga aylanib qoldi. Bu o'yinlarda 10 mamlakatdan hammasi bo'lib, 496 sportchi qatnashdi. Xalqaro Olimpiada qo'mitasi o'yinlarga qiziqish uyg'otish uchun 1906-

yilda yana Afinada navbatdan tashqari o‘yinlar o‘tkazishga qaror qildi. Bu o‘yinlar belgilangan yilda o‘tkazilmagani uchun nomer olmagan edi.

Navbatdagi IV – Olimpiada o‘yinlari 1908-yili Londonda bo‘lib o‘tdi. Olimpiadada 22 mamlakatdan 2059 sportchi, shu jumladan, Rossiyadan bir necha kishi qatnashdi. O‘yinlar dasturi ancha pasaytirilgan edi. Konkida figurali yugurishdan ham musobaqalar o‘tkazildi (sportning bu turi bo‘yicha oltin medal 16 rus sportchi Paninga topshirilgan edi). bu Olimpiadada eng ko‘p oltin medalni Angliya sportchilari oldilar.

1912-yili Shvetsiya poytaxti Stokgolmda V Olimpiada o‘yinlari o‘tkazildi. Bunda 28 mamlakatdan 2541 kishi qatnashdi.

Xotin – qizlar birinchi marta II Olimpiada o‘yinlarida 1900-yili Parij golf bo‘yicha, 1904-yili Sent-Lunsda kamondan otish, 1908-yilda Londonda kamondan otish, tennis, konkida yurish, 1912-yilda tennis va suzish bo‘yicha ishtirok etdilar.

1916-yilga belgilangan VI Olimpiada o‘yinlari urush boshlanib ketganligi sababli o‘tkazilmadi. Ammo o‘yinlar raqami saqlanib qoldi (1920-yildagi Olimpiada o‘yinlari VII Olimpiada o‘yinlari deb nom oldi).

## **ENG YANGI ZAMONDA JISMONIY TARBIYA**

Insoniyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti ikkala jahon urushi o‘rtasidagi davrda ham, undan keyingi davrda ham, Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyutsiyasining ta’siri ostida taraqqiy etdi. Insoniyatning keng ommasi revolyutsion oqimga, sotsial taraqqiyot va haqiqiy ozodlik kurashiga tortilgan edi. Jahon ikki sistemaga: kapitalistik va sotsialistik jamiyatga ajraldi.


Jahonning ikki sistemaga ajralishi bilan birga jahon xalqlari ijtimoiy taraqqiyotida ikkita yo‘l maydonga keldi. Bu narsa jismoniy tarbiya va sport sohasida jismoniy tarbiya sistemasining o‘z maqsad-vazifalariga ko‘ra bir-biriga qarama-qarshi ikkita sistema: sotsialistik va burjua sistemalarning tarkib topishiga olib keldi.

Kapitalizmning umumiy tang moddiy ahvolini birinchi bosqichda (XX asrni 20-50 yillarida ) burjuaziya ikkinchi jahon urushigacha SSSR ni sportda erishgan yutuqlarini tan olmadi.

II opportunistik ishternatsionalga kirgan sotsial-demokratik partiyalarning yo‘lboshchilari ishchilar sport tashkilotlarining rahbarlik organlariga o‘z vakillarini ko‘rsatar, ishchilar sport harakatining sinfiy harakterini bema’nilashtirish va harakatini burjuaziya manfaatlariga bo‘ysindirishga urinar edilar.

1919-yilda II – internatsional rahbarlarining tashabbusi bilan Shveysariyaning Lyuseri shahrida ishchilar sport tashkilotlarining II xalqaro kongressi bo‘lib o‘tdi. Bu kongress ishida Angliya, Belgiya, Finlyandiya, Fransiya va Chexoslovakiya ishchilari sport soyuzlarining vakillari ishtirok etdilar. Shu kongressda Motsern ishchilari sporti internatsionali tashkil etildi. Unga II internatsional opportunistik yo‘lboshchilarning hasadgo‘y tarafdorilari rahbarlik qilib kapitalistik davlatlardagi ishchilar sporti klublarini sovet fizkultura tashkilotlarining revolyutsionlashtirish ta’siridan chetda turishga urindilar LSI rahbarlari birinchi kongresdayoq Sovet Rossiyasining fizkultura tashkilotlarining hamda Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya va boshqa mamlakatlarning ishchilar sport klublarini o‘z saflariga qabul qilishdan bosh tortdilar. LSI oddiy sportchilarining keng ommasi bunday qarorga qarshi chiqdilar va barcha ishchilar sport tashkilotlari uchun LSI ga qabul qilish shartlari bir xil bo‘lishini qattiq talab qildilar.

**VI-bob.**  
**UMUMIY KRIZISNING**  
**BIRINCHI BOSQICHIDA KAPITALISTIK**  
**MAMLAKATLARDA JISMONIY TARBIYA**



Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyutsiyadan keyin sanoat rivojlangan davlatlarda revolyusion harakatlar kuchaya boshladi. Shu jarayon natijasida internatsional –sotsialistik, ishchi va kommunistik partiyalarni tashkil qilish boshlandi. Burjuaziya parlamentorizim davlatlarida sinfiy kurash siquvi ostida va “Erkin raqobatchilik” gida (Buyuk Britaniya, Polsha, AQSh, Fransiya, Chexoslovakiya) tobora o‘sib borayotgan sotsial islohot o‘tkazila boshlandi. Ishchilarning saylash huquqlari kengayib bordi, sug‘urta qilish kiritildi, ishchi sport-gimnastika tashkilotlari o‘zini boshqarish tashkilotlari tashkil etildi.

“Sport siyosatdan tashqari” shiorlar ostida berkinib olib ishchi tashkilotlarining rahbarlari jismoniy tarbiyani ishchilarning burjuaziyani, axloqiy kayfiyat tarbiyasi vositasi sifatida foydalanildi. Garbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada jismoniy tarbiya harakati shunday, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya va Yaponiyaga o‘xshash davlatlarda fashistlar axloqini rivojlantirishga yordam berdi. Bu davlatlarda jismoniy tarbiya va sport harbiylashtirishga o‘tkazildi, bunda esa ochiqdan-ochiq jahon urushiga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Burjuaziya monopoliyasi siyosat reaksiyasini kuchaytirishda va o‘zining hukmronligini mustahkamlashga hamda saklab qolish yo‘llarini qidirtdi. Sportda organizm, professonallik va irqchilik – bu kapitalizmning umumiy krizisi farzandidir.

Birinchi jahon urushi burjuaziya olamidagi ziddiyatlarni bartaraf etolmadi. G‘olib – davlatlar Osiyo, Afrika va Lotin Amerika qit‘alarida xalqni siyosiy va iqtisodiy jihatdan ezishga ta’sir etishini kengaytirib boraverdi. Burjuaziya dunyosida ziddiyatlar eniga va chuqurligiga rivojlanib bordi, ezilgan xalqlarning milliy – ozodlik kurashi kuchaydi. Ikkinchi jahon urushida mol sotiladigan ziddiyatlar kelib chiqdi, Germaniya fashizmi esa, faqatgina qo‘shni davlatlarga yo‘nalgan harakatlariga niqoblanadi.

Germaniya Yevropada Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyutsiasini proletar harakatidan keyin 1918-yil noyabr oyida Germaniyada eng kuchli revolyutsiya bo‘lib o‘tdi. Proletariatning mag‘lubiyati va ichki Germaniyaning qarshi revolyutsiyasi kuchlarining birlashuvi ishchi harakati bir butun siyosiy rahbarlikning yo‘qligi va burjuaziya partiyalarini qayta tashkil etilishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

G‘olib – davlatlarning o‘ng doiralari Germaniyaga iqtisodiy va siyosiy ta’sirini o‘tkazdilar. “Non yoki bolshevizm” shiori ostida Rossiya bilan normal diplomatik munosabatlarni tiklashga qarshi faol tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib bordilar. Germaniyaning sport – gimnastika

tashkiloti revolyutsiyaga qarshi tashviqot ishlarini olib borish o'chog'i edi. Faqatgina maslahatchilar, uning boshida spartakchilar, chap radikallar, qaram bo'lmaganlar turardi. Burjuaziya va yunker-komechik sport tashkilotlarini qisqartirishga harakat qildilar. Nemis gimnastika soyuzi (DT) shiorlari ostida bekinib va revolyutsiyaga qarshi chiqdi va sport bilan shug'ullanuvchilarning o'zlarini huquqlari uchun sinfiy kurashda qatnashishda chalg'itilar edi. 1921-yilga kelib burjuaziya sport hukmronligiga million kishi jalb qilindi.

Germaniya mehnatkashlari o'rtasida fizkultura –sog'lomlashtirish ishlarini 45 ta barcha nemis gimnastika va sport tashkilotlari o'tkazdilar. Fashistlar millatning “iftixori” va “erkinligi” yo'lida hamma narsaga tayyor edilar. Ular ko'p sonli sport-harbiylashgan shakllarni tuzdilar, Nemis mehnat frontini tuzish uchun kasaba uyushmasi ishchilari o'rtasida ishlab turishga qo'shilganlardan foydalanganlar, Nemis mehnat fronti tashkiloti rahbarligi ostida “Xursandchilik kuch orqali” monopoliyaga aylantirib qo'ydi va Nemis xalqini dam olishini hamda jismoniy tarbiya va sportni nazorati ostiga qo'yadi. Fashistlar tashkiloti alohida diqqatni “yo'qotilgan avlod” yoshlarning ishlashiga qaratiladi. Yoshlar o'rtasida sport b'yicha tashkiliy ishlarni masalan, barcha detallar puxta o'ylangan bo'ladi: hayotiy tajribasizligini va rasmiy kiyimga muhabbat romantik tasvirda ko'rishni, fikrlashga ishtiyoqini hisobga olishadi.

Jismoniy tarbiya va sportni fashistlarga oid bir qilish nemislarning ongini millatchilik, shovenizm va irqchilik bilan zaharladi. Barcha maktab o'quvchilari dastlab “Yungfolk” natsistlar (german fashisti) tashkilotini keyinchalik yoshlar “Gitleryugend” va qizlar “Nemis qizlari ittifoqni” qabul qildilar.

Musobaqa uchun maxsus kun (shanba, yakshanba) ajratilgan, bu musobaqada barcha maktab o'quvchilarining qatnashishlari shart bo'lgan. German fashistlarini sport inshoaoari boshqa kapitalistik davlatlarning sport bazalaridan mehnatkashlar va yoshlar uchun nisbatan arzonligi va barchaga barobarligi bilan ajralib turadi. Tarbiyani harbiylashtirish Nemislar mafkurasida qayta ishlash bilan shug'ullandilar, shuningdek, gimnastika otryadlari hamdir. Ular shu narsaning ustidan nazorat qilishda qatnashadiganlarni, chunki har bir erkak 35 yoshigacha sport nishonini uchta – bronza, kumush va oltin bosqichi bo'yicha medallar topshirdilar; “beshinchi kalonka” tashkil etildi, u chet el mamlakatlari – Avstriya, Belgiya, Chexoslovakiya sport tashkilotlarini fitna va xoinlik bilan barbod qildilar.

1936-1939-yillarda sportni takomillashtirish yanada kuchaydi. Bu 1938-yil dan 1993-yillarda ta'sis etilgan "Jismoniy mashqlar millatchilik imperiya soyuzi"da o'z ifodasini topdi. Germaniya, Italiya va Yaponiya o'rtasidagi harbiy iqtisodiy va siyosiy uyushmasi haqidagi Berlin shartnomasi asosida davlatni har birini ma'lum sohada sportga ta'siri bo'lgan. Germaniya ko'proq Vengriya, Ruminiya va boshqa davlatlarni o'ng doiradagi fashistlarga kayfiyati bo'lganlarga tayangan va Burjuaziya sport tashkilotlari sotqinlari uz maqsadida keng foydalangan. Fashistlar bosib olingan davlatlarda kommunistga qarshi, ya'ni Yangi tartibga o'rgata boshladilar, uning yakuniy maqsadi irqchilik va dunyoga hukmronlikni o'rnatmoqchi bo'ldilar, qarshilik harakatiga birlashib, bosib olingan davlatlarning vatanparvarlari fashistlarga qarshi faol kurashdilar. Qarshilik harakati qatnashchilari orasida har xil siyosiy qarashdagi va diniy e'tiqodli kishilar o'zlarining mustaqilligi va madaniyati uchun kurashdilar. Ayniqsa, bu kurashda kommunistlar o'zlarini har tomonlama ko'rsata oldilar. Bir qator bosib olingan Belgiya, Gollandiya, Gretsiya, Daniya, Norvegiya, Fransiya va boshqa davlatlarda qarshi harakat kurashchilari faol harakat qila boshladilar. Qarshi harakat kurashchilari erishgan yutug'i sport bayramlarini normal hayotga qaytardi. Biroq 1944-yili Yugoslaviyada Xorvatiya xalq ozodligi fashistlarga qarshi kurashish Davlat uyushmasi tashabbusi bilan ommaviy sport ishlarini tashkil qilish uchun fizkultura komitetlari tashkil etildi. Polyak sportchilari fashizm ustidan tuliq g'alaba qilganligi sharafiga 1945-yilda armiya Olimpiadasini o'tkazdi.

1921-yil noyabrda Italiyada fashistlar dasturini bosib chiqardilar, unda millatni insoniyat jamiyatida tashkil qilish yuqori shakli deb e'lon qildilar. "Millatning ulug'ligi" g'oyasi Qadimgi Rimdan kelib chiqqan va fashistlar Italiyasida ko'rsatib o'tildi.

"Milliy ulug'lik davri" an'analarini davom ettiruvchilar bo'lib qoladi. Mexnatkashlar tomonidan o'zlarining tartibiga dushmanlik ruhi bilan birlashtirish maqsadida Musolina SSSR bilan diplomatik munosabatni o'rnatdi. 1924-yilda "Millatni himoyalash" shiori ostiga bekinib olib, ochiqdan – ochiq terorchilik roliga o'tadi.

Qora ko'ylakli bosh oluvchilar otryadlari ishchi faollarni ura boshladilar, fashistlarga qarshi tashkilotni qirg'in qildilar va demokratik sportda harakat qilib turganlarni qamadilar.

Italiya maktab yoshidagi bolalar hamda yoshlarning jismoniy jihatdan o'sishi va ularga fashistlar tomonidan beriladigan tarbiya ishlariga

maorif ministrligining jismoniy tarbiya departamenti va maxsus ijtimoiy tashkilot “Opera natsional balilla” rahbarlik qildi.

“Balilla” asosan, 8-13 yoshlardagi o’g’il bolalarni birlashtiradi. 14-18 yoshdagi o’smirlar “Avangadistov” tashkiloti sostaviga kirdilar. 8-13 yoshlardagi qizlar “Pikkoli italyan” (“Kichik yoshdagi italyan qizlari”), 14-18 yoshdagi qizlar esa “Djiovane italyane” (“Yosh italyan qizlari”) tashkilotlariga birlashdilar.

Har shanbada barcha italyanlar “Millatni chiniqtirish” uchun siyosiy, harbiy va sport tayyorgarligiga borishlari shart edi. Harbiy-jismoniy tayyorgarlikni ko’p sonli sport-gimnastika klublari, jamiyatlar va ittifoqlar o’tkazardilar. Aviatsiya, planer parashyut va sport, kurash va motosport, shuningdek, gimnastika, yengil atletika, sport o’yinlari hamda otekorist sport bilan shug’ullanish fashistlarni tarbiyaviy ishlari dasturiga kiritilgandi.

Italiyada fashistlar armiyasiga zaxiralar tayyorlash maqsadida “Opera natsionale donolivar” nomi bilan juda ko’p tashkilotlar vujudga keltirildi. Bu tashkilotlarda mehnatkashlarni ularning bo’sh vaqtlarida jismoniy jihatdan o’stirish va ularga o’z mafkurasini singdirish uchun intensiv suratda ish olib borildi.

XX asr Yaponiyada tarixiy sharoitda tashkil topgan kuch, faqatgina milliy sport turlari rivojlandi. Tayoqda va shamshirda qilichbozlik va jamiyatda qilichbozlik, sumo, karate va boshqa kurash turlari o’quvchi yoshlarning harbiy-jismoniy tayyorgarlik dasturida bo’lgan. 1911-yildan boshlab Maorif va sport sohasidagi Yaponiya arbobi Dziguri Kano (1942-yilda vafot etgan) tashabbusi bo’yicha jismoniy tarbiyani boshqarish imkoniyatlari tashkil etildi, zamonaviy dzyudo kurash turi aniq belgilandi va internatsional sport turlari maktablar, kollejlarga va universitetlarga kiritildi. Uch davlatdan iborat bo’lgan ittifoq (Germaniya, Italiya, Yaponiya) ga tayangan holda, yapon samurayi ommaviy ravishda harbiylashtirishga erishdilar, imperialistik mafkura yoshlarni aldash maqsadida jismoniy tarbiya vositasidan foydalanildi.

Kattalarga quloq solmaslik (intizomni buzish) Yaponlar uchun eng katta kamchiliklardan biridir. O’quvchilar tovonda o’tirib o’qituvchining tushuntirishini eshitadilar. Har bir maktab o’quvchisi jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish vaqtida imkon boricha e’tiborli, uyushqoqlik va ijro etuvchidir. O’quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash uchun maxsus testlar o’rgatilgan bo’lib (Ko’krak qafasini hajmli, panja orqa qorin mo’shagi kuchi, egiluvchanlik va reaksiya tezligiga boriladigan mashqlar va hokazo).,



Har bir darsni – o'ylashga, buni mohiyati shundan iboratki, shug'ullanuvchilar saf turgandan keyin tizzada turadilar va tovonga o'tiradilar va 1-2 daqiqa davomida oldida polga qarab o'tiradilar, jismoniy rivojlanishni va diniy marosimlarga qattiq tartibga solish, shaxsning qadr-qimmatini pastga tushirish, shu kungacha kamsitiladi.

## **BUYUK BRITANIYA**

Ijtimoiy va milliy jihatdan safsoatabozlik uchun saylov komissiyalari davrida 14 yoshgacha boshlang'ich ta'limning bajarilishi haqidagi qonundan Angliya burjuaziyasi unumli foydalandi. 1920 yil Buyuk Britaniya Kommunistik partiyasining tashkil etilishi Sovet Rossiyasi intervensiyasiga qarshi Angliya ishchilarining kurashini yangi bosqichga ko'tardi. Buyuk Britaniya Kommunistik partiyasi va "Rossiyadan qo'lingni tort!" Komiteti Burjuaziya hukumini birinchi sotsialistik davlatiga qarshi urush boshlashidan voz kechdi va shunday qilib 1921-yilda savdo bitimiga imzo cheqildi.

Ikkinchi jahon urushi davrida fashizm-dushman poalatsiyasi tashkil etilishi jahonning jami xalq ommasini qiziqishiga javob beradi va 1941-yilni 21-iyunida Angliyaning premer - ministri U.Churchil SSSR tomonidaman deb aytgan edi, biroq Angliya Burjuaziyasi jamiyatining reaksion doiralari kapitalizmning umumiy kirizisini o'tkir momentlariga harakat qildilarki, o'zlarining qarama-qarshiliklarini birinchi navbatda SSSR hisobiga hal qilmoqchi bo'ldilar.

Buyuk Britaniya hukumatida ta'lim va fan ministri sportni rivojlanishiga shaxsan javob beradi. Davlat byujetidan mahalliy, ko'ngilli tashkilotlarga mablag' ajratiladi, ular jismoniy dam olish maskanlari tashkil etadilar va terma komandaning musobaqalarda qatnashishi va tayyorlash uchun dastur tuzadilar. Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaliklarning har bir sport turida o'zlarini rahbarlari bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tashkilotlari havaskorlar zo'r berish harakat qildi, ya'ni har kim o'zining vaqtining bir qismini va kuchini trenirovka hamda musobaqaga bag'ishladi. Jismoniy dam olish bo'yicha Markaziy soveti, uning a'zolari Angliya, Ueles va Shimoliy Irlandiyaning barcha milliy sport tashkilotlari hisoblanadi, bunda alohida diqqat e'tiborning 18 yoshdan oshganlarga qaratiladi. Jismoniy dam olish bo'yicha MS bosh kotibi sport soveti direktori vazifasini ham bajaradi, u sport markaziga hukumat yordam ko'rsatadi.

Sakkizta milliy sport markazlaridan – to'rttasi Angliyada, ikkitasi Shotlandiyada, bittasi Ueles va Shimoliy Irlandiyada – har xil sport turlari bo'yicha trenirovka va musobaqalar o'tkazadilar. Eng ko'p faol shug'ullanuvchilar va ishqibozlarning shunday sport turlari futbol, regbi, ot sporti (yugurish) va yengil atletikadir. Shuningdek, ommaviy sport turlari boks, kurash, moto va avtopoyga, suzish, karus, tennis va boshqalari hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari hukmron doiralari ham jismoniy tarbiyada yoshlarni harbiy ishlarga tayyorlash maqsadida keng foydalandilar. Amerika Burjuaziya maktab, o'rta va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni o'z mafkurasi ruhida tarbiyaladi, ularning jahonga hokim bo'lish rejalarini amalga oshirishga “Amerikada yashash”ni targ'ibot qilishga tayyorladi. Amerika cherkovi harbiy boshqarma va juda ko'p yarim sport – yarim harbiy tashkilotlar, masalan, “Amerika legioni” kabi tashkilot ham ana shu maqsadda ish olib bordi. AQSh da o'quvchilar jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor berildi. Ko'pchilik Shtatlarda o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya haqida maxsus qonunlar qabul qilindi. Bularda jismoniy tarbiyani mablag' bilan ta'minlash, o'qituvchi kadrlar tayyorlash va boshqa masalalar nazarda tutilgan edi. Jismoniy tarbiya burjua butun tarbiya sistemasining bir qismiga aylana bordi. 1920-yilda AQSHning sport rahbarlari va universitetlardagi o'yinlar jamiyati komiteti jismoniy tarbiya vazifalarini aniqlar ekan, uning muhim vazifasi yoshlarni itoatgo'ylik va intizomlilik ruhida hamkorlik qilish, o'z manfaatlaridan voz kechish ruhida va ularda Amerika jimiayati zarur bo'lgan boshqa fazilatlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat deb ko'rsatildi.

AKSHda mehnatkashlarning keng ommasini harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash turli harakterdagi ommaviy mustaqil tashkilotlar, ommaviy sport tomoshalari assotsiatsiyasi, fabrika zavod klublari assotsiatsiyalari va boshqalar yordamida niqoblangan shaklda amalga oshiriladi.

## **JISMONIY TARBIYADAGI YANGI METODLAR**

Kapitalizmning umumiy yutug'i barcha G'arbiy Yevropa davlatlarida sportdagi tarbiyalash an'analariga o'zgatirishlar kiritildi. Daniyalik Nils Buk (1880-1950-yillar) burjuaziyaning ijtimoiy buyurtmasi bajarib, eski jismoniy tarbiya tizimlarini takomillashtirishga harakat qilib va ularni yangi tarixiy sharoitga moslashtirdi. N.Buk shug'ullanuvchilarning organizmiga ajoyib ta'sir ko'rsatadigan jismoniy mashqlar majmuasini

ishlab chiqdi. Bu majmua “N.Bukning asosiy gimnastikasi” degan nomni oldi va o‘quvchi-yoshlarni asosan ma’lumotsiz harbiy chaqiriqqacha armiya xizmatiga tayyorlashni mo‘ljalga olishgan. Gimnastikachilarning maxsus tayyorlangan guruhiga o‘zining metodik usulini jahonning barcha davlatlarida N.Buk namoish qildi.

“Asosiy gimnastika” harakatlarida ketma-ket harakat qilish usulida tez me’yorida bajariladi. Dars davomida to‘liq applitudada turadi va katta miqdorda takrorlashda 60 tagacha mashqlar bajarilishi kerak. Darsda mo’shaklarni cho‘zish, bo’shattirish uchun maxsus mashqlar bo‘lgan, bu esa ish qobiliyatini tiklashga yordam beradi. N.Bukning gimnastikasi asosan burjuaziya Yevropa davlatlari armiyalarida qo‘llanilgan. Maktablarda K.Gol’gofer va M.Shtrayxerning avstriya tibbiy gimnastika metodi shuhrat qozondi.

K.Gol’gofer va M.Shtrayxerning Avstriya tibbiy maktab gimnastikasi metodi kapitalistik mamlakatlar, ayniqsa boltiq bo‘yi davlatlari Polsha, Avstriya va Germaniya maktablarida keng tarqaldi. Bu gimnastika metodi 1 – jahon urushlaridan keyin Avstriya va boshqa bir qancha mamlakatlarda maktab ta’limi sohasida o‘tkazilgan burjua islohotlari bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan edi. Avstriya tibbiy maktab gimnastikasi inperialistik urushga Avstriya va Vengriya maktablarida tarqalgan nemis A.Shpissning sun’iy va to‘qilgan maktab gimnastikasining o‘rnini bosish talab etilgan edi. Ammo bu yangi sistema eski nemis sistemasining ko‘pgina xatolarini takrorladi. Bu sistemada maktab yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlarga o‘rgatishning ilmiy jihatdan asoslangan ta’lim-tarbiyaviy usullari yo‘q edi.

Avstriya maktab gimnastikasi asoschilari jismoniy tarbiyasi faqat bola organizmiga jismoniy ta’sir etishning vositasi emas, balki yoshlarni sinfiy-garmoniya ruhida tarbiyalashga qaratilgan intellektual va axloqiy tarbiyaning muhim elementi ham deb qaradilar. Bu metodning burjua mamlakatlarida keng yoyilishi bejiz emas. Burjua sport rahbarlari “Jismoniy tarbiya - bu faqat sog‘lomlashtirish emas, balki yoshlarni mafkuraviy jihatdan tarbiyalashning eng muhim vositasi ekanligini yaxshi anglar edilar”.

Gol’gofer va Shtrayxer maktab yoshidagi bolalar uchun jismoniy tarbiya darsini ba’tafsil ishlab chiqdilar. Ular darslarni uch qismga bo‘lib, ularni quyidagi mashqlar guruhlariga ajratdilar.

Birinchi guruh – jonlantirish mashqlari (tez yurish, yugurish, sakrash bilan bajariladigan o‘yinlar, nafas mashqlari);

Ikkinchi guruh – gavda uchun asosiy mashqlar, muvozanat saqlash, kuch va chaqqonlik mashqlari (yugurish, yurish va sakrash);

Uchinchi guruh – tinchlantirish mashqlar (yugurmasdan bajariladigan, o‘yinlar, sekin yugurish).

Shuningdek, ular ekskursiya, ochiq havoda o‘ynaladigan o‘yinlar, suzish, chang‘i va chanada uchish, uyda gimnastika mashqlarni bajarishi (10 daqiqa davomida), hamda mashg‘ulotlari paytida fizkulturani o‘tkazishni taklif etdilar.

Ammo Gol‘gofer va Shtrayxer metodida muhim kamchiliklar mavjud edi. Masalan, Gol‘gofer va Shtrayxerning ko‘rsatishicha, odamning jismoniy taraqqiyotida irsiyat hal qiluvchi rol o‘ynaydi va tirik mavjudodning har bir kurtak hujayrasining taraqqiyot yo‘li oldindan belgilangan, go‘yo bu o‘shish usul-kesil emish. Ular odamning jismoniy o‘shidagi sotsial muhitini inkor etdilar hamda hamma narsa irsiyatga bog‘liq, deb davo qildilar. Gol‘gofer va Shtrayxerning fikriga ko‘ra, organizm va uning ayrim qismlari ularga meros qolgan qobiliyatlari doirasidagina taraqqiy etishi mumkin. Bu nazariya fanga xilof harakterdaligi shubhasidir. Ma‘lumki inson faqat tabiatdagina emas, balki tabiatning bir qismi sifatida ham o‘zini o‘zgartiradi. Avstriya gimnastika maktabi reformatorlarining vazifasi jismoniy mashqlar va o‘yinlar mashg‘ulotlarini hukmron sinf burjua sinfi manfaatlariga ko‘proq xizmat qildirishdan iborat edi.

## **ISHCHI SPORT HARAKATREKINI RIVOJLANISHI**

Yevropa mamlakatlarida ishchi sport harakati o‘shib kelayotgan avlodni jismoniy tarbiya vositalari bilan tarbiyalash eng mustahkam an‘anaga ega bo‘ladi, u esa ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tarixiy tashkil topishi asosida yaratilgan.

Ishchi sport harakatidagi tarbiyaviy an‘anasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Ulug‘ oktabrning ta‘sir etishi ostida jiddiy o‘zgargan. Shu bilan birga burjuaziya sport tashkilotlari ishchi internatsional aloqalarini chegaralab qo‘yishga harakat qildilar, sovet fizkultura harakatini ajratib qo‘ydi. Ko‘pchilik sotsial-demokratik partiyanning rahbarlari shunday vaziyatda burjua sport tashkilotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berdi. Biroq mehnatkashlar ommasini ekspluatsiya qilishi o‘shishi sovet ittifoqida sotsializmning muvaffaqiyatli qurilishi va fuqarolar urushining g‘alaba bilan tugallanishi proletariatni chiqishi o‘zlarining foydasiga, sportning rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Jahon urushi frontlarida urush harakatlari yo‘lida imperialistlar armiyada uro‘shayotgan mustamlakachilik xalqlarning vakillarini jalb

qilishga, harbiy-jismoniy tarbiyaga mos ravishda va ularga qurol berishga majbur bo'ldilar. Bularning barchasi kapitalizmning chuqurroq krizisga uchrashiga, kolonsal tizimni yo'q qilishga va praletariat bilan internatsional aloqalarni mustahkamlashga yordam berdi.

Ishchi siyosiy va kasaba uyushmasi tashkilotlari milliy ittifoq va federatsiya sport jamaolarini birlashtirishda qatnashdilar. Masalan, Stokgolmda 1928-yil Shvetsiya ishchilari sport soyuzi tashkil etildi, unda XX asrning boshida kelib chiqqan ishchilar tashkilotini birlashtirdi.

Shvetsiya ishchilari sport soyuzi, qizil sport internatsionalliga kirdi, (ishchi sportchilarni birlashtiruvchi, xalqaro progressiv tashkilot) va SSSR ning sport tashkilotlari bilan aloqani faol ushlab turdilar.

Finlandiyaning eng ommaviy yoshlar tashkiloti TUL (ishchilar sport soyuz) 1919-yil yanvar oyida tashkil etildi, qachon Davlat sport soyuzini rahbarlari kimdan-kimga 1918-yili fuqarolar urushida ishchi fronti tomonidan turganlarining barchasini o'zlarining qatoridan chiqarib tashlashga qaror qildilar. Mashhur TUL sportchilari ko'pincha SSSR ga kelib turardilar. Ular jahon chempionlari va Olimpia sport turlari bo'yicha ko'proq rekordlar egalari bo'lgan.

Fransiyaning ishchilar sport-gimnastikasi federatsiyasi (FSJT) milliy sportni rivojlantirishda yetakchi o'rini egallaydi. 1908-yildan boshlab mustaqil bo'lib kelgan, barcha ishchilar yumorist ishchilar sport tashkilotlarini 1934-yili FShST ga birlashtiradi. Ular jismoniy tarbiyani fashistlashtirishga qarshi faol kirishdilar. 1933- yildagi boshlab FSJT "Yumorist" gazetasining sovrini uchun kross musobaqasi o'tkazilmoqda, bunda kattalar, o'spirinlar va bolalar qatnashdilar.

Nemislarning ishchilar sport-gimnastikasi soyuzi safida 1933-yilda 1, 2 million a'zosi bor edi. Davlat tepasiga fashistlarning kelishi bilan Germaniyada ishchilar sport klublari yo'q qilindi.

Proletariatning sinfiy kurashida ishchi-sportchilar oldingi safida bo'ldilar, ularning sharafiga turli-tuman musobaqalar o'tkaziladi.

Bolgariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Chexoslovakiya, Fransiya va boshqa davlatlarning mashhur kommunistik partiya arboblari qatnashdilar.

## **TARAQQIY ETAYOTGAN MAMLAKATLARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT**

Osiyo va Afrikaning ko'pgina xalqlariga jismoniy mashqlar va o'yinlar qadim zamonlardan ma'lum. Ammo sharoit bu xalqlar fizkulturasining taraqqiy etishiga to'sqinlik qildi. Bu yerda mustamlakachilar hamda milliy burjuaziyaning vakillarigina sport bilan shug'ullanar edi. Urushdan keyingi yillar sharmandali mustamlaka bo'lgan joylarda yangi suveren davlatlar vujudga keldi va vujudga kelmoqda. Ozodlikka erishgan davlatlarda sport tashkilotlarining faoliyati demokratik tus ola boshladi. Davlat tomonidan sport klublariga beriladigan moddiy yordam kuchaytirildi. Jismoniy tarbiya va sport milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylandi.

Hindiston, Indoneziya va Birmada jismoniy tarbiya va sport ancha taraqqiy etdi. Bu mamlakatlarda sportga rahbarlik qiluvchi yangi sport tashkilotlari tuzildi. Hindiston 1946-yili I- Umum Hindiston jismoniy konferensiyasida Milliy jismoniy tarbiya va dam olish assotsiatsiyasi, 1949-yilda Umum Hindiston tashkilotlariga rahbarlik qiluvchi organ tariqasida Hindiston milliy klubi tuzildi. Birleoda sport ishlariga jismoniy tarbiya milliy soveti boshchilik qiladi. Indoneziya, Birma va Hindistonda sportning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatayotgan milliy Olimpiada Komitetlari tuzildi. Shaharlarda territorial prinsip asosida sport klublari, uyushmalar, soyuzlar tashkil etildi. Chempionatlar, kubok o'yinlari va birinchiliklar, milliy o'yinlar va sport bayramlari muntazam o'tkazilmoqda.

Bu mamlakatlarda sportning barcha Olimpiada turlari keng yoyilmoqda. Maysazorda o'ynaladigan xokkey, futbol, yengil atletika, ayniqsa, taraqqiy etmoqda. Yoshlar basketbol va voleybol, velosiped sporti, suzish va kamondan otish bilan shug'ullanayotir. Jismoniy mashqlarning ko'pgina milliy turlari va o'yinlari shuhrat qozongan. Sport maydonlari, gimnastika zallari va stadionlar qurishga ancha e'tibor berilmoqda. Hindistonda Milliy sport stadioni Yangi Dehlida qurildi. Indoneziya Suraboy va Medonada stadionlar barpo qilindi. Jakartada Sovet ittifoqining yordami bilan katta sport majmuasi tugatildi.

Milliy trenerlar va o'qituvchi kadrlarni tayyorlash yaxshilanmoqda. Masalan, Hindiston kollejlariida bir qancha jismoniy tarbiya bo'limlari bor, Bomboy Umum Hindiston jismoniy tarbiya sport instituti ochildi. Ammo milliy kadrlar masalasi hali yechilmagan, shu sababli Hindiston, Indoneziya va Birmaning sport tashkilotlari trenerlarni chet ellardan taklif qiladi.

Hindiston, Indoneziya va Birma sportchilarining xalqaro aloqalari og‘ishmasdan kengayib bormoqda. Ular Osiyo va Olimpiada o‘yinlarida faol qatnashmoqdalar.

Afrika qit‘asida ham jismoniy tarbiya va sport ancha rivojlanadi. Afrikaning yangi davlatlari - Gvineya, Gana, Mali va boshqalar sportdan mehnatkashlarning keng ommasini bahramand qilish uchun intilmoqdalar.

Gvineya Respublikasida jismoniy tarbiya barcha maktablar va o‘quv yurtlarida majburiy fanlar qatoriga kiritilgan. Gvineya hukumati sport tashkilotlariga sport inshootlarini qurishda hamda jismoniy tarbiya trenerlari va instruktorlarini tayyorlashda moddiy yordam ko‘rsatmoqda. Mamlakatda futbol, boks, basketbol, voleybol, velosiped sporti, yengil atletika va stol tennisi federatsiyalari tuzildi.

Mali va Ganada futbol, yengil atletika, boks va velosiped sporti taraqqiy ettirilmoqda.

Afrika davlatlari sportchilari xalqaro musobaqalarda ishtirok eta boshladi. Rim Olimpiada o‘yinlarida Efioniya yuguruvchilariga Marafon yugurushining g‘olib Abebe Binalo shuxrat keltirdi. Sportni bu turidan maroq bilan otish sporti Rxada kumush medal oldi.

Afrikaning o‘n yetti davlatidan jismoniy tarbiya va sportning yuksalishida muhim rol o‘ynayotgan milliy Olimpia komitetlari tuzildi va ishlab turibdi.

Sotsialistik mamlakatlarning fizkultura tashkilotlari Afrika mamlakatlariga sport parakatini taraqqiy ettirishda katta yordam beradi.

Sovet ittifoqi va boshqa sotsialistik mamlakatlar trenerlari va sportchilarining Afrika mamlakatlarga qiladigan safarlari an‘anaga aylanmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)da jismoniy tarbiya va sport jadal sur‘atlari bilan taraqqiy etmoqda. Mamlakat maktablarida jismoniy tarbiya majburiy fanlar qatoridan o‘rin olgan. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari - o‘yinlar, ritmik gimnastika sayrlaridir. Yuqori sinflarda otish, qilichbozlik, mushtlashish, granata uloqtirish o‘rgatiladi. BAAda sportning barcha Olimpiada turlari taraqqiy ettirilmoqda.

Kurash sportning eng, eng tarqalgan turi hisoblanadi. 1920-yilda Misr kurashchilari birinchi marta Olimpiada o‘yinlarida qatnashdilar va ana shu vaqtdan boshlab ko‘pincha mukofotli o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. Misr og‘ir atletikachilari o‘z muvaffaqiyatlari bilan tanilgan. BAA da futbol, yengil atletika, suzish va gimnastika ommaviy tus olgan, hozirda jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqdalar. Qohirada erkaklar va xotin-qizlar uchun jismoniy tarbiya oliy maktablari ochilgan.

**VII-BOB.**  
**JISMONIY TARBIYA SOHASIDA**  
**PEDOGOGIK VA TIBBIY-ILMIY BILIMLAR**  
**XALQ QO'SHINLARINING HARBIY-JISMONIY**  
**TAYYORGARLIGI**





## *Jaloliddin Manguberdi*

To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198-1231-yillarda)

Xorazm shoxlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-1231-y.) mohir sarkarda Jaloliddin xoji (ma-k) bo'lgani uchun Manguberdi nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchilik, iqtidorli sarkardalik qobilyatlarini namoyish etgan.

Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, qaddi-qomati kelishgan kuchli, baquvvat, zabardast, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so'zli, kek saklamaydigan, ochiq ko'ngil, to'g'ri odam edi. U jiddiy shaxs edi, hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa, jilmayib qo'yardi. U adolatsizliklarni yomon ko'rardi. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi.

Jaloliddin Manguberdi – o'zbek xalqi tarixidagi ulug' shaxslardan biridir. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi ko'rsatgan bemisl jasorati va murossasiz kurashi tufayli u buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida butun Sharqda dong taratdi. Jaloliddinning hayoti nihoyatda qiyin va murakkab sharoitda kechdi, mo'g'ullarning to'xtovsiz hujumlari, tazyiqi va taxlikasi ostida bo'lishiga qaramay otasi sulton Alovuddin Muhammad tomonidan boy berilgan, barbod bo'lgan Xorazmshoxlar imperiyasini mamlakatning janubi-g'arbiy qismida yangidan barpo etadi va vatan mustaqilligini saqlab qolish uchun o'n bir yil mobaynida bosqinchilarga qarshi matonat bilan kurashdi, aql bovar qilmas qahramonliklar ko'rsatdi.

Chingizxon daryo bo'yida turgan Jaloliddinga yetib oladi va uning qo'shinlarini o'rab oladi. Shu paytda Jaloliddin daryo yoqasida turgan onasi va haramidagi xotin-qizlarni mo'g'ullar qo'lga tushmasliklari uchun daryoga tashlattirdi. Ular daryoga g'arq bo'ladi. Jaloliddin mo'g'ullar xalqini tobora siqib kelayotgan va qutulish chorasini qolmagan bir lahzada oti bilan daryoga tik tushib narigi sohilga suzib o'tdi. Joni omon qolgan xorazmliklar ham unga ergashdilar.

Jaloliddinning jasorati va qahramonligiga qoyil qolgan Chingizxon o‘z hayratini yashirishda ojiz qoldi va “Har bir otaning ana shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim” dedi.

Jaloliddin davrida armiyani tashkil etgan unsurlarga qator o‘zgartirishlar kiritilgan:

Turkiylarda qadimdan mavjud an’anaga ko‘ra, qo‘shin o‘ng va so‘l qanotlarga ajratilgan. Xorazmshoxlar davrida qo‘shinga oid boshqaruv ishlari bilan buyuk devonning bo‘limi – devoni arz shug‘ullangan. Davlat xazinasidan olingan mablag‘lar va ularning sarfi to‘g‘risidagi barcha yozuvlar shu devonda saqlangan. Xorazmshoxlar zamonida ham iqto tizimi bor edi. Qo‘shinda xizmat qilgan harbiylarning hammasi ma’lum qiymatdagi iqtolarga ega bo‘lishgan. Xususan katta, kichik sarkardalar, qo‘mondonlar va harbiy vomitlar bor edi. Katta iqtolar hukmdorlarning marhamatiga muvofiq kamayishi yoki yanada yiriklashishi mumkin edi. Kichik iqtolar bo‘lsa, o‘zgarmagan. Ular ota meros edi. Iqto egalari chaqirilgan zahoti o‘z amirlari qanoti ostiga to‘planishar va yurish tugagach, yana o‘z yurtlariga qaytib ketishardi. Xorazmshoxlar yangi bir o‘lkani zabt etgach, u yerdagi yerlar darhol iqtolarga bo‘linib, mansabdorlar o‘rtasida taqsimlanar va devoni arz daftariga qayd qilinar edi.

Iqto sohiblaridan tashkil topgan ulkan bir suvoriy quvvatlar Xorazmshoxlar mamlakatining turli tomonlariga joylashgandi. Ular viloyat askarlarini tashkil etardi.

Bundan tashqari hukmdorning gvardiyasi ham mavjud edi.

Sulton Jaloliddin, shubhasiz, armiyasining bosh qo‘mondoni edi. U tinchlik davrida ham, yurish vaqtida ham o‘z armiyasini tashkil etgan ikki buyuk qismga: gvardiyasi va viloyat askarlariga qo‘mondonlik qilardi.

Vazir bo‘lsa, Ozarboyjon va Arronda joylashgan Xorazmshox qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilar va faxsh etish bilan shug‘ullanar edi.

Jaloliddin doimo qo‘shin boshida bo‘ldi. Sulton goho u yoki bu amirni biron-bir mintaqani fath qilish uchun safarbar qilsa-da, ko‘p o‘tmay o‘zi orqasidan yetib olib, qo‘mondonlikni o‘z qo‘liga olardi.

Harbiy kengash bosh qo‘mondoni sifatida sultonning o‘zi boshqaradigan bu majlisda jangga kiradigan xonlar, amirlar ishtirok qilar edi. Majlisda jangda qo‘llaniladigan taktika to‘g‘risida bir qarorga kelinardi. So‘nggi hukm sultonga tegishli bo‘lgani uchun harbiy kengash qarorlari tavsiya harakteriga ega bo‘lardi. Masalan, gurjilar bilan bo‘ladigan bir jangdan oldin Jaloliddin vaziri va qo‘mondonlari ishtirokida harbiy kengash o‘tkazdi. Vazir dushman qo‘shinlari soni jihatidan ustun bo‘lgani uchun jang vaqtini keyinga surishni taklif qildi. Bu taklifdan jahli

chiqqan sulton vazirning boshiga urdi va jang qilish qarorini e'lon etdi. Boshqa tomondan, Jaloliddin jangni qaysi kuni boshlash to'g'risida munajjimlarning, ma'lumotlariga suyangan.

Jang shakllari maydonda jangchini qurshovga olish va muqobil to'qnashuv tarzida uch xil bo'lgan, muqobil to'qnashuv kichikroq miqyosdagi maydon jangidir.

Jaloliddin maydon va muqobil janglarda o'z qo'shinini an'anaviy bir shaklda, ya'ni o'ng markaz va so'l qanoti uchun saflangan. Markazga uning o'zi qo'mondonlik qilgan. Markaz odatda, gvardiya qo'shinlaridan iborat edi. O'ng va so'l qanotlarga xon malik, amirlar qo'mondonlik qilishardi. O'ng va so'l qanotlar har holda viloyat qo'shinlaridan tashkil topar edi.

Aksariyat xollarda markazda suvoriylar, o'ng qanotdan kamonchilar, so'l qanot piyodalardan tashkil topgan. Jang vaqtida sulton atrofidagi xos olomon bilan oldingi safda urishardi.

Bir-biri bilan suyak dushmani bo'lgan Xorazmshohlar va mo'g'ullar bir-birining jang taktikasini qabul qilmaganlar. Xorazmshox qo'shinlari klassik tartib va taktika asosida jang qilgan. Mo'g'ullar bo'lsa, qismlarini o'zlarining maxsus jang uslubida ikki qator tuzgan holda urushganlar.

Jaloliddin maydon janglarida ham, muqobil janglarda ham pistirma qo'yish usullaridan foydalangan.

Jaloliddin jangning bosqich shaklini ko'proq Hindistonda qo'llagan. Bunda har holda askarlarning soni kam bo'lganligi o'z rolini o'ynagan bo'lsa kerak.

U qamal paytlari manjamik devor teshar qurollar va neft moyi ishlatgan. Qamal uzoq davom etgudek bo'lsa, sulton o'z qo'shinlarini qa'la atrofiga doira shaklida joylashtirar, shahar atrofida uylar qurdirardi.

Sulton dushmanlarini aldash uchun hiyla ham ishlatgan. Masalan, u mo'g'ullar bayrog'iga o'xshash oq sanjok bilan Isfa xondan Royga ketgani ma'lum.

Shuning uchun ham Jaloliddin Manguberдини "1000 askar" jangovor san'atining ustasi sifatida tilga olish mumkin. Chunki u kam sonli navkari bilan nechaning mo'g'ul istilochilarini dam-badam havotirga solib turgan. Bizningcha, nafaqat Manguberdi, balki uning navkarlari ham "1000 askar" san'atini mukammal egallagan bo'lsalar ajab emas. Chunki jismoniy jihatdan yetarli tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ullar ham ularning nomini eshitganda zir-zir titrashgan.

## **Amir Temur (1336.9.04-1405.18.02)**

To'liq ismi Amir Temur ibn Tarag'ay ibn Amir Barkul. Amir Temur 1336- yilning 9-aprelida o'sha paytlarda Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xoja ilg'or (bu xalqlar hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. (1405.18.02 O'tror shahri Samarqanda dafn etilgan.)

Amir Temur – o'rta asrning yirik davlat arbobi, kuragi yerga tegmagan buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi, kuchli qonunshunos, talantli me'mor, notiq, ruxshunos, ilm-fan va madaniyat homiysi, shu bilan birga el-yurtni sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach otasi uni o'qishga berdi. U yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. U tabiatan og'ir, bosiq teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda faxmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'smirlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarini jalb qila olgan. Uning atrofida bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va shuhrati uni Movoraunnaxrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasavuriy va amir Qozog'iy bilan yaqinlashtirdi.

Sohibqiron Amir Temur Samarqand taxtiga 1369-1370-yillarda o'tiradi. 1370- yilda amir Xusayn qatl qilingach, Saroymulixonim Amir Temur nikohiga kiradi va shundan so'ng mashhur "Ko'ragon" nomini olishga mo'sharraf bo'ldi.

Amir Temur tarixchi, o'rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblaridan edi. Uning "Temur Tuzuklari" asarini o'qigan kishi bu fikrning haqqoniyligiga ishonch hosil qiladi. Ushbu asarda Temurning

doktrinasi izohlangan. Uning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli davlatning siyosiy va axloqiy prinsiplari ifodalangan.

Shundan kelib chiqqan holda A.Temurning asosiy va sodiq tayanchi uning qo‘shinlari edi. Sohibqiron qo‘shinlari o‘z davrida butun Osiyoda eng qudratli armiya hisoblanar edi.

Tarix A.Temurni o‘rta asrdagi Osiyodagi eng yirik lashkarboshlaridan deb hisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yo‘nalishda, askariy qismlar qayta tashkil etishda, lashkarboshi qo‘mondonlikda namoyon bo‘ladi.

A.Temurning armiyasi o‘nlik, yuzlik, minglik bo‘linmalardan iborat bo‘lib, ularning har qanchasiga muvofiq harbiy boshliqlar rahbarlik qilardi. Odatda, harbiy boshliqlar rahbarlik qilayotgan bo‘linmalar soniga qarab kichik-katta qismiga bo‘ysunar edilar. Armiya bo‘linma birlashmalari qo‘shin-armiya deb atalardi; qo‘shin-armiyalarni o‘z ichiga olardi. Bu qismlarning har biri sharoitga qarab lashkar o‘ng qo‘l- bronchir – so‘l qo‘l – juvongar, manglay – avangard vazifasini o‘tardi. Qo‘shin turlari ichida hammadan ko‘ra otlik askarlar, piyodalar, shuningdek, Temur dargohida – ilg‘or – razvetka bo‘linmasi yuqori baholanar edi.

Temur va uning lashkar boshiqlari jangchilarning jismoniy chiniqqan, baquvvat va epchil bo‘lishi muhimligini yaxshi tushunardilar, juda ko‘p harbiy yurishlar taqdirini jangchilarning mahorati va jasorati hal qilar edi.

Shu bois Amir Temur askarlar tanlashda quyidagilarga e‘tibor berar edi. Qo‘shin tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan - yigitning kuch – quvvatiga, ikkinchidan – qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan – aql – zakovatiga, kamolatiga e‘tibor qildim. Shu fazilatlar jamuljam bo‘lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negaki kuch – quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo‘ladi, qilich o‘ynata oladigan kishi raqibini mag‘lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql – idrokni ishga solib, mushkulotni daf etmog‘i mumkin.

Sohibqiron jangchi - pahlavonlarining shuhrati o‘sha kezlarda ham dunyo O‘zRa taralgan edi. Fikrimizga dalil sifatida Sohibqironning hayotiga doir quyidagi lavhani keltirishni joiz deb bildik.

Amir Temur saroyiga kelgan Ispaniya – Kostilyaning elchisi Rui Gonzeles de Klavixo o‘z kundaligiga quyidagilarni qayd etib qo‘ygan edi. “Bu lochin xalqning ot ustida qanday yurishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan kishi ishonmaydi”... U ikki polvon kurashini mana bunday tasvirlagan:... “Egniga yengil kamzulga o‘xshatib tiqilgan charm libos kiyib olgan ikki

polvon tik turib olishar va bir – birini yiqita olmas edi. Nihoyat, ulardan biri ustun chiqib, raqibini yerga ag‘daradi va ancha vaqtgacha uning turib olishiga yo‘l qo‘ymaydi, bosib yotadi, aytishlaricha, agar u o‘rnidan turib ketsa, yiqilgan hisoblanmas ekan”.

Urush oqibatini ko‘pincha ikki jangchi pahlavonning bevosita hal etganligi to‘g‘risidagi qiziqarli ma‘lumotlar ham diqqatga sazovordir. Masalan, Sharofiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temurning Xorazm xoni Xusayn So‘fiyga ikki o‘rtadagi nizoni urush bilan emas, balki yakkama – yakka olishuv yo‘li bilan hal etishni taklif qilgani to‘g‘risidagi ma‘lumot fikrimizga asosdir. Bo‘lg‘usi podshoh – Amir Temurga 16 – 18 yoshga kirganda qilichbozlik, kamon otish, kurash va ayniqsa, ov qilishda unga teng keladigan tengqur topilmagan. U 20 yoshida chavandozlik bilan shug‘ullangandi. Temur bolaligidan harbiy o‘yinlarni yoqtirgan. U ko‘pincha tengqurlarini ikki guruhga bo‘lib, jang mashqlarini bajarardi.

Amir Temur davridagi jangovor san‘at haqida gapirib “1000 askar” deyilishini quyidagicha tushuntiradi: Bu jangovor san‘atning ming xil usuli bo‘lib, bir uslubini bilgan kishi “bir askarlik”, ikki uslubini bilgan kishi “ikki askarlik” deyiladi. Demak, bu san‘atning mingdan ortiq uslublari mavjud bo‘lib, barcha uslublarini bilgan kishi 1000 askarli kishi hisoblanadi.

Bundan 1200-1300 yillar ilgari yozilgan tarixiy asarlarda ham bu jangovor san‘atga oid ma‘lumotlar berilgan. Binobarin, bu “1000 askar” ning qadim davrlarda ham bo‘lganidan darak beradi. Amir Temur zamoniga kelib esa boshqa “1000 askar” ham eng yuqori nuqtasiga ko‘tarilgan. Sababi, Sohibqiron bobomiz askarlarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga alohida e‘tibor bergan. Buni uning “Askari quvvatli mamlakat boy bo‘lur, boy mamlakatning askari quvvatli bo‘lur” degan hikmatli gapi ham tasdiqlab turibdi.

Bu san‘atni o‘rganishga ko‘p vaqt talab qilingan. Biroq zarurat tug‘ilganda ayrim usullarni tez o‘rgatishgan ekan. Chunonchi, Amir Temur askarlari ko‘p yillik safarga jo‘nab ketishdan oldin ayollariga oddiy o‘qlovdan jang quroli sifatida qanday foydalanishni sanoqli kunlarda o‘rgatishgan ekan. Natijada, oddiy o‘qlov ayollar qo‘lida “Sehrli tayoqcha”ga – jangovor qurollarga aylangan.

Aynan xalq o‘yinlari orqali “1000 askar” elementlari bolalar o‘yinlarida ham munosib joy olgan. Misol uchun, “Oshiq” o‘yinini olaylik. Agar oshiq tova holidan qolsa, tizzada turishgan. Bordiyu oshiq umbaxolatida qolsa, bola boshi bilan turishga majbur bo‘lgan. Bularning

barchasini “1000 askar” san’atidagi gimnastik harakatlar deyish mumkin. Bundan tashqari, “askar-askar” o’yini bolalarni bevosita shu jangovor san’atga tayyorlagan.

Sohibqiron o’zidan ilgari o’tgan jahongirlarning faoliyatidagi muvaffaqiyati va inqiroz sabablarini doimiy tahlil qilib, juda ko’p narsani o’rgangan hamda ijodiy o’zlashtirgan. Ma’lumotlarga ko’ra, Amir Temur navkarlari faqat qahr – g’azabga to’la ur – sur mashqlarini emas, balki kishiga xush kayfiyat bag’ishlovchi mashq va mashg’ulotlar bilan ham shug’ullanishgan. Chunonchi “Tovusni” shunday mashqlar sarasiga kiritish mumkin. Tabiatda tovusdan erta turadigan go’zal, beozor qush yo’q. Uni ko’rganda hech bir inson unga yomon ko’z bilan ham qaramaydi. Shuning uchun butun askarlar tovus harakatiga doir mashqlar bajarib, bir – birlarining shijoatini ko’rib zavqlanishgan, yengil tortishgan. Bunday mashqlarni majmuasi 30tadan iborat bo’lgan.

Bobomiz har bir navkarning har bitta harakatini erinmay kuzatgan ekanlar va shunday degan ekan. “Agar navkarlardan biri qilich chopishib g’animni sindirar bo’lsa, g’arazgo’y odamlarning u haqda aytgan gaplariga quloq solmasinlar. Uning qilgan xizmatlarini yashirmaslik kerak, aksincha, bir xizmatini unga yuysinlar. Martabasini oshirsinar, toki boshqa navkarlar buni ko’rib jonbozlik qilishga rag’batlantirilsin”.

Sohibqiron o’z zamonasining tengsiz nayzabozi, qilichbozi, yoybozi, chavandozi, kurashbozi edi. Negaki buyuk jahongir bolaligidan jismoniy tarbiyaga, jang san’atlariga qiziqqan va tinimsiz mashqlar qilgan. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport sohasida u bosib o’tgan yo’l, askarlarning badantarbiyasi va ularni chiniqtirishda qo’llagan usullari hozirgi yoshlarga ham ibratdir. Amir Temur daryo kechib o’tishga va suzishga ham katta e’tibor bergan. Tez oquvchi daryodan kechib o’tish, suvda suzish sirlarini mukammal egallagan bo’lgan. Daryo qirg’oqlarida turtib chiqqan toshlarga arqon tortib, ular ortidan shiddat bilan chiqib hujum qilishga mohir bo’lgan.

Amir Temur jismoniy mashq va mashg’ulotlar orqali mardlik, epchillik, chidamlilik sifatlarini o’zida ham, askarlarida ham, birdek mukammal tarbiyalab borgan va u amalda sinalgan. Xususan ona Vatanni mo’g’ullar istilosidan ozod etishda qo’l kelgan.

Ma’lumki, Amir Temurning asosiy va Sodiq tayanchi uning qo’shinlari edi. Temur qo’shinlari o’z davrida butun Osiyoda eng qudratli armiya hisoblanardi.

Harbiy tarix Temurni o’rta asr Osiyosida eng yirik lashkarboshlaridan hisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yo’nalishda,

ayrim qismlari qayta tashkil etganda, lashkarboshi – qo‘mondonlikda paydo bo‘ldi.

Amir Temur shu narsani talab qildiki, ya‘ni amir ul-umaro urush maydonini tiklashda to‘rt narsani nazarda tutgan; birinchisi - u yerning suvini, ikkinchisi – askar saqlaydigan yerni, uchinchisi – lashkar turgan yerdan teparoqda bo‘lishi va oftobda ro‘baro‘ bo‘lmasligini, toki quyosh shu‘lasi sipohiylar ko‘zini qamashtirmasin, to‘rtinchisi – urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo‘lishi lozim.

Yana amir etdimki, urushdan bir kun oldin lashkarni safga va tuzuknagan yo‘nalishga qaratilsin va yo‘ldan chap yoki o‘ng tomonga burilmasin.

Amir Temur dargohida – Amir Xo‘ja Sayfiddin, Amir Sulaymon Xon, Amir Okbuga, Amir Saribuga, Amir Brandik, Xudoy Xusayn, Bahodir, Shayx Ali Bahodir, Temur Tosh, Barit Xo‘ja, Amir Dovud Barlos, Umar Abbas, Mahmudshox Buxoriy, Amir Muoyid Arlaz, Gulsan Berdibek kabi harbiy boshliqlar xizmat qilardilar.

Shuni ham qayd etish kerakki, Amir Temur davlatini tuzish uchun olib borilgan katta janglarda Sohibqironning o‘g‘illari - Muhammad Jahongir, Umar Shayx, Mironshox, Shohrux; nevaralari – Muhammad Sulton, Pirmuhammadlar ham amir qo‘shinlariga boshchilik qilardilar. Jahongirning o‘g‘li Muhammad Sulton Amir Temurning eng sevimli nevarasi bo‘lib, otasi Jahongir vafotidan keyin Temurning merosxo‘ri qilib tayinlangan edi.

Biz Amir Temurning jangovor hayot va faoliyatini ikkiga bo‘lamiz.

Birinchi davr – 1359 – 1386-yillarni tashkil etadi. Bu davrda Amir Temur Movoraunnaxrda mo‘g‘ul xonligidan mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzish uchun kurashadi.

Ikkinchi davri – 1386-yildan boshlanib, umrining oxirigacha davom etadi. Bu davrda Amir Temur “Uch yillik”, “Besh yillik” va “Etti yillik” deb nomlangan urushlar olib boradi hamda Xitoyga qarshi urushga tayyorlanadi.

Amir Temur o‘z hayotida 30 marta yurish qilgan va 27 mamlakatni zabt etgan. Lekin ulardan “Uch yillik”, “Besh yillik” va “Etti yillik” yurishlari, ayniqsa, mashhur bo‘lgan.

Sohibqiron Temur 1389 – 1391 va 1394 – 1395-yillarda Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi yurish boshladi. Ozodlik harakatining sarkardasi 1389-yilning qishida, ya‘ni qor tizzaga yetgan paytida Samarqand shahridan o‘z harakatini boshladi. Shimoldan harakat boshlagan



To‘xtalishni u Sirdaryo sohilida tor – mor etdi. Kelasi yil bahorida Amir Temur To‘xtamishni narigi sohil qirg‘oida yana bir marta yengdi.

Shunday qilib, Amir Temur O‘rta Osiyoni mo‘g‘ullardan ozod qilish hamda uni mustaqil va kuchli davlatga birlashtirishga har tomonlama rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdi. Shu bilan birga Temur O‘rta Osiyoda shaharlarning qurilishiga, ilm – fan, din ahliga e‘tibor berdi, o‘zaro feodal nizolarning oldini oldi, savdo – sotiq, hunarmandchilikka keng yo‘l ochdi, boshqa davlatlar bilan aloqalarni kuchaytirdi, mamlakatni boshqarish uchun “Qonunlar”, (“Temur Tuzuklari”)ni yaratdi, armiyani mustahkamladi, iqtisodiy va siyosiy baquvvat davlat tizimini vujudga keltirdi, natijada buyuk va jasur sarkarda, mohir davlat arbobi bo‘lib tanildi.

## **Ta‘lim va tarbiyaga doir asarlarda jismoniy tarbiya masalalari**

### **Mahmud Qoshg‘ariy**

XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg‘ariy nomi bilan mashhur bo‘lgan vatandoshimiz Mahmud Ibn Muhammad Qoshg‘ariy bundan 900 yil ilgarigi qadimgi turkman, o‘g‘uzlar, yag‘molar, qirg‘iz xalqlarining shaharu qo‘rg‘onlarini, qishlog‘u yaylovlarini kezib chiqib, ularning so‘z va atamaları to‘g‘risida lug‘at – qomus tuzish niyati bilan turkiy urug‘larning so‘zlarini to‘pladi. Olim turli xil so‘z ma’nolarini o‘rgandi, ularni muayyan bir tartibga solib “Devonu lug‘otit - turk”, ya’ni turkiy so‘zlar devonini qariyb olti yil davomida yozdi. Bu devonda Turkistondan to Termiz shahrigacha va Kaspiy Orol sohillaridan Tyanshan tog‘i etaklarigacha bo‘lgan hududda yashagan xalqlar, ota - bobolarimizning tarixi, o‘lkamiz geografiyasi, urug‘, qabila, elatlarning til xususiyatlarini yozma va og‘zaki adabiyotini, ko‘chmanchi yilqichilar, cho‘ponlar, o‘troq dehqonlar, bog‘bon va kosiblarning tirikchilik usullari, so‘z talaffuzlari va turli so‘z atamalarini o‘z davriga nisbatan mukammal va aqlan lol qoldiradigan darajada zukkolik bilan o‘rganib chiqdi.

Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit - turk” asarida suvda cho‘milish, suv kechish, suvda quvish, sho‘ng‘ish musobaqalari O‘rta Osiyo elatlari o‘rtasida keng tarqalganligi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi.

Mahmud Qoshg‘ariy devonining yana bir muhim xususiyati shundaki, yuqorida ta’kidlab ko‘rsatilgan sohalardan tashqari, unda xalq o‘yinlarining 150ga yaqin turlari tilga olinadi va shundan 20ga yaqin o‘yinlarga ta’rif beriladi. Olim o‘yin turlari, o‘yinlarning bola va

kattalarning yosh xususiyatlariga nisbatan taqsimoti, mashg'ulot, musobaqa turlarini bayon qiladi. Mahmud Qoshg'ariy bayonida o'yinlar nafaqat jismoniy, balki aqliy mashg'ulotlarga ham bo'linadiki, ular diqqat bilan o'rganilishga loyiq. Biz devondan hozirgi sportning (agar shunday atama bilan atash joiz bo'lsa) deyarli ko'p sohasi, shu jumladan, kurash ham o'sha davrlarda, ya'ni XI asrda mavjudligini bilib olamiz.

O'rta Osiyoda bayram vaqtlarida o'tkaziladigan harbiy-jismoniy mashqlar orasida qo'lda maxsus tayoq – suljon bilan ot chopib o'ynaladigan chovgon (to'p) o'yini, ayniqsa, mashhur bo'lgan. Mingan otlarining rangi bilan bir-birlaridan ajralib turadigan raqiblar ikki guruhga bo'lingan. Har bir chavandozning qo'lida uchi qayrilgan uzun tayoq bo'lardi. O'yinchilar to'pni ana shu tayoq bilan bir – birlariga oshirib, maydonning ikki chekkasiga o'rnatilgan raqib darvozasiga olib borib kiritishga harakat qilishardi. Chavgon katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan o'yindir. U matonat, tez payqay olish, harakterni tez koordinatsiyalay bilish, jasorat, g'alaba, ishonch, og'ir sharoitda ham to'g'ri va tez yo'nalish o'la bilish xususiyatlarini tarbiyalashda yordam beradi.

Chavgon o'yini shu qadar ommabop va mashhur bo'lgani, bu o'yinga oddiy chavandoz – navkarlargina emas, balki lashkarboshilar, shoxlar ham faol qatnashganlar. "G'oliblarga sovrin sifatida hamma kamchilik berilgan.

Hozirda biz "Sport musobaqalari" – deb qo'llab yurgan ibora, Mahmud Qoshg'ariy devonida "Bahs" atamasi bilan berilgan. Bunday "bahslar"ning turlari ko'p bo'lgan. Masalan, merganlikda bahs qilmoq, o'q yoy otib, qush va hayvonlarni ovlamoq, shuningdek, arqon taxtali sopqonlarda tosh otmoq, balandga ilib qo'yilgan qovoqni mo'ljalga olib otmoq bahsi. Buni "Oltin qovoq" o'yini deb ataganlar. Devonda bunday bahslarning qoida va shartlari, xillari, g'oliblarga beriladigan sovrinlar, asbob-anjomlarning nomlari batafsil bayon etilgan. Kurash bahsi ham turlicha bo'lgan, chunonchi, bog'dodi, chalish, yeng silkish, bo'yin qaytarish, (hozirgi fransuz kurashini ko'z oldimizga keltiraylik), baliq ovi, ovchilik bahslari shular jumlasidandir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, o'rta asrning buyuk olimi, mutafakkiri Mahmud Qoshg'ariydan jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha ham muayyan darajada foydalanmog'imiz va xalqimizni, uni yosh avlodni jismoniy, ma'naviy jihatdan mukammal tarbiyalash ishimizda samarali natijalarga erishmog'imiz zarur.

O'rta Osiyoda uy hayvonlarini o'rgatishda, otdan ulov sifatida, mehnatni yengillashtiruvchi vosita sifatida eng qadim vaqtlardan

foydalanib kelingan. Shuning uchun Oʻrta Osiyo xalqlarini ot (uy hayvoni, ulov) siz tasavvur qilish qiyin. Binobarin, xalqning koʻp udumlarida toʻy-tomoshalari, “Qiz quvdi”, “Yetib ol”, uloq kabi oʻyin tomoshalarida ot doimo ularning hamrohi boʻlib kelgan. Shuningdek, otda yurib ov qilish, ot ustida turib kamon tortish, ot ustida kurash tushish, ot poygasi, koʻpkari singari oʻyinlar Oʻrta Osiyo xalqlari orasida eng qadimdan paydo boʻlgan va ular takomillashib, keyinchalik boshqa xalqlar oʻrtasida ham keng tarqalgan deb qarash haqiqatga yaqinroqdir. Chunonchi, Oʻrta Osiyo xalqlarining harakatdagi milliy oʻyinlarining koʻpchiligi ot bilan amalga oshirilgan. Demak, yaxshi chavandoz, mohir mergan, kuchli pahlavon, alp bahodir degan tushunchalar ham mana shunday, millat oʻyinlar natijasi oʻlaroq yuzaga kelgan, deyish mumkin. Shuning uchun xalqimiz oʻrtasida keng rivojlangan oʻyinlaridan biri – kurashdir.

## **Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy)**

Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston hududida yashovchi xalqlarning bayramlarini oʻrganishda X-XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari muhim rol oʻynaydi. Beruniy oʻzining bu asarida qadimiy eronitlar, xorazmiylar, soʻgʻdiylar, rimliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning mashhur kunlar, hayitlar, milliy oʻyinlar va odatlar haqida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega boʻlgan bebaho fikrlarini qoldirgan. Biz uchun eng muhimi shundaki, u Oʻrta Osiyo, jumladan, Xorazm va Soʻgʻd xalqlarining islomgacha boʻlgan yillik kamidar bayramlari va bayramlarda oʻtkaziladigan oʻyinlar haqida qiziqarli maʼlumotlarni beradi.

Beruniy bergan maʼlumotlarga qaraganda, soʻgʻdiylarda Xorazmliklar bayrami (hayit) da oʻtkaziladigan tadbir va oʻyinlar haqida alohida-alohida toʻxtalib oʻtadi hamda qiziqarli materiallarni bayon qilgan. Masalan, Beruniy xorazmliklar hayitini ikkiga boʻlgan:

1. Tabiiy voqealarga bagʻishlanganlari, yil boshi bayrami (Navroʻz), ochilish bayrami, gulxanda isinish bayrami yoki non yopish kuni, mini kechasi va hokazolar.

2. Diniy marosimlar (islomgacha boʻlgan davrda) arvohtar uchun qabrlarga ovqat qoʻyadigan kun va boshqalar.

Maʼlumki, miloddan ilgari Eron, Soʻgʻd va Xorazmda zardushtiylik kamidoridan foydalanilgan. Yilning har fasli har oyining oʻz bayramlari va mashhur kunlari boʻlgan. Masalan, farvardin mox – yoz boshi, tir mox –

kuz boshi, mehr mox – qish boshi, diy mox – bahor boshi edi. Ularning oylari ichida to‘rt faslga qarab ishlatiladigan (hayit) kunlari bor edi, - deydi Beruniy.

Shunday qilib biz buyuk olim Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklari” asarida bizgacha yetib kelgan bebaho boylik - islomgacha bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlarining bayramlari haqida ma‘lumot beruvchi buyuk manba ustida qisqacha to‘xtaldik. Beruniyning bu qadimiy bayramlar haqidagi qimmatli asari faqat tarix emas, balki hozirgi zamon nuqtai nazaridan ham katta qiziqish uyg‘otishi turgan gap.

O‘rta asrlarda Navro‘z bayrami yanada rivojlanib, ommaviy tus oldi, bu bayram haqida deyarli barcha o‘sha davrning allomalari so‘z yuritadi. O‘rta asr va keyingi davrlarda Navro‘zning xalq turmushi va ma‘naviy hayotidagi mavqei, fayz- tarovati, fazilat va xosiyati haqida qomusiy bilim egalari Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Fayzi Fayoziy, Muhammadali Soib, Mirzo Bedil, Kolim Koshoniy, Furqat, Muqimiy, Sadriddin Ayniy va Hamza kabilar ajoyib fikr-mulohazalar bildirganlar, go‘zal she‘rlar bitganlar. Navro‘zni Beruniy “Navro‘z olamning boshlanishi” desa, Firdavsiy “Navro‘z bayramlar shohi” deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: “Har tuning qadr ulubon, har kuning ulsun Navro‘z” desa, Sadriddin Ayniy: “Navro‘zda tabiat jonlanibgina qolmay, inson tabiati ham uyg‘onar edi”, deydi.

O‘rta asrlarda hozirgacha O‘zbekiston hududining turli joylarida “Navro‘z” o‘ziga xos usullarda uyushtiriladigan bo‘ldi. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib, to dalalarda ekin tikish boshlanguncha davom etgan. Navro‘z kirishdan oldin joylarda maxsus yig‘inlar bo‘lib, unda bayram raisi yoki korfarmoni tayinlangan, tantanalar jadvali: tomoshalar, sayllar, musobaqalar o‘tkazish haqida so‘z borgan.

Navro‘z odatda, bozor qoshidagi maxsus maydonlarda va shahar chekkalaridagi maxsus saylgohlarda uyushtirilgan. Odatda, bayramning birinchi kuni quyidagicha bo‘lgan: ertalab bayram boshlangandan keyin, karnay – surnaychi mushriblar, darbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o‘rtasida musiqachilar va boshqa san‘atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayllar, xalq o‘yinlari, bazmlar uyushtirilgan.

Kun sayin tomosha va musobaqalar avjga chiqa boshlagan. Masharabozlar bayramning eng diqqat markazida turgan. Har xil musobaqalar: ko‘pkari, kurash, poyga bayramning ko‘rki sanalgan. Shu bilan birga Navro‘z da bedana, xo‘roz, qo‘chqor urishtirishlar ham o‘tkazilgan.

## Abu Ali Ibn Sino (980-1037yy)

Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalarida jismoniy tarbiya masalasi g'oyat muhim o'rin to'tadi.

Xalq og'zaki ijodida va buyuk mutafakkir, shoirlar asarida jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullangan kishilarning kuchli, qo'rqmas, botir, sog'lom bo'lishlari har qanday dushmani yenga bilishlari to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar bor. Lekin O'rta Osiyoda X asrgacha jismoniy mashg'ulotning kishi organizmiga ta'siri to'g'risida ma'lum bir ta'limot bo'lmagan edi. Kishi organizmini chiniqtirishda jismoniy mashg'ulotning roli katta ekanligini tabiiy-ilmiy tomondan Ibn Sino asoslab berdi. U muntazam kurashda jismoniy mashq qilib turish, boshqa rejimlarga (ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish) qat'iy rioya qilish sog'liqni saqlashda eng muhim va asosiy shartlardan biridir, deb biladi.

Ibn Sino kishining anatomik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda "Jismoniy mashq kishini ketma-ket chuqur nafas olishga majbur qiladigan ixtiyoriy harakatdir", - deb jismoniy mashg'ulotga ta'rif beradi.

Shuning uchun ham Ibn Sino jismoniy mashq bilan mustaqil shug'ullanadigan kishining organizmi juda mustahkam bo'lib, har qanday kasalliklarni yengib o'tishga qodir bo'lishini isbot qilishga harakat qiladi. Uning "Normal suratda va o'z vaqtida jismoniy mashq bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan taom tufayli kelgan kasalliklarning davosiga muxtoj bo'lmaydi", - deyishi diqqatga sazovordir. Ibn Sino jismoniy mashq bilan shug'ullanib yurgan kishi birdaniga rejimni buzsa, salomatligiga zarar keltiradi, bunda "Kishi, ko'pincha ingichka og'riq kasalligiga uchraydi..." degan fikrni bayon etadi.

Ibn Sino jismoniy mashq bilan muntazam shug'ullanadigan odamning organizmida keraksiz moddalar to'planib qolmasligini, badandagi tabiiy issiqliklarning oshirishini va organizmning yengil, chaqqon bo'lishini isbot qilib beradi.

Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari"ning birinchi kitobida jismoniy mashg'ulotni kishining yoshiga, sihat-salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va odatlarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik chog'larida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatlarda bo'lishi kerakligi masalasini ko'tarib chiqishi Ibn Sinoning odam anatomiyasi va fiziologiyasini mukammal bilganidan, kishi organizmining doimo taraqqiy etib borishini ilmiy asosda tushunganligidan dalolat beradi.

Kishi organizmini chiniqtirish va taraqqiy ettirishda tabiat kuchlaridan: (quyosh, havo, suv) foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligini, jismoniy mashqning kishidagi sezgi organlarini taraqqiy ettirishi uchun ham katta rol o'ynashini isbot qilib berganligini ko'ramiz.

Ibn Sino bola tarbiyasini uning tug'ilgan kunidan boshlash kerakligini e'tirof qilish bilan birga, har qaysi davrga muvofiq tarbiya berish kerakligini ham ta'kidlaydi. Masalan, u, avvalo, bolani tug'ilgan kunidan boshlab to oyoqqa turg'uncha qanday tarbiyalash kerakligi masalasini yoritib beradi. Ibn Sinoning fikricha, bu davrda bolaga beriladigan tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi bola organizmini chiniqtirishdan iborat bo'lishi kerak. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Ibn Sino ilmiy tomondan asoslangan bir qancha qoidalar sistemasini tavsiya etadi. Jumladan, endigina tug'ilgan chaqaloqning terisi juda nozik bo'lib, bolaning badaniga tevarak-atrofdagi har qanday narsalar qattiq va sovuq bo'lib tuyuladi. Shuning uchun ham eng birinchi galdagi vazifa chaqaloq terisining qotishini, tashqaridan bo'ladigan har qanday ta'sirga bardosh bera olishini ta'minlash uchun nimtatir namakob surtishni maslahat beradi. Namakobni surtganda, bolaning og'zi va burniga tegmasligini ta'minlash kerak, deydi. Keyinchalik bolani toza va iliq suvda cho'miltirish, cho'miltirish paytida bolani to'g'ri ushlab turish, cho'miltirganda bolaning qulog'iga suv kirib ketishidan saqlab qolish kerak, deb maslahat beradi.

Ibn Sino onalarga bolani to'g'ri yo'rgaklash uning barcha organlarining proporsional o'sishiga olib keladigan qoidalardan biri ekanligini, yo'rgaklash vaqtida bolaning organlarini muloyimgina silab qo'yish badanning formasini yaxshilashga yordam berishini oqilona ta'kidlaydi.

Buyuk olim uyquning kishi ish faoliyatida sarf qilgan kuchini qayta tiklashda va organizmning to'la dam olishida juda katta ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiradi. Shuning uchun ham sog'lom kishilarga maslahat berib, uxlamaslik yoki kishi o'zini uyqusizlikdan saqlashi kerak, chunki bular ikkalasi ham miya va quvvatni bo'shashtirib yuborishga sababchi bo'ladi va natijada kishi har xil kasalliklarga duchor bo'lishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Ibn Sino keragidan ortiq uxlashning ham xosiyati yo'qligini uqtiradi, ayniqsa, kunduz kuni uxlash kishining rangini buzishi, taloq kasalligini paydo qilishi, nervlarni ishdan chiqarishi va turli xil shish kasalliklariga sabab bo'lishini ta'minlaydi. Uyqudan uyg'ongandan keyin o'z o'rnida u yoq-bu yoqqa tovlanib yotaverish, ayniqsa, zararli ekanligini u kishining

yalqov bo‘lib qolishiga sabab bo‘lishi, irodasini bo‘shashtirib yuborishi mumkinligini, xususan yosh bolalarning xulqiga salbiy ta‘sir etib, ularning o‘jar bo‘lishiga olib kelishi mumkinligini alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Kishining ish jarayonida sarf qilgan kuchini qayta tiklash va organizmining yaxshi hordiq chiqarishi uchun miriqib, davomli uxlash juda foydali ekanligiga hozirgi zamon tibbiyot fani ham juda katta ahamiyat beradi. Ibn Sino ham bu masalani juda to‘g‘ri tushungan va asosan u kechki, chuqur davomli uyquning fazilatini juda katta deb bilgan.

Ibn Sinoning kishi uxlaganda o‘ng yon boshini bosib yotishi kerakligi to‘g‘risidagi tavsiyanomasi harakterlidir. Ibn Sino kishi o‘ng yon boshini bosib yotganda uning yurak-qon tomirlari normal ishlashini uqtirib o‘tadi.

Ibn Sino kishining och qoringa uxlashi zararli ekanligini, chunki bunda kishi quvvatining pasayib ketishiga sabab bo‘lishi mumkinligini, qorin ortiqcha to‘k bo‘lib uxlash esa uyquning notinch bo‘lishini, kishining bezovtalanishi, lanj bo‘lishi mumkinligini, shu tufayli, uyqu buzilishi muqarrar ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuning uchun ham Ibn Sino uxlash oldidan normal ovqat yeyish, asrlar osha davom etib kelayotgan xalq an‘analarini nazarda tutib, kechqurun yengil taom yeyish kerak, deya maslahat beradi.

“Qadimgi odamlar – deydi u, - o‘z hayotlarida har qanday zararli narsalarni iste‘mol qilishdan saqlanganlar, faqat ertalab go‘sh, kechqurun esa non iste‘mol qilish bilan qanoatlanganlar”.

Ibn Sino bolalar organizmining o‘shish jarayonidagi qonuniyatini yaxshi tushunib, katta yoshdagi odamlarga qaraganda yosh bolalarga o‘z vaqtidagi uyqu juda zarur ekanligini ko‘rsatadi. Ammo uyqu rejimga asoslangan, o‘z vaqtida va bir me‘yorda bo‘lishi tarafdoridir.

Bola organizmining normal o‘shishi uchun uni havosi toza, harorati o‘rta darajali uyda uxlatishni, uyga o‘tkir yorug‘lik tushirmaslikni, tinchlik bo‘lishini ta‘minlashni taklif qiladi. Bolani yo‘rgaklab yotqizganda, uning barcha organlarining to‘g‘ri turishini ta‘minlashga e‘tibor berish organizmning to‘g‘ri o‘shishiga, mustahkam va sog‘lom bo‘lishiga olib keladi. Ibn Sino bolani yotqizganda, uning boshqa a‘zolaridan badan tik turishi kerak, qo‘l-oyoq umurtqa pog‘onasi va bo‘ynini qiyshaytirib qo‘ymaslik kerak, deb maslahat beradi. Uyqudan keyin bolaning tetikligini oshirish uchun cho‘miltirish organizmni mustahkamlashga katta yordam beradi, deb uqtiradi.

Ibn Sino bola organizmining o‘shishida va chiniqishida unga ovqatni rejim asosida iste‘mol qildirish katta ahamiyatga ega ekanligini

ta'kidlaydi. Bolani onasiga belgili muddatlarda emizdirish, birdaniga haddan tashkari ko'p emizmay, oz-ozdan va lekin, tez-tez emizdirish kerakligini alohida ta'kidlaydi.

Ibn Sino bolaning yangi-yangi ovqatlar iste'mol qilishga talabi kuchli bo'lishini tushunadi, binobarin bolaga tez-tez yangi ovqatlar bermaslik kerak, chunki bunday qilish bola qornining buzilishiga sabab bo'ladi.

Buyuk mutafakkir ovqat kishi organizmining doimiy temperaturasini saqlab turishda va barcha organlarning ish faoliyatini boshqarib borishda birdan-bir manbaidir, deydi. Shuning uchun ham kishi o'z vaqtida ovqatlanishi lozimligini uqtiradi. Ovqatlanishda rejim buzilsa, ayniqsa, bolalarning ishtahasiga salbiy ta'sir etadi, bu esa bola organizmini kuchsizlantiradi, lanjlik, yalqovlik, uyqusizlik, paydo bo'ladi, natijada deydi olim – har xil kasalliklar vujudga kelishi mumkin.

Ibn Sino kishi organizmini chiniqtirishda tabiatning tabiiy kuchlaridan: havo, suv, quyoshdan jismoniy mashg'ulotlar bilan qo'shib olib borish va foydalanishga katta e'tibor beradi.

“Toza havo” – deydi Ibn Sino – bug' va tutun kabi yosh narsalar aralashmagan havodir. Bu ochiq joydagi havodir. Bunday havo toza va tiniq bo'lib, unchalik chuqurlik, chakalakzor, botqoq yerlar va polizlardan, ayniqsa, karam o'simligi eqilgan yerlardan ko'tariladigan suv bug'lari aralashmagan bo'ladi. Olimning fikricha, kishi organizmini chiniqtirishning birdan-bir omili sof havoda davomli sayr qilish, sayrni har xil harakatlar, jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish kerak. Ayniqsa, yosh bolalarga ko'proq sof havoda har xil harakatli mashqlar qildirish ularning organizmini chiniqtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Olimning kishi organizmini chiniqtirishda “Sovuq suvda cho'milish” va “Hammomda cho'milish” juda ham foydali ekanini eslatib o'tadi.

Ibn Sinoning hammomda cho'milish haqida sportchilarga bergan maslahati, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Uning fikricha: “Jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi kishi, butunlay hordiq chiqarmaguncha hammomga borishga shoshilmasligi” kerak. Ibn Sino sohasidagi bir qancha fikrlarida ilmiy tomondan asoslangan holda eng yaxshi, toza suv iste'mol qilish kerakligi, uning me'yori to'g'risida gapiradi. U toza oqadigan daryo suvini yerdagi chirindilar aralashmasdan, toshloqlardan oqadigan suvni toza suv deb biladi. Suvning yaxshi-yomonligini bilish uchun og'irligi teng bo'lgan ikki parcha lattani yoki ikki bo'lak paxtani olib, ikki xil suvda ho'llanadi va tarozida tortiladi, qaysi latta parchasi yengil kelsa, o'sha latta parchasi botirilgan suv toza hisoblanadi. Lekin



Ibn Sino suv har qancha toza bo‘lmasin, undan har xil yuqumli kasalliklar o‘tishi mumkin, shuning uchun ham suvni qaynatib, filtdan o‘tkazish kerak, deydi.

Kishi organizmini chiniqtirishda quyosh nuridan to‘g‘ri foydalanish katta ahamiyatga egadir. Ibn Sino bu masalaga katta e‘tibor berib, agar quyosh nuridan to‘g‘ri foydalanilsa, organizmda modda almashinuvining yaxshilanishi va natijada organizmning o‘sishi va rivojlanishi yaxshi bo‘lishi, chiniqishi va nihoyat, kishining tetik bo‘lishiga sabab bo‘ladi, organizmda ortiqcha moddalarning to‘planib qolishidan saqlaydi, bosh og‘rig‘ini yo‘q qiladi va miyani mustahkamlaydi, deb uqtiradi.

Kishi organizmini chiniqtirishda massajning (uqalashning) ahamiyati nihoyatda kattadir. Ibn Sino massajni, bir tomondan, davolash uchun, ikkinchi tomondan, charchashga qarshi kurashish shartlaridan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, massaj kuchli va kuchsiz bo‘ladi. Kuchli massaj qilish organizmni chiniqtirishga yordam beradi, kuchsiz qilinadigan massaj badanni yumshatadi.

Ibn Sino qanday massaj qilish kerakligi masalasiga aniq to‘xtalib, jismoniy mashq boshlanishidan oldin va mashq tugagandan keyin massaj qilish yo‘llarini ko‘rsatadi va tiklash massajiga ajratadi.

Ibn Sinoning tavsiya qilishicha, tayyorgarlik massaji jismoniy mashg‘ulot boshlamasidan ilgari qilinadi, u barcha muskullarni mashq qilishga tayyorlashi kerak. Massaj qilish yengildan boshlanib, mashq qilish oldidan kuchaytiriladi.

Tiklash massaji jismoniy mashq tugagandan keyin qilinib, uni Ibn Sino “Tinchlanish” massaji deb ham ataydi. Bu massajning maqsadi, taranglashib turgan muskullarni bo‘shashtirishdan iboratdir.

Tiklash massaji Ibn Sinoning ko‘rsatishicha, ma‘lum yengil bir surashda olib borilishi kerak, agar bu xil massaj kuchli “Qattiq va qo‘pol ravishda olib borilsa, ayniqsa...” bolalarda o‘shish to‘xtab qolishi mumkin.

Ibn Sino jismoniy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarda faqat jismoniy mashqqa ta‘rif beribgina qolmasdan, balki uning har xil turmush borligini va ulardan qanday qilib foydalanish kerakligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Ibn Sino jismoniy mashg‘ulotning roli haqida gapirar ekan, uning kishi organizmi uchun foydali ekanligini ta‘kidlaydi va jismoniy mashg‘ulotga odamning shu jarayonida qiladigan harakatlari va maxsus jismoniy mashq harakatlari kiradi, degan fikrni ilgari suradi.

Maxsus jismoniy mashqlarni Ibn Sino quyidagicha ta‘riflaydi: “Kichik yoki katta; juda tez yoki sekin, mashqlar bo‘ladi.”

Tez harakatlarga: tortishish, musht bilan turtishish, tez yurish, nayza otish, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, yuqoridagi biroz narsaga irg'ib osilish, bir oyoqlab sakrash, ikki qo'lni silkitish, arqonda yurish, oyoq uchlarida turib, qo'llarni oldga va orqaga cho'zish va tez harakat qilishlarni kiritadi.

Juda muloyim va yengil mashqlarga: arg'imchoqlarda uchish, qayiq yoki kemalarda sayr qilishni kiritadi. Kuchli mashqlarga esa, tosh ko'tarish, otga va tuyaga minish, aravalarda yurishni kiritadi.

O'rta Osiyo xalqlari orasida boshqa ko'pgina xalqlardagi kabi qadim zamonlardan buyon kurash keng tarqalib kelgan. Kurash kishi organizmini chiniqtirishda juda katta rol o'ynaydi. Ibn Sino shuning uchun ham sportning bu turiga juda katta ahamiyat berib, uning har xil turlarini yozib qoldirgan. Masalan, kurashning bir turini Ibn Sino quyidagicha tasvirlaydi:

“Kurashayotgan kishining biri raqibining o'ng qo'li tagidan o'ng qo'lini, chap qo'li tagidan chap qo'lini o'tkazib, uni quchoqlaydi. Keyinchalik raqibini o'ziga tortadi va uni o'ng yoki chap tomonidan tovlay boshlaydi. Shu kishi yoki bukiladi yo qaddini rostlaydi.”

Ibn Sino kurashning yanada boshqa ko'pgina xillarini ko'rsatadiki, bular uning xalq orasida mavjud bo'lgan kurash shakllarini umumlashtirib, xalqlar orasida tashviqot va targ'ibot qilgan. Ibn Sino ko'rsatgan kurash usullari O'rta Osiyo xalqlari orasida hozirgacha saqlanib kelmoqda va ular klassik kurash turi bilan xalq orasida e'tiborga sazovordir.

Ibn Sino kishi organizmidagi har bir organ o'ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun ham har bir organni chiniqtirishda alohida mashqlar va undan foydalanish zarur, deb ko'rsatadi. Jumladan, ko'krak qafasi muskullarni va nafas olish organlarini chiniqtirish uchun past, goho baland tovush chiqarish zarur, buning bilan faqat ko'krak qafasi va nafas organlarigina emas, balki og'iz, til ham harakatga keladi, ular ham mashq qildirilishi natijasida taraqqiy etib boradi. Bundan tashqari, nafas olish va nafas chiqarish bilan kishining barcha organlari mashq qiladi, qon tomirlari kengayadi.

Bundan ko'rinadiki, Ibn Sino kishi organizmidagi barcha organlar bir-biri bilan mustahkam bog'liq, aloqador ekanligini aniq bilgan.

Ibn Sino kishi ovozining bir me'yorda bo'lishini ta'minlashi uchun uni mashq qildirish zarur deb hisoblaydi. Uning fikricha, birdaniga kuchli ovoz bilan uzoq vaqt gaplashish zararlidir.

“Ovozni yo'qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo, o'qishni past ovoz bilan, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish, lekin kuchli ovoz bilan o'qish ham uzoq davom etmasligi

kerak” – deb maslahat beradi. Ko‘rish organi bo‘lgan ko‘zni chiniqtirish uchun mayda buyumlarga tiqilib qarash, vaqti-vaqti bilan yuqoridagi narsaga bir lahza ko‘z tashlab olish kerak, deydi.

Quloq esa juda past ovozlarni, ba‘zan kuchli tovushlarni eshitish orqali tarbiyalanadi.

Ibn Sino jismoniy mashg‘ulotlarning ahamiyati va turlari to‘g‘risida fikr yuritib qolmasdan, balki u jismoniy mashg‘ulotni kishi organizmi qanday holatda bo‘lganidan boshlash kerakligi haqida ham qimmatli maslahatlar beradi. Olimning fikricha birinchidan, jismoniy mashqni boshlashdan ilgari kishi tanasi toza bo‘lishi, ikkinchidan, iste‘mol qilgan ovqati hazm bo‘lgan bo‘lishi kerak. Lekin ovqat hazm bo‘lib, ko‘p vaqt o‘tgandan keyin, ya‘ni och qoriga jismoniy mashg‘ulot bilan shug‘ullanish yaramaydi, chunki agar kishi xususan, katta kuch talab qiladigan jismoniy mashq qiladigan bo‘lsa, bundan faqat zarar ko‘rish mumkin, chunki ular (jismoniy mashq) kuch-quvvatdan qoldiradi, – deydi.

Ibn Sino jismoniy mashq qilishda ma‘lum bir qoidaga rioya qilish kerakligini ta‘kidlab, quyidagi uch narsaga alohida e‘tibor berish shart, deb ko‘rsatadi:

1) Agar terining rangi borsa harakatlarini davom ettira berishi mumkin, agar ter chiqa boshlasa, harakatni to‘xtatish kerak; 2) jismoniy mashg‘ulot davomida kishi tanasi yengilligicha qolaversa, mashqni davom ettira berishi mumkin; 3) agar organlar (a‘zolar) bo‘rtishda davom etsa, mashq davom ettirishi mumkin. Agarda shu ko‘rsatilgan belgilar – deydi olim, yo‘qola borsa, mashqni darhol to‘xtatish kerak.

Buyuk olim faqat sihat-salomat kishilarning o‘z organizmini chiniqtirish uchun bajaradigan jismoniy mashq turlarini va ahamiyatini ko‘rsatib qolmasdan, balki kasal, kam quvvat kishilarning jismoniy mashq qilish bilan kasallikdan qutilish yo‘llarini ham ko‘rsatishga harakat qiladi. Jumladan, “Jismoniy mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi kishi o‘zining kam quvvat organlarini, ortiqcha harakat qildirishdan saqlashi lozim” – deydi.

Harakatlar - deb izohlaydi Ibn Sino organlarning holiga qarab turga bo‘ladi. Masalan, oyoq tomirining kengayishi kasalligi bilan og‘rigan kishi oyoqning ko‘p harakat qiluvchi mashqlar bilan shug‘ullanmasdan, balki harakatning ko‘pini gavdaning yuqori qismida: bo‘yin, bosh va qo‘llarga ko‘chirishi kerak. Gavdaning yuqori qismida qilinadigan harakatlar oyoqlarga kam ta‘sir qiladi. Ibn Sino jismoniy mashqlarning hamma turlari bilan barcha odamlar bir xil shug‘ullanishi yaramaydi deb uqtiradi. Kishi

albatta o‘zining sog‘lig‘iga qarab, qurbiga yarasha mashqni tanlab olishi kerak, deb hisoblaydi.

“Har bir odam, – deydi Ibn Sino, o‘ziga mos harakatlarini tanlashi kerak. Arg‘amchilarda uchish kabi yengil mashq holsizlangan kishilar uchun, harakat qilish va o‘tirishga qurbi yetmaydigan kishilar uchun muvofiq”.

Bundan tashqari, Ibn Sino yana bir qancha kasalliklarni davolashda yengil mashqlardan foydalanish kerakligi to‘g‘risida aniq maslahatlar beradi.

Masalan, agarda odam oxista tebratilsa, uyquga kiradi va bu harakatda atrofga yel taraladi. Bu harakat, Ibn Sino fikricha, miya kasalliklari natijasida kelib chiqqan parishonlik, esarlik holatlaridan xalos bo‘lish hamda ishtahani ochish, tabiatni uyg‘otish uchun foydalidir. Karovatda yotqizib tebratish kunora to‘tadigan, qorin kunchish, buyrak kasalliklariga duchor bo‘lgan kishilar uchun foydali ekanligini ta’kidlaydi.

Ibn Sinoning hayotiy masalalarga qiziqqanligi va unga o‘z vaqtida ilmiy va amaliy javob berishga tayyor ekanligi jismoniy tarbiya sohasidagi fikrlarda ham ko‘rinib turibdi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari uzoq vaqtlardan buyon ko‘pgina mamlakat xalqlari bilan aloqa qilib kelgan. Ibn Sino bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradigan kishilar sog‘ligini saqlash uchun qanday tadbir-choralar ko‘rishlari to‘g‘risida fikr yuritadi.

“Tib qonunlari” kitobining maxsus bobini “Sayohatchiilar rejimi” deb ataydi. Quruqlikda va dengizda sayohat qiluvchi kishilarga sog‘liqni saqlash, organizmni mustahkamlash, yo‘lda o‘zini qanday tutib bora bilishi kerakligi to‘g‘risida qimmatli maslahatlar beradi. Mutafakkirning fikricha, kishi sayohatga chiqishdan oldin unga tayyogarlik ko‘rishi kerak, buning uchun esa avvalo yengil jismoniy mashq bilan muntazam suratda shug‘ullanish va sayohatga zarur bo‘lgan odatni hosil qilishi shartdir.

Sayohatchii yo‘lda turli qiyinchiliklarga uchrashi mumkin, uni yengib o‘ta bilish uchun sayohatga chiqishdan oldin hayotida o‘rgangan, odat bo‘lib qolgan rejimni o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Bunda kishi, – deydi Ibn Sino o‘zini, avvalo kaloriyasi kuchli ovqat bilan ta’minlashi, charchamasligi zaruriy choralardan biridir.

Ibn Sinoning sayohatchiilarga bergan maslahatining yana bir qimmatli tomoni shundaki, u otda yuradigan kishi qornini haddan tashqari ortiqcha to‘ydirmasligi, ochlik va charchashni yengib o‘ta olishga odatlangan bo‘lishi kerak, iste’mol qiladigan ovqat kam bo‘lsa ham

organizm quvvatini saqlab turishga qodir bo'lishi kerakligini maslahat beradi.

Ibn Sinoning sayohatchilarga kunning issiq va sovuq vaqtlarida o'zlarini qanday tutishlari kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmasi diqqatga sazovordir. Olimning fikricha, quyoshli issiq kunlarda uzoq yo'l bosadigan sayohat harakat qilishlari kerak, bunday sayohatga chiqishdan oldin Ibn Sino sayohatchiiga piyoz va qatiq iste'mol qilishni tavsiya qiladi. Agar yo'lda juda ham chanqash, tashnalik bo'lsa, og'izni sovuq suv bilan chayqab tashlash lozim, deydi.

Havoning sovuq kunlarida sayohatga chiqadiganlar ham bir qancha qoidalarga rioya qilishlarini talab etadi. Eng avvalo, kishi og'iz va burunga sovuq havo kirishidan saqlanishi, agar sayohatchi dam olish uchun bir joyga qo'nib, gulxan yoqsa, uning oldiga birdaniga yaqinlashmasdan, balki asta-sekin isinish kerakligi to'g'risidagi maslahati hozirgi davrda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

Ibn Sino birinchi marta dengizga sayohat qilishga chiqadigan kishining boshi aylanishi, ko'ngli aynishi, hattoki qo'sishi mumkin, bunga qarshi kurashish uchun olma, anor va bexi iste'mol qilishi kerak, – deydi.

“Tib qonunlari”, kitobining yakuniy qismida Ibn Sino quyidagi yettita faktordan to'g'ri foydalanish sog'liqni saqlaydi va mustahkamlaydi, degan xulosaga keladi. Bulardan: 1) mijozni mo'tadil tutish; 2) yeyiladigan va ichiladigan narsalarni (ovqatni) tanlash; 3) badanni tuklardan tozalash; 4) burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish; 5) qaddi-qomatni to'g'ri tutish; 6) kiyimlarni qulay qilish; 7) jismoniy va ruhiy harakatlarni normal qilishdan iboratdir.

Ibn Sinoning jismoniy tarbiya sohasidagi fikrlarining karakterli tomoni shundaki, bu masalani kishi faoliyatining boshqa tomonlaridan ajralgan holda emas, balki insonning barcha faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda olib qaraydi. Chunki Ibn Sino jismoniy tarbiyani bolaning yoshiga, kuchiga va hayotiy tajribasiga yarasha olib borish kerakligini, jismoniy mashqlar kishining organizmini mustahkamlash bilan bir qatorda, u kishining ruhini shakllantirishga, aqliy qobiliyatning o'sishiga ham katta yordam berishini uqtiradi.

O'rta asr sharoitida buyuk mutafakkirning jismoniy tarbiya sohasidagi fikrlarini tibbiy-ilmiiy tomondan asoslab berishi o'sha davrga nisbatan juda katta progressiv ahamiyatga egadir. Lekin o'sha davrda Ibn Sinoning jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrini oddiy xalq o'zining hayotida qo'llay olmagan.

Ibn Sinoning jismoniy tarbiya to'g'risidagi ko'pgina fikrlari hozirgi davrda ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglar bulardan tanqidiy ravishda o'z amaliyotlarida foydalanishlari mumkin. Buning uchun keng imkoniyatlar mavjuddir.

Abu Ali Ibn Sino haqida Hindistonning buyuk davlat arbobi javohirlar Neru o'zining "Hindistonning ochilishi" degan asarida O'rta Osiyo olimlari, mutafakkirlarini tilga olar ekan, fan taraqqiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: "Ulardan eng mashhuri vrachlar podshohi" degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino (Avitsena) dir degan edi.

## **Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo**

Zaxiriddin Muhammad Boburni, asli, polvonlar avlodidan desa bo'ladi. Uning katta bobolari – Sohibqiron Amir Temur, uning o'g'li Mironshox ham, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Abu Said Mirzo ham jismoniy baquvvat, otni musht bilan urganda dovdiratadigan darajada kuchli va polvon kishilar bo'lgani manbalardan ma'lum. Boburning otasi Umarshayx Mirzo polvon kelbatli, jismoniy jihatdan juda baquvvat yigit bo'lgan. "Boburnoma" da ta'riflanishicha, uning mushtiga bironta bohodir chidash berolmasdi. Belbog'ni bog'lab bo'lganlaridan keyin chuqur nafas olganida esa belbog'i uzilib ketar edi.

O'n ikki yoshida Farg'ona taxtiga o'tirgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'sha polvon kelbatli kishilar zotidan bo'lgani uchun bolaligidanoq nihoyatda sog'lom, binobarin sho'x tabiatli, epchil, chaqqon, kuchli, chapdast yigit bo'lib o'sdi.

Boburga kichikligidanoq yugurish, otda chopish, chavgon o'ynash o'rgatildi. U otda turib to'p surardi, tengqurlari bilan kurashga to'shardi. Ammo u bolalik va o'smirlik gashtini uzoq surolmadi. Otasining bevaqt o'limi uni vorisiy taxtga o'tkazdi.

Boburning qizi Gulbadanbegim "Xumoyunnoma" asarida quyidagi ma'lumotni keltiradi, Bobur Hindistonda Agra shahrini egallagach, xursandchilikdan bo'lsa kerak, qal'a devoriga chiqib, ikki yigitni ikki qo'ltig'ida dast ko'tarib, devor ustida yugurgan. Yigitlar, masalan, o'rtacha 75 kilodan bo'lsa, demak, 150 kilo yukni ko'tarib, devor ustida yugurish uncha – muncha polvonning qo'lidan kelmasligi aniq.

Boburning o'zi jismoniy tomondan baquvvat bo'lgani uchun ham doimo bohodir yigitlarni xush ko'rardi. Shuning uchun ham askarlarining jismoniy tayyorgarligiga ko'proq e'tibor qaratgan. Askarlar o'rtasida

kurash tushish, kamondan o‘q otish, uloq, ot chopish, ot ustida kurashish mashqlari tez-tez o‘tkazilgan.

Sportning eng og‘ir va xatarli turlaridan bo‘lgan alpinizm ham O‘rta Osiyoliklarga qadimdan ma‘lum.

Kishidan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni, epchillik, jasurlik, chidamlilikni, uddaburonlikni talab qiluvchi alpinizmning ko‘p shakllari O‘rta Osiyoda shakllangan. Jumladan, O‘rta Osiyoning, Hindistonning, Afg‘onistonning ko‘plab past-baland tog‘laridan oshib o‘tgan Boburning mohir va mashhur alpinist bo‘lganligi haqida uning “Boburnoma” asaridagi ma‘lumotlar dalolat beradi. Bobur va uning askarlari Kobulga borish uchun yaqin yo‘l tanlamoqchi bo‘lib, Qosimbek degan odamning gapi bilan Hindukush tog‘lari orqali yuradilar. Ammo ular yo‘ldan adashib va ko‘p qiyinchiliklarga uchrab, Hindukush orqali Kushiy degan g‘orga yetib kelishadi. Hamma, shu jumladan, Bobur ham, qo‘liga kurak olib o‘ziga boshpana-gor qazishga kirishadi: “Qo‘limga kurak olib, qor kurab o‘zimga joynamoz miqdori yer yasadim, qorni ko‘ksimgacha qazidim hanuz yerga yetmaydur edi. Xorin yelga panoh bo‘ldi. O‘sha g‘orda o‘ltirdim, yigitlarim katta g‘orga keling, deb har necha dedilarkim, bormadim. Ko‘ngilga keldi: barcha kishilarim qorda va bo‘ronda qolsayu, men issiq uyda va istirohotda yotamanmi, dalada barcha odamlar tashvish va mashaqqatda yursalaru, men katta g‘or ichida uyqu bilan farog‘atda yotamanmi? Bu nomardlik bo‘lar edi, bu hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men har tashvish mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir fors maqoli bor: do‘stlar bilan birga o‘lsang – to‘ydir. Va shundoq bo‘ronda o‘zim qazib yasagan qor chuqurda o‘ltirdim, deb yozgandi.

Suvda suzish mashqlari ham har bir O‘rta Osiyolik jangchi uchun majburiy edi. Bu “Oynoma”, “Sayohatnoma” asarlarida qayd etib o‘tilgan. Bobur ham “Boburnoma” asarida o‘zining mohir suzuvchi bo‘lganligini shunday eslaydi: o‘sha kuni men Gang daryosini suzib o‘tdim va uning u chekkasidan - bu chekkasigacha necha qadam ekanligini hisoblab chiqdim. O‘ttiz qadam masofaga suzib borgan ekanman. Shu ondayoq, dam o‘tmay yana ketimga suzib, o‘z joyimga qaytib keldim. Men hamma daryolarni suzib o‘tgan edim, faqat Gang daryosi qolgan edi”.

Shunday qilib Bobur Mirzo 1526-yilning aprelida Hindistonni zabt etib, Boburiylar saltanatiga asos soldi va shu tariqa Temuriylar sulolasini Hindiston zaminida davom ettirdi.

Boburning sportga qiziqqanligining bir yorqin misoli: To‘y-tomoshalarda, sayllarda Bobur turli o‘yinlar uyushtirar edi va

polvonlarning kurashlarini tashkil qilardi. Bunday marosimlar Qobilda ham, Hindistonda ham tez-tez o'tkazilgan.

Bobur Xindistonga borgach, 1528-1529 yillari mamlakat bo'ylab sayohat-safarlar qilgani ma'lum. Ana shu safarlari chog'ida o'zi bilan ayrim polvonlarni ham olib yurgan va kechki dam olish paytlarida daryo bo'ylarida ko'ngil ochar marosimlar tashkil qilgan. (ungacha allaqachon chogir ichishni man etish haqida maxsus farmon e'lon qilgan edi). Bu tantanalar kurash tomoshalarisiz o'tmasdi.

Boburning Sodiq polvon va Kulol polvon degan kurashchilari bo'lgan. Qayerda kurash musobaqasi uyushtirilsa, Bobur ularni boshqa polvonlar bilan kurashga tushirgan. 1527-yil martida Ganga quyiladigan Jun daryosi bo'ylab sayohat chog'ida Bobur odamlari tushgan kemalar bir xushhavo qishloqda to'xtaydi. Qishloqning daryo tomoniga chodirlar tiqilib, shu yerda bir kecha qolishadi, qiziq suhbatlar uyushtirib, birozdan so'ng polvonlar kurashi boshlanadi. Sodiq polvon va Kulol polvonlar o'zaro do'st bo'lib, hech qachon bir-biri bilan kurashga tushmagan edi. O'sha kuni Bobur, hazil-mutoyiba qilibmi yoki boshqa polvonlar yo'qligidanmi, ikkovini maydonga tushiradi.

Kurash Farg'ona usulida: Cho'lpon kiyilgan va belbog' bog'langan, ammo belbog'lar ikki qavat uzilib ketmasligi kerak-da. Sodiq polvon astoydil olishadi, Kulol polvon esa faqat uning harakatiga qarshilik ko'rsatadi, xolos. Odamlar esa undan "Xujum" kutib, "Xa-xa" deb qichqirmoqda. Olishuv anchagina davom etadi. Nihoyat Sodiq polvon raqibini dast ko'tarib yonboshga tashladi. Atrofdagi esa qichqiriq ovozlari. Bobur o'tirgan joyida tizzasiga urib, Sodiqni olqishlamoqda edi. zavqlanganidan uni oldiga chaqirib, o'n ming tanga pul, bir ot va boshoyoq sarmo mukofot beradi. Boburning odilligi shundaki, mag'lubga ham uch ming tanga pul, bir chopon hadya qildi va yelkasiga qoqib qo'ydi.

Xullas, yuqorida bayon etilganlardan ma'lum bo'ladiki, Zahiriddin Muhammad Bobur jismoniy mashq mashg'ulotlari va kurash orqali mardlik, jasurlik, botirlik, epchillik, chidamlilik sifatlarini o'zida ham askarlarida ham birdek mukammal tarbiyalab borgan.



## Alisher Navoiy

Navoiy taxallusi; ulug' zotning asl ismi Nizomiddin Mir Alisher (1441.9.2 – Xirot – 1501.3.1) – buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi.

O'tmishda ma'lum va mashhur bo'lgan xalqparvar shoir, yozuvchilar o'zlaridan faqat qimmatli asarlar emas, balki xalqqa amaliy foyda keltiradigan binolar (“Davolash uyi”) qurib qoldirganlar.

Ana shulardan biri, she'riyat sultoni Alisher Navoiy edi. U oqillik, axloqiylik, salomatlik haqida faqat she'r bitib qolmasdan, balki xalqning sog'lig'i haqida qayg'urib bemorlarga dori – darmon bilan emas, balki jismoniy mashqlar yordamida davolash va dars berish bilan shug'ullanadigan “Dorishifo” (“Davolash uyi”) ni qurdirdi.

Buyuk bobomiz Navoiyning: “Odam uchun doimo harakatda bo'lish hayotlikdan asardir: jonsiz mavjudodlar – tiriklik nishonasidan bexabardir”, degan hikmatli so'zlari bugungi kunda ham qimmatlidir. Darhaqiqat harakat inson hayotining negizi ekanligi sir emas.

Alisher Navoiy dunyoviy ilmlar bilan birga diniy ilmlarni ham chuqur bilgan va, ayniqsa, ilmu – badan yoki badan – ilmini o'rganishni har bir inson uchun u kim bo'lishidan qat'iy nazar, asosiy shart qilib qo'yadi.

Tan nechog'lik sog' bo'lsa, ko'ngil shunchalik ravshan, ta'b xushchaqchaq bo'ladi. “Ko'ngil badan mulkining podshohidir” – deydi mutafakkir. Ko'ngilning salomatligi uning notoblighi – buning ham notoblighi, ya'ni mulk uchun mamlakatni osoyishta ta'minda tutib turuvchi sog'lom podshox kerak.

Tan uchun badan mulkining shoxi bo'lgan a'zo kerak. Tan olish kerakki, milliy sportimiz tarixi va badantarbiya soxasiga hali jiddiy qo'l urib chuqur o'rganilgan emas. Buning uchun esa ko'plab voqeanomalar, safarnomalar, jangnomalar, pandnomalarni o'qib o'rganishimizga to'g'ri keladi.

Ayniqsa bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlarida bu to'g'risida ko'plab ma'lumotlar olish imkoni bor: qanchadan – qancha atamalar, tashbexlar, ba'zi o'yin va turkumlarning tavsifi, lavhalar injulardek sochilib yotibdi. Ularni terib to'plab egalariga yetkazish payti keldi. Chunonchi, “Farhod va Shirin” dostonida quyidagilar tasvirlangan. Alisher Navoiy Farhodning harbiy mashqlarining barchasi bilan maxsus shug'ullangani to'g'risida so'zlar ekan, “Dilvorlik” degan atamani

ishlatadi. Ya'ni Farhod ma'naviy bilimlar ("ulum")ni o'zlashtirib bo'lgach, dilvorlik san'atlarini ham puxta egallashga harakat qilgan.

Farhodning sohibi qudrat egasi bo'lishi bolaligidayoq ma'lum edi.

Taajjubi shuki, uch yoshga kirgan bu bola ko'rinishida o'n yashar bolani didini berar edi.

Biroq tabiatan kuch egasi bo'lgan Farhod jismoniy mashg'ulotlarga emas, avval ilmga zo'r berdi.

Ya'ni Farhod umrining o'n yoshini yashadi. Bu vaqtiga kelib dunyoda u egallamagan, o'rganib tagiga yetolmagan biron ilm qolmadi. Uning yoshi atigi o'n yoshga yetgan bo'lsa ham gavdasi, qaddi-qomati, kuch quvvati yigirma yosh yigitlarnikiday edi. Uning uchun bilim kitoblari bir-bir yopilgach, u endi jangovarlik yaroqlarini egallashga mayl qiladi.

Bu baytlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, bolaga birinchi navbatda, bilim berish kerak, keyin mashg'ulotlarga kirishish mumkin. Farhod qisqa vaqtda dilovarlik san'atini egallaydi.

Bu ishlarga oz fursatgina muhabbat bilan kirishganiga qaramay nimaga mayl qilsa o'shaning mohir ustasi bo'lib chiqdi. U osmon kamalagiga o'xshagan yoyini kuch bilan otib, sharqda turib g'arbdagi nishonni uradigan bo'ladi. Qorong'i kechada ko'zga zo'rg'a ko'rinadigan Xulkar to'pidagi xira Suxo yulduzini nishonga olsa, u taqdir o'qiga nishon bo'lar edi. U o'q otganda ko'kning jangovar yulduzi Mirrix o'zining qo'rquv tugunlarni yechib yuborar va ofaringlar aytar edi.

Farhod nishonga otish, nayzabozlik, kurash tushish, qilichbozlik kabi mashqlarda hammani lol qoldirgan. Sharqda turib mag'ribdagi nishonni urgan. Qilich bilan Yer yuzida yoriqlar paydo etadigan, tog'larni burda-burda qilib yuboradigan. Bu o'rinda mubolag'a bor, albatta, biroq bu ta'svirda shoir Farhodning nihoyatda kuch-qudratli, mohir, chaqqon, epchil, mardlik sifatlarini ko'rsatishga intilgan.

Navoiy tasvirlagan harbiy mashqlarning hozirgi sportga qanday aloqasi bor?, - degan haqliy savol tug'ilishi tabiiy. Albatta, Navoiy tasvir etgan harbiy mashqlar aynan hozirgi sportni ifoda etmasada, mashqlarda uchraydigan unsurlar ba'zi sportda aks etadi. Masalan, "Saddiy Iskandariy" dostonining bosh qahramoni lashkarboshi shox Iskandar Birberi bilan Barik Eron shoxi Darri Xurram polvonlari o'rtasidagi yakkama-yakka olishuvlari fikrimizning asosidir.

Navoiy umuman jismonan kuchli odamlarni o'z davridagi keng rasm bo'lgan atamadan foydalangan holda "Pahlavon" deb, kurashni kasb qilib olgan polvonlarni "Zurgar" deb atagan. "Lison ut-tayr" dostonida ajoyib hikoyat bo'lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Behunarligi fanidan sohibhunar bor edi pahlavon zurgar,

Shoir pahlavon Muhammadni ma'naviy kamolotda benazir siymo, qadr don do'st, musoxibi va mahrami sifatida ko'rsatadi. "Majolis un-Nafois" ning to'rtinchi majlisi Pahlavon Muhammadning tasviri bilan boshlanadi. Navoiy uni musiqa sohasida nihoyatda bilimdon ekanligini ta'riflab, hatto uning bir ruboiysi Xusayn Boyqaroga yoqib qolib, unga ming tillo inoyat qilgani haqida yozgandi. Ammo pahlavonning fazilatlar orasida kurash ilmi yetakchi o'rinda turishini alohida qayd etadi: "Gushti fani bovujud ulkim, aning andok haq va mulkidurkim, ma'lum emaskim hargiz bu fanda andoq paydo bo'lmish bo'lgay."

Shu o'rinda ham yangi atamalarga duch kelamiz. Chunonchi, "Gushtigiri" yuqorida tilga olingan "Zurgar"ga o'xshab maydonda kurash tushuvchi polvon degan ma'noni bildiradi. Bundan tashqari, "Gushta fani" degan ibora bo'lib, kurash ilmi demakdir. "Gushta" atamasi ham eslatib o'tganimizdek, "Zuri" deganday gap, ya'ni kurashchi polvonlarning maydonda bellashuvidir.

Shoir "Holati Pahlavon Muhammad" asarida "Kurash va polvon ma'nosidagi" «Pushtirn» iborasini ishlatadi. Pahlavon Muhammad Tayakxonasida uyushgan yuzga yaqin tigirni tilga olar ekan, Navoiy shundan o'ntasi talabkasi, yigirmaga yaqin kadargir va jalli navxosta bo'lib, barchasi, ta'raka to'tadilar deydi. Demak, o'ttizga yaqin kishi malakali pahlavonlar bo'lib, qolganlari shogirdlar, ekan. Malakali pushtigirlarning talabkash, qadargir va navxosta deb uch guruhga ajratilishi ham qiziq. Talabkash bu raqibini tanlab bellashuvchi, qadargir raqibini tezlik bilan yiqitishga harakat qiluvchi, navxosta – maydonga yaqinda tushgan polvon degani bo'lsa kerak.

Bayon etilgan fikrlar ilk xulosalarni chiqarishga asos bo'ladi. Chunonchi, Navoiy zamonida faqat Xurosonda emas, balki Movarounnaxrda ham badantarbiyaga, jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishga yetarli e'tibor berilib, mashqlar hamda ommaviy musobaqalar o'tkazib turilgan. Mirshablar, zobitlar, jangchilar orasida maxsus dastur asosida harbiy mashqlar o'tkazilgan. Qilichbozlik, kamondan otish, og'ir yuk ko'tarish, kurash, gurzi va chukmor ishlatish shular jumlasidandir. Xalq o'rtasida chavandozlik musobaqalari (poyga, uloq, ag'darish, qiz quvdi kabi) shuxrat qozongan. Maxsus maydonda uyushtiriladigan tomoshalarda kurash nihoyatda sevimli bo'lgan. Kuch sinash, bellashuv, kurash ko'p hollarda san'at vositalari bilan yo'g'rilgan holda olib borilgani, natijada u boshqa maydon tomoshalariga o'xshab ketgan.

Alisher Navoiy ijodida ham shatranj mavzusi o‘ziga xos o‘rin egallaydi. “Lison ut-tayr” asarida shatranjga hikoyat bag‘ishlanishi Navoiyning bu o‘yinni yaxshi ko‘rishi maxsulidir. Buning e‘tiborli tomoni shundaki, unda shatranj donalari va o‘yin qoidalari to‘g‘risida ham ma‘lumotlar berilgan. Bu Navoiyning olimu ulamolarning shatranj majlislarida ishtirok etganidan, o‘zi ham sehrli o‘yin qoidalaridan xabardorligidan dalolatdir.

## **MILODDAN OLDINGA IX-VI ASRLARDA** **MARKAZIY OSIYODA JISMONIY TARBIYA**

Hududiy jihatdan Markaziy Osiyo hozirgi Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston respublikalari hamda Qozog‘istonning janubiy viloyatlarini qamrab oladi. U g‘arbdan sharqqa-Kaspiy dengizidan to Tyan-shandagi Xontangri muzligigacha 2400 km, shimoliy-janubiy Qozog‘iston cho‘llaridan Kushkagacha 1280 kmgacha cho‘zilib ketgan.

Markaziy Osiyo-Oltay chegarasiga bo‘lgan hududda yashagan xalqlar umumiy nom bilan skiflar deb atalgan. Skiflar boshqa-boshqa nom bilan xalqlar sifatida atalib, turli tillarda so‘zlashganlar.

Yunon tarixchisi Gerodot bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, Kaspiy dengizidan sharqdagi kenglikda, ya‘ni Qoraqumda, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida massagetlar yashagan. Strabonning yozishicha, xorazmliklar ham massagetlar toifasiga kirgan. Massagetlardan sharq tomonda saklar yashagan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan o‘troq aholi o‘zi yashab turgan joyning nomi bilan xorazmliklar, so‘g‘dlar, baqtriyaliklar va marg‘iyonaliklar deb atalgan.

Massagetlar miloddan avvalgi VI-V asrlarda qabilalarning yirik ittifoqi bo‘lgan. Bu qabila ittifoqiga bir necha sak qabilalari kirgan.

Grekl tarixchisi Efor (miloddan oldingi 405-330-yillar), saklarni ko‘chmanchilardan chiqqan, o‘lja, boylikka berilmaydilar, bir-biriga odilona munosabatda bo‘ladilar, erkaklar va ayollar o‘rtasida to‘la tenglik bo‘lgan, ayollar janglarda erkaklar qatori qatnashganlar, ayollar kamondan yaxshi otganlar, ular buni otda turib qayrilgan holda ham uddalay olgan, deb yozgan.

Yunon sayyohi Dionisiy Periegit saklar to‘g‘risida: “So‘g‘diyona ortida Yaksart (Sirdaryo) oqimi bo‘ylab o‘quzar, o‘qi behuda

ketmaydigan, dunyodagi eng mohir o‘qchi saklar yashaydi”, - deb yozgan edi.

Tarixchi Gerodotning yozishicha, eramizdan avvalgi ming yilliklarda hozirgi O‘zbekiston yerlarida yashagan xalqlar mis va temir qazib olishni bilganlar. Mis va temirdan harbiy va mehnat qurollari yasash san‘atini o‘rganib olganlar. Ular shuningdek, kulolchilik, to‘qimachilik, qurolsozlik va zargarlik hunarlarini egallaganlar. Markaziy Osiyo hududlarida bundan taxminan 2500-3000 yillar ilgari quldorlik tuzumi vujudga kelgan, deb hisoblash mumkin.

Markaziy Osiyoda tashkil topgan davlatlar podshoh boshliq qabilalarning ittifoqi edi. Shu bilan birga qabilalarning o‘z sardorlari bo‘lardi, ular harbiy yurishlar vaqtida davlat qo‘shinlariga boshchilik qilardi. Podshoh hokimiyati nasldan-naslga o‘tgan bo‘lsa-da, ammo ittifoq kengashi va qabila yig‘ini bilan cheklangan edi. Podshoh oilasi va uning a‘zolari davlatni boshqarishda asosiy vazifani egallab oldilar. Natijada podshoh qabila boshliqlarining demokratik huquqlarini cheklab qo‘ydi. Podshohlar o‘z xonadonining xavfsizligini ta‘minlash uchun yaxshi qurollangan gvardiya tuzganlar. Xuddi shu gvardiyaga suyanib, u o‘z qaramog‘idagi aholining hammasini o‘ziga itoat ettirib turishga erishgan. Bu davrda aholining tabaqalanish jarayoni yuz berayotgandi, bunda harbiy aristokratiya, qohanlar, jangchilar va dehqonlar qatlami ajralib chiqdi. Moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish vazifasini gorvidorlar bilan dehqonlar boshqarishardi.

Miloddan oldingi ming yillikning o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo xalqlari forslar, keyinroq greklar hukmiga duchor bo‘ldi. Eski shaharlar va davlatlar vayron qilindi. Bu xalqlar uzoq vaqtlar maboynida ajnabiy bosqinchilar zulmi ostida yashashga majbur bo‘ldilar.

Miloddan oldingi VI asr o‘rtalarida Eron qabilalari birlashadilar. Ahamoniylar urug‘idan bo‘lgan birinchi hukmdor-Kayxusrav (Kir) bo‘ldi. Shunday qilib, Kayxusrav miloddan oldingi 529-yilda Markaziy Osiyo xalqlariga bir qancha yurishlar qildi va Markaziy Osiyoni bosib olishda har qanday shafqatsizlikdan qaytmadi.

Quyi Osiyo lashkarboshi Garnag bironta ham tirikjon qoldirmadi. Yuqorida Osiyoni esa Kayxusravning o‘zi yer bilan yakson etdi.

Kayxusravga qarshi hal qiluvchi jang Amudaryoning chap qirg‘og‘ida avj oldi. Bu vaqtda massagetlarni eri vafotidan keyin podshoh bo‘lgan To‘maris boshqarar edi.

Tarixchi Geradotning “Tarix” kitobidagi massagetlar malakasi To‘marisning eron shohi Kayxusrav bilan olib borgan jang voqeasi avlodlar osha bizgacha yetib kelgan.

To‘maris massaget qabilalarining boshlig‘i hukmroni bo‘lib, el-yurtning tinchligi va osoyishtaligini ko‘z qorachig‘iday ximoya qiladi. Biroq Ahamoniylar podshosi Kayxusrav massagetlar osoyishtaligiga xavf soladi. Boshida u To‘marisga o‘ylanish yshli bilan massagatlarni o‘ziga qaram qilmoqchi bo‘ladi. To‘maris bu zolim podshoning shum niyatini bilib, uning taklifini rad etadi. Kayxusrav urush ochib, o‘z maqsadiga erishmoqchi bo‘ladi. To‘maris urushning oldini olishga qanchalik intilmasin, u urush boshlashga qat‘iy qaror qilgan edi. Shundan keyin To‘maris mudofaa jangiga otlanib dushmanga: “Biz bilamizki, sen jangchilikni xohlamaysan, shu sababli bashorati maslahatchimizga ko‘nmay, biz bilan to‘qanishishni istasang, ko‘prik yasayman deb ovora bo‘lib o‘tirma. Bizga aytsang, biz senga xalaqit bermay, daryodan uch kunlik yo‘lga cho‘zib ketamiz, bemalol daryodan o‘tasan, undan so‘ng yuzma-yuz uro’shamiz. Bordi-yu, agar biz bilan daryoning sen turgan qirg‘og‘ida urushmoqchi bo‘lsang, uni ayt, bunga ham biz rozi, faqat nomardlik qilma”, - deydi, To‘maris mardona kurashga shaylanadi. Kayxusrav esa hiyla-nayrang yo‘liga o‘tadi. U To‘marisning o‘g‘li Sprangiz boshliq bir guruh massagatlarni mast qilib, asir oladi. To‘maris g‘azab bilan: “.... Ey, qonxo‘r Kayxusrav, qilgan ishing bilan maqtanmay qo‘ya qol!. Sen mening o‘g‘limni yuzma-yuz jangda yengganing yo‘q, uni makkorlik bilan sharob ichirib qo‘lga tushirding. Endi mening nasixatimga kir, o‘g‘limni menga topshirib, kelgan yeringga ziyon-zahmatsiz qaytib ket. Agar so‘zimga kirmasang, massagetlar tangrisi - Quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men sendan ochko‘z yuhoni qon bilan sug‘oraman”, -deydi. Kayxusrav bu so‘zlarga quloq solmaydi, urush davom etadi. To‘maris boshliq massagetlar qattiq jangga kirib, Kayxusrav qo‘shinini yengadilar, uning o‘zini o‘ldiradilar. To‘maris Kayxusravning boshini qon bilan to‘lg‘izgan mishga solar ekan, o‘z kurashiga yakun yasab: “Ey nomard, sen meni jangda seni halollik bilan yengib chiqqan bir ayolni makkoralik bilan o‘g‘limdan judo qilib, farzand dog‘ida kuydirding, sen umring bo‘yi qonga to‘ymading, men o‘z ontimga amal qilib seni qon bilan sug‘ordim. Birovning yurtiga zo‘ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!” - deydi.

Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqichlariga qarshi olib borgan kurashi vatanparvar cho‘pon Shiroqning o‘lmas qahramonligi haqidagi qissada yorqin ko‘rsatib berilgan. Bu qadimgi afsonani birinchi marta

miloddan avvalgi II asrda yashagan grek tarixchisi Polien o'zining "Harbiy xiyalalar" degan asarida keltirgan. "To'maris" afsonasi kabi "Shiroq" afsonasining ham asl nusxasi saqlanmagan. U Polien asarlarida bunday hikoya qilinadi:

Sak qabilasining tinchligi va mustahkamligi xavf ostida qoladi. Yovuz niyatli Doro yaqinlashib kelmoqda. Sak hukmdorlari Omarg, Saksfar, Samiris dushmanga qarshi kurash rejasini tuzayotgan paytda cho'pon Shiroq paydo bo'ladi. U dushmanni yengish rejasini o'ylagan. Bu reja sak qabilalarini Doroning qulligi xavfidan qutqaradi, dushmanli halokatga olib boradi. Shiroq Doro qo'shinini "ko'chib ketgan" saklarning yo'lini 7 kun deganda "kesib olib chiquvchi yo'lga" boshlaydi. Shiroq dushmanni bepoyon cho'lu biyobonga olib boradi. Dushmanning ochlik va suvsizlikdan halok bo'lishi muqarrar. Yettinchi kuni ham saklardan darak topolmagan Doroning qo'shini boshlig'i Ranosbat Shiroqning kallasini chopib tashlaydi. Shiroq: "Men yengdim, yolg'iz o'zim butun boshli bir qo'shinni yengdim, jonajon qabilam saklar va ona tuprog'im boshiga kelgan baloni daf qilib, bosqinchi Doro lashkarlarini halokatga olib keldim, to'rt tomonining har qaysisi yetti kunlik yo'l, istagan tarafingizga ketavering. Baribir borgangiz ochlik va tashnalik yemirib nobud qiladi. Mening qonim esa shu yerga to'kiladi"- deb o'limni shodlik qahqahasi bilan kutib oladi va mardlik ko'rsatdi.

Shunday qilib, Doro I miloddan oldingi 513-yilda saklarni tor-mor qilishga erishi olmadi, ularning mustaqillikka bo'lgan irodasini buka olmadi.

### **Markaziy Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqichlariga qarshi mustaqillik uchun kurashi.**

Hozirgi Yugoslaviya tartibidagi Makedoniya miloddan oldingi bir ming yillik o'rtasida grek dunyosining alohida bir qismi edi. Bu yerda ham xuddi Markaziy Osiyodagidek qulchilik va shahar hayoti hali rivojlanmagan edi. Makedoniya aholisi asosan erkin dehqonchilik hamda chorvadorlardan iborat edi.

Miloddan avvalgi V asrdan boshlab Makedoniyani birlashtirish boshlandi. U faqat Filip II (miloddan oldingi 359-336-yillar) davrida harbiy jihatdan qudratli davlatga aylanib, Osiyoni bosib olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Miloddan oldingi 336-yilda Makedoniya qo'shinining ilg'or qismi Gallspont (Dardanel) bo'g'ozidan kechib o'tadi, ammo eronliklar tomonidan qo'llab - quvvatlagan fitna tufayli Filip II o'ldiriladi. Miloddan

olingi 336-yilda tugʻilgan 20 yashar oʻgʻli Aleksandr Makedonski (Makedoniyalik Iskandar) uning vorisi boʻldi. Aleksandr Filipning ikkinchi xotini Olimpiadadan tugʻilgan edi. Aleksandr dunyoviy ilmni Arastu (Aristotel) murabbiyligida harbiy tayyorgarlikni esa oʻz otasi Filip rahbarligida oldi. 16 yoshdan boshlab otasi tomonidan olib borilgan barcha janglarda qatnashdi. 18 yoshida esa Xeron yoshidagi jangda grek qoʻshinlarining soʻl qalʼasiga qoʻmondonlik qilib, bu jangda oʻzining jasurligi va mardligi bilan shuhrat qozondi. Aleksandr Makedonskiy oʻzining butun hayotini jang-jadallarda oʻtkazdi.

Iskandar Markaziy Osiyoga bostirib kirishda bu yerdagi xalqlarni “faqat qul qilishdan boshqa narsaga yaramaydigan varvarlar” deb atab, ularni pisand qilmagan edi. Biroq uzoq Markaziy Osiyoda koʻrgan-kechirganlari Iskandarning “varvarlar” haqidagi tasavvurini chippakka chiqardi.

Lekin Iskandar Samarqandni bosib olgach, u yerda oʻzining bir garnizonini qoldirib, Fargʻona vodiysi tomon harakat qiladi va Xoʻjandga yaqinlashadi. Bu yerda Iskandar Kironolning togʻli aholisiga duch keladi. Kironolliklar Iskandarni togʻlarda toʻxtatishga harakat qiladilar. Bu yerdagi jangda Iskandar yaralanadi. Lekin Barbar tepalikni egallashga muvassar boʻladi.

Tepalikni egallashda makedoniyalik jangchilarni bir qismi qoyalardan qulab tushgan boʻlsa. Togʻliklar esa asir tushmaslik uchun ataylab oʻzlarini qoyalardan tashlab, halok etishdi.

Qator mamlakatlarni tiz choʻktirgan jahongir bu yerda togʻli “vaxshiylar” ning irodasiga, eʼtiqodiga va yurt mustaqilligi uchun koʻrsatgan jasoratiga oʻlim keltiradi. Arriionning bergan maʼlumotiga qaraganda, bu janda 8 ming kishigina omon qolgan, xolos.

Ayni shu paytda Zarafshon vodiysida yirik qoʻzgʻolon koʻtarildi. 3 yil davom etgan qoʻzgʻolon markazi Soʻgʻdiyona edi. Koʻp oʻtmay bu qoʻzgʻolonga Baqtriya aholisi ham qoʻshildi. Grek makedoniyaliklarga qarshi endi oʻtroq aholi ham bosh koʻtaradi.

Xalqni qoʻzgʻolonga otlantirgan Soʻgʻd harbiy sarkardasi Spitamen Markaziy Osiyo xalqlarining chinakam qahramoni, mard, poytaxti Samarqandda boshlandi. Qoʻzgʻolonchilar grek qoʻshinlarining garnizonini qurshab oldilar.

Vaziyatning jiddiyligini sezgan Iskandar Sirdaryo ortidagi saklar bilan bitim tuzishga majbur boʻladi va butun kuchini qoʻzgʻolonni bostirishga qaratadi. Lekin Spitamen doimo hech kim kutmagan joyda paydo boʻlardi. Spitamen oʻzining kichrayib qolgan otryadi bilan Baqtriyada paydo



bo'ladi. U kichik bir qal'ada joylashib olgan grek-makedon gornizonini tor-mor etib, greklarning Zarisasidagi qishki qarorgohiga yaqinlashdi. Bu yerdagi pistirmaga olib keladi va u yerda barchasini qirib tashlaydi.

Bu g'alabadan so'ng Spitamenning obro'-e'tibori ortib bordi va uning otryadiga yangidan-yangi kuchlar kelib qo'shila boshlaydi.

Spitamenni poylab turgan greklar bilan katta jang bo'ladi. Biroq Iskandar bilan yashirincha til birtirib olgan ko'chmanchilar dog'da qoladilar. Bu esa Spitamenning jasorati edi.

Iskandar vafotidan so'ng Baqtriya qisqa muddatga Aleksandr Selevk davlati tarkibiga, so'ngra esa grek Baktriya podsholigi tarkibiga kiradi.

Manbalarda eramizgacha bo'lgan II-I asrlarda yue-chji hukmdorligi kichik mustaqil knyazlik sifatida qayd etilgan. Ana en-chjilar boshchiligida Kushonlar podshohligi vujudga keldi va u asta-sekin o'z chegaralarini kengaytirib, yagona hukmat tuzish siyosatini yurita boshladi. Eramizning I- III asrlarida Kushon davlati hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Pokiston shuningdek, Afg'oniston va Hindistonning katta qismi egallab oladi hamda Rim, Parfiya, Xitoy imperiyalari bilan tenglashib, antik dunyoning yirik imperiyalaridan biriga aylandi.

### **O'zbekistonga jismoniy tarbiyaning kelib chiqish tarixi**

O'rta Osiyo hududida hususan Surxondaryo zamini ilk bor ibtiodiy odamzod makon topgan joy sifatida ta'riflanadi. Boysuntog' tizmalari bag'ridan Teshiktosh g'oridan topilgan o'rta paleolit davriga (miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar) oid ibtidoiy odam manzillarining qoldiqlari topilgan. Ibtidoiy odamzod yashagan davr, olimlarimiz e'tirof etganidek, bundan qariyb bir million burungi zamonga to'g'ri kelsa, Boysuntog' tizmalarida tasvirga tushirilgan surat-dinozavrlarning toshda qotib qolgan izlari qaysi davrga daxldor ekanini o'zingiz tasavvur qilib olavering! Ma'lumki, dinozavr mezozay erasida, ya'ni bundan 60 million yil ilgari yashab o'tgan sudralib yuruvchi hayvondir.

Surxondaryo tog'larida tosh davrning so'nggi bosqichi-yuqori paleolit (miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar)ga doir topilmalar ham talaygina. Shulardan birini siz tarix kitoblarining ilk sahifalarida ko'p ko'rgansiz. Bu odam qiyofasini antronolog M. M. Gerasimov Boysunning shimoliy-g'arbidagi Teshiktosh unguridan qazib olingan sakkiz-to'qqiz yashar bolaga tegishli suyaklar asosida tiklangan. Ushbu topilma "Neandertal odam" nomi bilan mashhur bo'lib, O'zbekistonning, umuman Markaziy Osiyoning hozirgi zamon odami (kromanon)

shakllangan mintaqaga taalluqli ekanini asoslaydigan manba sifatida fanda katta kashfiyot hisoblanadi.

Mazkur g'or tog'lar o'rtasidagi Zovshaloshsoy degan yerda joylashgan va u yer dengiz sathida 1500 metr balandlikdadir. G'ordagi bir yarim metrlik qatlom toshdan yasalgan mehnat qurollari, turli xil hayvonlarning singan suyaklari borligi ma'lum bo'ldi. Qatlamlarda gulxan izlari topildi. Gulxanlar atrofida esa tog' echkisi, bug'u, yovvoyi ot, ayiq, quyon, kaklik, o'rdaklarning ko'plab suyaklari topildi. Teshiktosh g'oridan jami bo'lib 3000 mingga yaqin turli xil predmetlar topilgan, ularning 339 tasi puxta va pishiq ishlangan mehnat qurollaridir. Qazilma paytida tosh qurollardan tashqari suyaklardan qilingan buyum, ish qurollari ham topildiki, bu neandertal davr kishilarining taraqqiyot yo'lidagi sezilarli va hatto Surxondaryo O'rta Osiyo hududida insoniyat neandertal bosqich taraqqiyotini bosib o'tilganligiga yaqqol dalil bo'la oladi.

Arxelogik topilmalar Surxondaryo hududida istiqomat qilgan ibtidoiy jamoa tuzumi, kishilarning ov bilan faol shug'ullanganliklaridan, xafsala bilan mehnat qurollari yasab, ularni kundalik ish jarayonida qo'llaganliklari va o'z tajriba- mahoratlarini keyingi avlodlarga meros qilib qoldirganliklarini aniq-ravshan isbotlaydi. Ov ularning jismoniy kuch-quvvatini, imkoniyatlarini yanada mustahkamlagan, sezgirliги, xushyorligini oshirgan, bilimlarini kuchaytirgan, ov-qurollarini yasash va amalda qo'llash esa insondan muayyan darajada jismoniy kuchni, aqliy o'tkirlik va amaliy ko'nikmalarni talab etar edi. Dastlabki texnika asta-sekin takomillashib bordi, otish qurollarining amalda qo'llanishi tufayli tezlik harakati ham osha boradi. Paleolit davrining oxirlarida otish qurollari nayza, keyinroq esa kamon yoyidan otish kashf etildiki, bu insonning ilk mexanizmlarni yaratish yo'lidagi dadil qadamlari edi.

Sherobod tumani hududidagi g'orlarda topilgan rangli tasvirlar jamiyat tarixini davrlashtirishga mezolit va neolit davriga oiddir. Qoyalarga Ko'xitang tog'laridagi Zarautsoy g'orlarining har ikkala tarafida ham borligi ma'lum bo'ldi. U qadar chuqur bo'lmagan Zarautkamar degan g'ordagi tasvirlar ancha yaxshi saqlangan. Qoyalardagi tasvirlar mineral bo'yoqlar yordamida chizilgan. G'orning har ikkala tarafidagi tasvirlar mavzu va uslubiy jihatdan bir-biriga bog'liqdir. Masalan, qoyaga tushirilgan asarlardan birida yovvoyi ho'kizlarni ovlash payti tavsirlangan. Unda chopib borayotgan ho'kiz va uning ortidan quvayotgan itlar hamda odamlar ifodalangan. Ovchilar kamondan, ayrimlari esa sonqondan otmoqdalar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki,

kamon kashf etilishi bilanoq, o'zidan avval ishlatilgan barcha otish qurollaridan har jihatdan ustun va foydali ekanligini isbot qildi.

Kamonning keng yoyilishi va qo'llanishi keyinchalik ovchilikning sifat jihatdan rivojlanishi va takomillashuviga olib keldi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ba'zi maktablarda ular ovdan o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan keyingi o'yinlar haqida fikrlar bayon etilgan. Agar bu ma'lumotlarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan so'ng ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar-ovoldi mashq (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruhiy va jismoniy tayyorgarlik ko'rish) vazifasini o'tgan, ham jiddiy o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu o'yinlar jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushirish, unga yaqinlashishni o'rganishga, buning uchun niqob kiyib yoki hayvon terisini yopib, hayvon qiyofasiga kirishni, uning yurish-turishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan ham u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan ovchilar mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ularda taqlid mashqlarini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Ovdan so'nggi o'yinlar ov muvaffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki ovdan o'lja bilan qaytish, bu ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan.

Ovchilar bunday o'yinlar yordamida "..... kun bo'yi ov qilib, charchab qaytgach, kechqurunlari o'z a'zo-badanlariga dam berish, buguncha taassurotlarini ifodalashardi". Bu jarayonlar, ya'ni har bir muvaffaqiyatli ovdan keyin o'yinning an'ana bo'lib qolishi bayram kayfiyatida o'tadigan maxsus marosimni shakllantira boshlagan.

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy odamlar hayotida ham ovchilik o'yinlari bo'lgan degan taxminning isbotini biz neandertal davri Sheraboddan Zarut Karamsabning toshlariga tushirilgan tasvirlardan; miloddan oldingi II-I ming yilliklarda Farg'ona vodiysidagi Saymalitosh g'orlarida aks ettirilgan devoriy rasmlaridan va boshqa arxelogik topilmalardagi tavsirlardan topishimiz mumkin. Ularda nafaqat totemlarga sig'inish, balki ov jarayoni, ovdan keyingi shodiyonalik, hayvon niqobi va qiyofasidagi ov o'yinlari aks ettirilgan.

Odamzod tobora tashqi muhitga moslasha bordi. Endi u g'orlardagi emas, tekisliklarda ham makon qura boshladi. Hozirgi Termiz tumanining

daryo vohalarida Ayrattomda shu davrga oid manzillarda uchraydi. Mezozoy (oʻrta tosh) davrida (miloddan avvalgi 12-6 ming yilliklar) tosh qurollar va ularni yoʻnish usuli takomillashdi. Magay gʻori manzilidan oʻsha davrga oid xilma-xil tosh qurollar topilgan. Bu qurollardan koʻrinib turibdiki, u davr odamlari qurolni maʼlum geometrik shakllarga sola bilmaganlar. Mezozoy davrida ungurlar devorga oʻyib chizilgan. Bundoʻan ovchilar qoʻlida oʻq-yoy, sonqon, koʻpchiligi choʻqqisimon yopinchiq yopinib olgan. Bunda yaxlit ov manzarasi, ovchilarning turq-tarovati, diniy tasavvurlari tasvirlangan.

Bobotogʻ va Boysuntogʻda neolit va jismoniy davriga, yaʼni yangi tosh davriga (miloddan avvalgi 5-3 ming yilliklar) oid topilmalar uchraydi. Bu davrda odamzod toshni silliqlab bolta, poka, istana va teshalar yasay boshladi. Keyinroq metaldan, xususan misdan qurol yasashga oʻtili. Bulardan keyin chayla qurish, goʻsht nimalashda va jangovor qurol sifatida foydalanadi. Ajdodlar endi oʻzlariga suv havzalari boʻylarida yertoʻla, chayla, baʼzan chuvalalardan kulbalar qurib oladilar. Ilk qishloqlar paydo boʻldi. Dehqonchilik va chorvachilik vujudga keldi. Juft nikohli oila tarkib topdi.

Mehnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dehqonchilikka oʻtish (bu jarayon Oʻrta Osiyoda miloddan oldingi 3-ming yillik oxiri - II ming yillik boshlariga toʻgʻri keladi) ana shu sohaga oid mehnat oʻyinlarini vujudga keltira boshladi.

Maʼlumki, dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea bu hosilni yigʻish va yangi noz-neʼmatlarni tatib koʻrish jarayoni boʻlgan. Yil boʻyi kutilgan bunday jarayon dehqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bunday koʻtarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar oʻyinlar tashkil qilgan. “Mehnat oʻyinlari” yaxshi kayfiyat, yaʼni keng maʼnoda aytganda, bayram holatini vujudga keltirgan. Bronza davrlaridan boshlab oʻtroq dehqonchilikning vujudga kelishi va uning rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yigʻib olish yakuniga bagʻishlangan oʻyinlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar oʻtishi bilan anʼanaga aylana boshlagan. Demak, insonning “birinchi kasbi” - ovchilik asosida -“ovchilik oʻyinlari” vujudga kelgan boʻlsa, uning dehqonchilikka oʻtishi va u bilan shugʻullanish natijasida “mehnat oʻyinlari” shakllanib boradi va yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratadi. Oʻsha vaqtda mehnat va oʻyin bir-biriga chambarchas bogʻliq boʻlgan va diniy aqidalar bilan bogʻlangan. Kishilik oʻyinlari odamlarning

dahshatli tabiat kuchlariga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishga bo'lgan hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi dastlabki ijtimoiy tarixiy formatsiya edi: ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish mahsulotlarining umumiy tengsizligi ham, sinflar ham, odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilinishi ham bo'lmagan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitlaridayoq vujudga kelgandan va korxonalar toifasi hukmron sinf hokimiyatini mustahkamlashda katta rol o'ynadi. Engelsning aytishicha, eng ibtidoiy davrlarda odamlarning o'z tabiati va ularning tevarak-atrofidagi tashqi muhiti to'g'risidagi eng nodon, eng johil, ibtidoiy tasavvurlaridan paydo bo'lgan din quldorga ozod onani o'z kuchiga qaram va bo'ysundirishga yordam berdi. Hukmron sinflar ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitlarida odamlarning mehnat faoliyati jarayonida vujudga kelgan va rivojlanib borgan ko'pgina jismoniy elementlaridan ham foydalandilar.

Mehnat faoliyati bog'liq bo'lgan va ko'pgina sehrgarlik harakatlari harakteriga ega bo'lgan turli-tuman o'yinlar, raqslar, xorovodlar va musobaqalar barcha Markaziy Osiyo davlatlarining ozod aholisi o'rtasida tarqalgan edi. Halq orasida harbiy mashqlarning ko'pgina turlari ham keng qo'llanilar edi. Qadimgi Markaziy Osiyoning ko'p sonli yodgorliklari xalq o'rtasida kurashga, qilichbozlikka doir mashqlar, ko'p sonli akrobatik mashqlari, dorbozlik va raqs mashqlari, koptok o'ynash mashqlari va hokazolarning tarqalganligidan dalolat beradi.

Hukmron quldor boshliqlar hokimiyatning kuchayib borishi bilan xalqning jismoniy tarbiya elementlaridan borgan sari ko'proq darajada sinfiy maqsadlari yo'lida foydalanildi. Armiyadagi rahbarlik roliga mansub bo'lgan aslzoda quldorlar mashqlarning xalq orasidagi turlaridan o'zlarida jangchi uchun zarur bo'ladigan sifatlarni kamol toptirish uchun foydalanganlar. Ular maxsus uyushtirilgan jismoniy tarbiya va harbiy jismoniy tayyorgarlik yordamida o'zlarining oddiy xalq ommasidan ajratib ko'rsatadigan va bu bilan o'zlarini yuqori to'tadigan jismoniy fazilatlarni kamol toptirishga intilar edilar.

Ayni bir vaqtda qadimgi Markaziy Osiyoning quldor boshliqlari o'zlarining xalq ommasiga bo'lgan hukmdorligi va ta'sirini kengaytirishga intilib, ko'pgina xalq bayramlari an'analaridan keng foydalanganlar; ko'p sonli musobaqa o'yinlari, raqslar va xorovodlar bu xalq bayramlarining tarkibiy qismini tashkil etgan.

Hukmron quldorlar doirasi xalq mashqlari turlaridan o'z kamolati va ko'ngil ochish yo'lida ham keng foydalanganlar. Quldorlar, bir tomondan

o'zlarining bo'sh vaqtini ko'pgina o'yin ov, turli mashqlar bilan o'tkazar, ikkinchi tomondan, o'zlari uchun tomoshalar tashkil qilib, ularda ancha chaqqon, kuchli va epchil ozod odamlarni ishtirok ettirar edilar.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo quldorlik davlatlarida jismoniy tarbiya elementlarining rivojlanishidagi harakterli xususiyati shundan iboratki, ozod dehqonlar orasida rasm bo'lib kelayotgan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq o'yinlari hamda mashqlarining turlari bilan birga, quldor boshliqlarning bu jismoniy tarbiya elementlarini o'z obro'yi va hukmronligini kuchaytirish uchun o'zlashtirishi va foydalanishiga bo'lgan intilish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tarixiy manbalar va ilmiy asarlar shuni tasdiqlaydiki, arablar bostirib kiringunga qadar O'rta Osiyoda yuksak madaniyat hukmron bo'lgan, dehqonchilik hunarmandchilik O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos bo'lgan ko'p asrlik madaniyatiga, shuningdek, xalq xo'jaligiga, jismoniy tarbiya harakatiga benihoya katta putur yetkazishdi. XI asrning buyuk alloma olimi, xorazmlik Abu Rayhon Beruniy Qutayba haqida: "Qutayba Xorazm yozuvini bilgan, Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ularning orasida bo'lgan olimlarning hammasini turli yo'llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo'q qilib yubordi" deb yozgan edi.

VIII asrning oxirlari IX asrning boshlarida O'rta Osiyoda iqtisodiyotning rivojlanishi bilan madaniyatning turli jabhalaridagi an'analarning uyg'onishi va kuzatildi. Taniqli arxeologik olimlar V.M.Masson, G.A.Pugachenkova, L.I.Albadm, A.Asqarov va boshqalarning Xolchayontepa, Bolaliktepa singari qadimiy joylardan topgan kamon o'qlarining uchlari juda ko'p narsalardan dalolat beradi. Xolchayontepadan topilgan ot va suvoriylarning haykalchalari g'oyatda katta ilmiy qimmatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu narsa shuni ko'rsatadiki, Xolchayon otlari yengil qurollangan suvoriylar uchun mo'ljallangan. Suvoriylar o'ziga xos kiyimda yurishgan va yoy bilan qurollanishgan.

Topilgan suvoriy haykalchalari shuni ko'rsatadiki, ular otda yelib borayotib, nishonga aniq urganlar. Bu esa katta jismoniy kuch va malakani, chaqqonlikni talab etar edi.

Arxeologiya va etnografiya manbalari shundan dalolat beradiki, respublikamizning janubiy hududida qadim-qadim zamonlarda ham jismoniy tarbiyaning muayyan tizim mavjud bo'lgan. Shuni ko'z oldingizga keltiringki, sanoqsiz harbiy yurishlarda ishtirok etuvchi Baqtriya jangchilariga katta jismoniy tayyorgarlik: chaqqonlik, tezlik, kuch va chidamlilik juda zarur bo'lgan. Bu sifatlar ularda uzoq muddat

davom etgan mashg'ulotlardan so'ng qaror topgan. Bu davrda ot sporti, kamondan otish, yugurish, sakrash, irg'itish, suvda suzish, ovchilik, shaxmat, kurash va boshqa ko'pdan-ko'p o'yin turlari yuksak taraqqiy etgan. Surxondaryo hududida Nina ma'budasining paydo bo'lishi shundan guvohlik beradiki, bu yerda qadimgi grek Olimpia o'yinlariga o'xshash sport musobaqalari o'tkazilgan.

O'rta Osiyoning tashqi tadqiqotchisi G.Pugachenova shaxmat tarixi haqida shunday yozadi: "... fil suyagidan yasalgan - balandligi 2.2 eni 2 santimetr bo'lgan ikkita shaxmat figurasining topilishi katta kashfiyotdir. Ulardan biri fil, ikkinchisi esa ho'kiz timsolidir. Ularning eramizdan bo'lgan I-II asrlar, ya'ni Kushon saltanati davriga mansub deyish mumkin. Dalvazrnitepadan topilgan shaxmat donachalari chaturing o'yinning shatranj shakliga oid bo'lishi kerak", - deb yozgan edi.

Zaminimizda shaxmat donachalarining topilishi shundan dalolat beradiki, Surxondaryo hududida Osiyoning boshqa joylariga qaraganda, shaxmat ancha taraqqiy etgan. Xalq afsonalari, eponlar, rivoyatlar bu hududda qadim zamonlardan xalqning o'ziga xos jismoniy tarbiyasi shakllangan va rivojlanganligidan guvohlik beradi. Masalan, "kurash", "ko'pkari uloq", "poyga", "olomon poyga", ovchilik va boshqa ko'plab harakatli o'yinlar, bellashuvlar keng yoyilgan. Mazkur xalq rivoyatlarida aytilishicha, balandlikka, uzunlikka sakrash, yugurish, og'ir yuk ko'tarish kamondan o'q otish va boshqalar jismoniy tarbiya vositalari bo'lib xizmat qilgan. Balandlikka sakrash baland yonayotgan gulxanning ustidan, devorning ustidan o'tishdan iborat bo'lgan. Yovqur yigitlar ikki tarafga bo'linib, bellashganlar, yengilganlarni amalga oshirishgan. Bunday musobaqa – bellashuvlar ko'pincha diniy bayram (Qurbon hayiti, Ramazon hayiti, to'ylarda) o'tkazilgan.

Shunday qilib, hududimizda qadim-qadim zamonlarda odamlarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya o'ziga xos muhim rol o'ynagan. Xalq ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida mavjud sport turlarini takomillashtirgan, yangilarni o'ylab topgan va keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Shuni alohida e'tirof qilish kerakki, milliy jismoniy mashq turlari yoshlarni jasurlik, chaqqonlik, epchillik va sobitlik ruhida tarbiyalash, ularning qiyinchiliklarni dadil bartaraf etib voyaga yetkazishida bebaho vositalardir. Bu mashqlarning umumiy tarkibi xalqlarimizda jismoniy tarbiyaning tarixan qanday shakllanganligi, rivojlanganligini atroflicha anglab olishga imkon berdi.

Xalq sport turlarining vujudga kelishi, xususan, kurash, ko'pkari uloq, olomon poyga, chovg'on (ot ustida xokkey) ov va boshqalar tarixan

juda olis-olislariga borib taqaladi. Biz yaxshi bilamizki, xalq sevgan botirlar, bahodir odamlar qo‘shiq va dostonlarda, xalq rivoyat va afsonalarida qo‘llangan.

Jismoniy tarbiyaning eng murakkab mashqlaridan bo‘lgan yugurishda g‘oyatda chidamli bo‘lish o‘zbek yuguruvchilari uchun harakterli bo‘lgan. Buning yorqin misoli shuki, qadim zamonlarda chet elliklar bilan bo‘lgan qattiq jangchilardan keyin tez yuguruvchi jangchi g‘alaba xabarini jang maydonidan o‘z elatlariga tez yugurib yetkazar edi.

Bundan tashqari, qadim zamonlarda jang boshlanishidan xabar topgan tez yurar razvedkachi o‘z xonini xabardor qilishda marafon yugurishdan foydalanib, shahar va vodiya (Samarqandlik tez yugurar, mohir razvedkachi) Bodioldo ayniqsa, marafon yugurishda mashhur bo‘lgan. Abu Xafs Nasafiyning aytishicha, Abu Muslim o‘ldirilgandan keyin Bodioldo (shamolday tez yuguruvchi) uning jasadini dushmanlarning qo‘liga tushmaslik uchun Bog‘doddan Samarqandgacha yugurib, uni olib kelishiga muvaffaq bo‘lgan. O‘rta Osiyoning buyuk allomalari, shoir va mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, A.Navoiy, Firdavsiy, Bobur, Xakim at-Termiziy, Xo‘ja Samandar Termiziy va boshqalar o‘z asrlarida xalq o‘yinlari va bellashuvlariga alohida o‘rin berishgan. Masalan, Xo‘ja Samandar Termiziyning mashhur “Dastur ul-mulk” asarida shunday deyiladi.

Sinov gali o‘zni jur’atda ko‘rsat,  
Umid chavg‘oningga mo‘ljali to‘p shay.  
Axir saodatga intilishgan fursat,  
Botirlar yovlarga yuzma-yuz kelgan.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, barcha zamonlarda bizning hududimizda jismoniy tarbiya omma orasida faol va keng yoyilishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Bu quyidagicha izohlanadiki, faqat boylar o‘z farzandlarini otda yurish, kamondan otish, kurash tushish, shaxmat o‘ynash kabilarni o‘rgatadigan tarbiyachilar yollash imkoniga ega bo‘lgan. Oddiy xalqning jismoniy jihatdan chiniqishi o‘z oqimida, ko‘p xollarda uning mehnat bilan shug‘ullanishi jarayonida tarkib topgan.

Xalq o‘rtasida o‘tkaziladigan sayllar, to‘ylarga, musobaqalarga g‘oliblar uchun qimmatli sovg‘alar ajratilgan. Sport musobaqalari va bellashuvlar tabiat bag‘rida ko‘p sonli tomoshabinlar bemalol kuzatishi, olqishlashi va tomosha qilishi mumkin bo‘lgan joylarda o‘tkazilgan.

Hozirgi O‘zbekiston hududida yashagan xalqlar jismoniy tarbiyasi o‘zining tarixiy taraqqiyotida og‘ir va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. U qonli voqealar bo‘ronida, tashqi dushmanlarning juda ko‘p madaniy



boyliklarni yakson etgan, qirg'in keltiruvchi hujumlari, qariyb sira to'xtamaydigan o'zaro urushlar qaronlarida, mehnatkashlarning ajnabiylar zulmiga va mahalliy ekspluatatorlarga qarshi kurashlari alangalari rivojlangan. Ammo podshohlar biri kelib biri ketsa-da, xalqning eng yaxshi farzandlari o'z o'tnishi an'analarini davom ettirib, yangidan-yangi moddiy va madaniy boyliklarni yarata berganlar.

O'zbek xalqining eng ilg'or farzandlari - Ahmad Donish, Fitrat, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li, Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, Hamza, Usmon Nosir, Cho'lpon, Oybek va boshqalar O'rta Osiyo xalqlarining sotsial va milliy zulmga qarshi chiqqan, xalqlar do'stligi, progressiv g'oyalarini tashviqot va targ'ibot qiluvchi shaxslar edi.

### **XIX asr o'rtalarida oktabr revolyutsiyasigacha Turkistonda jismoniy tarbiya**

Rus generali Chernayev Toshkent shahrini bosib olish hamda uni Turkiston viloyatiga qo'shishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U 1864-yil kuzida Toshkentni bosib olish uchun birinchi marta urunib ko'radi, lekin bunga muvaffaq bo'la olmaydi. Rus qo'shinlari shahar yaqinidan turib to'plardan Toshkentni o'qqa to'tadilar. Shahar himoyachilari o'z navbatida, javob o'qlari bilan dushman hujumini qaytarib turadilar. Ruslar bu jangda 72 kishini yo'qotib, Chimkentga qaytib ketadilar.

Chernayev 1865-yilning bahorida Chirchiq daryosi qirg'og'ida joylashgan va Toshkentni ichimlik suvi bilan ta'minlab turgan Niyozbek qal'asini 28 aprelda bir zarb bilan egallab oldi va anhorga oqib keluvchi suvni bo'g'ib qo'yishga farmon beradi. Shaharga non va boshqa oziq-ovqat keltiruvchi yo'llarni to'sib qo'yadi. Toshkent shahri qamalda qoldi. Chernayev Toshkent o'z ixtiyori bilan taslim bo'ladi deb o'ylagandi, lekin bu hol yuz bermadi. Nihoyat 1865-yil 9-may kuni ikki tomon kuchlari bir-birlari bilan to'qnashdi. Rus qo'shini bilan shahar himoyachilar o'rtasida jang Solar arig'i atrofida davom etdi. Dushman to'p va zambaraklarda o'q yog'dirib turishiga qaramay himoyachilar qahramonlarcha jang qildilar. Jang chinakam qizib ketadiki, tuproq osmonga sapchirdi, to'plar gumburidan, quloqlar qomatga kelar edi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha erkak-xotin, yosh-qari xizmat kamarini bellariga mahkam bog'lab, shahar lashkariga yaqindan yordam berar edi. Toshkent himoyachilari Sho'rtepada joylashgan rus qo'shinlariga qarshi hujum boshlaydilar. Ana shu jangda talantli sarkardi Alimqul og'ir yaralanib

safdan chiqadi va ko'p o'tmay halok bo'ladi. Alimqul halok bo'lgach, uning qo'shinlari Toshkentni o'z holicha tashlab chiqib ketadi.

O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi mehnatkashlarning ekspluatsiya qilishiga barham bermadi, balki uning yangi shakl, ko'rinishlarini vujudga keltirdi. Oq podsho zamoni hukmronligi O'rta Osiyo xalqlarining madaniy taraqqiyotiga har jihatdan to'sqinlik qildi. Biroq barcha salbiy ko'rinishlarga qaramasdan, Turkiston o'lkasining Rossiyaga qo'shib olinishining yaxshi jihatlari ham bor edi. Turkiston o'lkasi xalqlarining xo'jalik va madaniy taraqqiyoti uchun muayyan darajada sharoit vujudga keldi. Chorizmning reaksiyon va xalqqa qarshi siyosatiga qaramasdan, Turkistonning ilg'or fikrli odamlari O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga qo'shib olinishi nainki siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki milliy madaniyat, shu jumladan, jismoniy tarbiya harakatining rivojlanishi yo'lida ham katta progressiv ahamiyatga ega ekanligini juda yaxshi bilardilar.

Rossiya maxalliy aholini zo'ravonlik bilan ruslashtirishga intilib, o'zbek xalqining milliy madaniyatini rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Biroq shunday sharoitda Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olishi o'zbek xalqi hayotida ijobiy moment bo'ldi. Xalqning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivoj topishiga to'sqinlik qilib kelgan ba'zi reaksiyon odatlar yo'q darajaga kelib qoldi.

Qadimiy xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar va musobaqalar jismoniy tarbiyaning xalq vositalari sifatida saqlanib qolaverdi. Biroq inqilobga qadar bu vositalar, xuddi avvaldagidek, asosan mahalliy boylar, oq suyak zodagonlar va chorizmning gumashtalari ixtiyorida bo'lib, ulardan xalq ommasini ozodlik uchun, zolimlarga qarshi sinfiy kurashdan chalg'itish maqsadlarida foydalanib kelinardi.

Inqilobga qadar O'rta Osiyo maktab, madrasa, qiroat xonalarda maktab gigiyenasining eng oddiy qoidalariga juda kam darajada rioya qilinardi. Bolalar maktabga qatnay boshlagan dastlabki kunlaridanoq ularga zohidlik singdirilib borilardi. Dars paytida ular quruq bo'ya yoki sholcha ustida cho'kka tushib o'tirishardi. O'qitish asosan, feodal diniy aqidalarni singdirish, keyinroq esa qur'on yodlatishdan iborat bo'lardi. Jismoniy mashq bajarish, hatto odatdagi serharakat o'yinlar o'ynashga ham ruxsat etilmasdi, bu esa bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishiga va o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatardi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasidagi o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyani joriy qilishga birinchi marta urinib ko'rildi. O'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida va ba'zi maktablarda birinchi marta jismoniy

tarbiya joriy etildi. Biroq mashqlar muntazam ravishda o'tkazilmas, o'qituvchilarning bilim darajasi va tayyorgarligi yetarli emasdi.

1890-1892-yillarda Turkiston o'lkasidagi maktablarda jismoniy tarbiya mashqlari bir muncha jonlandi. Bu davrda harbiy maktab va bilim yurtlarida gimnastika, qilichbozlik, otish va turli o'yin mashg'ulotlari o'tkazila boshlandi.

### **XX asr boshlarida gimnastika, tennis rivoj topdi.**

Toshkentda 1914-yilda "Okrug qilichbozlik-gimnastika maktabi" ochildi va unda qilichbozlik, jihozlar ustida gimnastika mashg'ulotlari o'tkazila boshlandi. Maktablar gimnaziyalar va bilim yurtlarida jismoniy tarbiyadan malakali kadrlar yetishmasligi mahalliy hokimiyat rahbarlarini 1912-yilda jismoniy tarbiya o'qituvchilari tayyorlaydigan birinchi gimnastika va harbiy sof kursini ochishga majbur qiladi.

O'rta Osiyoda umumiy xalq maorifi ishlariga, shu jumladan, jismoniy tarbiyaga nihoyatda kam e'tibor berilar edi. Masalan, 1914 yilda butun Turkiston o'lkasi hududida bor-yo'g'i 160 ta maktab bo'lib, unda amaldorlar va mahalliy feodallarning bolalari o'qitilar edi.

Inqilobdan ilgari Turkiston o'lkasidagi maktablarda jismoniy tarbiya muvaqqat va hech qanday tizimga asoslanmagan, shuning uchun ham Turkistondagi o'quvchi yoshlarni jismoniy jihatdan kamol toptirish va sog'lom hamda baquvvatlashtirish vositasi bo'lmas edi.

1916-yil 1-oktyabrdan boshlab O'rta Osiyoda "sport safarbarligi" degan tashkilot o'z ishini boshladi. Bu tashkilotga erkaklar gimnaziyasi, seminariyasi, real bilim yurti, komersiya va hunar bilim yurtlarining talabalari bir oy muddatga safarbar qilinardi. Dastur tariqasida askarlar yoki qo'shinlar uchun mo'ljallangan jismoniy tayyorgarlik qo'llanmasidan foydalanilardi. "Sport safarbarligi" o'z mohiyat e'tibori bilan g'alaba qilguncha davom ettiriladigan urush uchun yangi zaxiralar tayyorlashga xizmat qilardi. Ushbu tashkilot Turkistondagi o'quv yurtlari talabalarining harbiy va jismoniy tayyorgarligining o'ziga xos ko'rigi ham edi. Bu ko'riklar inqilobdan oldingi Turkistondagi o'quv yurtlari talabalarini jismoniy tarbiyalash past darajada ekanligini bildiradi.

1890-yillarga kelib Toshkent va Samarqand shaharlarida dastlabki poyga o'tkazish jamiyatlari tashkil qilindi. Bular eng serg'ayrat, ishchan sport jamiyatlari edi, chunki bu jamiyatlarning asoschilari va faxriy prezidentlari durustgina pul ishlab olishlari va obro' ortirishlari mumkin edi.

Turkiston o'lkasi aholisi o'rtasida velosiped sportiga qiziqish kuchayishi 1895- yilda "Turkiston havaskor" velosipedchilar jamiyati tuzilishiga, keyinchalik esa Toshkentda velosiped yo'lining qurilishiga sabab bo'ladi. Ryaxovskiy, Petroveniy va boshqalar Turkistondagi dastlabki velosipedchi sportchilar jumlasidandir. Bu jamiyat Turkistonda velosiped sportini rivojlantirishda katta rol o'ynadi.

1904-yilda "Toshkent gimnastika va jismoniy mashq havaskorlari jamiyati", 1906-yilda esa "Sokol" yengil atletika guruhi tashkil etildi. Mazkur jamiyat va guruh sportning shu turicha havaskor bo'lgan bir to'dagina kishilar o'rtasida mashg'ulotlar o'tkazardi.

1912-yilda Toshkentdagi "Okrug" qilichbozlik gimnastika maktabida bo'lib o'tgan saralash musobaqasi revollyusiyadan oldingi davrda gimnastika, yengil atletika va qilichbozlikdan o'tkazilgan yirik musobaqa edi. Bu musobaqalarda Stokgolmda bo'ladigan V Olimpiada o'yinlarida qatnashadigan. Rossiya komandasini to'ldirish uchun eng yaxshi sportchilar tanlab olingan edi.

1913-yilda tashkil etilgan "Toshkent sport havaskorlari jamiyati" inqilobdan ilgari Turkiston o'lkasidagi eng yirik sport jamiyati edi.

Biroq mehnatkashlar ommasi bu jamiyatlardan chetda turardi. Jamiyat a'zolari asosan, martabali va mulkdor kishilar-burjua ziyolilari, savdogarlar hamda bekorchilikdan zerkib biror ermak izlovchi harbiy mansabdorlar edi.

Inqilobdan oldingi Turkistonda sport g'oyat sust rivojlangandi. O'sha yillarda Turkiston yoshlarida jismoniy tarbiya va sportga intilish katta edi-yu, ammo chor hukmatining malaylari jismoniy tarbiyani o'zlari uchun foydali, o'ziga xos ko'ngil ochish vositasiga aylantirishga harakat qilardilar.

1908-yildan boshlab Turkistonda professional polvonlar qatnashadigan chempionatlar o'tkazila boshlandi. Bu chempionatlarda butun dunyoga taniqli Zaikin, Padubniy Vaxturov, Bul, Xoji Muqon kabi juda ko'p boshqa polvonlar qatnashdilar.

Toshkent Beshyog'och daha Chaqar mahallada yashab o'tgan Ahmad pahlavon Topilboy o'g'lining O'rta Osiyoda kurashib, yiqitmagan pahlavon qolmagan edi. Shu vaqtlarda butun jahonga mashhur bo'lgan nemis pahlavoni Reppel Toshkentga kelib, sirkda o'z pahlavonligini ko'rsatib tomoshabinlarni qoyil qilib yurardi. Uning og'irligi sakkiz yarim pud (133 kg) bo'lib, sakkiz pudlik cho'yanni ikki qo'li bilan, o'n olti pudlik cho'yanni kafti bilan ko'tarar edi.

Shu pahlavon Ahmad pahlavonning dovrug‘ini eshitib qolib, u bilan kurash tushmoqqa jazm qilibdi. “Kim yiqilsa, yonidan ellik so‘m beradi” deb garov bog‘lashibdi. O‘sha kuni sirkni odam bosib ketibdi. Yigirma sakkiz yoshli Ahmad polovon egnida bagri bog‘langan oq yaktak bo‘lib tushgan Reppel chiqib keldi. Uning belida tasma belbog‘i bor edi.

Ikki zarbardast pahlavon o‘rtada bel tutishib ketdilar. Tomoshabinlarning yuragi zirqirab ketdi. “Kim-kimni yiqitar ekan?” degan tashvishda nafaslarini ichlariga yutib, tek turib qoldilar. O‘sha asnoda sirkda pashsha uchsa bilinar edi. Faqat ora-sira pahlavonlarning “gih” etgan tovushlarigina eshitilib qolar edi. orada bir necha daqiqa o‘tar-o‘tmas Ahmad pahlavonning “Yo Alisher Xudo” degan nidosi eshitilib qoldi. Shunda yer larzaga kelgandek bo‘ldi. Charxpalak bo‘lib tushgan Reppel yerda uzala tushib yotar edi. Qarsak ustiga qarsak bo‘ldi, qiy-chuv ko‘tarildi. O‘sha yillarda Turkiston o‘lkasidagi sirklarda milliy kurash musobaqalari ham o‘tkaziladigan bo‘lib qoldi.

1906-yilda O‘rta Osiyoda futbol vujudga kelgan yil deb hisoblash mumkin. Lekin O‘zbekistonda birinchi bor futbol komandasi Qo‘qon shahrida “Muskomanda” (musulmonlar jamoasi) tashkil etilgan. Bu jamoani Kamol va Husan Muxiddinovlar, Oxunjon Boymatov va Xoshimjon Aminov kabi fidoiy kishilar tashkil etishgan. 1930- yillarga kelib jamoaning shuhrati Turkiston o‘lkasi bo‘ylab keng tarqaldi.

“Muskamonda” 1934-yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari sport Olimpiadasida g‘olib bo‘lgan.

Ilg‘or ziyolilarning yerli aholi o‘rtasida sport ishlarini yo‘lga quyish, ularni turli sport komandalariga jalb qilish yo‘lidagi har qanday tashabbusiga hokimiyat ma‘murlari to‘sqinlik qilardi. Masalan, 1913-yilda Toshkentdagi maktab ishchilarining sport to‘garagini tashkil etishga bo‘lgan urinishlari behuda ketdi. Ishchilarning maxsus iltimosnomasiga Turkiston general-gubernatori “Har qanday sport jamiyatlari tashkil etishni taqiqlayman” deb rezolyutsiya qo‘ydi.

1915-yilda ommaning qalbida chuqur joy olgan, uning ta’sirli tomoshabinlaridan hisoblangan kurash musobaqasi har qanday taqiqlashlarga qaramay, shahar va qishloqlarning ko‘p odam to‘planadigan qulay maydonlarida zo‘r qiziqish bilan davom etaverdi. Bu esa amaldorlarning keskin choralar ko‘rishiga, kurash maydoni atrofida to‘planganlarni zo‘rlik bilan tarqatib, hatto ularga qarshi jazo tadbirlarini ko‘rishga majbur etadi.

Ammo ana shunday taqiqlash siquvlarga qaramay, xalq o‘z jismoniy tarbiyasini, xalq o‘yinlarini avaylab saqladi va rivojlantiraverdi. O‘zbek

xalqi o'rtasida kurash, poyga, uloq, dorbozlik, akrobatika, turli xil xalq o'yinlari ilgariidek keng tarqalganligicha qolaverdi. Hech bir bayram, hatto hayitlar, ayniqsa, Navro'z sayillari polvonlarning hammasi hayratga soluvchi o'yinlarsiz o'tmas edi. Oddiy xalq arqon tortish, yog'och oyoqda yurish, silliq xodaga tirmashib chiqish va boshqa ommaviy o'yinlarda qatnashib ko'ngil ochar edi.

N.S. Lixoishi o'zining "Turkistonda o'tkazilgan yarim umr" kitobida yozganidek, yerli aholi kurashni juda sevardi. Ko'klamning dastlabki yorug' kunlari yetib kelishi bilanoq sportchi yoshlar har juma kuni juma namozidan keyin shahar chekkalaridagi bog'larga yo'l olishadi, u yerda tumonat odam yig'ilib, bahorda kurash bellashuvini tomosha qilish va kurash sovrinini olish uchun to'planishadi. Bellashuvlar rosa avjiga chiqqan payt olomon birdan har tarafga tarqalib, bir-birini bosib, to's-to'polon bo'lib, boshi oqqon tomonga qochib qolishardi. Bog' yonidagi ko'chadan otliq politsiyachilar xushtak chalishga ulgurolmay qolibdi.

Yana Lixoshin o'z ocherklarida kurashga tushgan polvonlarning bellashuvini, ularning kurashish texnikasining ma'lum rejalar asosida ekanini, kurash doira shaklidagi maydonda o'tkazilishini batafsil ta'riflangan. Ya'ni har bir kurash 2-3 daqiqa davom etib, oyoq chalish va avval belbog'dan ushlab usullari qo'llanilgan. Demak, XX asr boshlarida kurashning eng qadimgi usullari va an'analari (bellashuvlarning doira maydonchada bo'lishi, belbog'dan ushlab usuli) saqlanib qolgan.

Musobaqalar va xalq o'yinlarining shu kabi barcha shakllari odamlar o'rtasidagi muhim, o'zaro munosabat vositasi bo'lib, mehnatkashlar sinfiy ongini uyg'otishda, ularni belbog'likka, huquqsizlikka, chor mustamlakachilari bilan mahalliy feodal zulmiga qarshi kurashga otlantirishda tashkilotchilik rolini o'ynadi.

Hozirgi O'zbekiston hududida jismoniy tarbiya tarixi jarayonida kurash, ot sporti, o'q-yoy otish, dorbozlik, akrobatika va xilma-xil o'yinlar hamda turli olishuvlar singari milliy sport turlarining taraqqiy etishi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Inqilobdan ilgari O'zbekiston chor Rossiyasining qoloq chekka o'lkasi edi. xo'jalik va madaniy jihatdan huquqsizlik, rus burjuaziya va mahalliy a'yonlarining shafqatsiz ekspluatatsiyasi o'zbek xalqining qismati bo'lib qolgan jismoniy tarbiyadan juda oz kishilar bahramand edi.

## **O‘zbekistonda 1917-1940-yillarda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.**

1917-yil Ulug‘ oktabr sotsialistik revolyutsiyasi o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifa ochdi. Bu inqilob o‘zbek xalqini sotsial va milliy zulmdan qutqardi, unga qoloqlikdan taraqqiyotga tarixda misli ko‘rilmagan sakrash yasash imkoniyatini berdi. Ulug‘ oktabr sotsialistik revolyutsiyasi o‘zbek xalqining iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib berdi.

Kommunistik partiya Sobiq ittifoq hokimiyatining dastlabki yillaridanoq jismoniy tarbiyaning vazifasi ishchi va dehqon yoshlar salomatligini tiklash va sovet hokimiyati tevaragida jipslashtirishning kuchli vositasi bo‘lishidan iborat ekanini belgilab berdi. Partiya jismoniy madaniyat va sportni mehnatkashlar manfaatlari uchun, ularning kuchini oshirish va davlatning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish uchun xizmat qildirib boshladi.

Yosh sovetlar hukumati, o‘sha davrda juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganiga qaramay, madaniy qurilish masalalariga, shu jumladan, jismoniy madaniyat rivojlantirishga katta e‘tibor bera boshladi. Jismoniy madaniyatni amalga oshirish esa umumiy harbiy ta‘limga yuklandi.

Shunday qilib Turkiston o‘lkasidagi yosh jismoniy madaniyat tashkilotlarining ishtiroki 1923-yil iyun oyiga qadar Turk frontining umumiy harbiy ta‘lim boshqarmasi rahbariligida amalga oshirilib kelindi.

1918-yildayoq Turkfrontining umumiy harbiy ta‘lim organlari va sport klublari mahalliy aholi orasidan tanlangan Qizil Armiya rezervlarida jismoniy tarbiyaning xalq an‘analari va o‘yinlaridan keng foydalanildi, mahalliy tashabbuskorlardan ko‘plarini turlari xil sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish ishiga jalb qildi. Bu kishilar jismoniy tayyorgarlik instruktorlari bo‘lib ishladilar, yosh respublikada jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishning targ‘ibotchilari bo‘lib maydonga chiqdilar. Masalan, eng kuchli polvonlar Toji A‘loyev, Qoratosh Yusupov, maktab o‘qituvchilari A.G‘oziyev, A.S.Duronovskiy, M.Eshonzodayev, Yu.Aliyev, K.Abdullayev, U.Asadov, N.Akalayev va boshqalar umumiy harbiy ta‘limning dastlabki instruktorlari edilar.

Jismoniy madaniyat va sportni tashkil etish hamda rivojlantirishning eng birinchi jismoniy tarbiya qaldirg‘ochlaridan. A.N.Izrailov, B.V.Ergardiy, D.M.Ukransev, N.M.Testeles, R.Zokirov, M.Yuldoshiyev, L.L.Barxash, A.Saidxo‘jaev, Ya.Valishaev, M.Raupov, K.Sarimsoqov, P.T.Taran, N.G.Sapenko, N.G.Elkiy kabi jismoniy tarbiya harakati

faxriylarini tilga olmay bo'lmaydi. Yigirmanchi yillardagi nihoyatda qiyin sharoitda bu kishilar Turkistonda jismoniy madaniyatni joriy qilish sohasida katta ishlar qildilar. Ular yoshlarning jismoniy mashqlarga intilishini qo'llab-quvvatladilar, dastlabki to'garaklar va sport klublarining vujudga kelishi va rivojlanishiga yordamlashdilar.

1918-yilda Turkiston yoshlarining birinchi proletor tashkiloti vujudga keladi. 1919-yilda u rasmiy komsomol tashkilotga - Turkiston kommunistik yoshlar soyuziga aylandi. Bu soyuz respublikada jismoniy madaniyat harakati masalalariga katta e'tibor bera boshladi. 1927- yil Turkiston komsomolning birinchi o'lka s'yezdida jismoniy madaniy va sport ishlarini rivojlantirish vazifalariga katta ahamiyat berildi.

1918-yilda xalq universiteti qoshida jismoniy madaniyat to'garaklari tuzilib, bu to'garaklarda sportning suvda suzish turi ilk marta rasm bo'ladi, futbol jamoalari tuzildi, yengil atletika va gimnastika mashg'ulotlari o'tkazildi.

1920-sentabrda Turkiston Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasining ko'rsatmasi bilan birinchi O'rta Osiyo Olimpiadasiga tayyorgarlik ko'ra boshlandi. Olimpiada 1920-yil oktabr boshlarida o'tkazildi. Dasturda yengil atletika, futbol, ot sporti, shaxmat kabi sport turlari, shuningdek, uloq, kurash, arqon tortish va boshqa an'anaviy xalq o'yinlari kiritilgan edi.

Turkiston hukumati rahbarligida Umumiy harbiy ta'lim organlari va uning jismoniy madaniyat sovetlari, o'lka komsomol tashkiloti va kasaba uyushmalarida olib borilgan ishlar juda katta ijobiy natijalar berdi.

Yosh hokimiyatning dastlabki yillaridayoq Toshkent, Samarqand va Skobelev tugatildi. Maorif, Sog'liqni saqlash komissarliklarining hamda umumiy harbiy ta'lim Boshqarmasi bosh boshlig'ining 1920-yil 31-oktabrdagi Direktivasiga muvofiq, butun Sovet Rossiyasidagi kabi Turkiston o'lkasida ham barcha maktablar va harbiy ta'lim kurslarida 1921-yil 1-fevraldan boshlab jismoniy tarbiyaning izchil tizimi-"maktab yoshidagi bolalar o'rtasida va hamma yoshdagi o'smirlar o'rtasida jismoniy tarbiyani amalga oshirish" joriy qilindi. Yuzlab jismoniy tarbiya instruktorlari tayyorlandi. Bu esa mazkur deriktivni O'zbekistonda ham amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Xalq Maorif Xalq Komissarligi bilan Turkfront Umumiy harbiy ta'lim boshlig'ining shu masala yuzasidan 1922-yil 4-martda chiqargan 12-buyrug'ida bunday deyilgan edi: O'quvchi-yoshlarni sportga tortishni amalga oshirish maqsadida Umumiy harbiy ta'lim bo'limlari maxalliy Xalq Maorif bo'limlari bilan birgalikda respublika hududidagi



maktablarda va Xalq Maorif Komissarligiga qarashli bolalar muassasalarida sport to'garaklari tashkil qilishga kirishsinlar bu to'garaklar orqali jismoniy madaniyat asoslari turlariga ko'ra tadbiiq etilsin, ishlatilmayotgan kuchlar va zarur sport ashyolari shu to'garak ixtiyoriga topshirilsin. 2.Jismoniy tarbiya mashug'ulotlari (o'yinlar, sport va gimnastika) majburiy dars qatorida joriy etilsin va bu dars maktablardagi mashug'ulotlarning umumiy hisobiga kiritilsin.

Ulug' Oktabri revolyutsiyasini birinchi yildan boshlab jismoniy tarbiya darslari maktablarida joriy qilina boshladi. Bunga misol tariqasida 1918-yil Farg'ona shahrida tashkil qilingan o'zbek maktabining ish tajribasini keltirish mumkin. Bu maktabni T.N.Qori-Niyoziy ochib, unga rahbarlik qilgan edi, keyinchalik u kishi O'zbekiston fanlar akademiyasiga ko'tarildi. Qori-Niyoziy domla keyinchalik shunday eslaydilar: "Bolalar o'zlarining yangi maktablarini joni dili bilan sevardilar va juda tezgina o'qishga kirishib ketdilar" - degan edi. Maktabda uncha katta bo'lmagan sabzavot, gullar ekadigan joylari, jismoniy tarbiya shaharchasi va ustaxona bor edi. Dars tamom bo'lgandan keyin bolalar uylariga ketmasdan, balki ulardan ayrimlari polizga, gulzorga borib ishlashardi, qolganlari esa jismoniy tarbiya bilan shug'ullanar edi yoki bo'lmasa geografiya haritasi oldida bahslashdi.

Ana shu maktabda 1919-1921-yillarda jismoniy tarbiya darsini olib borgan o'qituvchi G.M.Bernaskiyning aytishiga ko'ra, jismoniy tarbiya darsida gimnastika majburiy bo'lib hisoblanardi va u o'quvchilar o'rtasida katta qiziqish va muhabbat bilan foydalanilardi. Bu shuni ko'rsatib turibdiki, sovet hokimiyatining birinchi yilidan boshlab Aykan, Farg'onada 1920-yili Umumiy majburiy ta'lim bo'limida jismoniy tarbiya bo'yicha dastur nashr qilindi. Bu respublikamizda maktab dasturlaridan birinchisi edi. Keyinchalik aniqlashlaricha dasturni tuzuvchi va muallif N.G.Elkin ekan.

Keyinchalik Toshkent, Qo'qon, Andijon, Samarqand va boshqa shahar maktablarida ham jismoniy tarbiya darslari joriy qilindi.

1921-1924-yillarga kelib maktablardagi jismoniy tarbiya darslari bir muncha faollashdi. Chunki 1922-yilning martida Xalq Maorifi Komissarligi va Umumiy majburiy ta'lim boshqarmasi bilan birgalikda maktablarda jismoniy tarbiya darslari majburiy fan sifatida kiritilishi haqida qo'shma buyruqlar qabul qilindi

Albatta, kadrlarning yetishmasligi, material bazalarning yo'qligi va kamligi sababli bu buyruqni bajarish o'ng'ay bo'lmasdi. 1922-yilning dekabrda Turkiston o'lka soveti qoshida maktab fizkultura komissiyasi

tashkil etiladi. Shuningdek, uning faoliyati maktablarda jismoniy tarbiyani jonlantirishga yordam berishdi.

1929-yili Farg‘ona viloyati harbiy komissariati qoshidagi Umumiy majburiy ta‘lim bo‘limi tomonidan “Besh yillik maktablarda 1-2-sinflar jismoniy tarbiya darsini o‘tish qisqacha dasturi” nashr qilindi. Bu dasturda gimnastika, yugurish, sakrash o‘yin mashg‘ulotlarini o‘tkazish nazarda tutilgan. Uning kirish qismida quyidagi ko‘rsatmalar berilgan: Gimnastika quyidagi maqsadga ega: to‘g‘ri jismoniy rivojlanishni berish, organizmdagi nuqsonlarni to‘g‘irlash, harakat koordinatsiyasini ishlab chiqish, intizomni rivojlantirish va nerv sistemalarini mustahkamlash.

Yugurish yurak, o‘pka, hazm qilish organlaridagi mo‘shak tolalarini rivojlantirishga yordam berish, energiya va irodani rivojlantirish.

Sakrashlar, yugurishda qanday bo‘lsa, bunda xuddi shunday, biroq qo‘shimcha epchillikni, ko‘z bilan o‘lchashni va mo‘shaklarni tez qisqarish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yinlar: Umumiy jismoniy rivojlanishdan tashqari, nerv sistemasini psixologik sifatni mustahkamlaydi va rivojlantiradi. Bularning barchasi esa pedagogik tarbiya vositalaridan biri hisoblaniladi.

Dasturda o‘qituvchilarga quyidagilar tavsiya qilinadi: 1. Mashg‘ulotni, albatta, toza havoda yoki oddiy shamollatilgan xonada o‘tkazilishi kerak, lekin hozirgina dars o‘tkazilgan xonada emas. 2.10 daqiqa vaqtini gimnastika mashqlariga, qolgan vaqtni-yugurish, sakrash yoki o‘yinlarga, bag‘ishlanadi; agarda o‘yin bilan barcha o‘quvchilar shug‘ullansa, unda to‘liq darsni o‘yinga bag‘ishlagan ma‘qul.

O‘lkada jismoniy tarbiyani majburiy dars sifatida maktab dasturiga kiritish o‘qituvchi kadrlar tayyorlash masalani keskinlashtirib yubordi. Turkiston o‘lkasi sharoitida bu masalani hal qilish ham katta qiyinchiliklarga bog‘liq edi. Turkiston fronti Umumiy harbiy ta‘lim boshqarmasi boshlig‘i A.N.Izrailevning 1921-yil 10- fevralida N.I.Podvoyskiy nomiga yuborgan bildirishidan ma‘lum bo‘lishicha, Toshkentda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlaydigan “sport kursi tashkil etish” uchun kelishilib, 40 kishidan tashkil topgan kursni 1921-yil 15-fevraligacha ochish belgilandi. Keyinchalik Samarqand va Skobelev shaharlarida ham xuddi shunday kurslarni tashkil etish tadbirlari ko‘riladi.

1921-yil 13-yanvarda Umumiy harbiy ta‘lim Boshqarmasi huzurida barcha idoralar va tashkilotlarning jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatini tartibga solib turadigan idoralararo tashkilot - Turkiston Markaziy fizkultura Sovet tashkiloti 1923- yilga qadar o‘lkadagi barcha tashkilotlarning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi

ishlarini yo'lga solib turuvchi rahbar organ bo'lib keldi. Sovet tarkibida sog'liqni saqlash va Maorif xalq komissarliklari hamda Umumiy harbiy ta'lim Boshqarmasidan ikkitadan vakil, Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti, VSSPS byurosi, Turkiston kommunist yoshlar Soyuzi Markaziy Komiteti, Toshkent deputatlari Soveti, Turkiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi xotin-qizlar bo'limi, Turkiston sportligasi va dehqonlar uyushmasidan bittadan vakil bor edi. Umumiy harbiy ta'limning barcha hududiy okruglari huzurida ham xuddi shunday fizkultura sovetlari tuzildi. Markaziy fizkultura Sovetining dastlabki raisi A.N.Izrailev, ma'sul kotibi I.V.Gaidul, ilmiy metodik komissiyasi boshlig'i Dm.Ukransev edilar.

Shu davrda viloyat fizkultura Sovetlari (hozirgi bo'linishi asosida) ham tuzilib, ularga ham rahbar xodimlari tayinlandi.

Markaziy fizkultura soveti va uning joylardagi organlari tuzilishi fizkultura harakatida katta rol o'ynadi, o'lkadagi barcha yirik shaharlarda sport to'garaklari vujudga kelishiga, xilma-xil sport tadbirlari o'tkazilishiga va maktablarda jismoniy tarbiyani o'qitish majburiy dars sifatida quyilishiga yordam berdi.

Masalan, 1922-yil 25-sentabrda olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'sha vaqtda Markaziy Fizkultura Soveti tizimida 46 ta tuman va uchastka sport tashkilotlari bo'lib, ular 1920-yildagidek 2800 kishini emas, balki 4797 a'zoni (shu jumladan, 382 xotin-qizni) birlashtirar edi. O'lkada 11 ta gimnastika zallari va shaharchalari, 345 ta sport maydonchasi va bitta velotrek bor edi. Gimnastika 17 tashkilotda, yengil atletika 20 tashkilotda, futbol 26 tashkilotda, basketbol 7 ta tashkilotda rivojlantirila boshlangan edi. Ammo og'ir atletika, boks, qilichbozlik va velosiped sportini rivojlantirish hamon sust borar edi. Velosiped otiga 3 tashkilotda, og'ir atletika va boks ikki tashkilotda yo'lga qo'yilgan edi.

Shu yilda Qo'qon yengil atletika musobaqalari, Qo'qon, Andijon va Jalolobod komandalari o'rtasida futbol uchrashuvlari o'tkazilgan. Futbol komandalari orasida Qo'qon va Andijon komandalari kuchli bo'lgan.

1921-yili Toshkentda "Olimp" birlashgan sport jamiyati tashkil etiladi. Bu o'sha davrda Turkistondagi eng yirik sport tashkilotlaridan biri edi. Ushbu jamiyatning futbol komandasi ko'p yillar mobaynida O'rta Osiyodagi eng kuchli komandalardan biri hisoblanib kelindi.

Shundan so'ng jismoniy madaniyat va sport Turkiston respublikasining eng uzoq shaharlariga ham yetib bordi. Buxoro, Chorjo'y, Kattaqo'rg'on, Namangan va Urganch shaharlarida jismoniy tarbiya harakati rivojlana boshladi.

1920 yilda II O'rta Osiyo Olimpiadasi o'tkazildi. Bu olimpiada dasturiga yengil atletika (erkaklar va ayollar) gimnastika musobaqalari kiritilgan edi. Olimpiada tantanali ravishda ochildi, qatnashchilarni, Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni, Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va Turkiston Kompartiyasi rahbarlari qabul qildilar. Pirovardida harbiy xizmatga chiqariluvchi sportchilarning ommaviy ko'rgazmali mashqlari o'tkazildi.

Birinchi Olimpiadada bo'lgani kabi Farg'ona komandasi muvaffaqiyatli qatnashib, yengil atletika, basketboldan birinchi o'rinni egalladilar. Ikkinchi Olimpiadada gimnastika va boks musobaqalari bo'lmadi hisob, chunki qatnashgan tashkilotlar bu turlardan komandalarni olib kelmadilar, basketboldan faqat Farg'ona, Samarqand va Chenyavna shaharlarining xotin-qizlari komandalari qatnashdi. Hatto Olimpiada tashkilotchisi bo'lgan Toshkent shahri ham basketbol, gimnastika va boksdan kamondalarni qo'ya olmadi. Olimpiada Toshkentning futbol komandasigina barcha uchrashuvlarni mag'lubiyatsiz o'tkazdi.

Ikkinchi Olimpiada butun o'lkada jismoniy madaniyat va sportni tashviqot-targ'ibot qilishda va uning yanada rivojlanishida katta rol o'ynadi.

1922-yilda yengil atletikadan Turkiston respublikasi rekordlarining birinchi rasmiy jadvali e'lon qilindi.

1923-yil aprelogacha Umumiy harbiy ta'limning fizkultura Sovetlari 24 ta sport klubini, 15 ta sport jamiyatini, 17 ta sport to'garagi va 14 ta skautlar tashkilotini birlashtiradi, ulardagi a'zolar soni 12135 kishiga yetgan edi.

1923-yil 27-iyunda Butunrossiya Markaziy ijroiya Komiteti o'zining 1923-yil 22-sentabrdagi qarori bilan o'lka fizkultura sovetini tuzdi va 1924-yil 23-yanvarda O'lka Fizkultura Soveti to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

O'lka sovetining raisi qilib sog'liqni saqlash komissari va O'zbekiston K.P.Markaziy komitetini sekretari S.S.Asfandiyorov, ma'sul sekretari qilib N.M.Testeles tayinlandi.

Milliy davlat chegaralanish arafasida O'lka Fizkultura Sovetining tuzilish siyosati ilmiy ta'lim komitetidan iborat bo'lib, ularga Sovet Prezidimu rahbarlik qilardi. Texnika komiteti (raisi B.Ergardt) jamoatchilik faolini birlashtiradi. Mazkur faollar kuch bilan seharakat o'yinlar, yengil atletika, og'ir atletika, himoya qilish va hujum qilish harakatlari hamda harbiy sport seksiyalari tashkil etilgan, butun ta'lim sport ishlari shu komitetda mujassamlashtirgan edi. Bu komitet o'lkadagi

jismoniy tarbiya to'garaklari uchun musobaqa dasturlari va nizolari ishlab chiqar, musobaqalar uyushtirish va o'tkazish ustidan nazorat qilar, uzil-kesil ajrimlar chiqarar va sport ishlariga baho berardi. Toshkentda birinchi o'lka stadioni qurilishi ham shu komitet xizmatlari jumlasiga kiradi.

Ilmiy ta'lim komiteti (raisi A.G.Demov) hech qanday ilmiy metodik bazasi bo'lmagani uchun, amalda hech qanday ish qilmadi. Bu "Turkistonimizda nihoyat darajada kambag'al bo'lganligi tufayli bizda loaqal birorta antropometrik kabinet yo'qligi natijasidir" deyilgan edi O'lka Soveti hisoblanadi.

O'lka Sovetining Prezidimu katta tashkilotchilik ishlarini amalga oshirdi, oltita oblast Sovetlarining (Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Turkmaniston, Yettisuv, Amudaryo) barchasi o'z vaqtida tuzilishini ta'minladi, ular ishiga rahbarlik qildi. Xalq komissarlari, Kasaba soyuzlari va komsomol organlari o'rtasida muvofiqlashtiruvchilik rolini o'ynadi. Butun ittifoq kengashlariga va qizil sportinteri Kongresslariga Turkiston respublikasi nomidan vakillar qatnashtiradi, shaharlararo va respublikalararo sport uchrashuvlari hamda bayramlari uyushtirishga rahbarlik qildi.

Shunday qilib, o'lkadagi barcha viloyatlarda ham fizkultura Sovetlari tuziladi. Masalan, Buxoro Markaziy Ijroiya Komiteti huzurida Fizkultura Sovetini tashkil etish to'g'risidagi qaror 1924-yil 25-mayda qabul qilingan edi. Bu qarorning nomida "ilmiy, o'quv va tashkiliy faoliyatni muvofiqlashtirish va birlashtirish" maqsadlari bilan bir qatorda, "shuningdek, sportning milliy turlarini ravnaq toptirish maqsadida" degan so'zlar ham qayd qilingan edi.

Ayni 1924-yilda, O'lka Fizkultura Sovetining O'sha yili 16-mayda Toshkentda ochilgan birinchi stadionida Sirdaryo viloyati Olimpiadasi o'tkazildi. Bu olimpiadada jismoniy tarbiya to'garaklarining hamda ayrim klublarning komandalari qatnashdi. Musobaqalar dasturiga birinchi marta gorodni, basketbol (erkaklar), velosiped sporti va boshqa sport turlari ham kiritildi. Olimpiada yengil atletikadan, futboldan, klassik kurashdan va velosipedchildardan bir qancha qobiliyatli yosh sportchilar o'z mahoratlarini namoyish etdilar.

Shu bilan birga 1924-yilda Turkiston futbol komandasi birinchi marta REFER birichiligida qatnashib yuqori natija ko'rsatdi.

Xuddi shu yili Turkistonda jismoniy madaniyat va sportni tag'ibot qilish maqsadida "Fizicheskaya kultura Turkistana" sport jurnali nashr qilina boshladi va unda respublikaning sport hayoti yoritilib boriladi. Sovet hokimyatning dastlabki yillaridanoq Turkistonda jismoniy tarbiya kasaba

uyushmalari madaniy ishlarning uzviy qismi, ishchilar sinfini birlashtirish va ularning jismoniy jihatdan kamol toptirishning samarali usullaridan biri bo‘lib qoldi.

1924-yilda o‘tkazilgan butun Turkiston Olimpiadasi Turkiston Respublikasidagi fizkultura tashkilotlarining milliy davlat chegaralanishidan oldingi davrda (1917-1924-yillar) qilgan ishlariga yakun yasadi. Bu Olimpiadada Sirdaryo, Farg‘ona, Turkiston, Samarqand va boshqa viloyat komandalari qatnashdi. Komanda hisobida Sirdaryo viloyatining sportchilari birinchilikni oldi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida yosh Turkiston respublikasida jismoniy madaniyat va sport qaror topdi. Turkiston xalqlari o‘rtasida jismoniy tarbiya ommaviy tarzda rivojlana boshlagan, madaniy qurilish sohasida keskin kurash borgan, jismoniy tarbiya sohasida yangilik bilan eskilik o‘rtasida kurash olgan davr bo‘ldi.

Ulug‘ oktabr sotsialistik revolyutsiyasi g‘alabasidan keyin Turkiston jismoniy tarbiyasi o‘z milliy shaklini saqlab qolgan holda yangidan-yangi mazmuni kashf etdi. Bu keng darajada mehnatkashlar ommasining mulki, qolaversa, kelajakda-o‘sib kelayotgan yosh avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi kuchli vosita bo‘lib qoladi.



**VIII-bob.**  
**XALQ XO'JALIGINI TIKLASH VA**  
**RIVOJLANTIRISH**  
**DAVRIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT**



1924-yilda O‘zbekiston Sovet sotsialistik respublikasi tashkil etildi. Sobiq SSSR tarkibida mustaqil milliy davlat bo‘lib ajralib chiqish o‘zbek milliy madaniyati, shu jumladan, jismoniy tarbiyaning rivojlanishi uchun yanada katta imkoniyatlar ochib berdi.

1925-yilning fevralida Buxoro shahrida O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi s‘yezdi bo‘lib o‘tdi. S‘yezd O‘zbekiston Kompartiyasi KISSning jangavor otryadlaridan biri sifatida uzul-kesil tashkil topdi. S‘yezd yosh respublikaning xo‘jalik va madaniy qurilish ishlari dasturini har tomonlama muhokama qildi va uni belgilab berdi. Maxalliy millat yoshlari o‘rtasida harbiy xizmatga chaqirilish tayyorgarligi boshlanib ketgani munosabati bilan s‘yezd “ishchi va dehqon” yoshlar o‘rtasida harbiy xizmatda jismoniy tarbiyani joriy qilishni zarur deb topdi.

Partiya Markaziy Komitetining 1925-yil 13-iyuldagi “Partiyaning fizkultura sohasidagi vazifalari” nomli qarorining ahamiyati juda katta bo‘ldi. Bu qaror butun mamlakatda jismoniy tarbiya taraqqiyoti tarixida alohida o‘rin to‘tadi. Unda jismoniy tarbiya ommani sog‘lomlashtirishning ajralmas qismi bo‘lib qolishi, tegishli ijtimoiy va davlat tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining umumiy rejasiga kiritilishi zarur, degan izohni o‘qiymiz. Partiya Markaziy Komiteti “milliy respublikalar tub aholisi o‘rtasida jismoniy tarbiyani yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor berish zarur” deb topdi. Bu bilan Markaziy Komitet sobiq chor Rossiyasining chekka o‘lkalaridagi xalqlarning feodal mustamlachilik o‘tmishidan jismoniy tarbiyaning rolini alohida qayd etdi.

O‘zbekiston Kompartiyasining 1925-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan II-s‘yezdi RKP(B) Markaziy Komitetining ana shu qaroriga amal qilib, Komsomol oldiga jismoniy tarbiya masalalarini yanada keskin vazifa qilib quydi. Ana shu 1925-yil 13-iyuldagi qarordan keyin respublikada futbol, yengil atletika, qo‘l to‘pi, basketbol, voleybol, gimnastika qatori kurash, uloq, poyga va boshqa milliy sport turlari ham jadal sur‘atlar bilan rivojlana boshladi.

O‘zbekiston jismoniy madaniyat va sport bilan shug‘ullanuvchilarning soni yildan-yilga ko‘paya bordi. Sport inshootlari - stadionlar, sport maydonchalari, zallar asta-sekin ko‘paya bordi. Shu bilan birga respublikadagi fabrika va zavodlarda jismoniy madaniyat va sport borgan sari ko‘proq joriy qilina boshladi. O‘zbekistonning eng yaxshi fizkulturachilari va sportchilari yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun Moskvadagi institutga o‘qishga yuborildi. Toshkentliklardan birinchi bo‘lib Ye.Putsillo, M.Koshoxova, M.Zemin va boshqa ko‘pgina



fizkulturachilar Moskva jismoniy tarbiya institutini tamomlab kelib, O'zbekistonda ishlay boshladilar.

Malakali kadrlar yetishmasligi respublikada jismoniy tarbiya harakatiga to'sqinlik qilar edi, ayniqsa, bu viloyatlarda ko'proq sezilib turadi. Shuni hisobga olgan holda viloyat fizkultura Sovetlari sportining ayrim turlaridan konstrktorlar tayyorlaydigan kurslar tashkil qilish boshlandi. Chunonchi, 1925-yil yoz mavsumi oldidan Farg'ona viloyatining Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Andijon shaharlarida instruktorlar tayyorlab beradigan kurslar tashkil qilindi.

1925-yildan boshlab Toshkentdagi poytaxt stadionlarida yanada ommalashtirish maqsadida katta tashviqot-tag'ibot ishlari o'tkaziladigan bo'ldi. Katta futbol maydonida fizkulturachilar ishtirokida uyushtiriladigan "jonli shaxmat" o'yinlari ana shunday tadbirlarga kiradi. Bunday o'yinlarda fizkulturachilar ruh, ot, piyoda va boshqa shaxmat donalari bo'lib harakat qilardi. Bunday uchrashuvlarda Freytman, A.Xo'jayev va boshqalar kabi taniqli shaxmatchilar qatnashardilar.

Shu bilan birga O'zbekistonda bir qator ommaviy jismoniy tarbiya bayramlari o'tkazildi. Masalan, 1925-yilda Toshkentda kasaba uyushmalarini jismoniy tarbiya va sport ishlariga jalb etish maqsadida kasaba uyushmalararo fizkultura bayrami o'tkazildi. Respublikaning boshqa bir qancha shaharlarida ham fizkultura bayramlari bo'lib o'tdi. Mahalliy aholi o'rtasida jismoniy madniyat va sport bilan shug'ulanuvchilar soni tobora ko'payib bordi. Masalan, Qo'qon shaharida tuzilgan "musulmonlar" futbol komandasi o'yinchilari kukul yerli millat sportchilaridan iborat edi. 1925-yilda bu komanda Toshkent va respublikadagi boshqa shaharlarning komandalari bilan o'tkazilgan shaharlararo mashg'ulotlarida qatnashdi. Sportning milliy turlari ancha rivoj topdi.

Futbol va yengil atletikadan shaharlararo uchrashuvlarning o'tkazilishi O'lka fizkultura Sovet boshlagan yaxshi tashabbus bo'ldi. Masalan, 1925-yilning oxirida Toshkentda Toshkent va Orenburg komandalari o'rtasida futbol va yengil atletika uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlar o'zbek sportchilarining boshqa shaharlar va respublikalar sportchilari bilan yaxshi aloqani boshlab berdi.

1926-yil kuzida bo'lib o'tgan XV partiya konferensiyasining qarorlari butun Sovet fizkultura harakatida o'quv-metodika, sport-texnika ishlarini qayta qurishda katta rol o'ynadi.

1925-yilda katta suv arteriyasi - Bo'z suv daryosiga to'g'on solindi. U yerda GES qurilishi natijasida vujudga kelgan sakkiz kilometrlik

maydon suv sporti turlarini rivojlantirish uchun birinchi ba'za bo'ldi. 1925-30-yillarda mazkur ko'l faqat dam oluvchilar uchun emas balki eshkakchi va suzuvchi sportchilar uchun ham asaosiy manzilgohga aylandi. Bu sportchilar yetakchisi va tashkilotchisi **N.F.Evimsov** edi.

Shu yili Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining sportchilari partiya qaroriga javoban katta sport bayramlarini tayyorladilar va o'tkazdilar. Kurash va ot sporti musobaqalari respublika mehnatkashlarining chinakam xalq bayramlariga aylanib ketardi.

1926-yil 15-iyulida Toshkentda ikkinchi stadionning ochilish marosimi bo'ldi. Bu stadionning ochilishi yerlik aholi o'rtasida sportni rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yangi stadiondagi mashg'ulotlarda sport va o'yinlarning milliy turlari katta o'rinni egalladi.

Maktablarda jismoniy tarbiyaning yo'lga qo'yilishi o'quvchi yoshlar salomatligida ayniqsa, katta rol o'ynadi.

Sovet hukumati 1921-yil 15-sentabrda qabul qilgan "O'smirlar va bolalar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Dekretda jismoniy tarbiyaning maktabdagi roli va ahamiyatini belgilab bergandi. Shu Dekerat chiqqandan keyin Maorif xalq komissarligi maktablar va bolalar sport muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etish choralari ko'rdi. Biroq o'quvchilarda sport mashg'ulotlariga intilish kuchli ekanligiga qaramay kamdan-kam maktablarda jismoniy tarbiya to'g'arkalari tuzildi. O'zbek maktablarida esa bunday to'garaklar uzoq vaqtga qadar mutloqo bo'lmay keldi. Respublikadagi maktablarda jismoniy tarbiyadan majburiy darslar deyarli o'tkazilmas edi.

Shahardagi maktab o'quvchilari jismoniy madaniyat va sport bilan asosan, ayrim joylarda tashkil etilgan bolalar maydonchalarida shug'ullanardilar. Bu mashg'ulotlar ayniqsa, serharakat o'yinlardan iborat bo'lar edi. Masalan, 1918-yilda Lunacharskiy qishlog'ida bolalar maydonchalari ochildi, bu maydonchalarda turli xil serharakat o'yinlar, gimnastika va hokazolar o'tkazila boshladi.

1919-yil Respublika Maorif Komissarligi huzurida Sovet Turkistoni o'quvchilari o'rtasida sport musobaqalarini uyushtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi sport komissiyasi tuzilgan edi. Musobaqalar dasturiga ommaviy erkin harakatlar, tezlik va chidamlilikni oshirish uchun yugurish, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash mashqlari kiritilar edi.

O'quvchilar birinchi sport to'garagi dastlab Pirogov nomli maktabda, so'ngra Mushkentov nomidagi maktabda tashkil etildi. Bu to'garaklarda gimnastika, yengil atletika, qilichbozlik mashg'ulotlari o'tkazilar, shuningdek, shaxmat turnirlari uyushtirilib turilardi.

1925-yildayoq O'zbekistonda tuzilgan maxsus Komissiya respublika maktablari uchun jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqdi va dastur yangi 1925 –1926-o'quv yillaridan boshlab joriy qilindi. Ammo bu jismoniy tarbiya mutaxassislarining yetishmasili sababli, respublikadagi maktablarning juda oz qismidagina mashg'ulotlar yo'lga qo'yildi. O'sha yillarda O'zbekistondagi maktablarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun oddiy sport maydonlari qurila boshladi. 1927-yilda Maorif xalq Komissarligi bilan davlat ilmiy Soveti (DIS) birinchi marta maktablar uchun yagona jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqdi. Bu bilan maktablarda jismoniy tarbiya o'qitish metodikasida mavjud bo'lib kelgan xilma-xillikka chek qo'ydi. Ammo bu dasturlarda ham katta kamchiliklar bor edi. O'sha vaqtda ko'pchilik maktablarda dars berishning komplekt metodi hukm surganligi, keyinchalik esa loyihalar joriy qilinishi bu kamchiliklarni yanada chuqurlashtirib yubordi.

1927-yil O'zbekiston fizkultura tarixida alohida o'rin to'tadi. Shu yili oktabr inqilobining 10 yilligini nishonlash sharafiga bag'ishlab Toshkentda birinchi Butun O'zbekiston sport Olimpiadasi o'tkazildi. Dasturga futbol, basketbol, yengil atletika, milliy kurash, harbiy amaliy mashqlar kiritilgan edi. Suzish, qayiq haydash, velosiped sporti, tennis musobaqalari umum komandalar hisobidan tashqari dasturga kiritilgan edi. Sport Olimpiadasida shaxsiy natijalar ham hisobga olinar edi. To'la bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda, sport olimpiadasining bevosita qatnashchilari 329 kishi bo'lib, ular orasida o'zbeklar 107 kishi edi. Milliy kurash u yoqda tursin hatto futbol va basketboldan milliy komandalar qatnashib, yaxshigina muvaffaqiyat qozondi. Masalan, Qashqadaryodan 8 kishi hammasi o'zbeklar Farg'onadan 48 kishi (11 ta o'zbek), Andijondan (9 ta o'zbek), Buxorodan 50 kishi (22 ta o'zbek), Samarqanddan 50 kishi (19 ta o'zbek), sport Olimpiadasida qatnashdi.

Keskin kurashlar natijasida eng ko'p sportchi (100 kishi) qatnashtirgan va yaxshi tayyorgarlik ko'rgan Toshkent komandasi umum komanda hisobida birinchilikni oldi. Futbol terma komandalari o'rtasida ham birinchi o'rinni Toshkent futbolchilari, ikkinchi o'rinni farg'onaliklar egalladi. O'zbek futbolchilaridan iborat komandalar o'rtasida esa farg'onaliklar birinchi, toshkentliklar ikkinchi bo'ldi. Milliy kurash musobaqalarida Andijon polvonlari birinchilikni samarqandliklar-ikkinchi va toshkentliklar uchinchi o'rinni egallashdi.

O'zbekiston qishloq aholisi o'rtasiga ham zamonaviy sport turlari asta-sekin kirib kela boshladi. 1927-yil iyulga kelib Toshkent viloyatining

yetti rayonida 15 ta jismoniy tarbiya to'garaklari bo'lib, ularda 624 kishi futbol va yengil atletika bilan shug'ullanar edi.

1928-yil ham butun mamlakatda va shu jumladan, O'zbekiston fizkultura harakati tarixida muhim o'rin tutadi. O'sha yili Moskvada chet el sport delegatsiyalari ishtirokida I Butun ittifoq **spartakiadasi** bo'lib o'tdi. Bu spartakiadaga tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkazildi. Bu spartakiadaga tayyorgarlik ko'rish uchun ikkinchi butun O'zbekiston sportakiadasi 19-iyuldan-26-iyulgacha o'tkazildi. Bu spartakiadaga 700 dan ortiq sportchi, jumladan, birgina Toshkent shahridan 160 sportchi qatnashdi.

Birinchi butun O'zbekiston spartakiadasidagi kabi spartakiada ochilishidan oldin ham respublikaning shahar va viloyatlarida spartakiadalari bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, o'sha kunlarda O'rta Osiyo Harbiy okrugi qismlarining spartakiadasi ham o'tkazildi. Shunday qilib, Toshkent qariyb ikki hafta davomida umum xalq bayrami katta sport hayoti bilan yashadi. Umum komanda birinchiligida poytaxt sportchilari g'olib chiqdi, farg'onaliklar ikkinchi va Samarqand sportchilari uchinchi o'rinni egalladi.

Bu spartakiada Moskvada o'tkaziladigan Butun ittifoq spartakiadasi oldidan tayyorgarlik tekshirilib ko'rildi.

O'zbekistondan borgan 193 kishilik Butun ittifoq spartakiada delegatsiyasida 44 tasi o'zbek sportchilari edi.

O'zbekiston sportchilari spartakiada dasturiga kiritilgan 7 turdagi musobaqalarning barchasida qatnashib, Kavkaz orti jamoasi bilan 4-va 5-o'rinlarni bo'lishib olishdi. Ular Turkiston SSR jamoasini, shuningdek, dasturdagi ba'zi turlardagina ishtirok etgan Fransiya, Shvetsiya, Shveysariya va boshqa chet el sportchilar delegatsiyalarini orqada qoldirib ketdilar. O'zbekiston polvonlari, dasturga kiritilgan sport turlaridan tashqari, kurash musobaqalarida ham qatnashdilar. Yengil atletika musobaqalarida O'zbekiston sportchilari bir qancha mukofotli o'rinlarni egalladilar. Masalan, N.Oveyannikov barerli 110 m ga yugurishda a'lo natija (16, 2 sek) ko'rsatib, ikkinchi o'rinni egalladi. Yugurib kelib balandlikka sakrashda Dunaev 175 sm natija bilan erkaklar o'rtasida uchinchi o'rinni egalladi; diskni 25 m 33 sm masofaga uloqtirgan sportchi Tikunova xotin-qizlar o'rtasida ikkinchi o'rinni egalladi. Langar bilan sakrashda Rikova uchinchi o'ringa, yugurib kelib uch xatlab sakrash musobaqasida 13 m 25 sm natija ko'rsatgan N.Oveyannikov ham uchinchi o'ringa chiqadi.

Bu spartakiadaga O'zbekiston basketbolchilar komandasi musobaqani yaxshi o'tkazadi va ZSFER ning kuchli komandasi ustidan 42:9 hisobida g'olib chiqdi. Shu bilan birga basketbolchilarimiz birinchi xalqaro uchrashuvni o'tkazdilar. Ular Fransiya terma komandasi bilan uchrashib, 49:12 (erkaklar) va 24:12 (ayollar) hisoblari bilan g'alaba qozondilar.

1928-yildagi spartakiadaga tayyorgarlik natijasida respublikada basketbolning rivojlanishi bir muncha jonlangan bo'lsa ham, biroq doimiy musobaqa kalendari yo'qligi, basketbol maydonchalarining kamligi, jamoalarda trenerlarning yetishlamasligi bu o'yinning chinakam ommaviy tus olishiga to'sqinlik qilardi.

Butun ittifoq spartakiadasiga sportning harbiy amaliy turlaridan iborat ko'p kurashda O'rta Osiyo Harbiy okrugining komandasi birinchi o'rinni egalladi. Sport gimnastikasidan shaxsiy birinchilikda toshkentlik gimnastikachi Ye.Murashko spartakiadaning absolyut chempioni nomini oldi.

O'zbekistonlik velosipedchilar ham yaxshi mahorat ko'rsatib umum komanda hisobida ikkinchi o'rinni ishg'ol qildilar. Butun ittifoq spartakiadasida qatnashishi, o'zbekistonlik tennischi va goridnachilar uchun birinchi marta bunday yirik musobaqalar darajasiga ko'tarilishi edi. O'zbekiston SSRning futbol komandasi Shveysariya komandasi ustidan 8:4 hisobida g'alaba qozondi, ZSFER komandasi bilan 2:2 hisobida durang o'ynadi. Futbol chempionatida 23 ta komanda RSFER ning turli tumanlaridan 12 komanda, ittifoqdosh komandalardan 5 komanda (USSR, BSSR, ZSFER, O'zSSR, TurkSSR) va chet el sport delegatsiyalari (Anliya, Finlyandiya, Urugovan, Shveysariya, Avstriya hamda Germaniya) bellashdi.

Qilichbozlik musobaqalarida O'zbekiston "B" guruhida qatnashib, uchinchi o'rinni egalladi. O'zbekistonlik sportchi Martikan-rakiradan shaxsiy birinchilikda beshinchi o'rinni, eksadoron musobaqasida esa to'rtinchi o'rinni egalladi; nayza sanchish musobaqasida toshkentlik Yegorov to'rtinchi o'ringa chiqdi.

Butun ittifoq spartakiadasida o'zbekistonlik kekxa sportchilardan biri D.Taranov klassik kurash musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashib, og'ir vaznli kurashchilar o'rtasida uchinchi o'rinni egalladi.

Vakillarimizning Butunittifoq spartakiadasida erishgan muvaffaqiyatlarini respublika mehnatkashlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar, bu esa respublikada jismoniy madaniyat va sport ishlarining yaxshilanishiga yordam berdi.

Partiya Markaziy Komitetining 1929-yil 23-sentabrdagi qarori butun Sovet ittifoqida, shu jumladan, O'zbekistonda jismoniy tarbiyani rivojlantirishda juda katta rol o'ynadi. Partiya Markaziy Komitetining qarori fizkultura ishlari qoniqarsiz ahvolda ekanini qayd etib, uning yangi yo'llarini belgilab berdi. Markaziy Komitet mamlakatda fizkulturaga davlat e'tiborini kuchaytirishni maqsad qildi.

Shu qarorga muvofiq SSR Markaziy Ijroiya Komitetining Prezidimu 1930-yil aprelida Butun ittifoq Fizkultura Sovetini ta'sis etish to'g'risida qaror qildi. 1936-yil iyunda u SSR Xalq Komissarlari Soveti Huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport Komiteti qilib o'zgartirildi.

Sportning milliy turlariga e'tibor berila boshlandi. 1929-yili Qo'qon shahrida o'zbek milliy fizkultura bayrami bo'lib o'tdi. Bu bayram dasturiga milliy sport turlari bo'yicha musobaqalarga (kurash, uloq, poyga) asosiy o'rinlar ajratilgan edi. Bayramda kurashdan musobaqa bo'lishini eshitib ko'plab tuman va shaharlardan tomosha ko'rgani va o'z kuchlarini sinagani polvonlar kelishdi. Kurash bo'yicha musobaqada 39 nafar polvon qatnashdi. Bu polvonlar respublikamizning turli viloyatlari va shaharlaridan edilar.

Polvonlar o'rtasida 6 kunlik olishuvlardan keyin birinchi o'rinni Farg'ona viloyatidan 65 yashar Elmamin Ellen buva egalladi. Bu musobaqalarda birinchi marta polvonlar to'rt vazn toifasiga ajratildi. Eng kuchli polvonlar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.

1929 yilda Toshkentda yana ikkita yangi stadion qurilib ishga tushirilgan, ya'ni hozirgi "Dinamo" va sobiq eski shaharning Bedabozor hududidagi stadion ochildi.

Shu bilan birga sportning boshqa ko'pgina turlaridan og'ir atletika (boks, kurash, shtanga), sport o'yinlari (basketbol, voleybol, qo'l to'pi, tennis), suzish, eshkak eshish, milliy kurash, ot sporti turlaridan ham musobaqalar tez-tez o'tkazilib turilardi.

1929-yilda ikki qardosh respublika - Znanavkaze bilan O'zbekiston o'rtasida futboldan o'rtoqli uchrashuvi bo'ldi. 3:1 hisobida o'zbek futbolchilari g'alaba qozondi. O'sha yili avgustida O'rta Osiyodagi ikki respublika Qirg'iziston bilan O'zbekiston o'rtasida ham yengil atletika va sport o'yinlaridan musobaqalar bo'ldi. Uchrashuv O'zbekiston sportchilarining g'alabasi bilan yakunlandi.

1931-yil 4-fevralda Toshkentda jismoniy madaniyat va sport sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan O'rta Osiyo kengashi ochildi. Bu kengash VKP (B) Markaziy Komitetining 1929-yil sentabrdagi qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni muhokama qilishga bag'ishlangan edi. kengash

jismoniy madaniyat va sport ishlarini ishlab chiqarish prinsipi asosida qayta qurish masalarini, kasaba uyushma va komsomol tashkilotlarning VKP (B) Markaziy Komiteti qarorni bajarish sohasidagi vazifalarini muhokama qildi, fizkultura kadrlarini tayyorlash masalalariga katta e'tibor berildi.

Ishlab chiqarish prinsipi asosida ishlay boshlagan O'zbekiston fizkultura tashkilotlari bir muncha ijobiy natijalarga erishdi. Respublikada fizkulturachilar, fizkultura jamoalari, ayniqsa? fabrika va zavod jamoalari ko'paydi. Jismoniy tarbiya harakatining moddiy bazasi mustahkamlandi.

1932-yilda respublika hukmati joylarda mehnatkashlarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish ehtiyojlarini yana ham to'laroq qodirishni ko'zda tutuvchi qaror qabul qildi. Qarorda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun yer-joylarni ajratishni ta'minlash vazifasi qo'yildi. Shahar va qishloqlarda klublar va madaniyat uylari qurayotganda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkazadigan maxsus joylar, shuningdek, suv stansiyalari bo'lishi ko'zda tutiladigan bo'ldi. Fizkultura Oliy Sovet va O'zSSR Kommunal xo'jaligi xalq komissarligi barcha jismoniy tarbiya inshootlari uchun yagona kurash normalarini ishlab chiqish yuklatildi.

1931-1934-yillarda "Mehnat va SSR mudofasiga tayyor" yagona Butun ittifoq fizkultura kompleksi joriy qilinishi, O'zbekistonda fizkultura sohasida katta ahamiyatli voqia bo'ldi. Sovet jismoniy tarbiya tizimining negizi bo'lgan GTO kompleksining joriy etilishi O'zbekiston SSRda jismoniy tarbiya ishlarining yuksalishiga yordam berdi. GTO nishonalari ortib borganini ko'rsatuvchi jadval ham bundan dalolat berdi.

GTO kompleksining joriy qilinishi respublikada sportning barcha turlari rivojlanishini ta'minladi. Mehnatkashlar ommasiga yaqin va ular sevadigan milliy sport turlarini rivojlantirish sport ishlariga faqat yoshlarnigina emas, balki shahar va kolxozlardagi katta yoshli kishilarni ham jalb qilish imkoniyatini berdi.

Bu vaqtga kelib joylarda o'tkaziladigan musobaqalarda ham, shuningdek, Butun ittifoq miqyosida ham o'zbek sportchilarining mahorati oshganligi ko'zga tashlanadi. 1930-yili o'zbek polvonlari Egam Rizayev va Xo'jayevlar markaziy "Dinamo" jamiyatining birinchiligida qatnashib, birinchi o'rinni egalladilar.

O'zbekiston KP (B) Markaziy Komitetining 1933-yil 10-yanvarda qabul qilgan "O'zbekistonning fizkultura ishlari haqida"gi qarori respublikamizda jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

1933-yilda Butun O'zbekiston spartakiadasi o'tkazildi. Bu sportakiadaga respublikaning Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon,

Termiz, Qo‘qon va Namangan shaharlaridan 8 ta terma komanda qatnashdi. Spartakiadaning vazifasi jumhuriyatda ommaviy fizkultura ishlarining ahvolini hamda O‘zbekiston sportchilarining 1934-yilda bo‘ladigan birinchi O‘rta Osiyo spartakiadasiga tayyorgarligini tekshirib ko‘rishidan iborat edi.

Butun O‘zbekiston spartakiadasi dasturiga kirilgan musobaqalar ichida yengil atletika musobaqalarida hammadan ko‘p sportchi qatnashdi. O‘zbekiston yengil atletikachilari bir qancha respublika rekordlarini qo‘ydilar, masalan, langar bilan sakrashda, 500, 100 m ga yugurishda, disk uloqtirishda, 400 m ga yugurishda va h.k.

Spartakiada dasutiga yengil atletika musobaqalaridan tashqari sport o‘yinlari (futbol, basketbol, voleybol) shuningdek, kurash musobaqalari ham kiritilgan edi.

1934-yilda O‘zbekistondagi fizkultura tashkilotlari bir qancha tuman, shahar va respublika spartakiadalarining saralash musobaqalari, o‘rtoqlik uchrashuvlarini o‘tkazdi. Bu tadbirlardan maqsad ommaviy fizkultura ishlariga qiziqish uyg‘otish va O‘rta Osiyo spartakiadasiga eng kuchli sportchilarni tanlab olishdan iborat.

1934-yilgi birinchi O‘rta Osiyo spartakiadasi faqat O‘rta Osiyodagina emas, balki butun mamlakatda juda katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etdi. Spartakiadaning ochilishiga bag‘ishlab O‘zbekiston poytaxtida 36 ming fizkulturchi ishtirokida o‘tkazilgan va qo‘shni respublikalarda mehmon sifatida qatnashish uchun O‘zbekistonga kelgan Afg‘oniston sportchilari delegatsiyasi ham parad vaqtida hozir bo‘ldi.

Spartakiada sobiq eski shahardagi yangi ochilgan stadiona (hozirgi “Spartak” stadionida) o‘tdi. O‘yingohda musobaqalar ochilish marosimida barcha jamoalar saf tortishdi. Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston futbol jamoalarida bor-yo‘g‘i ikki-uch nafardan mahalliy millat vakillari bo‘lsa, “Muskomanda” yuz foiz o‘zbek yigitlaridan tashkil topgan edi.

O‘sha Sportakiadaga O‘zbekiston futbol bo‘yicha ikki jamoa bilan ishtirok etdi. Biri - “Muskomanda”, ikkinchisi - respublika terma jamoasi, “Muskomanda”ning yetakchi futbolchilaridan Husan va Qodir terma jamoa safidan joy olishgandi.

Birinchi uchrashuvni turkmanistonliklar bilan o‘tkazib 2:0 hisobida g‘olib bo‘ladilar. O‘yindan keyin komanda sardorini O‘zbekiston oqsoqoli chaqirtiradi va uchrashib “Barakalla o‘g‘illarim, otangizga rahmat, azamat ekansizlar” deb tabriklaydi. So‘ng yordamchilarini chaqirib, “Jamo a‘zolarining barcha iltimoslari bajarilsin” deya ko‘rsatma berdilar.



Ertasiga uch kishi futbolchilar huzuriga tashrif buyurib, “Muskomanda” a’zolariga qizil shoyidan tiqilgan ko’ylaklar, oq ipakdan bichilgan kalta ishtonlar, bejirim ishlangan va xorijda tayyorlangan oyoq kiyimlari olib kelib berishdi. Bundan ruhlangan “Muskomanda” spartakiadaning keyingi o‘yinida Tojikistonni 1:0, Qozog‘istonliklarni 3:1 hisobida mag‘lubiyatga uchratdilar. Qirg‘iziston futbolchilari esa “Muskomanda” bilan maydonga tushmaslikni afzal ko‘rdilar. Musulmonlar komandasi shu tariqa O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari Spartakiadasining g‘olibi bo‘ldi. Husan Muxitdinov, darvozabon Kimyogorov va Jo‘ra Saidovlar “Eng yaxshi futbolchilari” deb tan olinidi.

1934-yilda basketbol bo‘yicha o‘tkazilgan birinchi O‘rta Osiyo spartakiadasida esa O‘zbekiston erkaklar va ayollar terma komandalari birinchi o‘rinlarni egalladilar.

Respublikamiz basketbolchilari O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘iston o‘rtasida o‘tkazilgan hamma spartakiadalarda 1952-yilgacha birinchilikni qo‘ldan bermadilar. 1952-yilda va undan so‘ng ham ayollar komandasi musobaqalarda kuchligicha qoldi, ammo erkaklar komandasi 1973-yilda Qozog‘iston komandasini oldinga o‘tkazib, ikkinchi o‘rin bilan kifoyalanib qoldi.

Milliy kurash bo‘yicha umum komanda birinchiligini O‘zbekiston polvonlari egalladi. Shaxsiy birinchilikda yengil vaznda Qurbonov, o‘rta vaznda Meyliboyevlar Buxoroda kurash bo‘yicha chempion bo‘lishdi.

Spartakaidaning gimnastika bo‘yicha musobaqasi 1934-yil 24-27-mayda Toshkentda o‘tkazildi. Sport gimnastikasi musobaqalarida O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston jamoalari qatnashdi. Musobaqaga gimnastika besh kurashi qaratilgan edi. Komandalar o‘rtasida birinchi o‘rinni O‘zbekiston SSR gimnastikachilari, ikkinchi o‘rinni Qozog‘iston sportchilari va uchinchi o‘rinni Qirg‘iziston vakillari egalladi. Erkaklar o‘rtasida Daxin (O‘zSSR) O‘rat Osiyoning dastlabki chempionlari nomini olishdi.

1934-yilda O‘rta Osiyo spartakaidasi mufaffaqiyatli o‘tkazilgandan keyin respublika hukumati, O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti raisi Yo‘.Oxunboboyevning ko‘rsatmasi bilan fizkultura tashkilotlarning Toshkentda fizkultura texnikumini ochish to‘g‘risidagi iltimosini quvvatladi. 1935-yildan boshlab 22 yil mobaynida (1957-yilga qadar) jumhuriyatga o‘rta ma’lumotli 1.146 mutaxassisni yetkazib berdi.

Hukmatning O‘rta Osiyo respublikalarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan muhim qarorlari qatorida SSR Markaziy Qo‘mitasi millatlar Sovetining “O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston

SSRda jismoniy tarbiya va sport ishlarini yanada rivojlantirish choralari to'g'risida"gi 1936-yil 5- iyulda qabul qilingan qarorida mazkur jumhuriyatlardagi mahalliy aholini muntazam jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etish sohasidagi jiddiy kamchiliklar qayd etilib, O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish maqsadida "...mehnatkash aholini, ayniqsa, yoshlarni fizkultura harakatiga jalb qilishining va butun aholini mamlakat mudofaasiga tayyorlashning muhim vositasi bo'lgan milliy sport turlarini (ovchilik, ot sporti, kurash, yugurish, o'yinlar va shu kabilarni) rivojlantirish zarur deb topilgan edi. Shu qarorga javoban O'zbekiston jumhuriyati xalq Komissarlari Soveti umuman jismoniy tarbiya va sport ishlarini, xususan sportning milliy turlarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish yuzasidan bir qator choralarni ko'radi. Jismoniy tarbiya va sport ishlari qo'mitalarini kadrlar bilan mustahkamlashga e'tibor berildi, bu qo'mitalarda qishloqda ish olib boradigan maxsus sektorlar tashkil etildi, sportning ayrim turlaridan maktablar vujudga keldi. Jumladan, jumhuriyat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi milliy kurash maktabi tashkil etildi, bu maktabga mashhur polvon Asqar Otaboyev rahbar qilib tayinlandi, yosh shahmatchilar maktabiga esa respublikaning keksa va taniqli shahmatchilaridan biri, masterlikka nomzod Zokirxo'jayev boshchilik qila boshladi. Xalq Komissarlari Sovetining qarori bilan Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazmda viloyat jismoniy tarbiya va sport komitetlari, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Marg'ilon, Namangan va Chirchiq shahar jismoniy tarbiya va sport komitetlari tashkil etilgan. Barcha qishloq va tumanlarga esa viloyat jismoniy tarbiya va sport komitetlarining vakillari tayinlanadigan bo'ldi.

Xalq orasida asrlar bo'yi davom etib kelgan xalq musobaqalari va o'yinlari keng tarqalib, yangi mazmun kashf etdi va ravnaq topdi. O'rta Osiyo va O'zbekiston spartakiadalari dasturiga ot poygasi, "Olomon poyga", shahmat, kurash, arqon tortish, basketbol va boshqa xilma-xil xalq musobaqalari va o'yinlari kiritiladigan bo'ldi.

Bu davrda arqon tortish, yog'och oyoq, darbozlik va kurash kabi o'zbek xalqi nihoyatda sevadigan musobaqalar naqadar katta rol o'ynagani o'z-o'zidan ma'lum. Respublikada xalq ommasiga tushunarli va sevimli bo'lgan xalq musobaqalari va o'yinlarini rivojlantirish, sport ishlariga faqat yoshlarnigina emas, balki katta yoshdagi kishilarni ham shuningdek faqat shaharlarda yashovchi aholini emas, balki qishloq mehnatkashlarini ham jalb qilishga yordam berdi.

Respublika basketbolchilari 1935-yilda Leningradda o'tkazilgan Butun ittifoq musobaqalarida qatnashib erkaklar-12, ayollar-11-o'rinni egalladilar.

Butun ittifoq musobaqalaridan so'ng terma komanda a'zolari respublika shaharlariga borib seminarlar, murabbiylar yig'ilishlarini o'tkazib, basketbolni targ'ib qila boshladilar.

1936-37-yillarda va unda keyingi ko'p musobaqalarda Toshkent shahri komandalari respublikamizning boshqa shaharlari komandalaridan ancha ustunlik qilishardi. Lekin o'zbek basketbolchilari texnik va tayyorgarlik jihatidan Sovet ittifoqining ilg'or komandalaridan ancha orqada edilar.

1939-yilda mamlakatimizda musobaqaning yangi qoidalari joriy etildi. Bu qoidalar xalqaro musobaqalar qoidalariga munosib tuzilgandi. Masalan, musobaqalar "toza" o'yin vaqti bo'yicha o'tkaziladigan bo'ldi. Komandalar boshqa zaxiradagi basketbolchilarga ega bo'lishga va bu basketbolchilarni xohlaganda almashtirib o'ynashga ruxsat berildi. Yangi qoida bo'yicha maydon ikki zonaga bo'linib, "Zona" qoidasi kiritildi. Basketbolchilarning to'pi orqa zonada 10 sekunddan ortiq ushlab turishi taqiqlandi. Yangi qoida bo'yicha savatga to'p tushgan komanda basketbolchilari o'yin markazidan emas, balki to'pning o'z zonalarining ortidan chiziq orqasidan o'yinga tushiradigan bo'lishdi. Jarima to'pni endi "jabrlangan" basketbolchining o'zigina uradigan bo'ldi. Yangi qoidaning qo'llanishi o'yinni bir muncha tez olib borishga, o'yin texnikasi va taktikasining takomillashuviga olib keldi. Respublikanig kuchli basketbolchilari to'pni ko'krakdan ikki qo'llab va yelkadan bir qo'llab uzatish kabi usullarni qo'llay boshladilar.

1933-yilda Toshkent o'quvchi bolalar spartakiadasi o'tkazildi. Bu spartakiadaga shahardagi qarib barcha maktablardan 7 ming o'quvchi qatnashdi. Mazkur spartakiada dasturiga yengil atletika ko'p kurashi, voleybol va estafetalar kiritilgan edi. Bu spartakaidada birinchi marta 10-maktab jamoasi g'olib chiqdi. O'sha yili Butun o'zbekiston spartakiadasi bilan bir qatorda Birinchi respublika bolalari spartakiadasi bo'lib o'tdi.

1936-yilga kelib respublika o'quvchilari o'rtasida sport gimnastikasi jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Masalan, 1937-yilda Toshkentda gimnastikadan o'quvchilarning ikkinchi O'zbekiston birinchiligi o'tkazildi. Komanda hisobida birinchi o'rinni Toshkent shahrining jamoasi, ikkinchi o'rinni Samarqand shahri jamoasi qo'lga kiritdi. O'quvchilarning tayyorgarligi katta yoshdagi ko'pgina gimnastikachilar tayyorgarligidan qolishmas edi. Birinchilikda bolalar va o'smirlar o'rtasida

Okulig va Kust, qizlar o'rtasida esa O.Sokolovskaya respublika chempioni bo'ldi.

1938-yili O'zbekistonning yosh gimnastikachilari birinchi marta Leningrad shahrida Butun ittifoq o'smirlar musobaqasida qatnashdi. O'zbekiston jamoasi respublikaning eng kuchli yigit va qiz gimnastikachilari: Tomozov, Borodnin, Kust, Bogatova, Demchenki, Bondarenko va boshqalar bor edi. Komandani respublikaning eng yaxshi trenerlaridan A.Pokrovskiy, P.Krovchenko, M.Arganchelskiylar tayyorlangan edi. Butun ittifoq musobaqasida O'zbekiston komandasi, Kiyev, Tibilisi, Minsk kabi shaharlarning komandalaridan o'zib ketib, beshinchi o'rinni egalladi.

1939-yilda O'zbekiston yosh gimnastikachilari Butun ittifoq musobaqasida katta zafar quchdilar. O'zbekiston SSR komandasi umum komanda hisobida Moskva, Leningrad shaharlari va Moskva viloyati jamoalaridan keyin to'rtinchi o'rinni egalladi.

1938-yildan boshlab O'zbekistonlik o'quvchilar sportning ayrim turlaridan Butun ittifoq musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnasha boshladilar. Ashxobod shahrida Toshkent o'rtasida shaxmat, shashka, o'q otish, voleyboldan o'rtoqlik uchrashuvlari bo'lib o'tdi. O'zbekiston maktab o'quvchilari 1938-yilda Kiyev shahrida o'tkazilgan Butunittifoq yengil atletika musobaqasida muvaffaqiyatli qatnashib, umum komanda hisobida ikkinchi o'rinni ishg'ol qildilar. O'zbekistonlik o'quvchilarning nomlari bolalar va o'smirlar o'rtasida qo'yilgan SSSR rekordlari jadvaliga kiritildi.

1939-yilda O'zbekiston maktab o'quvchilari Butun ittifoq yengil atletika musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashib, qizlar o'rtasida ham, o'smirlar o'rtasida ham eng yaxshi jamoa qatoriga kirdilar.

1937-yilda Toshkentda, 1938-yilda Samarqand, Farg'ona, Buxoro shaharlarida ham ochilgan xilma-xil bo'limlari bo'lgan bolalar sport maktablari respublikada yoshlar sportini rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Ammo respublikada bolalar va o'smirlar o'rtasida sportni rivojlantirishda muvoffaqiyatlar qo'lga kiritilganiga qaramay, bir qator jiddiy kamchiliklar ham mavjud edi. Avvalo, respublika maktablarida jismoniy tarbiyadan akademik mashg'ulotlar qoniqarsiz yo'lga qo'yilgan edi. O'zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi maktablarda jismoniy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish masalalari bilan chinakam shug'ullanmadi, shahar xalq maorifi bo'limlari huzuridagi bolalar sport maktablari uchun normal sharoit yaratib berish to'g'risida qayg'urmadi. Maktabda o'qitiladigan jismoniy tarbiyaga ikkinchi darajali fan deb qaraldi. Sport

zallari qurish, sport maydonchalarini jihozlash to'g'risida yetarli darajada g'amxo'rlik qilinmadi. Jismoniy tarbiyadan malakali va tajribali o'qituvchilar yetishmas edi. Bularning hammasi respublikadagi maktab o'quvchilari o'rtasida fizkultura harakatining rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

1935-yilda o'tkazilgan Toshkent shahridagi o'rta va oliy o'quv yurtlaridagi sport ishlariga yakun yasadi. Musobaqa dasturiga yengil atletika, sport o'yinlari va velosport kiritilgan edi. Bir qancha sportchi studentlar, a'lo natijalarga erishdilar. Biroq rekordchilar orasida mahalliy vakillar yo'q darajada edi. Faqat xotin-qizlar o'rtasida 1000 mga yugurishda F.Hasanova qo'ygan rekord bundan mustasno edi, xolos. Bu faqat o'zbek yoshlari, ayniqsa, o'zbek qizlari jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlariga yetarli jalb qilinmaganidan dalolat berardi. Buning uchun rahbar organlari aybdor edi. O'sha yillarda o'zbek qizlarining sport mashg'ulotlariga jalb qilish yuzasidan o'tkazilgan birdan-bir tadbir 1935-yilgi Birinchi respublika xotin-qizlar spartakiadasi bo'ldi. Spartakiadaga Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Namangan, Buxoro, Termiz, Farg'ona va Yangiyo'l shaharlaridan 10 ta jamoa qatnashdi. Spartakiadaga qatnashgan 150 kishidan 90 tasi o'zbek qizlari edi.

Mahalliy millat qizlarining dastlabki natijalari garchi past bo'lsa hamki, bu spartakiada o'zbek xotin-qizlarini jismoniy madaniyat va sportga tortish sohasida qo'yilgan katta qadam bo'ldi. 1936-yilda o'zbek yoshlarining vakili O'rinboyev shashkadan O'zbekiston chempioni unvonini oldi. Respublika kolxoz-sovxo'z spartakiadlarining o'tkazib turilishi o'zbek yoshlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni tashviqot-targ'ibot qilishning ulkan vazifasiga aylandi. Bunday spartakiadalar dasturida milliy sport turlari katta o'rin tutardi.

1936-yili may oyida VSSKS Ko'ngilli sport jamiyatlari (KSJ)ni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1937-yil sholiga qadar O'zbekistonda 18 ta ko'ngilli sport jamiyati tuzilgan edi. 1940-yilga kelib ularning soni 30 taga yetdi. Ko'ngilli sport jamiyatlari tashkil etilishi respublikada ommaviy fizkultura ishlari keng quloq yozishda, sportchilar mahorati yuksalib borishiga yordam berdi. Agar 1936-yilda O'zbekistonda 80000, 1938-yilda 83.842 fizkulturachi bo'lsa, 1940-yilda fizkulturachilar soni 104.200 kishiga yetdi. Fizkultura jamoalari esa 193-yilda 700 ta bo'lsa, 1940-yilda 947 taga yetdi.

1937-yilda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va boshqa shaharlarda xalq bo'limlariga qarashli bolalar sport maktablarining ochilishi ham O'zbekistonda iste'dodli yosh sportchilar tayyorlashga

qaratilgan yirik tadbirlar jumlasiga kirib, sportni ommaviylashtirishga katta yordam berdi.

1937-yili milliy kurash bo'yicha jumhuriyat birinchiligida 30 ta tuman va shaharlardan 120 ta kurashchi qatnashdi. O'zbekcha milliy kurashdan birinchi marta sport klassafikatsiyasi va 8 ta vazn toifasi belgilandi.

1938-yilda dinamo-chilar tomonidan kurash seksiyasi tashkil qilindi. Seksiya jumhuriyatni fransuz kurashi bo'yicha Rizayev, Xo'jayev, Zokirov, Muhamedov, Mirqosimov kabi kuchli polvonlarni tayyorlab, O'zbekiston terma jamoasining asosini yaratdi.

1939-yilda Umum ittifoq jismoniy madaniyat va sport qo'mitasi tashabbusi bilan birinchi bor Farg'onada milliy kurash bo'yicha musobaqa qoidalari chop etildi.

1939-yildan boshlab jamoalardan, havaskor sport jamiyatlaridan jumhuriyat birinchiligiga bosqichma-bosqich ko'tariladigan musobaqalar o'tkazila boshlandi.

1936-yilda SSR Markaziy Ijroiya Komiteti huzuridagi Butun ittifoq fizkultura Soveti SSR Xalq Komissarlari jismoniy madaniyat va sport ishlari Butun ittifoq komiteti tashkil etildi. Bu ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishlariga davlat e'tiborini yaxshilashga qaratilgan. Ittifoqdan respublikalarda ham shunday komitetlar va ularning quyi komitetlari ta'sis etildi.

1935-yilda tashkil etilgan Toshkent fizkultura texnikumi hali respublikadagi fizkultura tashkilotlarini, ayniqsa, maktablar va o'quv yurtlarini malakali kadrlar bilan ta'minlay boshlamagan edi.

Kadrlar tayyorlash sur'atini jadallashtirish maqsadida Toshkent fizkultura texnikumi O'zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi bilan birgalikda fizkultura instruktorlari tayyorlaydigan bir yillik kurslar tashkil etdi. 1940-yilning oxirigacha bu kurslarni 300 dan ortiq kishi bitirib chiqdi. Mahalliy xotin-qizlar orasida instruktor kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda maxsus kurslar ochildi. Bundan tashqari, GSOLIFK huzurida sport instruktorlari tayyorlaydigan xotin-qizlar milliy kurslari tashkil etildi, bu kurslarda bir guruh o'zbek xotin-qizlari ham o'qiy boshladi. Dastlabki guruh bu kurslarni 1936-yilda bitirib chiqdi. Bundan tashqari, respublika va shahar fizkultura komitetlari fizkultura instruktorlari tayyorlaydigan qisqa muddatli (1-3 oylik) bir qancha kurslar tashkil etib, bu kurslarni tamomlab chiqqan korxonalariga, respublikaning shahar va qishloqlaridagi quyi fizkultura jamoalariga yuborildi. Eng yaxshi faol fizkulturchilar oliy fizkultura bilim yurtida olish uchun Moskva va Leningraddagi fizkultura institutlariga yuborildi.

Butun ittifoq fizkultura komiteti tomonidan yagona Butun ittifoq sport klassifikatsiyasini ishlab chiqdi va joriy qildi. O‘zbekiston fizkultura komiteti bu yangilikni hisobga olib aholi o‘rtasida, ayniqsa, o‘quvchi yoshlar o‘rtasida sport ommaviyligini rivojlantirishga alohida e‘tibor bera boshladi.

O‘zbekiston sportchilarining ko‘pgina turlaridan, ayniqsa, yengil atletika, og‘ir atletika va gimnastikadan sport ko‘rsatkichlari o‘sa boshladi. 1936-yil sentabrda bo‘lib o‘tgan navbatdagi Butun O‘zbekiston spartakiadasi buning yorqin isboti bo‘ldi. Mehmon bo‘lib kelgan dongdor sportchilardan G.Turova, Shimanina, R.Molko, Roxlin va boshqalar qatnashgan bu spartakiadaga O‘zbekiston sportchilari uchta Butun ittifoq rekordi va bir qancha respublika rekordlarini o‘rnatdilar.

Bu spartakiada dasturi ham uch bo‘limdan iborat: 1. Shahar terma jamoa musobaqalari. 2. Tuman terma jamoalari musobaqalari. 3. Kolxoz terma jamoa musobaqalari.

Shahar terma jamoalari yengil atletika, futbol, velosport, voleybol, tennis, ot sporti, avtomot sporti bo‘yicha, tuman terma jamoalari esa yengil atletika va velosport kolxoz terma jamoalari esa yengil atletika, stendli otish, o‘q otish, arqon tortish, voleybol, shaxmat va velosportdan musobaqalashdilar.

Spartakiada dasturidagi yengil atletika musobaqalarida o‘zbekistonlik sportchilar, ayniqsa, 100 m ga yugurishda Ye.Putsillo respublika yangi rekrordini qo‘ydi; bu masofani u birinchi marta 11 sekunddan kam vaqtda (10, 9 sek) yugurib o‘tdi. Toshkentlik L.Olixova ham yugurib kelib balandlikka sakrashda respublika yangi rekordini qo‘ydi-1m 50sm.

Shunday qilib bu spartakiada o‘zbek sportchilarining mahorati ancha oshganligi ma‘lum bo‘ldi; ular Ittifoqdagi ko‘pgina dongdor sportchilarga jiddiy raqib bo‘la olishlarini ko‘rsatdilar.

O‘zbekiston KP ning 1938-yili bo‘lib o‘tgan VII-s‘yezdi jismoniy tarbiya va sport ishlariga ham katta e‘tibor berildi.

Shu vaqtdan boshlab O‘zbekiston qishloq sportchilarining spartakiadalar ham muntazam ravishda o‘tkazilib turildi. Bu spartakiadalar dasturiga yengil atletika, bosketbol, voleybol, futbol, velosport, o‘q otish kabi sport turlari tobora ko‘proq kiritildi, xuddi shu bilan birga ot sporti turlari va kurash musobaqalari ham doimiy ravishda o‘tkazilib kelindi. 1937-yilgi kolxozchilar spartakiadasida Buxoro viloyatining Karmana tumanidagi kolxoz fizkulturachilari, 1938-yilda esa Toshkent viloyatidagi kolxozchilarning vakillari g‘olib chiqishdi.

1935-1940-yillarda fizkultura tashkilotlari fizkulturachilar safini yanada ko'paytirish, GTO nishondarlarini tayyorlash va o'zbek sportchilari mahoratini oshirish sohasida jo'shqin ish olib bordi. Masalan, 1940-yil oxirida respublikada 30 ta sport jamiyatining birlashgan fizkulturachilari 104 ming kishidan oshib ketdi. 1939-yilda respublikadagi yetakchi sportchilar orasida A.A.Arzumanova, N.G.Sin, T.I.Prinseva, A.P.Fedyayev, S.A.Mkrtumyans, S.N.Freyman va S.M.Doyachkovlar bor edi. O'sha yillarda yengil atletikadan O'zbekiston chempioni, Butun ittifoq miqiyosidagi sport musobaqalarda yuksak natijalar ko'rsatib, hammani hayratda qoldirgan Farida Hasanova katta shuhrat qozondi.

1937-yildan boshlab O'zbekiston sportchilar Butun ittifoq fizkultura paradlarida qatnashadigan bo'ldilar. Xuddi shunday 1938, 1939, 1940-yillardagi Butun ittifoq paradi serquyosh O'zbekiston vakillari gullab turgan bog' fonida mashq qildilar. Ular murakkab gimnastika mashqlarini namoyish qildilar - qizlar bu mashqlarni zangori lentalar va cho'qmorlar bilan, yigitlar esa eshkak-miltiqlar bilan **ijro** etdilar. Fizkulturachilarning mashqi "Lazgi" va quvnoq mart qo'shig'i bilan tugallandi.

1937-yilda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va respublikaning boshqa shaharlarida xalq maorif bo'limlariga qarashli bolalar sport maktablarining ochilishi ham O'zbekistonda talantli yosh sportchilar tayyorlashga qaratilgan e'tiborini ko'rishlari mumkin. 1932-yilda fizkultura ishlariga 36.6 ming so'm sarflangan bo'lsa, 1940-yilda 439 ming so'm sarflandi. Bu O'zbekiston KPning 1940-yilda bo'lib, o'tgan IX-s'yezdi qaroriga amal qilish natijalaridir.

### **ULUG' VATAN URUSHI YILLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT (1941- 45 YILLAR)**

Fashistlar Germaniyasining sobiq Ittifoqqa to'satdan hujumi Vatanimiz xalqlarining tinch bunyodkorlik mehnatini vaqtincha cheklab qo'ydi. Gitlerga, bosqinchilarga qarshi ozodlik urushi davri boshlandi. O'zbek xalqi Sovet Ittifoqidagi barcha xalqlar bilan birga Vatan ozodligi, shon-sharafi va mustaqqilligi uchun urushga qo'shildi. Ulug' Vatan urushi yillarida butun dunyodagi kabi O'zbekiston ham fizkultura tashkilotlari aholi o'rtasida yoppasiga harbiy jismoniy tayyorgarlik ishlariga jalb etildi.

Urushning og'ir yillarida respublika fizkultura tashkilotlari o'z ishlarini urush vaqti talabalariga muvofiqlashtirib qayta kirdi.

Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekistondagi fizkultura tashkilotlarining butun faoliyati Vatanni himoya qilish manfaatlariga



bo'ysindirildi va partiyaning "Hamma narsa front uchun, hamma narsa dushman ustidan g'alaba uchun" degan shiori ostida olib borildi.

1941-yil oktabrda umumiy harbiy ta'lim joriy qilinib, respublika territoriyasida minglab harbiy ta'lim punktlari tashkil etildi. Bu punktlarda fizkultura tashkilotlari harbiy komissarliklar bilan birgalikda Qizil Armiya zaxiralariga ta'lim berdi. Birgina Toshkent dinamochilarining kuchi bilan 54 ta harbiylashtirgan guruh tuzilib, bu guruhlarda ikki mingga yaqin kishi qo'l jangi qilish, granata uloqtirish, spaykerlar va to'siqlardan oshib o'tishni o'rgandi. Sambo trenerlarimiz va boshqalar yoshlarga kechayukunduz sambo kurashi usullarini o'rgatishdi, "Lokomativ", "Spartak", "Dinamo" ko'ngilli sport jamiyatlarida maxsus fizkulturachilar batalonlari tashkil qilindi. "Spartak" jamiyatining respublikamiz barcha viloyatlaridagi o'quv bo'limlarida shiddatli sur'at bilan samokatchilar, granata uloqtiruvchilar, spaykerlar, chavandozlar tayyorlandi. Bir yil ichida bo'linmalar 500 ta birinchi va ikkinchi bosqich GTO nishondorlarini, 1000 ta merganlarni va yuzlab mator haydovchilarni tayyorlab berdi.

Granata uloqtirish, o'q otish, qilichbozlik va nayza sanchish bo'yicha o'tkazilgan respublika musobaqalarida uch ming sportchi qatnashdi. Namangan shahrining o'zida granta uloqtirish musobaqalariga 1148 tasi qatnashdi.

O'zbekiston sportchilarining jismoniy tayyorgarligi va mashq qilib chiniqqanligi harbiy ishni tez o'zlashtirishlariga yordam berdi. Ular qisqa muddat ichida qo'l jangining ustalari, razvedkachilar, tanklar va tez uchar samolyotlarning mohir boshqaruvchilari bo'lib oldilar. Bularning hammasi Sovet vatanparvarining yuksak ma'naviy iroda fazilatlarini bilan qo'shib, g'oyat murakkab jang vaziyatlarida qo'mononlik topshiriqlarini bajarishlariga yordam berdi.

Volxov frontida 1943-yili dushman dzotini o'z ko'kragi bilan to'sib, jangchilarimizga yo'l ochib bergan To'ychi Eryigitov, nemis tankining tagiga bir necha boylam granata bilan o'zini tashlagan, Komiljon Po'latov kabi xalq polvonlarini eslash kifoya.

Respublikamizda 1942-yil iyunda GTO kompleksining bir qismi normal harbiy-amaliy turdagi normalar bilan almashtirilishi munosabati bilan fizkultura tashkilotlarining nishonkorlar tayyorlash sohasidagi ishlarining ahamiyati yanada oshdi, qilichbozlik, o'q otish, motosikl, aviatsiya va parashyut sporti turlariga ko'proq e'tibor berila boshladi. Respublikadagi o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya kafedralari studentlar, o'qituvchilar va oliy o'quv yurtlari xodimlarini harbiy ishga tayyorlashni

yo'lga qo'ydi. O'rta Osiyo davlat universiteti, pedagogika instituti, Toshkent qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti, Qishloq xo'jalik instituti, Temir yo'l transporti injenerlari instituti va respublikadagi boshqa oliy o'quv yurtlarida minglab MPVO, parashyutchilar, sanitarlar, drujikalar va otryadlar tashkil etildi.

Shunday bo'lsa ham, urush yillari qiyinchiliklariga qaramay, fizkultura jamoalari tinmay ko'paya bordi. Masalan, 1941-yilda 1529 ta jamoa bo'lsa, 1944- yilda ular 2077 taga yetdi. Fizkulturachilar safida 1941-yilda 105172 kishi bo'lsa, 1944-yilda 160058 kishiga yetdi.

1942-yildan boshlab o'rta maktab yuqori sinflarida harbiy jismoniy tayyorgarlik fanining kiritilishining mamlakat mudofaasini mustahkamlashdagi ahamiyati juda katta bo'ldi. Natijada maktablarda harbiy-fizkultura ishlari ancha kuchaydi. O'sha kezlarda O'zbekiston shahar va tumanlarida harbiylashtirilgan ommaviy poxod va krosslarni sportning harbiy – amaliy turlaridan yuqori sinf o'quvchilari musobaqalarini tez-tez ko'rib turish mumkin edi.

Vatan mudofaasi uchun kurashda respublikamiz basketbolchilari ham faol qatnashdilar.

Bu yillar A.Kirillov, R.Yampolnskiy, V.Mironov, E.Podsar, V.Tamofeev, T.Agishev M.Levin, O.Shutova, A.Ritikova, M.Malinina, V.Stolbova, T.Ageeva, Z.Straxov va Doroxovlar respublikaning eng kuchli basketbolchilari bo'lib hisoblanardilar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy O.T.Shutovanning shogirdlari Yu.O'shanov va T.Yakushka Sovet Ittifoqi terma jamoasining a'zolari edilar. Bu yillarda stadionlarda, suv havzalarida va sport zallarida kuchli, chidamli, epchil, tezkor jangchilar-sportchi tayyorlandi. Shu bilan birga sanoat qishloq xo'jaligida ham ish unumli oshdi va hamma narsa dushman ustidan g'alaba qozonishga qaratildi. Lekin basketbol seksiyalari bir necha (Toshkent, Samarqand va boshqa) viloyatlardagina ishlab turdi. 1944-yilda respublikada atigi 91 ta basketbol maydonchasi mavjud bo'lib, 2104 kishi basketbol bilan shug'ullanardi. Sportchilar ustidan olib boriladigan nazorat birgina Respublika sport komitetining do'xtiri tomonidan amalga oshirilardi.

Respublikada basketbolni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, respublikamizning sanoat korxonalarida, o'quv yurtlarida kolxozlarda mahalliy yoshlardan iborat basketbolchilar jamoalarini tuzishga katta ahamiyat berildi. Bu esa tezda o'z samarasini ko'rsatdi.

Mahalliy millat erkaklar jamoalari o'rtasidagi respublika chempionati 1945 yili Andijonda bo'lib o'tdi. Musobaqalarda 4 ta jamoa qatnashib, birinchi o'rinni Samarqand, ikkinchi o'rinni Namangan, uchinchi o'rinni Andijon, to'rtinchi o'rinni Toshkent shaharlarining jamoalari egalladilar. Og'ir urush yillarida jumhuriyat spartakiadalari, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari spartakiadalari muntazam ravishda o'tkazilib turildi. Masalan, Olmaotada o'tgan 1943-yilgi spartakiadaga Qozog'iston Sportchilari g'olib chiqdilar, 1944-yili Toshkent va 1945-yili Frunze shahrida o'tkazilgan spartakiadalarda esa O'zbekiston sportchilari g'olib bo'lishdilar.

1945-yilda Namangan shahrida urushdan keyingi milliy kurashdan ilk O'zbekiston birinchiligi bo'lib o'tdi. Bu musobaqada ko'pchilik polvonlar qatnashmagan bo'lsa ham, u kelajakdagi jumhuriyat birinchiliklarining o'tishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1934-yildan boshlab to hozirgi vaqtgacha O'rta Osiyo va Qozog'iston polvonlari o'rtasida an'anaviy milliy kurash turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilmoqda. Ularda g'olib chiqqan polvonlarga (jumhuriyatiga qarab) respublika sport ustasi unvoni beriladi.

Urush yillarida O'zbekistondagi maktablar va o'quv yurtlarida ko'pchilik jismoniy tarbiyadan xabarsiz kishilar ishlar yoki maktablar mutlaqo o'qituvchisiz qolar edi. shunga qaramay, 1943-yilga kelib sport ancha jonlandi. O'zbekistonning bir qator shaharlarida sportning ko'pgina turlaridan maktab o'quvchilari, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining studentlari o'rtasida musobaqalar o'tkazila boshlandi.

Shuningdek, ko'ngilli sport jamiyatlarining maktablar ustidan otaliq qila boshlashi yoshlar o'rtasida sport ishlarini yaxshilashda katta rol o'ynadi. Ko'ngilli sport jamiyatlari o'z otalig'idagi boshchilik qilishni o'zlaridagi eng yaxshi murabbiylarga topshirdi.

Ulug' Vatan urush yillarida o'quvchilar va studentlar o'rtasida olib borilgan harbiy-jismoniy tayyorgarlik va ommaviy sport ishlari Qizil Armiya uchun jangchilar tayyorlab berishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Respublikadagi o'quv yurtlarini tamomlagan yoshlarning ko'pchiligining harbiy tayyorgarliklari, jismoniy chiniqqanliklari yaxshi bo'lgani uchun frontda nemis bosqinchilariga qarshi mardona jang qildilar.

1945-yil – Ulug' Vatan urush tugagan va mamlakatimiz tinch qurilishga o'ta boshlagan yil musobaqalar va ularda qatnashgan sportchilarning ko'pchiligi jihatdan 1940-yildan qolishmaydi. 1945-yil mobaynida O'zbekiston sportchilari boks, kurash, tosh ko'ratish,

voleybol, yengil atletika va gimnastikadan mamlakat birinchiliklarida qatnashdilar.

Shuningdek, O‘zbekiston fizkulturachilari Ulug‘ Vatan urushi frontida vatanparvarlik, qahramonlik va jasurlik namunalarini ko‘rsatdilar. Ularning ko‘plari Sovet ittifoqining orden va medallari bilan mukofotlandi, alohida xizmat ko‘rsatganlari esa Sovet Ittifoqi Qahramonlari bo‘ldilar.

Shu davrda O‘zbekistondagi fizkultura tashkilotlarining asosiy ish uslublaridan biri sportda harbiy jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazishdan iborat edi.

Xulosa qilib aytganda, 1943, 1944, 1945-yillarda o‘tkazilgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston qardosh respublikalarining spartakiadalari urush yillarida uyushtirilgan eng yirik tadbirlar edi.

## **URUSHDAN KEYINGI YILLARDA** **JISMONIY TARBIYA VA SPORT**

Ulug‘ Vatan urushi tugagandan so‘ng sovet xalqi singari O‘zbekiston aholisi ham bor kuchini xo‘jalikni tiklashga yo‘naltirdi. Qisqa vaqt ichida iqtisodiy, madaniy yutuqlarga erishish, shu jumladan, jismoniy madaniyat va sport sohasida yangi-yangi muvaffaqiyatlar qozonish uchun sharoit vujudga keldi.

1945-yilda SSR Ministrlar Soveti “Jismoniy tarbiya va sport Komitetlarining ishini yaxshilashda ularga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi.

O‘zbekiston Kompartiyasi markaziy komiteti, respublika Ministrlar Soveti va O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti respublikada fizkultura harakatini yuksaltirish masalalari yuzasidan bir qator muhim qarorlarni qabul qildilar. O‘zbekiston komsomol va fizkultura tashkilotlari ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga taalluqli masalalarni ko‘proq birgalikda hal qila boshladilar.

O‘zbekiston fizkultura tashkilotlari urushdan keyingi dastlabki yillaridayoq katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Jismoniy madaniyat va sport ishlariga ko‘plab mablag‘ ajratila boshlandi. Masalan, 1948-yilda fizkultura tashkilotlarining byudjeti urushdan avvalgi yildagiga nisbatan 25% ga oshdi.

1948-yil 27-dekabrda VKG (b)MK “Partiya va hukmatning mamlakatda ommaviy fizkultura harakatini rivojlantirish va sportchilar mahoratini oshirish to‘g‘risidagi derektiv ko‘rsatmalarning fizkultura, sport qo‘mitasi tomonidan bajarilishi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bu

qaror sovet fizkultura harakatining jangovor dasturi bo'lib qoldi. Bu qaror e'lon qilingandan keyin O'zbekistonda milliy kurash bo'yicha musobaqalarda 77 nafar polvon qatnashdi va shu yili kurash kolxozlararo respublika spartakiadasining dasturiga kiritildi. Hamda jismoniy tarbiya va sportning roli juda katta ekanini yana bir karra qayd qilindi va uning yanada rivojlantirish tadbirlarini belgilab aniq berildi.

1946-yilda Andijon mahalliy erkaklari jamoalari o'rtasida ikkinchi respublika chempionati o'tkazildi. Bu musobaqalarda respublikamizning 8 ta viloyatidan 50 kishi qatnashdi. Musobaqalar juda qiyin sharoitda zalning kattaligi 20X10, 4 m bo'lib, yorug'lik manbalari o'rnatilmagan ahvolda o'tkazilgan edi. Qizig'i shundaki, musobaqa uchun Andijon shahrida faqat bitta basketbol to'pi topilgan edi.

Bu musobaqalarda U.Bektemirov U.Umarov, A.Shermuhammedov, A.Minovaxo'jayev, T.Isaxo'jayev, X.Sultonov va K.Musaxo'jayevlardan tashkil topgan Toshkent shahar jamoasi birinchi o'rinni egalladi.

1946-yilda o'zbek basketbolchilari sobiq SSR birinchiligining II-guruhida qatnashib, ayollar 6 chi, erkaklar 2-si o'rinni egalladilar.

Biroq basketbol ham maktab o'quvchilari va talabalari orasida keng ommalashmagan edi. Masalan, Toshkent shahrining talabalaridan faqat 556 kishi, maktab o'quvchilaridan 962 nafari basketbol mashg'ulotlariga qatnashardi.

So'nggi yillarda basketbol bo'yicha musobaqalar soni oshib bordi. Xalq jismoniy tarbiyasi bilan ommaviy ravishda shug'ullanishga jalb qilinib, sport-texnika natijalarini yuksaltirish ishlari ostida katta ishlar olib borildi. Biroq Sobiq Ittifoq musobaqalarida qatnashish natijalari hali talabga javob bermasdi.

1947-yilda erkaklar jamaolari o'rtasida uchinchi respublika chempionati o'tkazildi. Bu musobaqalarda yettita jamoa qatnashib, U.Orifxonov, M.Toirxo'jayev, U.Mirzahmedov, Ch.Botishev, R.Sodiqov, B.G'ofurov, R.Odilov, A.Shermuhammedovlardan tashkil topgan Toshkent shahri jamaosi birinchi o'rinni, Samarqand shahri jamaosi ikkinchi va Toshkent viloyati jamaosi uchinchi o'rinni egalladi. Xullas, 1946-1960-yillar respublika basketbol o'yining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi.

O'zbekiston Kompartiyasining 1949-yil martda bo'lib o'tgan X s'yezdi qarorida bunday deyiladi: "Yoshlarni jismoniy tarbiyalash ishini yanada rivojlantirishga katta e'tibor berish kerak. Partiya, sovet kasaba uyushmasi va komsomol tashkilotlari ularning fizkultura tashkilotlari ishini yaxshilashlari, ularni moddiy-texnika bazasini mustahkamlashlari,

keng ommani fizkultura harakatiga jalb qilishlari lozim". 1955-1956-yillarda SSR xalqlari birinchi spartakiadasiga tayyorgarlik munosabati bilan jismoniy madaniyat taraqqiyotiga, ayniqsa, e'tibor berildi. O'zbekiston KMP va Ministrlar Sovetining qarori bilan respublika spartakiadasini o'tkazish va SSR xalqlari birinchi spartakiadasiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tashkiliy komitet tasdiqlandi, fizkultura ommaviylikini rivojlantirish va O'zbekiston sportchilarining mahoratini oshirish tadbirlari belgilab berildi.

O'zbekiston Kompartiyasi XIII s'yezdi ham (1956-yil yanvar) yana shu vazifaga e'tibor berdi. "Mehnatkashlarni jismoniy tarbiyalash ancha yaxshilansin, 1956-yilgi SSR xalqlari spartakiadasiga respublika sportchilarining yuksak darajada tayyorgarlik ko'rish ta'minlansin", deb ko'rsatilgan edi s'yezd qarorida.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti birgina 1953-yilning o'zida ikki marta (30 martda va 31 avgustda) jismoniy tarbiya va sport ishlarini yaxshilashga qaratilgan qarorni qabul qildi. Bu qarorlarda kadrlarni qayta tayyorlash, sport asbob-anjomlarini ishlab chiqarish, sport inshootlari qurish va ularni jihozlash kabi qator masalalar aniqlashtirib berilgan edi.

"O'zbekiston fizkulturachisi" va "Fizkulturnik O'zbekiston" gazetalari uzoq tanaffusdan keyin 1953-yildan boshlab yana chiqa boshladi. 1954-yilda mamlakatda eng yirik "Paxtakor" stadionini qurishga kirishildi va 1956-yili SSR xalqlari birinchi spartakiadasi ochilishi arafasida foydalanishga topshirildi.

1945-yilda respublika spartakiadlarini o'tkazish an'anasi yana tiklandi, 1948-yildan boshlab bu spartakiadalar muntazam o'tkaziladigan bo'lib qoldi. O'rta Osiyo, O'zbekistan va Qozog'iston xalqlari sportchilari mahorati qay darajada bo'lganini quyidagi jadvaldan yaqqol ko'rish mumkin.



Ko‘rinib turibdiki, 1934-yildan 1957-yilga qadar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari spartakiadalari (1943-va 1950-yillarda) birinchilikni Qozog‘iston jamoasiga berib qo‘yganlar.

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston sportchilari juda katta shaxsiy yutuqlarga ham erishdilar, masalan, stendli otishdan, balandlikka sakrashdan o‘smirlar o‘rtasida 1946-yilda Mamlakat chempioni bo‘ldilar. 1947-yilda og‘ir atletikadan, L.Kashaev chempion bo‘ldi.

Okrug Ofitserlar futbol komandasi 1947-yilda SSSR birinchiligi “B” guruhi O‘zbekiston nomidan qatnashib birinchi bo‘lib respublikamizga bronza medalni olib keldi. 1948-yilda esa SSR Qurolli Kuchlari chempioni bo‘ldi.

O‘zbekiston yengil atletikachilari ham katta natijalarga erishdilar. Masalan, 1949-yilgi SSSR birinchiligida respublika yengil atletikachilar komandasi 9 - o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston sportchilari 1944-yilda respublikaning 25 yillik yubileyini yaxshi natijalar bilan nishonladilar. Ular O‘zbekiston rekordlari jadvaliga 209 ta tuzatish kiritdilar.

1946-yilda Toshkentda, keyinchalik respublikaning barcha shaharlarida ham yoshlar sport maktablari ochilishi bilan respublikada gimnastika tag‘in kuchliroq rivojlana boshladi.

O‘sha yili O‘zbekiston birinchiligi ham o‘tkazildi. Unda ikki avlod gimnastikachilari qatnashib, yoshlar g‘alaba qozondi. Toshkentlik gimnastikachilardan A.Berezin bilan K.Bogdonova (Kokonova) respublika chempionlari bo‘lishdi. Respublikaning yosh gimnastikachilaridan tuzilgan terma jamoa SSSR birinchiligida qatnashdi. Toshkentlik maktab o‘quvchisi G.Kasharina (Shamray) halqada mashq bajarishda 17-18 yashar qizlar o‘rtasida SSSR chempioni nomini oldi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston gimnastika sportining eng ommaviy turi bo‘lib qoldi. Yangidan-yangi qobilyatli yoshlar qatori keksa avlodning mahorati ham o‘sa bordi. Mahalliy yoshlar orasidan razryadli gimnastikachi K.Jo‘rayev Sovet Ittifoqining eng kuchli gimnastikachilari tarkibida Pragada o‘tkazilgan XI umumsokolsk slyotida qatnashdi.

1947-yilda O‘zbekiston gimnastikachilari jamoasi mamlakat birinchiligida qatnashib, komanda hisobida 6-o‘rinni egalladi.

1948-yilda O‘zbekiston gimnastikachilari O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari spotakiadasida qatnashib, o‘z guruhlarida 1-o‘rin egalladilar.

1949-yilda mamlakat birinchiligida 10-o‘rinni qo‘lga kiritdilar.

1950-yilda Galina Shamray katta muvaffaqiyat qozondi. U 17-18 yoshlar o‘rtasida Qozon shahrida o‘tkazilgan SSSR birinchiligida



qatnashib, qizlar guruhida SSSRning mutloq chempioni nomini oldi. XV Olimpiada o'yinlarida ham qatnashib, oltin medal olib Olimpia o'yinlari chempioni bo'ldi.

1950-va 1952-yilda O'zbekiston gimnastikachilar Olmaota va Ashxobod shahrida o'tkazilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasi dasturida muvaffaqiyatli qatnashib, birinchi o'rinni oldilar.

1953-yilda O'zbekiston yosh gimnastikachilar mahorati tez yuksala boshlagani bilan harakterli bo'ldi. T.Karimov, I.Krichmar, P.Ponkratev, S.Chukseeva va boshqa qobiliyatli yoshlar taniqli sportchilar safidan o'rin oldi.

O'zbekiston gimnastikachilarining mahorati tinmay yuksala bordi. Ammo respublikada gimnastika taraqqiyoti ommaviy tusga kirmadi. Ko'pgina sport jamiyatlari gimnastika sohasida jamiki ishlarni va butun e'tiborini asosan, bir guruh yettinchi gimnastikachilarga qaratib, fizkultura jamoalarida, korxonada va muassasalarda gimnastikani rivojlantirish ishlariga yaxshi rahbarlik qilmadilar.

1954-1955-yillarda mashg'ulot metodlarini takomillashtirish asosida O'zbekiston gimnastikachilarining sport mahorati ancha yuksaldi. Ular ko'pgina musobaqalarda qatnashdilar. Mamlakatimizning eng kuchli sportchilari qatoridan o'rin olgan ko'pgina qobiliyatli yosh gimnastikachilar paydo bo'ldi. V.Xrimpach, A.Tarsova va boshqalar ana shular jumlasiga kiradi.

**BUTUN ITTIFOQ MIQYOSIDA O‘ZBEKISTON  
GIMNASTIKACHILARI TERMA JAMOASI EGALLAGAN  
O‘RINLAR JADVALI**

Yillar	1947	1948	1949	1950	1951	1952	1953	1954	1955	1956	1957	1959	1963	1967
Egallangan o‘rinlar	6	11	10	7	9	8	9	11	8	8	6	6	7	8

**SSSR XALQLARI SPARTAKIDALARIDA O‘ZBEKISTON  
GIMNASTIKACHILARI TERMA JAMOASINING EGALLAGAN  
O‘RINLARI**

Yillar	1956	1959	1963	1967	1971	1975	1979	1983	1987	1991
Egallangan o‘rinlari	8	6	7	8						

Toshkentlik gimnastikamiz Galina Sharmay Xelsinkida bo‘lib o‘tgan XV Olimpiada o‘yinlarida komanda hisobida birinchi o‘rinni egalladi, xizmat ko‘rsatgan sport ustasi Sergey Ponov XVI Olimpiada o‘yinlarida kumush medal olishga muvaffaq bo‘ldi. 1965-va 1968-yillarda esa sport gimnastikasidan SSSR mutloq chempioni degan sharaflı nomni olishga sazovor bo‘ldi. 1972-yili XX Olimpiada o‘yinlarida Evira Saodi jamoa hisobida chempionlikni qo‘lga kiritdi.

Urushdan keyingi yillarda respublikamiz yengil atletikachilari asta-sekin g‘alabalarni qo‘lga kiritish boshladilar. N.Sevryukova (Barisova) yadro turtishda, viteran F.Hasanova esa 400 m ga yugurishda yangi respublika rekordlarini o‘rnatdilar.

O‘zbekiston yengil atletikachilarining mahorati yildan yilga oshib bordi. Ular birgina 1947-yil O‘zbekiston birinchiligida 9 ta yangi rekord qo‘ydilar.

Respublikaning yosh yengil atletikachilari Butun ittifoq musobaqalarida ham muvaffaqiyatli qatnashib, yuksak ko‘rsatkichlarga erisha boshladilar.

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalarining 1950-yilgi spartakiadasida O‘zbekiston yengil atletikachilari komanda hisobida 1-o‘rinni egallab, katta muvaffaqiyat qozondi. Ayrim sportchilarimiz S.Popov va boshqalar yaxshi natijalarni ko‘rsatdilar .

1949-1950-yillarda O‘zbekiston yengil atletikachilari yangi mashg‘ulot metodlarini qo‘llab, katta muvaffaqiyatlarga erisha boshladilar. Shu yili Moskva shahrida o‘tkaziladigan SSSR birinchiligi musobaqalarida qatnashib respublikamiz jamoasi 9-o‘rinni egalladilar. V.Gerasimchuk uch xatlab sakrashda 3-o‘rinni, Yu.Finke balandlikka

sakrashda 3-o'rinni egalladilar. Yu.Sholomiskiy esa 100 mga yugurishda finalda qatnashib, respublika yangi rekordini o'rnatdi - 10, 7 sek va ular mamlakat terma jamoasi tarixiga kiritildi.

1953-yilda yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston birinchiligida qatnashgan yosh yengil atletikachilarimiz yaxshi natijalarga erishdilar. Ular respublikaning 9 ta rekordini yangiladilar. Shijoatli o'n olti yashar o'quvchi qiz V.Balod yugurib kelib balandlikka sakrashda 149 sm natija ko'rsatib, qizlar guruhida O'zbekistonning yangi rekordini o'rnatdi.

Shu yili yengil atletikachilarimiz Butun ittifoq musobaqalarida 11 - o'rinni qo'lga kiritdilar.

1953-yilda butun O'zbekiston spartakiadasining yengil atletika musobaqalariga barcha viloyatlarimizdan ko'p sportchilar qatnashdi, bunda respublikamiz sportchilari mahoratini oshirishda ko'proq muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsa-da, biroq ommaviylik yetishmas edi. Bu esa bo'lajak musobaqalarda o'z ta'sirini ko'rsatdi, chunki ko'plab yetakchi sportchilarning yoshi ulg'ayib qolganligi sababli ular o'rnini bosadigan qobiliyatli yoshlar kamaydi. Shuning uchun ham 1955-yilda o'tkazilgan Butun ittifoq musobaqalarida birinchi marta eng yomon natija ko'rsatib -14-o'rinni oldilar. Respublikamiz yengil atletikachilari 1956-yilda SSSR xalqlari I spartakiadasida 9-o'rinni, (V.Balod yugurib kelib balandlikka sakrashda spartakiada chempioni bo'ldi). II va III spartakiadalarda 12-o'rinni, IV-spartakiadada esa 11-o'rinni ishg'ol qildilar.

1950-yilda O'zbekiston "Paxtakor" qishloq ko'ngilli sport jamiyatining tashkil qilinishi jismoniy madaniyat va sportni qishloq mehnatkashlari turmushlariga singdirishda katta voqea bo'ldi. Kolxozchilar tashabbusi bilan qabul qilingan bu qaror barcha qishloq yoshlarining g'ayrat-shijoatini toshirib yubordi. "Paxtakor" sport jamiyatida 1951-yilda 100 mingdan ortiq fizkultura birlashtirgan 1969 ta fizkultura jamoasi bor edi.

1952-yil sentabrda bo'lib, o'tgan sobiq O'zbekiston Kompartiyasining XI s'yezdi qarorida quyidagilar yozilgan edi: "Jismoniy tarbiya va sportni yanada yuksaltirish ta'minlansin, sport jamiyatlariga yoshlar ko'proq jalb qilinsin, sport mahorati oshirilsin, fizkultura tashkilotlari, ayniqsa, yangi tashkil qilingan "Paxtakor" sport jamiyati kadrlar bilan to'la ta'minlansin". 1954-yil fevralida o'tkaziladigan O'zbekiston Kompartiyasining XII s'yezdining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi ko'rsatmalari yanada katta ahamiyat kasb etdi.

“Aholini jismoniy tarbiyalash sohasida, - deb yozilgandi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining hisobot dokladi rezomotsiyasida, - mehnatkashlarni, shuningdek, o‘quvchi - yoshlarni jismoniy tarbiya va sport ishiga kengroq jalb qilish vazifasi hal etilsin, sport tashkilotlarining moddiy bazasi mustahkamlansin, jismoniy tarbiya bo‘yicha kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kuchaytirilsin”.

Fizkultura harakatini yuksaltirish manfaatlari yosh avlodni jismoniy tarbiyalashning ilmiy va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish zaruriyati, O‘zbekiston sportchilarining mahoratini o‘sitirishni ta‘minlash yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasini kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ydi. Bu vazifani bitta fizkultura texnikumi imkoniyati bilan hal qilib bo‘lmas edi. 1951-yilda Samarqand jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurti ochildi. U hozir ham samarali ishlab turibdi. Ayni paytda, ayniqsa, oliy ma‘lumotli kadrlarga bo‘lgan talab yoki ehtiyoj qoniqarsiz ahvolda edi. 1949-yilda respublikada oliy fizkultura ma‘lumotiga ega bo‘lgan 96 ta mutaxassis bor edi, xolos. Respublika hukmatining maxsus qarori bilan 1949-yilda Toshkent davlat pedagogika institutida jismoniy tarbiya bo‘limi ochildi. U 1952-yilda mustaqil fakultetga aylantirildi, shuningdek, 1954-yilda Farg‘ona pedagogika institutida, 1956-yilda Nukus pedagogika institutida ham xuddi shunday fakultetlar ochildi. Hozirgi kunda Nukus davlat universitetining kadrlar tayyorlashdagi xizmati ham kattadir. Ayniqsa, 1955-yilda O‘zbekiston jismoniy tarbiya davlat institutining ochilishi muhim voqea bo‘ldi. Bu oliy o‘quv yurti jismoniy tarbiya va sport turlari bo‘yicha yuqori malakali kadr va trenerlar tayyorlashning “makoni” bo‘lib qoldi.

Xuddi shunday jismoniy tarbiya fakultetlari 1958-yili Andijon, keyinchalik Buxoro (1964), Qarshi (1966), Termiz (1966), Namangan (1966), Qo‘qon (1966), Samarqand (1967), Jizzax (1976), Sirdaryo (1979), Urganch (1990), Angren pedagogika institutlarida ham tashkil etildi.

O‘zbekistonda yildan yilga fizkultura jamoalari soni ortib, fizkultura harakati keng quloqch yoyardi. Sobiq SSSR xalqlarining Ispartakiadasiga tayyorgarlik ko‘rish respublikada fizkultura harakatining kengayishida zo‘r turtki bo‘ldi. O‘zbekiston jamoasi hisobiga kirgan 20 ta sport turi bo‘yicha qatnashdi. Sportchilar 3 ta oltin, 1 kumush, 2 ta bronza medalini oldilar, 24 ta sovrinli o‘rinni ishg‘ol etishdi. O‘zbekistonliklar terma komandasi SSSR xalqlarining Ispartakiadasida 11-o‘rinni egalladilar. 1956-yili faqat Ispartakiadani o‘tkazish yili bo‘lib qolmadi, balki, sovet sportchilari o‘sha yili ikkinchi marta Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etdilar.

Olimpiadaga tayyorgarlik asosan, O‘zbekistonda o‘tdi. Terma jamoadagi 286 sportchi orasida o‘zbekistonlik balandlikka sakrovchi Valentina Ballod Melburnda Vatanimiz sharafini himoya qildi.

1957-yilda O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘istonning to‘qqizinchi spartakiadasi o‘tkazildi. Unda o‘zbekistonlik sportchilar 1-o‘rinni egallashdi.

1963-yilda jismoniy tarbiya va sport harakatlariga davlat byudjetidan 1404, 4 ming so‘m ajratildi. Bundan tashqari, kolxozlar, sovxozlar, korxonalar va muassasalar tomonidan ham katta mablag‘ ajratildi. Ana shunday g‘amxo‘rlikdan ilhomlangan o‘zbekistonlik sportchilar yangi-yangi marralarni egalladilar. Quyidagi jadval ana shundan dalolat beradi.

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>I-II spartakiadasi orasida (1950-59- yillar)</b>	<b>III-IV-spartakiadasi orasida (1950-1963-yillar)</b>
1.	Barcha razryaddagi	117, 6 ming	349.0 ming
2.	sportchilar	2.7 ming	6.6 ming
3.	Shu jumladan, 1-razryad Sport ustalari	145 kishi	428 kishi

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport tobora ommalasha bordi. Masalan, SSSR xalqlarining III spartakiadasiga tayyorgarlikning hamma bosqichlarida 2532 ming kishi ishtirok etdi. O‘zbekiston bo‘yicha 1963-yilda 7236 fizkultura jamoasi bo‘lib, ularda 1235 596 fizkulturachi (shulardan 367 ming 85 kishi xotin-qizlar) uyushgan edi. Faqat 1963-yilning o‘zida 242 ming 349 kishi GTO nishondorlari, 128 ming 42 kishi razryad sportchisi bo‘lib yetishdi.

O‘zbekiston sportchilarining SSSR xalqlari spartakiadalarida egallagan o‘rinlari (1956-1991- yillar )

#### Spartakiadlar, yillar, o‘rinlar

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
1956	1959	1963	1967	1971	1975	1979	1983	1987	1991
11	13	11	10	11	9	7	9	11	10

## **SSSR XALQLARINING I SPARTAKIADASI**

SSSR xalqlarining I Spartakiadasining final musobaqalari 1956-yil 5 – 16 – avgustda Moskva shahrida o'tkazildi. Final musobaqalarida 9244 nafar sportchi barcha qardosh respublikalardan – 40 ta milliy vakillari qatnashdilar. Musobaqalarda 1322 nafar hakam qatnashib, hakamlik vazifasini bajardilar.

Spartakiada dasturiga 21 ta sport turi kiritilgan edi. Umumkomanda birinchiligi esa sportning 20 turidan o'tkazildi.

O'zbekiston SSR sportchilari 3 – 1 o'rin, 1 ta – 2 o'rin, 2 ta – 3 o'rin, 4 ta – 5 o'rin, 6 ta – 6 o'rin va 24 ta (1 – 6 o'rin olgan) mukofotli o'rinlarni egalladilar.

SSSR xalqlarining I spartakiadasi chempionlari A.Beliskiy (ot sporti), V.Balod (yengil atletika), M.Akulov (o'q otish).

II – o'rin V.Ryazansov (51 kg, boks). III – o'rin Yu.Zelenin (klassik kurash), V.Palaskiy, N.Basirov, R.Galeev (velosport).

Musobaqa davomida 32 ta Butun ittifoq rekordi o'rnatildi, shundan 9 tasi jahon rekordidan baland, 355 ta qardosh respublika rekordlarini yangiladilar, 17 tasi O'zbekiston rekordi.

Spartakiada davomida 210 kishi birinchi marta SSSR sport ustasi normasini – shundan 9 kishi O'zbekiston vakillari, pistoletda - 2 kishi, yengil atletika – 1 kishi, velosport – 3 kishi, ot sporti – 2 kishi, boks – 1 kishi bajardilar.

## **SSSR XALQLARINING II SPARTAKIADASI**

SSSR xalqlarining II Spartakiadasi final musobaqalari 1959- yil 8-avgustdan 16-avgustgacha sportning 22 turi bo'yicha Moskva shahrida o'tkazildi. Final musobaqada 8452 sportchi katnashdi. Barcha qardosh respublikasidan 43 millat vakillari qatnashdilar.

Qardosh respublika Moskva va Leningrad terma jamoalaridan tashqari SSSR xalqlari II – sport turi (velosport - basketbolchilar, sport gimnastikasi, yengil atletika, suzish va og'ir atletika) bo'yicha tashkilot va ishlab chiqarish korxonalarini jismoniy madaniyat jamoalari – har bir sport turidan bittadan komanda qatnashishi mumkin. Jismoniy madaniyat komandalari sportchilarining qatnashishlari (1 – razrad kam bo'lmasa) respublika terma komandasining ko'rsatgan natijasiga parallel qo'shib olib boriladi.

SSSR xalqlarining II Spartakiadasi final musobaqalari davrida 300 dan oshiq qardosh respublikalarning rekorlari oʻrnatildi, shundan 12 tasida SSSR rekordi takrorlandi, 1 ta Yevropa, 3 ta jahon rekordidan oshirildi.

Musobaqa davomida 524 nafar qatnashchi sport ustasi natijasini koʻrsatdilar, shundan 75 kishi birinchi marta sport ustasi normasini bajardilar.

Musobaqada 1382 ta hakam hakamlilik qildi.

Oʻzbekiston sportchilari 29 ta mukofotli oʻrinlarni egalladilar, shundan 1-oʻrin – 2ta, 2-oʻrin – 5ta, 3-oʻrin – 3ta, 4-oʻrin – 6ta, 5-oʻrin – 6ta, 6-oʻrinni – 7ta.

Umum komanda birinchiligida oʻrinlar quyidagicha taqsimlandi.

- |                      |                      |
|----------------------|----------------------|
| 1. RSFSR (Moskva)    | 10. Armaniston SSR   |
| 2. RSFSR             | 11. Qozogʻiston SSR  |
| 3. RSFSR (Leningrad) | 12. Litva SSR        |
| 4. Ukraina SSR       | 13. Oʻzbekiston SSR  |
| 5. Gruziya SSR       | 14. Tojikiston SSR   |
| 6. Belorussiya SSR   | 15. Moldaviya SSR    |
| 7. Estoniya SSR      | 16. Qirgʻiziston SSR |
| 8. Latviya SSR       | 17. Turkmaniston SSR |
| 9. Ozarboyjon SSR    |                      |

1 – oʻrin: 1. I.Braginskiy (sport – gimnastikasi, I - razrad)

2. R.Ablaev (67 kg, klassik kurash)

3. G.Krsochenko (moto sport)

2 – oʻrin: 1. Yu. Zelenin (73 kg, klassik kurash)

2. O.Ryaxovekiy (e/at uch xatlab sakrash)

3. Vay M. (67 kg, boks)

4. Yu.Rascheskin (ogir atletika)

5. V.Smirnov (moto sport)

3 – oʻrin: 1. I.Abdullayev (52 kg, erkin kurash)

2. V.Balod (e/at balandlikka sakrash)

3. M.Ranʻev (moto sport)

## SSSR XALQLARINING III SPARTAKIADASI

SSSR xalqlarining III Spartakiadasi final musobaqalari 22 tur bo'yicha 1963- yil 8-avgustdan 17-avgustgacha Moskva shahrida o'tkazildi.

III Spartakiada final musobaqalari XVIII Olimpiada o'yinlari oldidan sportchilarning tayyogarliligini sinab ko'rish bo'ldi.

III Spartakiada musobaqalarida O'zbekiston sportchilaridan 6 kishi S.Babanina, R.Tavlova, R.Manina, N.Ustinova (4 x 10 ta fetani erkin usulda suzish), A.Valechenko (o'q otish), A.Martino (sport gimnastikasi I-razyad bo'yicha) – chempion unvonini oldilar. 6 kishi II o'rinni – Ye.Sheretnev (boks), R.Imangulov (klassik kurash), M.Ismoilov (ot sporti), N.Ustinova (suzish), M.Akulov va S.Ribchenko (o'q otish) egalladilar. 8 kishi III o'rinni T.Gulomov, I.Budman, A.Baronov (hammasi boks), M va A.Kommoshev (velosport, trek), V.Lebedinskaya (yengil atletika), N.Ustinova, S.Babanina (suzish), A.Xuturida (og'ir atletika) oldilar.

III Spartakiadaning final musobaqalarida hammasi bo'lib, 10354 sportchi qatnashdilar, shundan Volgograd shahridan 2836 kishi, shundan 41tasi sport ustasi, Moskva shahridan 7518 kishi qatnashdilar, shulardan 153 xizmat ko'rsatgan sport ustalari, 3567 tasi sport ustasidir.

Volgograd shahrida o'tkazilgan o'quvchilar spartakiadasida 5 ta butun ittifoq rekordi o'rnatildi, 27 ta yosh sportchilar birinchi marta sport ustasi normasini bajardilar.

Moskva shahrida o'tkazilgan Spartakiadaning final musobaqalarida 392 ta rekord o'rnatildi: shundan 6 ta jahon, 7 ta Yevropa, 33 ta Butun ittifoq rekordlari o'rnatildi. Bundan tashqari, spartakiadaning final musobaqalarida 127 ta rekord o'rnatildi, 122ta sportchi birinchi marta sport ustasi normativini bajardilar.

Umum komanda hisobida quyidagi o'rinlarni egalladilar:

- |   |                      |
|---|----------------------|
| 1. RSFSR (Moskva)                             | 10. Latviya SSR      |
| 2. Ukraina SSR                                | 11. O'zbekiston SSR  |
| 3. RSFSR (viloyat, o'lka, ASSR terma jamoasi) | 12. Qozog'iston SSR  |
| 4. RSFSR (Leningrad)                          | 13. Armaniston SSR   |
| 5. Gruziya SSR                                | 14. Moldaviya SSR    |
| 6. Belorussiya SSR                            | 15. Qirg'iziston SSR |
| 7. Litva SSR                                  | 16. Tojikiston SSR   |
| 8. Estoniya SSR                               | 17. Turkmaniston SSR |
| 9. Ozarboyjon SSR                             |                      |



O'zbekiston III Spartakiadada jami 20 medalni qo'lga kiritdi, shundan 6 ta oltin, 6 ta kumush, 8 ta bronza medal Sportchilarimiz. 2 ta butun ittifok, 25 ta respublika rekordini o'rnatdilar. 5 ta sportchi birinchi marta sport ustasi normasini bajardilar.

## **SSSR XALQLARINING IV SPARTAKIADASI**

SSSR xalqlari IV yubiley Spartakiadasi (1967-yili) tadbirlar majmuasi bo'lgan edi. O'quvchilar terma komandalari o'rtasida sportning 19 ta turi bo'yicha final musobaqalari, shuningdek, qardosh respublikalar terma komandalari o'rtasida sportning 23 turi bo'yicha musobaqalar Moskva va Leningrad shaharlarida o'tkazildi; qardosh respublika komandalarining terma komandalari orasida sportni 16 ta texnik turi bo'yicha Moskva, Leningrad, Kiyev, Orel, Gorkiy, Vladimir, Nalchik, Alushta, Kirovograd, Toshkent va Minsk shaharlarida ham o'tkazildi.

IV Spartakiadani yubiley final musobaqalarida 16354 sportchi qatnashdi: kattalar o'rtasida o'tkazilgan spartakiadada – 8287 kishi, o'quvchilar spartakiadasida 5222 kishi, sportning texnik turlari bo'yicha o'tkazilgan spartakiadada – 2845 kishi ishtirok etdi.

O'quvchilar spartakiadasida 50 ta sportchi sport ustasi, 118 sportchi sport ustasiga nomzod, 141 sportchi 1 – razryad normalarini bajardilar. Kattalar o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda birinchi marta 87 ta sportchi xalqaro toifadagi sport ustasi, 149 sportchi sport ustasi va 147 sportchi sport ustaligiga nomzod natijalarini ko'rsatdilar.

IV Spartakiadada 2189 medal (594 ta oltin, 594 kumush va 1001 ta bronza), yoshlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqalar g'oliblariga 747 ta Jahon, 4 – 6 o'rinlar uchun 1782 ta medallar o'rinlar uchun o'ynaldi. Sport turlari bo'yicha musobaqalarga 3126 ta malakali hakamlar, hakamlik qildilar.

O'zbekiston sportchilari 22 ta medalni qo'lga kiritdilar, shundan 1 ta oltin va SSSR chempioni bo'ldi, 6 ta katta va kichik kumush medali, 6 ta katta va 1 kichik bronza medalini qo'lga kiritdilar, 3 ta Spartakiada rekordini, (1 ta suzish, 2 ta og'ir atletika bo'yicha), 45 ta respublika rekordini (25 ta suzish, 9 ta og'ir atletika, 4 ta o'q otish, 1 ta stendga otish va 6 ta yengil atletika bo'yicha) o'rnatdilar.

SSSR xalqlarining IV Spartakiadasida O'zbekiston sportchilari velosport, boks va suzish bo'yicha juda muvaffaqiyatli qatnashdilar.

100 kmgga trek bo'yicha velosportda guruh bo'ylab quvlashda Aleksey Chernoglazov, Borne Arhamov va Mixail Komashvlar 1-o'rin

va oltin medal bilan taqdirlandi. 60 kg vaznlilar o'rtasida og'ir atletikachi Erkin Karimov uch kurashda 370 kgni ko'tarib Spartakiada chempioni bo'ldi.

II o'rin V.Balaluyev, S.Medvedev, B.Arginov, A.Dulin, Yu.Pominov, V.Selinov (velosport), B.Niyazov (54 kg, boks), R.Kazakov (57 kg, klassik kurash), S.Konov, 2 marta S.Babanina (suzish) kumush medal bilan taqdirlandilar.

III o'rin Mixail Kolyushev (velosport), N.Xramov (57 kg, boks) lar oldi.

Sport gimnastikasi bo'yicha N.Maxorit erkaklar o'rtasida, ayollar o'rtasida Ye.Korobetinova sport ustasi nomzodligi bo'yicha 1-o'rinni oldilar. A.Akonyan 2 -o'rinni egalladi.

Umum komanda hisobida quyidagicha o'rinni egalladilar.

- |                                |                      |
|--------------------------------|----------------------|
| 1. RSFSR (Moskva)              | 10. O'zbekiston SSR  |
| 2. RSFSR (viloyat, o'lka ASSR) | 11. Ozarboyjon SSR   |
| 3. Ukraina SSR                 | 12. Estoniya SSR     |
| 4. RSFSR (Leningrad)           | 13. Armaniston SSR   |
| 5. Gruziya SSR                 | 14. Moldaviya SSR    |
| 6. Belorussiya SSR             | 15. Qirg'iziston SSR |
| 7. Qozog'iston SSR             | 16. Turkmaniston SSR |
| 8. Latviya SSR                 | 17. Tojikiston SSR   |
| 9. Litva SSR                   |                      |

## **SSSR XALQLARINING V SPARTAKIADASI**

SSSR xalqlarining V Spartakiadasining final musobaqalari 1971-yil 7 – 29- iyulda o'tkazildi, unda barcha qardosh respublikalardan va Moskva, Leningrad shaharlari terma komandalarida 7382 kishi qatnashdi. Moskva shahrida sportning 23 turidan, Rigada yelkanli kema, UFAda o'smirlar va qizlar orasida sport gimnastikasi bo'yicha, Voronejda o'smirlar va qizlar o'rtasida yengil atletika bo'yicha, Kievda qizlar va o'g'il bolalar, Lvov shahrida o'smirlar va o'g'il bolalar o'rtasida suzish bo'yicha final musobaqalari o'tkazildi.

Final musobaqalarida 20 ta Jahon, 35 ta SSSR, 242 ta ittifoq respublika, 105 ta ko'ngilli sport jamiyatlarini, 89 ta oldin o'tgan SSSR xalqlari spartakiada rekorlaridan oshik natijalarni ko'rsatdilar. 114 ta halqaro toifadagi sport ustasi normativlarini ko'rsatdilar, shundan 34 kishi birinchi marotaba bajardilar.

Spartakiadaning final musobaqalariga 1539 ta malakali hakamlar hakamlilik qildilar.

V Spartakiadaning final musobaqalarida O‘zbekiston sportchilari 1 ta O‘smirlar orasida SSSR, 1 ta Spartakiada, 16 ta Respublika ko‘ngilli sport jamiyatlarining rekordlarini o‘rnatdi. Birinchi marta ikkita sportchimiz Rufat Risqiyev (boks), Valintina Chulnova (yengil atletika), xalqaro toifadagi sport ustasi normativlarini bajardilar. O‘zbekiston sportchilar 2 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medallarini qo‘lga kiritdilar. Rufat Risqiyev (75 kg) va Nikolay Anfimovlar (81 kg, boks) Spartakiada chempionlari bo‘ldi. Rustam Kazakov 57 kg vaznda klassik kurash bo‘yicha kumush medalga sazovor bo‘ldi.

Nikolay Xromov (60 kg, boks), Erkin Karimov (og‘ir atletika) III o‘rinni oldilar.

O‘zbekiston bokschilari umum komanda hisobida IV o‘rinni oldilar.

Yosh sportchilarimizdan Vladimir Zdobnov 200 m ga yugurishda, bronza medalini, suzuvchi S.Garanin 1500 m va 400 m ga “Kross usulida”, A.Chekurnov 100 m ga bros usulida.

N. Xomiko 200 m ga kompleks suzishda birinchi, so‘ngra 400 m ga kompleks suzishda kumush medalini oldi. Yosh I.Abdulova 100 m ga orqada suzishda kumush, 200 m ga orqada suzishda bronza medalini oldi.

Umum komanda hisobida quyidagi o‘rinni egalladilar:

RSFSR (viloyat, o‘lka, ASSR terma jamoalari)

RSFSR (Moskva)

Ukraina SSR

Belorussiya SSR

RSFSR (Leningrad)

Gruziya SSR

Qozog‘iston SSR

Latviya SSR

Estoniya SSR

Litva SSR

O‘zbekiston SSR

Armaniston SSR

Ozarbayjon SSR

Moldaviya SSR

Qirg‘iziston SSR

Tojikiston SSR

Turkmaniston SSR

## SSSR XALQLARINING VI SPARTAKIADASI

SSSR xalqlarining VI yozgi Spartakiadasining final musobaqalari sportning 27 turi bo'yicha Sovet Ittifoqining 17 ta shahrida 19-martidan, 30-iyuligacha o'tkazildi. Final musobaqalarida 10709 kishi, shulardan 7094 nafar sportchilar, 1138 nafar trenerlar, 588 kishi rahbar va delegatsiya a'zolariga xizmat qiluvchilar, 1009 ta barcha qardosh respublikalardan yuqori malakali hakamlar qatnashdilar. VI Spartakiada oldingilaridan tubdan farq qiladiki, birinchi marta uning final musobaqalari nafaqat Moskvada balki qardosh respublikalarning markazlarida, Leningrad shaharlarida o'tkazildi. Spartakiadaning final musobaqalarida 6 ta jahon rekordi (shuning o'zi Yevropa rekordi), 21 ta SSSR rekordi, 105 ta SSSR xalqlar Spartakiadasi va 344 ta qardosh respublikalar rekordlari o'rnatildi. Birinchi marta Xalqaro klassdagi sport ustasini 80 kishi, SSSR sport ustasi normativini 186 kishi bajardi.

O'zbekiston SSR delegatsiyasi tarkibida 385 sportchi, 70 trener, 37 rahbar va delegatsiya a'zolari xizmat qiluvchilar bor edi.

Toshkent shahridagi Markaziy «Alpomish» sport zali eng kuchli charm qo'lqop ustalarini qabul qildi.

Xizmat ko'rsatgan sport ustasi Rufat Risqiev, V.Roshin (Gruziya) va V.Rednin (Latviya) ni 5:0 hisobida yengdi. So'ngra A.Klimanov (Ukraina) va V.Lemeshev (Moskva) larni bitta ochkoga yutib VI – Spartakiada chempioni bo'ldi. Kumush medalini F. Pak (Andijon), N.Anfemov (Samarqand), bronza medalini I.Mullayev, A.Kodir-Oxunov (Toshkent), V.Yudin (Fag'ona) lar oldi. O'zining vazn toifasi bo'yicha 5 o'rinni D.Grubov (Chirchiq), V.Alekseyev (Toshkent) egalladilar.

O'zbekiston terma charm qo'lqop ustalari jamoasi umum komanda hisobida 156 ochko to'plab, RSFSR komandasidan (168 ochko) keyin ikkinchi o'rinni egalladilar.

O'zbekiston 4 sportchi B.Okilov (sambo, Samarqand), S.Kurbonov (sambo, Buxoro), M.Ismoilov (ot sporti, Toshkent), V.Mustafoyev (akademik grebiya, Bekobod) Spartakiada chempionlari bo'ldi. 4 kishi kumush medali V.Dazorova (akademik grebiya, Bekobod), S.Ruziyev (qilichbozlik, Toshkent), E.Saadi (sport gimnastikasi, Toshkent), S.O'lmasova (yengil atletika, Andijonlar) oldi. 11 kishi M.Nogovisin, X.Zingiyev (erkin kurash, Namangan va Toshkent), V.Podolyanin (sambo, Andijon), N.Ioshenko (baydarnili grebiya va kanoe, Bekobod), V.Mustafoyev, G. Ivanov (yengil atletika, Chirchiq), A. Volkov (suzish,

Toshkent), V.Abramov, A.Savkin, A.Denushar, A.Yudin (velosport, shosse, Toshkent).

O'zbekiston sportchilari 5 ta oltin, 6 ta kumush, 14 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. O'zbekiston sportchilari velotren bo'yicha 2 ta, yengil atletikadan 2 ta, suzishdan 14 ta va og'ir atletikadan 5 ta respublika rekordini o'rnatdilar.

Birinchi marta SSSRning Xalqaro klassdagi sport ustasi normasini Akilov Bahrom (sambo), Ismoilov Mamidjon (ot sporti) va Artamonov Yuriy (suvchi sakrash)lar oldilar.

Umum komanda hisobida quyidagi o'rinni egalladi.

1. RSFSR (viloyat, o'lka, ASSR terma jamoalari)
2. RSFSR (Moskva)
3. Ukraina SSR
4. RSFSR (Leningrad)
5. Belorussiya SSR
6. Qozog'iston SSR
7. Gruziya SSR
8. Latviya SSR
9. O'zbekiston SSR
10. Litva SSR
11. Moldaviya SSR
12. Estoniya SSR
13. Ozarboyjon SSR
14. Armaniston SSR
15. Qirg'iziston SSR
16. Tojikiston SSR
17. Turkmaniston SSR

## **SSSR XALQLARINING VII – SPARTAKIADASI**

SSSR xalqlarining VII – Spartakiadasi sportning 30 turi bo'yicha final musobaqalari 1979-yil 5-iyuldan 5-avgustgacha Moskva, Kiyev, Minsk, Tallin, Leningrad shaharlarida o'tkazildi. Bu musobaqada 10281 kishi, shundan 8338 sportchi, 1280 trener, 663 rasmiylar va delegatsiya a'zolariga xizmat qiluvchilar qatnashdilar.

VII – Spartakiada qatnashchilarining orasida 248 nafar SSSRda xizmat ko'rsatgan sport ustasi, 30 nafar grossmeystrlar, 1215 Xalqaro klassdagi SSSR sport ustalari va 4700 dan oshiq SSSR sport ustalari qatnashdilar.

SSSR xalqlarining VII – yozgi Spartakiadasining o'ziga xos tomonlaridan biri chet ellik sportchilarning qatnashishi bilan ajralib turadi, bunda jahondagi 85 ta millatda 2306 nafar sportchi qatnashdi, shundan 12 ta sotsialistik davlatlardan 942 kishi, 22 ta Afrika davlatidan 287 nafar

qatnashdi. Yevropadagi 17 davlat, Osiyodan 14, Lotin Amerikasidan 11, Avstriya, Kanada, AQSh va Yaponiya sportchilari bellashuvga chiqdilar.

30 kun davom etgan final musobaqalarida 136 ta rekord oʻrnatildi, shundan 12 tasi jahon, 1 ta Yevropa, 18 ta SSSR, 105 ta SSSR xalqlari Spartakiadasi rekordlari oʻrnatildi.

Moskva, Leningrad va qardosh respublikaning sportchilari esa qardosh respublikalarning 257 ta rekordini oʻrnatdilar.

SSSR xalqlarining VII – yozgi Spartakiadasi ommaviy fizkultura harakatini muvaffaqiyatli oʻtganligini va 1980-yil Moskva shahrida boʻladigan XXII Olimpiada oʻyinlariga sovet sportchilarining qay darajada tayyor ekanligini namoyish etdilar.

Oʻzbekiston sport delegatsiyasi SSSR xalqlarining Spartakiadasini oʻtkazish tarixida birinchi marta umum komanda hisobida 7 ta oʻrinni oldi va SSSR sport qoʻmitasining «Progress» sovrini bilan taqdirlandi.

Shaharlar oʻrtasida 1 guruhda oʻtkazilgan musobaqalarda komanda hisobida 5- oʻrinni oldi va SSSR Ministrlar Soveti qoshidagi jismoniy tarbiya va sport qoʻmitasi Diplomi bilan taqdirlandi.

Respublika Oliy sport mahorati maktabi 2-oʻrinni oldi.

SSSR xalqlarining VII – yozgi Spartakiadasining final musobaqalarida, bir vaqtning oʻzida SSSR chempioni unvoni ham oʻynaldi. Oʻzbekiston sportchilari 51 ta medalni qoʻlga kiritdilar, shundan 19 tasi oltin, 7 tasi kumush, 25 tasi bronza medalidir.

Spartakiada davomida Oʻzbekiston SSRning 32 ta yangi rekordi oʻrnatildi, shundan bittasi butun ittifoq rekordidir, (buni komandadan oʻt otishda Nataleya Butuzova vomli masofada 656 ochko toʻpladi). Ogʻir atletikachilar – 3, velosipedchilar 1 marta rekordni yangilashga muvaffaq boʻldilar.

Oʻzbekiston sport delegatsiyasining yutugʻiga hissa qoʻshgan sportchilar bular klassik kurashda Komil Fatxulin, ot sportida Mamidjon Ismoilov, Valeriy Dvoryaninov, Nikolay Paranin, Yuriy Kovenov nomidan oʻq otishda Natalya Butuzova, Olga Rogova, bokschilardan Vladimir Shin, Ussi Omarov, erkin kurash boʻyicha Enver Abdurahmonov va Eduard Fatinov, dzyu dochilar Gaffor ostanayev, Anatoliy Selesnov, Vladimir Sabodirov, sambochilar Toxir Durdiyev, Soso Gognadze, velosipedchilar Aleksandr Panfilov (trek), eshkakli qayiq va kanoeda Viktor Bukanov, Aleksandr Kiyandin, Viktor Krivo, Valeriy Ovchinnikov, Edem Murodosilov, Vladimir Proxorov, suzuvchi Timur Podmarev, oʻq otuvchi Sergey Ivanenko, ogʻir atletikachilar Viktor Jgun, Aleksandr Kartunov, Leonid Plaxoy, Gennadiy Molyar,

qilichbozlar Valentina Pechora, Sobir Ro'ziyev, chim ustida xokkey, voleybolchilar, vaterpolistlar ozmi-ko'p hissa qo'shdilar.

Umum komanda hisobida quyidagi o'rinlarni egalladilar.

- |                     |                      |
|---------------------|----------------------|
| 1. RSFSR            | 10. Litva SSR        |
| 2. Ukraina SSR      | 11. Moldaviya SSR    |
| 3. Moskva shahar    | 12. Armaniston SSR   |
| 4. Belorussiya SSR  | 13. Estoniya SSR     |
| 5. Leningrad shahar | 14. Ozarboyjon SSR   |
| 6. Qozog'iston SSR  | 15. Qirg'iziston SSR |
| 7. O'zbekiston SSR  | 16. Tojikiston SSR   |
| 8. Gruziya SSR      | 17. Turkmaniston SSR |
| 9. Latviya SSR      |                      |

SSSR xalqlarning I-spartakiadasi (1956-yil) davrida o'zbekistonlik 74 ta SSSR sport ustalari bo'lgan bo'lsa, bu raqam II –spartakiadasi (1959-yil)da 166 taga ko'paydi. III –spartakiada davrida 570 kishi sport ustasi unvoniga ega edi va h.k.

O'sha davrda respublikada 40 ta stadion, 392 ta kompleks sport gimnastika zali, 953 ta futbol maydoni va 9843 ta voleybol va basketbol maydonchalari fizkultura xizmatida edi.

1964-65-yillarda R.Salimova basketbol bo'yicha jahon chempioni "M.Kolyushev mamlakatni eng kuchli velosepidchisi", S.Diamidov gimnastika bo'yicha mamlakatning absolyut chempioni bo'lib, a'lo natijalarga erishdilar "Paxtakor" futbol komandasi ham 1965-yil mavsumini muvaffaqiyatli tugalladi.

"Paxtakor" futbolchilari SSSR chempionligi "A" klasc oliy ligasida o'nlikka kirgan eng kuchli komandalar tarkibidan joy oldi.

1965 yil sportning yetti yilligida. O'zbekiston fizkultura tashkilotlari partiya tashkilotlarining kundalik rahbarligida, kasaba uyushmalari va komsomolning faol ishtirokida o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarganliklari to'g'risida Vatanga raport berdilar.

Yetti yil mobaynida fizkulturachilar soni 1 milliondan oshdi va korxonalar, qurilishlar, kolxozlar, sovxozlar va o'quv yurtlarida 7670 fizkultura jamoaga birlashgan 1 million 650 mingdan ziyod kishini tashkil qildi. Kasaba uyushmalarining sport jamiyatlarida shug'ullanuvchilar soni 172 ming kishiga, "Paxtakor" qishloq jamiyatida esa 183 ming kishiga ko'paydi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar 500 mingga ko'p demakdir. Yetti yillik mobaynida respublikada 1624, 1 ming nishondor, 747 ming razryadchi sportchi tayyorlashdi. Ommaviy fizkultura ishi aholi orasida keng rivojlandi, turistik sayrlar, salomatlik

guruhlari, baliqchilik va ovchilik sport turlarida qatnashuvchi yoshlar soni ancha oshdi. 825 mingdan ziyod ishchi, xizmatchi va o'quvchi yoshlar ish va o'qish joylarida ishlab chiqarish gigiyena gimnastikasiga jalb qilingan. Shu yillar mobaynida sport klublari, o'smirlar va yoshlar sport maktablari, qishloq yoshlari, sport maktabi, respublika maktab-internati tashkil qilindi va hozir ham bu maktablar samarali ishlab turibdi. 78 ta bolalar sport maktabida 25, 3 ming bola shug'ullanmoqda. Xolbuki, 1959-yili 24 maktabda 7, 3 ming bola shug'ullangan edi.

Respublikada sportchilarning mahoratini oshirish bo'yicha katta ishlar qilindi. 1959-1965-yillarda 12550 nafar birinchi razryadli sportchi va 748 nafar sport ustasi tayyorlandi. O'zbekiston sportchilari 3 ta jahon, 33 ta butunittifoq va 157 ta respublika rekordlarini o'rnatdilar. Mamlakat, Yevropa, jahon va Olimpiada musobaqalarida 46 ta oltin, 93 ta kumush va bronza medali olishga muvaffaq bo'ldilar. Malakali sportchilarni tayyorlaganliklari uchun 77 nafar trenerga "SSSRda xizmat ko'rsatgan trener" va "O'zbekitonda xizmat ko'rsatgan trener" unvonlari berildi.

Jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qilishda jamoatchilik usuli keng qo'llana boshladi. Shu yillarda respublika sport jamiyatlari va idoralari tomonidan jamoatchilik asosida ishlaydigan 336, 3 ming kadr tayyorlandi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va oliy pedagogika o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari 2282 nafar oliy ma'lumotli mutaxassis tayyorladilar. O'qituvchilar malakasini oshirish institutlarida 4200 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z malakasini oshirdi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi eng muhim ilmiy tadqiqotlar rejasi muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Oliy o'quv yurtlarining 89 nafar o'qituvchisi pedagogika, biologiya, tarix va tibbiyot sohasida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ustida ishlamoqdalar. Hozirning o'zidayoq fizkultura tashkilotlari o'z faoliyatida olimlar tavsiyasi bilan ish ko'rilmogdalar.

Yetti yillik mobaynida shaharlar va tumanlarda tirbunali 32 ta stadion, 29 ta suv havzasi, 605 ta sportzali, 48 ta tennis maydonchasi va boshqa ko'pgina sport inshootlari barpo etildi. Sport kiyimlari ishlab chiqarish, 1965-yilda- 1959-yilga nisbatan 3, 5 baravar oshdi. Yetti yilning oxirgi yilida aholiga jami 18 million so'mlik sport tovarlari sotildi.

Tobora kengaytib borayotgan sport aloqalari ham fizkultura va sportning rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

1960-65-yillarda O'zbekiston sportchilaridan 1115 kishi 57 xalqaro uchrashuvlarda ishtirok etishdi. 379 nafar sportchi - sportning har xil



turlari bo'yicha, jumladan, erkin kurash, voleybol, yengil atletika, futbol, suzish, basketbol, gimnastika bo'yicha Afg'oniston, Indoneziya, Mo'g'iliston, Chexoslovakiya, Kombodja, Bolgariya, Gretsiya, Hindiston, Kuba kabi 41 ta chet mamlakatda bo'lib, o'z mahoratlarini namoyish qildilar. O'zbekiston GDR, Yaponiya, Indoneziya, Gana, Avstriya kabi 45 mamlakatning sportchilari bilan xalqaro uchrashuvlar o'tkazdilar.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zSSR Ministrlar Sovet respublikalarda jismoniy tarbiya va sportning ahvolini muhokama qildilar hamda bu sohani yanada rivojlantirish uchun keng tadbirlarni belgilab berdilar. Bu esa O'zbekistonda sportning so'nggi yillarda shahdam qadamlar bilan rivojlanishini ta'minladi.

Jismoniy tarbiya va sport borgan sari mehnatkashlar turmushiga singib bormoqda. Ommaviy fizkultura ishlarining yangi shakllari takomillashmoqda. Ishlab chikarishda gimnastika mashqlari keng yoyilmoqda, salomatlik guruhlari soni ko'paymoqda. Bu tadbirlarning hammasi keng ommani sport bilan shug'ullanishga jalb qilish imkonini berayotir, 1967-yilda respublika fizkulturachilarining umumiy soni 1 million 950 mingga yetdi. Ulug' oktabrning 50 yillik yubileyiga bag'ishlangan O'zbekiston Spartakiadasida 2 million 500 ming sportchi ishtirok etdi. Sport ishlari 1967-yilda 1960-yilga nisbatan ikki barobar ko'paydi. Sportchilar ixtiyoriga 842 ta stadion va kompleks maydonchalari berib ko'yilgan. Jismoniy tarbiya va sportning ommalashib borishi negizida O'zbekiston sportchilarining mahorati ham oshib bormoqda. Ular butun ittifoq va xalqaro sport musobaqalarida yuksak ko'rsatkichlarga erishmoqdalar. 1967-yil 9-iyun 4-avgust Moskvada bo'lib o'tgan SSSR xalqlarining 4-sportakiadasida o'zbekistonlik 120 sportchi sovrinli o'rinlarni egalladilar, 27 ta oltin, kumush va bronza medali qo'lga kiritildi. O'zbekiston sportchilari musobaqalar mobaynida 3 ta mamlakat rekordi, 45 ta respublika rekordini o'rnatdilar.

Xalqaro uchrashuvlar yildan-yilga oshib bormoqda. Respublika sportchilari faqat 1965-yil davomida chet ellik sportchilar bilan 8 marta, jumladan, Bolgariya komandasi bilan suzish bo'yicha, Suriya komandasi bilan boks bo'yicha, Afg'oniston komandasi bilan futbol bo'yicha uchrashuvlar o'tkazishdi. 1968-yilda respublikaning 70 dan ziyod sportchisi SSSR terma komandasi tarkibiga kiritildi. Masalan, R.Salimova Prokanenko basketbol bo'yicha SSSR terma komandasida qatnashib Yevropa chempionini unvonini qo'lga kiritdi. Rustam Kazakov Yaponiyada kurash bo'yicha xalqaro turniri goli bo'ldi. N.Xromov va G.

Yablanov boks bo'yicha Yevropa kubogi xalqaro musobaqalarida g'olib chiqishdi. Agar 18 Olimpia o'yinlarida o'zbekistonlik 4 ta sportchi qatnashgan bo'lsa, 19 olimpiadada esa 8 nafar sportchi qatnashdiki, bu respublika sportchilarining mahorati osha borayotganidan dalolat beradi. V. Duyunova olimpiya chempioni unvoniga sazovor bo'lib, Toshkentga oltin medal bilan qaytdi. S. Babanina suzish bo'yicha 3 o'ringa chiqdi. M. Kolyushev velosport bo'yicha 4 o'rinni egalladi. S. Diamidov gimnasti kumush va bronza medallarini oldi.

Partiya va hukmatimizning doimiy g'amxo'rliqi fizkultura tashkilotlarining moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. 1971-yilda 1966-yilga nisbatan stadionlar soni 22 taga, sport maydonchalari 1500 taga, sport zallari 300 taga oshdi. Shu davrda yangi-yangi yozgi va qishki suzish havzalari qurildi. «Yubiley» Markaziy sport zali usti yopilgan suzish binosi, «Dinamo» tennis korti, sportchilar uchun qurilgan «Olimpia» pensionati kabi sport inshootlari respublika poytaxti xusniga xusn qo'shib turibdi.

Respublika sport inshootlari sportchilar bilan mashq qilishning yangi-yangi usullarini ishga solib, tobora yukori ko'rsatkichlarga erishmoqdalar. 1911-yilda 8661 ta fizkultura jamoalarida 2 millionga yaqin fizkulturachi shug'ullandi. 1966-1971- yillarda respublika bo'yicha 760 sport ustasi va 4000 ta masterlikka nomzod hamda birinchi razryadli sportchilar tayyorlandi. Jahon, Yevropa va SSSR chempionlari orasida kurashchi Rustam Kazakov, bokschilardan SSSR xalqlar 5-spartakiadasining chempionlari Rufat Risqiyev va Nikolay Andimov, Nikolay Xromov, voleybolchi Vera Duyunova og'ir atletikachi Erkin Karimov, gimnastikachi Elvira Saadi kabi ajoyib sportchilarning nomi respublikamizdan tashqarida ham mashhur bo'lib ketdi.

1973-yil ham o'zbekistonlik sportchilar uchun «serhosil yil» bo'ldi. Masalan, «Avtomobilist» voleybolchi qizlar komandasi oliylikada mustahkam o'rin oldi. Toshkent universitetining basketbolchilari «A» klassi bo'yicha 1 ligiga chiqdilar. «Burevestnik» suv polosi komandasi ikkinchi guruh komandalari orasida SSSR birinchiligida o'ynash huquqini oldi. 1973-yilning birinchi yarmida O'zbekistonlik sportchilar 18 ta oltin, 12 ta kumush va 11 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Shu davrda 26 ta respublika rekordi o'rnatildi.

1973-yil O'zbekiston 16 spartakiadasi va yoshlarning Butun ittifoq o'yinlari o'tkazildi. Bu tadbirlar yangi-yangi yoshlarni sportga jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yoshlar o'yinining hamma bosqichlari va 16 spartakiadaning final qismida 1 million 300 mingdan

ortiq sportchi ishtirok etishdi. Musobaqalarda 38 sportchi sport ustasi va 113 sportchi sport ustasiga nomzod normalarini bajardilar. o'zbekistonlik sportchi yoshlarning butun ittifoq o'yinlari finalida muvaffaqiyatli chiqish qilib, umumkomanda hisobida to'qqizinchi o'ringa ko'tarildilar. Velosipedchi S.Makarixin musobaqa chempioni bo'ldi. Qilichbozlik bo'yicha S.Ruziyev, velosipedchi A.Pochenutov, suvga sakrovchi Ye.Zavodovskaya, yengil atletikachilar A.Dolgova va Zdobnovlar, gimnastikachi I.Ijboldiaya, suzuvchi L. Chertovalar kumush medal oldilar.

1973-yilda respublika sportchilari mamlakat chempionligining oltita oltin medalini olishga sazovor bo'ldilar. Velosipedchi A.Yudin ikki marta mamlakat chempioni unvonini olib katta muvaffaqiyatga erishdi. Yengil atletikachi R.Babich otish bo'yicha Yu.Temodiev, velosipedchi L.Markiloviy, eshkakchi V. Mustafoyevlar oltin medal bilan mukofotlandilar. 1973-yil dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va respublika hukumati «Respublika o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning ahvoli va sportni rivojlantirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Bunda barcha o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya ishlarini jonlantirish, mutaxassislar tayyorlash, sport inshootlarini qurish, sport jihozlari, asbob-anjomlar va kiyimlarni ishlab chiqarish ishlarini yanada yaxshi yo'lga qo'yish vazifalari qo'yildi.

Toshkentda 1973-yil 16-martdan 20-martgacha og'ir atletika bo'yicha «Do'stlik» xalqaro turniri o'tkazildi, bu turnirda 15 mamlakatdan 153 ta sportchi qatnashdi. Musobaqada O'zbekistonning eng kuchli sportchilari ham qatnashdilar. Musobaqada 7-Jahon, 6 butunittifoq, 15 milliy va 27 ta «Do'stlik» turniri rekordlari o'rnatildi.

1974-yili Toshkentda O'zbekiston SSSR va O'zbekiston Kompartiyasining 50 yilligiga bag'ishlab xalqaro turnir o'tkazildi. Bu musobaqada 14 ta shaxmatchi ayollar qatnashdi, shulardan 6 tasi xalqaro sport ustalari Ye.Karokash (Vengriya), K.Eretova (Chexoslovakiya), X.Eretskaya (Polsha) va boshqalar O'zbekistondan iqtidorli yosh shaxmatchi Ala Mkrkichan yuqori sport mahoratini ko'rsatib xalqaro turnir g'olibi bo'ldilar.

Toshkentda futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida xalqaro turnirini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Turnirlar 1974, 1975, 1977, 1978, 1979, 1980-yillarda yuqori xalqaro darajada o'tkazildi.

1976-yil O'zbekiston sportchilarining ixtiyorida 139 ta stadion, 29 mingdan oshiq sport maydonchalari, 164 ta suzish havzalari, 2506 ta sport zallari, sport saroylari, 2009 BO'SMlar bo'lib, ularda 100 mingdan oshiq bolalar shug'ullanar edilar.

Shu yillari respublikada 8 ta komanda oliy ligada o'ynar edilar. Bular futbol, suv polosi, voleybol, qo'l to'pi, chim ustida xokkey (ayollar) o'ynardilar. Birinchi ligada ham 8 ta komanda futbol, qo'l to'pi, basketbol, ayollar va erkaklar voleybol komandasi, chim ustida xokkey (erkaklar), shaybali xokkey va ikkinchi ligada futbol bo'yicha 14 komanda o'ynaydi.

O'yinchi 5 yillikni 4-yilida 2 million 322 ming razryadchilar, 93 ta halqaro toifadagi sport ustalari va 1962 ta sport ustasi, ulardan 25 tasi Olimpia o'yinlari, Jahon va Yevropa chempionlari bo'ldi.

Faqat 1978-va 1979-yillarda respublikamiz sportchilari SSSR, Yevropa va Jahon chempionatlarida 84 ta medalni qo'lga kiritdilar. Ulardan 39 tasi oltin medal. 1974-yil aprelda respublika partiya faollarining navbatdagi yig'ilishi bo'lib, unda «Respublikada jismoniy tarbiya va sportning ahvoli haqida KNES 24 s'yezdi qarorlari asosida uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risi»gi masala ko'rib chiqildi. Barcha partiya, davlat, kasaba uyushmalari sport va boshqa tegishli tashkilotlar, mahkamalar, idoralar zimmasiga jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish vazifalari yuklatildi. Jumladan, fizkultura tashkilotlari sport jamiyatlari ham o'z ish uslublarini yangicha sharoitga moslashtirish va yanada ravnaq topishiga harakat qilishligini uqtirildi. O'zbekiston sportchilarini Yevropa va Jahon chempionatlarida qatnashchilari ko'paya bordi. 1974-yil 26-iyulda Ulan-Batorda sambo bo'yicha jahon chempionati ochildi. S.Xoziyev Bolgariya, Ispaniya, Eron, Turkiya, Janubiy Koreya, Angliyaning mashhur sambochilarining ustidan ham g'alabaga erishdi. Finalda Sayfiddin jiddiy raqib Mongoliya chempioni ustidan g'alabaga erishib sambo bo'yicha Jahon chempioni bo'ldi.

1976-yil Minsk shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida yana mongol sportchisi ustidan g'alaba qozonib ikkinchi marta jahon chempioni bo'ldi.

Sobir Qurbonov 1973-yilda Ispaniyaning Madrid shahrida o'tkazilgan Yevropa chempionati g'olibi bo'ldi. 1975-yili Minsk shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida 5 ta sambochini yutib sambo bo'yicha jahon chempioni unvonini oldi. Bizning sportchilarimiz keyingi vaqtlarda halqaro va butunittifoq musobaqalarida chempionlik va mukofotli o'rinlarni egalladilar. S.O'lmasova, Z.Axtyamova (yengil atletikani) N.Butuzova va O.Rogova (kamondan otishni), S. Ruziyev (qilichbozlik), V. Shin (boks), K.Fatxulin, V.Sabdirov, V. Anikin, A.Doljenko (kurash), V.Dvaryatinov, M.Ismoilov (ot sporti), A.Pandshlov (velosport) va boshqalar.

O'zbekistonda sportning rivojlanishida sportchilarning mahoratini takomillashtirishda va o'sishida eng muhim o'rinlardan birini respublikamiz chet el sport tashkilotlari bilan qilayotgan aloqasidir. Bu aloqalarning hajmi quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi.

1976-yilda 174 kishi chet elga chiqdi. 180 kishini respublika qabul qildi.

1977-yilda 308 kishi chiqdi. 741 kishini qabul qildi.

1978-yilda 338 kishi chiqdi, 974 kishini qabul qildi.

1979-yilda 265 kishi chiqdi, 831 kishini qabul qildi. Oxirgi yildagisining kamayishi sababi SSSR xalqlarining 7-spartakiadasida qatnashishidir.

1977-yil noyabr oyida yana Respublika partiya xo'jalik faollarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. «Bunda ommaviy va mahorat uchun» masalasi kun tartibida muhokama qilindi.

Shu yili dekabr oyida «Respublikada yengil atletikaning ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risi»gi masala ko'rib chiqildi va qaror qabul qilindi. Uni rivojlantirish uchun texnika bazasini yaratishga qaratildi.

Respublikamizdagi 12 ta stadionlarini yo'lakcha va sektorlariga (Andijon, Farg'ona, Buxoro, Samarqand) zamonaviy sintetik qoplamalar yetkazildi, Markaziy «Paxtakor» stadioniga «Navartan» qoplamasi qilingan, yengil atletika bo'yicha oliy sport mahorati tashkil etildi. Bir qator «Mehnat», «Dinamo», «Yosh kuch» sport jamiyatlari qoshida sport mahoratini oshirish maktabi, «Mehnat rezervlarida» olimpiya zaxiralari tashkil etilgan.

Barcha ushbu tashkilotlarda avval 3-5 sport ustalari tayyorgarligi bo'lsa, 1983-yilga kelib yengil atletika bo'yicha 20ta sport ustasi tayyorlandi

Shuni ko'rsatib o'tish kerakki, yengil atletikachilarimiz 3ta jahon rekordini o'rnatdilar Z Zayseva-1 milga yugurishda jahonni yangi rekordini o'rnatdi

S. O'lmasova 3000 m masofaga yugurishda; T Biryulina esa nayzani uloqtirishdi. O'zbekiston yengil atletikachilari nayzani uloqtirishda SSSR rekordiga 7 marta o'zgartirish (M.Gapparov, S.Usov, D.lintvineina, I.Prokudan, V.Barbashin, A.Dimov), respublika rekordiga 71 marta o'zgartirish kiritdilar. Vladimir Cherninov uch xatlash bo'yicha 23 yil oldin O.Ryaxovskiy tomonidan o'rnatilgan rekordiga o'zgartirish kiritdi. Iqtidorli, yosh langar bilan sakrovchi R.Gataulin 1983-yili o'smirlar o'rtasida Yevropa chempioni bo'ldi.

Hozirgi vaqtda 30 dan oshiq yengil atletikachilar mamlakat terma komandasiga a'zo, ulardan 24 tasi xalqaro toifadagi sport ustasi degan yuqori unvonga egadirlar.

1974-yilda Kubonsha Gavana shahrida boks bo'yicha Jahon chempionati o'tkazildi, o'zbek bokschisi Rufat Risqiyev jasorat ko'rsatdi, u ikkinchi jangni o'tkazayotganda o'ng qo'lini, keyingi jangda chap qo'lini sindirdi. Finalda esa Ruminya bokschisi Alen Nestak bilan ringga chiqdi, ringda jasorat, mardlikni namoyon qilib raqibining ustidan ajoyib g'alaba qozondi. Taqdirlash marosimida Fidel Kostro "Toshkent qoplani" deb oltin medalni bo'yniga osib qo'yadi. 1975-yili SSSR xalqlari V-spartakiadasi O'zbekiston bokschilari ajoyib g'alabalarga erishdilar. R.Risqiyev, N.Anfimovlar oltin, Feliks Pak 2-o'rinni, V.Shin-bronza medalini oldi N.Anfimov birinchi bor mamlakat chempioni 20-Olimpia o'yinlari qatnashchisi. V.Shin mamlakat birinchiligida 1977 bronza, 1978, 1980 – kumush, 1981, 1983-oltin, 1979-jahon kubogi sohibi, 1982 jahon chempionatining sovrindori bo'ldi.

Og'ir atletikachilarimizdan 1976-80-yillarda L.Kurtaminov, A.Kortdinov, N.Muhamediyarov, G.Malyar, V.Bagusniy xalqaro toifadagi sport ustasi unvonini oldilar.

O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining "Respublikada sportning o'yin turlari ahvoli va uning rivojlantirish choralari haqidagi qarori respublikada yuksak maxoratli sportchilar yetishtirish, sport o'yinlarini yanada ommaviylashtirish masalasida tegishli tashkilotlarining zimmasiga katta vazifalarni yukladi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etilishi natijasida basketbol sohasi ham dastlabki yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining "FISK" jamoasi (ayollar) va "Universitet" jamoasi (erakalar) sobiq SSSR chempionatining "A" klassi birinchi guruh musobaqalarida qatnashib kelishi fikrimizning dalilidir".

O'zbekistonning eng kuchli erkaklari jamoasi 1973-yilda "A" klassining 1-guruhiga kiradi. 1974-yili shu guruhda 3-chi o'rin, 1975-yili 7- o'rin, 1976-yili 9- o'rinni egallaydi va oliy ligaga chiqadi.

1980-81-yillarda oliy ligada 12- o'rinni egallab, 1-guruhga o'tadi. 1981-82- yillarda 1-guruhda birinchi o'rinni egallab, yana oliy ligaga yo'llanma oldi, 1982-83 yillar 9-o'rin, 1983-84-5-o'rin, 1984-85 yil-1guruhda 10-o'rin, 1987-88-yillar 1-guruh 9-o'rin, 1988-89 yil 9-o'rin, 1989-90 yil oxirgi o'rin, 1990-91 yil –oliy ligaga chiqish va 1991 –92 yil-1chiligiga qaytish.

1975, 1979, 1983 yillarda O‘zbekiston terma jamoasi (erkaklar) Kiyev shahrida-9 o‘rin, Kaunasda ham – 9-o‘rin, Moskva shahrida o‘tkazilgan spartakiada o‘yinida 10-o‘rinni egalladilar.

SSSR Vazirlar Mahkamasining 1981-yil 11-sentabr qaroriga muvofiq jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama rivojlantirish, uni chinakam ommaviylikka aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Respublikamizda maqsadga yo‘naltirilgan va samarali ishlari jamiyatlararo markazlarda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, ayniqsa, suzish markazidir, chunki respublikamizda suzuvchilar mamlakat birinchiliklarida mustahkam 6-o‘rinni egallab turibdilar, masalan, Yevropa chempioni Sergey Zobolatnov, Larisa Belokan-Yevropa rekordchisi. Ikkalasi ham mamlakat terma komandasining a‘zolaridir. Ikki karra jahon chempioni Sobir Ro‘ziyev va jahon chempioni A.Lukicherlar murakkab va qiziqarli sport turi qilchbozlikdan muxlislarini ko‘proq xursand qildilar.

Suv polosi bo‘yicha sobiq SSSR terma jamoasidagi o‘rtoqlari bilan birgalikda Erkin Shagayev ikki marta jahon va XXII-Olimpiya o‘yinlari chempioni bo‘ldilar.

Erkin kurash bo‘yicha jahon chempionlari Arelon Xadarsev va Arsen Fadzayevlar o‘zlarining sport mahoratlarini ko‘rsatdilar. Klassik kurash bo‘yicha Komil Fatqulin va Vasiliy Anininlar o‘zlarining mehnatsevarligi va talantlarini ko‘rsatdilar.

1983-yili Georgiy A‘zamov O‘rta Osiyoda birinchi va Osiyo qit‘asida ikkinchi bo‘lib shaxmatdan xalqaro grossmeyster bo‘ldi, Qizlar o‘rtasida Farida Hasanova birinchi marta jahon chempioni bo‘ldi. 1983-yilda o‘tkazilgan spartakiadada O‘zbekiston shaxsiy hisobda 8 ta oltin medalni qo‘lga kiritdi. Bular A.Harlov, V.Zarinova, Z.Zaysieva, A.Fadzayev, A.Xadarsev, V.Shin, V.Sabodrev, Komil Fatkulin, ya‘ni 10 ta sportchi kumush, 20 ta sportchi bronza medalini oldilar.

O‘zbekiston og‘ir atletikachilari 1981-yildan boshlab xalqaro musobaqalarda qatnasha boshladilar.

1982-yilda andijonlik Noil Muhamediyarov o‘smirlar o‘rtasida Yevropa chempioni bo‘ldi.

1988-yilda Seulda o‘tkazilgan XXIV Olimpiya o‘yinlarida 82, 5 kg vaznda Noil Muhamediyarov Kumush medalni oldi.

1989-yilda namanganlik S.Sirsov jahon chempionatida ikki kurashda 402, 5 kg og‘irlikni ko‘tarib kumush medalga sazovor bo‘ladi.

1991-yilda Germaniyaning danaunigan shahrida ikkita sportchimiz S. Sirsov va I.Sodiqov jahon chempioni bo‘ldi.

1952-yili Finlyandiyaning Xelsinki shahrida o'tkazilgan XV Olimpiya o'yinlarida mamlakat terma komandasi tarkibida O'zbekiston vakillaridan ikki kishi – Galina Sharmay va Sergey Ponov qatnashdi. Galina Shamray - sport gimnastikachilari jamoa birinchiligida chempion bo'ldi, S.Ponov 4-o'rin (yengil atletika).

1956-yilda Avstraliyani Melburn shahrida o'tkazilgan XVI va Rimda o'tkazilgan XVII Olimpiada o'yinlarida (1960) qatnashdi.

1964-yilda Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkazilgan XVIII Olimpia o'yinlarida sportning ikkita turidan uchta sportchimiz qatnashdilar. Ya'ni gimnastika va suzishdan. Gimnastikada Sergey Dinamidov jamoa hisobida kumush medal oldi, shaxmatda 4-o'rinni oldi, suzuvchilarimiz Natalya Ustinova va Svetlana Babaninlar 4x100 m aralash estafetada bronza medalini oldilar. Svetlana Babanin 200 m ga brass usulida suzishda ham 3-o'rinni oldi. 1968-yildagi XIX Olimpiya o'yinlarida bitta sportchimiz qatnashdi. Velosipedchi Mixail Kamoshev poygada jamoada 5-o'rinni, Vera Duyunova – oltin va suzuvchirimiz Sergey Konov, Natalya Usntinova va Svetlana Babanihalalar.

1972-yili Myunxen (FRG) dagi XX Olimpiada o'yinlarida respublikamizning 6 ta vakili qatnashdi: Nikolay Anfimov-boks, Rustam Kazanov-kurash, Aleksandr 10 dan velo poygachi. Ulardan uchasi- R.Kazinov, V.Duyunova, E.Saidiy, Alijon Jarmammedovlar-oltin medal oldilar.

1976-yili Monrealda o'tkazilgan XXI Olimpiada o'yinlarida 4 ta vakilimiz muvaffaqiyatli qatnashdi. Rufat Risqiyev-kumush, V.Feodorov-bronza medaliga sazovor bo'ldilar. Qilichboz S.Ro'ziyev kamonda hisobida-4-o'rin, ot sporti bo'yicha Valeriy Dvoryaninov kamonda hisobida-5-o'rinni, Alijon Jarmammedov 1-o'rinni oldilar.

1980-yili Moskvada o'tkazilgan XXII Olimpiada o'yinlarida O'zbekistondan 15 ta sportchi qatnashdi. Shulardan 4 ta oltin, 5 ta kumush, 4 ta bronza medalini oldilar.

Oltin medal olganlar: Yuriy Kovshov-ot sporti, Erkin Shagayev – suv polosi, Larisa Pavlova-voleybol, Olga Zuboreva qo'l to'pi.

Kumush medal olganlar: Natalya Butuzova-kamondan otish, Rustam Yambulov-senezga otish, Yuriy Kovshov – ot sportida shaxsiy hisobda, Aleksandr Paifilov-trek, Sobir Ro'ziyev – rapiradi.

Bronza medali olganlar: Andijon xokkey jamoa a'zolari Nelli Gorbatkova, Leylo Ahmedova va Alini Ham

6-o'rinni olganlar: T.Biryulina-nayza uloqtirishdan, A.Xorlayev-400 m ga to'siqlar oshib yugurishdan-2-o'rin.





**IX-bob.  
O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI DAVRIDA  
JISMONIY TARBIYA  
(1991-yilda)**



1991-yil 31-avgust kuni g‘oyat buyuk, olamshumul tarixiy voqea yuz berdi. Shu kuni Respublika Oliy Kengashi minbaridan O‘zbekiston davlati mustaqilligi tantanali ravishda e‘lon qilindi. Yillar osha bu sana xalqimiz uchun eng qutlug‘ va eng unutilmas kun bo‘lib qolishi muqarrar!

Har qanday mustaqil davlat va unda hayot kechiruvchi har bir xalq, millat tabiiy boyliklari, ya‘ni yer osti va yer ustida boyliklari, tog‘lari va o‘rmonlari daryo-yu dengizlari ulkan shaharlari, go‘zal inshootlari bilan g‘ururlashishga haqlidir.

Biroq tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, jamiyatning haqiqiy boyligi, bu - inson, inson avlodidir. Jamiyat el-yurtiga, vataniga sadoqatli, iymon-e‘tiqodi butun, mard va jasur ma‘naviyati yuksak insonlar bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bu ulug‘vor, betakror boylik esa har qaysi davlatning salohiyati manbaidir.

Ana shunday noyob fazilatga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko‘z, katta ishonch bilan qarashi mumkin.

Shukronalar bo‘lsinki, xalqimiz tarixning mashaqqatli sinovlari osha o‘zining ana shu oliyjanob xususiyatlariga zavol yetkazmay saqlab keldi. Ajdodlarimiz o‘z nasl-nasabalarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz bilan tarbiya qilib keldilar. Otabobolarimiz asrlar davomida avlodlarni voyaga yetkazdilar. Ha, bunday fazilatlar asl zahmatkash xalqimizga munosibdirki, biz bu bilan har qancha g‘ururlansak arziydi.

Binobarin, oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflil vazifa turgan bir paytda bu ma‘naviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortadi. Nega deganda har qanday ulug‘ maqsadlarga yetishi, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, go‘zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a‘zolari bo‘lgan komil odamlarga, barkamol yosh avlodga bog‘liqdir. Shu bois xalqimiz farzandlarimizning iqbolini o‘ylab, qattiq bel bog‘lab mehnat qilayotgan ma‘suliyatli bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran ma‘no kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992-yil 14-yanvarda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi muhim qonunni qabul qildi. Ushbu hujjat bilan sohamiz birinchi marta o‘z faoliyatining mustaqil huquqiy asoslariga ega bo‘ldi. Qonun jismoniy tarbiya hamda sport faoliyatida jamoat munosabatlarini to‘g‘ri tarkibga solishini va O‘zbekistonda jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish va sport ishini yuksaltirishning huquqiy kafolatini yuzaga keltirdi. **Qonunda** jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonunchilik amaliyotini jahon tajribasiga va

respublikamizning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bayon qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom avlod uchun" (1993-yil) farmoni barkamollikka, jismoniy va ma'naviy madaniyatlarning uzviy bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan.

Yurtboshimizning jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishda "Sog'lom avlod uchun" orden va shu nomdagi jamg'armani ta'sis etishi, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha maxsus unvonlarni joriy qilishi to'g'risidagi farmonlariga imzo chekishi jismoniy tarbiyani rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 15-apreldagi "Sog'lom avlod uchun" jurnalini tashkil etish to'g'risidagi qarorni ham bu sohada qo'yilgan salmoqli qadam deyish mumkin. Chunki jurnalning asosiy maqsadi ma'naviy va jismoniy barkamol avlodlarni tarbiyalash hamda yuqorida qayd etib o'tilgan davlat ahamiyatiga molik vazifani amalga oshirishda keng aholini ishtirok ettirishdir.

Qonunni hayotga tatbiq etishda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi katta ishlarni amalga oshirishni rejalashtiradi. Chunonchi, birinchi navbatda, bolalarni har tomonlama jismoniy baquvvat, epchil, chaqqon, kuchli, botir qilib hamda ularni ilmga, bilimdon, zukko, madaniyatli, ma'naviyati boy qilib tarbiyalashni ko'zda tutgan sog'lom avlod dasturining ishlab chiqishni amalga oshirdi.

Umumta'lim maktablari I-XI sinflari uchun Davlat standarti asosida jismoniy tarbiya dasturini ishlab chiqilishi fikrimiz asosidir. Keyingi paytlarda har bir maktabda sport zali qurilishi, Yunusobod dahasida tennis kortining qurilishi, Farg'onada, Andijonda, Namanganda, Samarqandda, Qarshida, Termizdagi tennis kortlari va stadionlarning qurilishi qabul qilingan dasturlarning amaliyotga tatbiq qilinayotganligidan dalolatdir.

O'zbekiston azaldan polvonlar makoni. Shu bois kurash musobaqalari hamisha qizg'in bo'lib o'tgan. Lekin sobiq tuzum davrida milliy kurashimizga e'tibor susayib ketgandi. Respublikamiz mustaqillikka erishganda so'ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Sog'lom avlodning o'sib-ulg'ayishida ularning har tomonlama kuchli, epchil, chaqqon, tezkor, chidamli, botir, qo'rqmas qilib tarbiyalashda milliy kurashning roli kattadir. Chunki milliy kurashning yaxshi o'rgangan sportchiga sportning va kurashning boshqa turlarini egallash oson kechadi.

1991-yili SSSR xalqlari spartakiadasida sportchilarimiz yaxshi qatnashib, umum komanda hisobida 10-o'rinni egallashdi. Yunon-rim

kurashi bo'yicha Abdullayev G'ayrat 2-o'rinni, 1992-yili mamlakat birinchiligida 2-o'rinni, Gran-pri musobaqasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

1991-yili bokschilarimiz mamlakat birinchiligida ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritishdi Igor Bunni-oltin, A.Grigoryan va O.Moskayev-kumush va E.Karimov-bronza medali oldilar.

1991-yili Meksikada o'tkazilgan oxirgi spartakiadada A.Grigoryan chempion bo'ldi, O.Moskaev 2-o'rin, X.Tursunov, N.Sumionov, N.Atayev, M.Kitabovlar – 3-o'rinni oldilar. Komanda esa to'rtinchi o'rinni egalladi.

1992-yil 9-11-avgust Shahrisabzdagi "Hisor" o'yingohida milliy kurash bo'yicha sohibqiron A.Temur xotirasiga bag'ishlangan 1-xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

Ushbu turnirga Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, O'zbekiston va boshqa davlat jamoalari vakillari kelishdi. Jami 300 nafar polvonlar Shahrisabzda, buyuk sarkarda, ulug' Sohibqiron ruhini shod etishga bel bog'lab maydonga tushdilar.

Bu yerda milliy kurashning Buxorocho, ya'ni – bel olish usulida kurash tushildi. Buni Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm polvonlari juda yaxshi bilishadi. O'zi, aslida, chap berib olishish ham bir necha turga bo'linadi: sartadan irg'itish, ichdan chalish, tuch chil, qoqma 1992-yil 21-yanvarda O'zbekiston Respublikasining Milliy Olimpia qo'mitasi rasmiy ravishda ta'sis qilinadi va shu yili 9 martada Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tarkibiga kiritilib, haqiqiy a'zosi bo'ldi. Bu O'zbekiston sportchilarining Olimpiada va jahon birinchiliklarida mustaqil terma jamoa sifatida ishtirok etishlariga imkoniyatlar yaratib berdi.

1994-yili O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) Bosh assambleyasining 3-sessiyasi bo'ldi. Unda MOQ ijroiya qo'mitasi va taftish komissiyasining hisobotlari tinglandi. O'zbekiston MOQ Nizomiga o'zgartirishlar kiritildi. Sessiyada O'R MOQ Deklaratsiyasi qabul qilindi va Davlat sport qo'mitasi raisi S.S.Ro'ziyev MOQ prezidenti etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasining Milliy Olimpia qo'mitasining deklaratsiyasida Olimpia g'oyalariga tayanish, uni hayotga singdirish va jamoalarda XOQ tashkil etilganligining 1100 yilligini targ'ibot qilishi kabi murojaat, chaqiriq, tavsiya va takliflar bayon etilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston sportchilari xalqaro sport aloqalarini tobora mustahkamlab bordi. Sharq va Yevropa mamlakatlarida turli uchrashuvlar, turnirlar, bellashuvlarda qatnashib, o'z tajribalarini oshirdi.

1994-yilning 2-15-oktabr kunlarida Yaponiyaning Xirosima shahrida XII – Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston sportchilari 10 ta

oltin, 11 ta kumush va 19 ta bronza, ya'ni jami 40 ta medalni qo'lga kiritdilar.

Baydarkachi sportchi Ivan Kiryan 3 ta oltin medal sovrindori bo'ldi. Alisher Avezboyev, Oleg Maskayev (boks), Shuxrat Ahmedov, A.Rapichev, E.Osmonov (o'q otish), O.Yarigini (nayza uloqtirish), R.Ganiyev (o'n kurash), S.Munkova (balandlikka sakrash) musobaqa g'oliblaridir. Shuningdek, futbol jamoamiz finalda XXR jamoasini 4:2 hisobda yengil ajoyib g'alabani qo'lga kiritdi. Bosh trener R.Akramov, B.Abduraimov.

Umuman olganda, XII Osiyo o'yinlari natijalari, ayniqsa, futbolchilarimizning yutuqlari O'zbekiston dovrug'ini olamga yoydi.

Uch yil ichida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarimiz soni 5, 5 milliondan oshib ketdi.

Ulardan ko'pchiligi - oshirilgan murakkab normativlarni bajarishga muvoffiq bo'ldilar. Milliondan ortiq kishi esa salomatliklarini mustahkamlash bilan birga sport seksiyalarida mashg'ulotlarni davom ettirmoqda.

200 ga yaqin stadion, to'rt yarim mingdan ortiq sport zallari, 128 ta cho'milish havzalari, 30 mingdan ortiq o'yin maydonchalari va futbol maydonlari sportchilar ixtiyoriga berib qo'yilgan.

Sport kurashi, chavondoqlik o'yinlari va musobaqalari yangi sarhadlarga chiqib oldi. Bunga hukmatimizning milliy sport turlarini rivojlantirish borasidagi g'amxo'rliги tufayli erishildi. Buyuk otabobolarimiz, mashhur tarixiy va davlat arboblari atab atletikachilarning xalqaro bellashuvlarini o'tkazish yaxshi an'ana bo'lib qoldi.

O'zbekiston vakillari yuksak mahorat namoyish etiladigan bellashuvlarda ham muvaffaqiyatli qatnashmoqda. Sportchilarimiz jahon va qit'a chempionatlarida, Olimpiada o'yinlari va xalqaro turnirlarda qatnashib, 686 medal, shu jumladan, 232 ta oltin, 201 ta kumush, 253 ta bronza nishonlarini olishga muvaffaq bo'ldilar.

Jo'g'rofiy-siyosiy holatimizni hisobga olib, Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilyapti. Chunonchi, O'zbekiston futbolchilari qit'a chempionati va kubogi musobaqalariga kiritildi.

Iste'dodli bolalarni topish, ularning mahoratini oshirib, yangi sport marralariga olib chiqish murabbiylarning sharaflı vazifasidir. Bizda taqlid qilsa, arzugulik mahoratli sportchilar bor.

Fristayl bo'yicha 1993-yilda jahon chempioni, 1993 - va 1994 - yillarda jahon kubogi g'olibi. Sergey Breher 1994- yil Norvegiyaning

Lillehammer shahrida Mustaqil respublikamizga birinchi bo‘lib Olimpia o‘yinlarining ilk oltin medalini olib bergan.

1995-yil 8-9-aprel kunlari Termiz shahridagi “Alpomish” o‘yingohida Sharqning buyuk allomasi al-Xakim at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan II-an’anaviy xalqaro turnir bo‘lib o‘tdi. Turnirda Rustam polvon Ergashev mutloq g‘olib chiqdi.

1995-yil respublikamizning ko‘pgina vakillari xalqaro sport anjumanlarida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishdilar. O‘zlari erishgan yutuqlari bilan respublika miqyosida ochiq namoyish qildilar. Masalan, boks bo‘yicha birinchi jahon chempioni R.Risqiyev yulduzi sport osmonida ravshan porladi. Jahon chempionatlarida Bobomurod Fayziev, Sayfiddin Xodiyev, Sobir Qurbonov (sambo kurashi), Sobir Ro‘ziyev (qilichbozlik), Mamajon Ismoilovlarning nomi (ot sporti) dunyo O‘zRa yangradi. Sportning turli sohalari bo‘yicha mana bu sportchilarning: Jamoliddin, Abdujabborov, Erkin Karimov, Erkin Xoliqov, Isroil Isxoqov, Komil Fatxulin nomi jahonga tanildi.

Endilikda O‘zbekiston sportchilari sobiq tuzum davrida ishtirok eta olmagan barcha Olimpiya o‘yinlarida qatnashish sharafiga ega bo‘lmoqda. Respublikamizning 50 Olimpiachilari Xelsinkidan to Seulgacha mamlakat sharafini munosib himoya qildilar.

O‘zbekiston 9 Olimpiachilari janubiy Koreyada 5 ta Olimpia medalini qo‘lga kiritdilar. A.Fadziaev va M.Xadarsev erkin kurash bo‘yicha yuksak Olimpia mukofotiga erishdilar. R.Gataulim langar bilan sakrashda va N.Muhammaderov shtanga bo‘yicha kumush medallar sovrindori bo‘lishdi.

Mustaqil respublikamiz vakillari qisqa vaqt ichida xalqaro musobaqalarda ajoyib g‘alabalarga erishdilar. Lina Cheryazova frisatayl bo‘yicha jahon chempionati va kubogi, qishki Olimpiada o‘yinlari g‘olibi, Xikmatilla Ahmedov boks, bo‘yicha jahon chempionatida 2-o‘rinni, Botir Mamidov takvando g‘olibi, Sergey Nodirxonov jahon chempionatida 3-o‘rinni, Ramil Islomov erkin kurash bo‘yicha yoshlar o‘rtasida jahon birinchiligi g‘olibi, Navro‘z Usmonov Yunon-rum kurash bo‘yicha jahon birinchiligida 2-o‘rinni, Urol To‘rayev milliy kurash bo‘yicha Prezident sovrini sohibi, Yuliya Yankina sambo bo‘yicha ikki marta jahon chempioni, Oksana Chuvovitina gimnastika bo‘yicha Olimpia o‘yinlari chempioni, jahon chempionatida 3-o‘rin, Tojimurod Urusov erkin kurash bo‘yicha jahon chempioni Alini Stergiadu Osiyo kubogida 1-o‘rinni, Ramil Ataulin, Ruslan Xingarov erkin kurash bo‘yicha jahon chempionatida 3-o‘rinni egallagan. Ivan Kiriv Baydarka va kakoeda

eshkak eshish bo'yicha Osiyo o'yinlari chempioni Zokirjon Sharipov sambo bo'yicha jahon chempionati g'olibidir, bularning nomini yana davom ettirishimiz mumkin. Mana shunday muvaffaqiyatlar respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qo'lga kiritildi. Bu davlatimizning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga berilgan e'tiboridir.

1995-yil Xitoyda og'ir atletika bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi (ayni vaqtda Olimpiya o'yinlariga yo'llanma olishga), unda o'zbek og'ir atletikachilari ham qatnashdi. 116 davlat o'rtasida 16-o'rinni egallab, Olimpia o'yinlariga 5 ta yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

1996-yili Osiyo chempionatida 3 ta sportchi qatnashdi, shulardan B.Nuraliyev 7-3-o'rin, I.Xalilov 3-o'rinni oldi. O'zbekiston poytaxti Toshkent shahridagi "Alpomish" sport saroyida 1995-yil 1-8 oktabr kunlari boks bo'yicha XVIII Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Unda 19 mamlakatdan ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Pokiston, Suriya, Tailand, Singapur, Fillipin, Tayvan, Xitoy, Indoneziya, Iroq, Quvayt, Hindiston, Yaponiya va boshqa terma jamoalardan kelgan eng kuchli bokschilar chempionatning medallari bilan bir qatorda Atlanti Olimpiadasiga beriladigan yo'llanmalarni ham qo'lga kiritish uchun ringga chiqdilar.

Shu nuqtai nazardan havaskor bokschilar jahon va Osiyo Federatsiyasining prezidenti Anvor Chaujri O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida ulkan ishlar qilinayotganligini mamnuniyat bilan qayd etdi. Shuning uchun o'zbekistonlik bokschilar yirik xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat bilan qatnashmoqda.

Osiyo chempionatida bokschilarimizga ikki tomonlama ma'suliyat yuklandi. Birinchidan, ular o'z ona Vatanimizda O'zbekiston sharafini himoya qilishadi. Ikkinchidan, final jangi qatnashchilari keyingi yili Atlantida bo'ladigan Olimpiadaga yo'llanma olishadi.

Eng quvonarlisi, 1996-yil iyul-avgust oylarida AQShning Atlanta shahrida o'tkazilgan XXVI Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston sportchilari birinchi marotaba mustaqil komanda bo'lib qatnashdi. Olimpia o'yinlarida 71 ta sportchi qatnashdi. Ikkita sportchimiz Armen Bogdasarov – kumush medal (dzyudo), Karim To'laganov (boks) bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Komanda hisobida 58-o'rinni egalladilar. Ayniqsa, kurashchilar, boskchilar, yengil atletikachilar va boshqa sport turlari bo'yicha ko'pgina sportchilar faxrli o'nlikdan joy olishdilar.

1996-yilning avgust oyida "Olimpia shon-shuhrati" muzeyi tashkil etildi. Uning ochilishda XOQ prezidenti X.A.Samaranch qatnashdi. U

diyorimizda Olimpiya o'yinlari g'oyalarining tashviqot va targ'ibot qilishda, yanada rivojlanishiga yordam berishini aytdi.

1996-yilning 17-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27-sonli "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qildi. Bu qarordan keyin barcha BO'SMLarda futbol bo'limlari, har bir viloyatda futbol-internatlari ochildi, bu respublikamizda futbolni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berdi.

Qadimgi yunon xalq Olimpia shahrida ommaviy musobaqalar o'tkazish bilan zamonaviy Olimpiadaga asos solingan deyish mumkin. Shu ma'noda bizga omad kulib boqdi. Chunki, Turon zaminida birinchi marta Xalqaro Olimpia qo'mitasi tasarrufida o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo o'yinlarini uyushtirish vatandoshlarimiz zimmasiga tushdi. Demak, xalqimiz yaqin kelajakda dunyo tarixidan Toshkent nomi bilan o'rin olsa ajab emas.

Ona Vatanimiz mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan vaqt davomida respublikamiz ko'plab yirik xalqaro turnirlarga mezbonlik qildi. Ayniqsa, milliy kurash, tennis, futbol bo'yicha uyushtirilgan xalqaro turnirlarning o'tkazilayotganligi va milliy qadriyatlarimiz tiklanayotganligi, sportimiz taraqqiyotini, yurtimizdagi osoyishtalikni namoyish etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Osiyo va dunyo sporti tarixidan joy oladigan bunday nufuzli musobaqalarni o'tkazishga mustaqilligimiz sharofati ila muyassar bo'lib turibmiz. Maqsad-mohiyati jihatidan bunaqa salohiyatli sport bayramlari respublikamizda ilk bor o'tkazilayotir. Ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, bunday musobaqa kelajakda O'zbekistonda Osiyo, Olimpiada o'yinlarini o'tkazish sari tashlangan dastlabki yirik qadam bo'ladi.

Toshkentdagi "Paxtakor" markaziy stadionida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo o'yinlari tantanali ochilishida Xalqaro Olimpia qo'mitasi prezidenti Xuan Antonio Samaranch, Osiyo Olimpiya kengashi bosh kotibi ranjar Singk Toshkent tantanalaridan hayratga tushdi. Ayniqsa, mahoratli dorboz Tohir Toshkanboyev Olimpiya ma'shalasini olib olov yoqiladigan barkash tomonga dor ustidan yurib borganda Samarangch ham sevinganidan chapak chalib yubordi.

Xullas, Turkiston umumiy uyimiz shiori ostida 1-Markaziy Osiyo o'yinlarining 12 ta sport turi bo'yicha Toshkentda o'tkazilgan bahsi nihoyasiga yetdi. U mintaqamiz kuchli sportchilari mahoratlarini sinovdan o'tkazish bilan bir qatorda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi qardoshlik, do'stlik, hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamladi.



Respublikamiz sportchilari 1-Markaziy Osiyo o'yinlarida, bir haftalik bahslardan so'ng 158 ta oltin, 156 ta kumush va 165 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Qozog'istonliklar 168 ta, qirg'izistonliklar 67 ta, turkistonliklar 41 ta, tojikistonliklar 15 ta medallar bilan taqdirlandilar.

Mamlakatimiz sportchilari orasida mohir merganimiz Shuhrat Ahmedov eng ko'p-10 ta (6ta – oltin, 3 ta – kumush, 1ta-bronza) medalga sazovor bo'ldi. Uning jamoasida Enver Osmonovlar shunday nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, suzish bo'yicha 2 marta shohsupaning baland pog'anasiga ko'tarilishdi. Shunday qilib yurtimizda sport – tinchlik elchisi ekani amalda namoyon bo'lib turdi.

1997-yili O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, respublika sport kurashlari assotsiyasi va O'zbekiston erkin kurash federatsiyasining tashabbusi bilan "Mustaqillik kubogi" dunyoga keldi va o'tgan qisqa davr ichida Gran-pri turkumidagi musobaqalar orasida munosib o'rin topdi. Jahon sport kurashlari assotsiatsiyasi tomonidan yuksak baholandi.

Mamlakatimizda "Mustaqillik kubogi"ning yuqori saviyada tashkillashtirilishi 1999-yil erkin, yunon-rum va ayollar kurashi bo'yicha XIII Osiyo chempionatining yurtimizda o'tkazilishiga asos bo'ldi. Ushbu nufuzli musobaqada O'zbekiston terma jamoasi 30 dan ortiq Osiyo davlatlari orasida 1-o'rinni egallagandi.

Qilingan ulkan mehnatlar natijasida aynan Osiyo chempionati kunlarida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov dunyo davlatlari rahbarlari orasida birinchi bo'lib Jahon sport kurashlari assotsiatsiyasining yuksak mukofati "Oltin marjon" bilan taqdirlandi.

"Mustaqillik kubogi" jahon sport kurashchilari rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Shu bilan birga O'zbekiston shuhratini olamga o'ziga xos tarzda ko'z-ko'z etmoqda. Shu kungacha bo'lib o'tgan Gran-pri turkumidagi ushbu musobaqalarda dunyoning 60 dan ortiq polvonlari gilamga chiqishgan. Ularning 40 nafaridan oshig'ini turli vaqtlarda Osiyo, Yevropa, Jahon chempionlari bo'lgan sportchilar tashkil etadi.

1997-yil 13-17-sentabrda Qozog'istonda ikkinchi Markaziy Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Bunda bokschilarmiz 6 ta oltin medalni olishga muvaffaq bo'ldilar (Yuldoshev D, Turg'unov T, Abdullayev M, Yarbekov D, Mixaylov S, Chagayev R), 5 ta kumush (Raximov A, Tulyakov T, Xaydarov U, Suleymanov T, Zokirov L) va 1 ta bronza (Toyganboev K) medalini oldilar.

1997-yili O'zbekiston bokschilari Malayziyada o'tkazilgan 19-Osiyo chempionatida qatnashib 3 ta –oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronza medalini oldilar. Umum komanda hisobida 1-o'rinni egalladilar.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 1998-yilida “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni ta’sis etildi. Bu unvon Jahon chempionatlari, Olimpia o‘yinlarida g‘olib chiqqan eng mashhur sportchilarga beriladi.

Faxriy unvonning ko‘krakka taqiladigan nishoni oltin va kumushdan tayyorlangan. Bu faxriy unvon bilan birinchi bo‘lib sakkiz nafar sportchimiz taqdirlangan. Abdullayev M, Grigoryan A, Zokirov L, Tulyakov T, Xujayev Sh, Chagayev R, Cheryazova M, Yusupov O.

1998-yilda sportchilarmiz barcha sport turlari bo‘yicha mamlakat birinchiligida va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib keldilar.

1998-yili boks bo‘yicha O‘zbekiston terma komandasi Tailandda o‘tkazilgan “Qirol Kubogi” xalqaro turnirida qatnashib, 4 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza medaliga sazovor bo‘ldilar. 1998-yil 14-20-iyungacha Xitoyda jahon kubogi musobaqalarida bokschilarimiz qatnashib 2 ta oltin (Abdullayev M, Zokirov L), 1 ta kumush (Turg‘unov T), 3 ta bronza medalini (Yuldoshyev D, Atayev N, Yarbekov D) olishga muvaffaq bo‘ldi.

1998-yilning 22-may kuni Rustam Rajabov hayotidagi unutilmas kun bo‘lib qoldi. Xuddi shu kuni u “Everest” cho‘qqisida O‘zbekiston bayrog‘ini baland qo‘tardi “Qor yo‘lbarsi” degan sharaflı nomga erishdi.

Mard maydonda bilinadi, deymiz, Alpinistlarning maydoni esa tog‘lar, cho‘qqilardir. Eng katta maydon - Everest cho‘qqisi. Ana shu kitobga cho‘qqida O‘zbekiston bayrog‘ini birinchi xilpiratgan baxtli yigit Rustam Rajabovdir.

Dunyo Xalqaro alpinistlar federatsiyasi tashkilotining faxriy kitobi bor. Ana shu Rustam Rajabovning ismi-sharifi ham bitildi. Tug‘ilgan joyi degan yeriga esa zarhal harflar bilan “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

1998-yilda Malayziyada suzish bo‘yicha Osiyo chempionatida qatnashgan Saida Iskandarova kumush medal bilan taqdirlandi.

Butun jahon o‘smirlar o‘yini Moskva shahrida bo‘ldi. Bu musobaqada ham sportchilarimiz muvaffaqiyatli qatnashdilar. Iqtidorli tennischi Iroda To‘laganova juftlik musobaqasida 3-o‘rinni oldi. “Bilimdon” (London) turniri yoshlar musobaqasining finalida ishtirok etdi.

Shaxmatchilarimiz ham ajoyib o‘yinlar ko‘rsatdilar. Rustam Qosimjonov Osiyo chempioni bo‘ldi.

1998-yilning 6-sentabrida Milliy kurash xalqaro assotsatsiyasining tashkil etilishi va uning faxriy prezidenti qilib I.A.Karimovning saylanishining o‘zi taxsinlarga sazovordir. Ayrim sport turlarini bir necha o‘n yillar davomida dunyo tan olmadi, Milliy kurashimizni dunyo yetti yil ichida tan oldi, bu bizning katta yutug‘imiz hisoblanadi.

1998-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasida tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 392-sonli qarori qabul qilinishi katta ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha viloyat markazlarida tennis maydonlari qurilib ishga tushirildi. Ularning soni 74 tadan oshib ketdi.

Toshkentda tennis bo‘yicha har yili o‘tkaziladigan “Prezident kubogi”, “Chelendjer” va Andijon, Farg‘ona, Namangan, Samarqand va boshqa viloyatlardagi “Santellit” turnirlarining o‘tkazilishi va ularda kuchli sportchilarimiz Oleg Ogorodov, Vadim Kuseino, Dimitriy Tomashevich, Dimitriy Mazur, R.G‘aniyevlar qatnashib sovrinli o‘rinlarni egallashlari bizni juda quvontiradi. Ular Osiyo kubogi o‘yinlari g‘olibi, Osiyo o‘yinlari jamoa turniri dasturida bronza medallarini olishib, tennis rivojlanayotganidan daolat beradi. Prezident Kubogi musobaqasi 1994 yildan boshlab har yil o‘tkazilib kelinmoqda. Bu musobaqa nafaqat qit‘adagi, balki dunyodagi eng nufuzli tennis turnirlaridan biri sanaladi. Bu fikrimizni ushbu turnirni ATR tarafidan yilning eng yaxshi musobaqasi deb topilishi ham isbotlab turibdi. Kubogni qo‘lga kiritgan sportchilar Chak Adame (1994, AQSh), Karim Alami (Marakko, 95), Feliks Mantilya (Ispaniya 96), Tim Xenman (Buyuk Britaniya 97, 98), Nikole Kafer (Germaniya 99), (Mart Safin 200) va h.k.

2000-yil “Toshkent OPEN” WTA turnirining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ushbu turnirlar tashkil topganligiga 5 yil to‘lganligidir. Ana shu davr mobaynida Toshkent turniri turli jihatlari bilan takomillashdi hamda mukofot jamg‘armasi oshib bordi. Bunday deyishimizga sabab musobaqalar, uch yil davomida (1996-97-98 yillar) “Chelendjer” turniri sifatida o‘tkazilgan bo‘lsa, 1999-yildan boshlab “Toshkent OPEN” WTA turniri maqomini oldi. Bu turnirda iqtidorli tennischimiz Iroda To‘laganova raqiblarini yutib birinchi o‘rinni egalladi. Bu turnir Yoshlar o‘rtasida talantli tennischilarning yetishib chiqishiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston og‘ir atletikachilari o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida qatnashib umum komanda hisobida birinchi o‘rinni ishg‘ol qildilar.

1998-yilda mustaqil O‘zbekistonning birinchi komandasi Osiyo kubogi uchun o‘tkazilgan musobaqalarda Osiyo kubogini qo‘lga kiritdi (komandamiz jami 21 ta medalni qo‘lga kiritdi).

1998-yildagi XIII Osiyo o‘yinlarida 8 ta og‘ir atletikachilarimiz qatnashib 1 ta kumush, 1 ta bronza medalini olishib, umum komanda hisobida 5-o‘rinni egallashdi.

1998-yili AQSh Nyu-York shahri o'yinlarida qatnashgan bokschilarimiz 1 ta oltin (Tulyakov T) va 1 ta bronza (Erbekov D) olishga muvaffaq bo'ldilar.

1999-yil O'zbekiston sportchilari uchun xalqaro turnirlarga boy yili bo'ldi, chunki sportchilarimiz XXVII Olimpiya o'yinlari arafasida yirik xalqaro turnirlarda, shular qatorida Olimpia o'yinlariga yo'llanma oladigan saralash musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashdilar.

## **MILLIY XALQ O'YINLARI**

Har bir xalqning o'z milliy urf – odati va an'analari bor. Turon zamin xalqlarining an'analari qadimiyligi va rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Biroq ularning ko'pi mustabidlik natijasi ularoq unutilayotgan edi. Endi mustaqillik sharofati tufayli milliy qadriyatlarimizni qayta tiklayapmiz.

1991-yil aprel oylaridan boshlab Jizzax viloyatining Forish qirlarida o'tkazilishini xalqimiz mamnunyat bilan qo'llab-quvvatlamogda. Shu bois respublika jismoniy tarbiya va sport qo'mitasida bu tadbirni yanada oliy darajali sport tadbirlariga aylantirish maqsadida 1994-yil 5-7-may kunlari Forish tumani Qizilqar sayilgohida milliy sport va xalq o'yinlarining birinchi Olimpiadasi o'tkazildi.

Olimpiadaning asosiy maqsadi milliy qadriyatlarimizni, xalq an'analarini tiklash, ularni aholi o'rtasida, sog'lom avlodni tarbiyalashda qo'llash, ayniqsa, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash, yoshlarni har tomonlama barkamol, epchil, chaqqon, kuchli, bardoshli, chidamli, botir qilib tarbiyalashlarini aniqlashdan iborat.

Olimpiadaning o'ziga xos qator shartlari borki, unga amal qilish, barcha ishtirokchilar uchun qa'tiydir, ya'ni musobaqaga maxsus tayyorgarlik ko'rgan viloyat g'oliblari 14-17 yoshdagi faqat umumta'lim maktab o'quvchilari (8-11-sinfdagi o'g'il-qizlar)dan iborat jamoalar taklif etilgan. Bahslar viloyatlarga yuborilgan Nizomda ko'rsatilgan xalq o'yinlari turlari bo'yicha o'tkazilgan. Har bir o'yin uchun jamoalar o'rni (bal to'plash bilan aniqlanadi. Mabodo jamoalar ballarining yig'indisi bir xil bo'lsa, bunday vaziyatlarda qancha jamoa ko'proq turlardan 1-o'rinni egallagan bo'lsa yoki teng bo'lsa, 2 - yoki 3 - o'rinni) olganligiga asos bo'ladi.

Olimpiada dasturiga quyidagi xalq o‘yinlari kiritilgan va unda qatnashuvchilar soni chegaralangan:

1. O‘g‘il bolalar uchun:

1. Bo‘ron-5 kishi; 2. Chunqa shuvoq-5 kishi; 3. Chavondoqlar-2 kishi; 4. Eshak mindi – 5 kishi; 5. Yelkada kurash-2 kishi; 6. Qirq tosh- 3 kishi.

O‘g‘il bolalarning umumiy soni o‘ntadan oshmasligi har bahsda ishtirok etishi mumkin.

2. Qiz bolalar uchun:

1. Otib qochar-5 kishi; 2. Tortishmachoq-5 kishi (belbog‘ bilan); Qirq tosh – 2x3 kishi.

Qiz bolalar tarkibi 5 nafar qilib belgilanadi. Ular birga musobaqalarda qatnashish huquqiga ega. Dasturdagi qirq tosh o‘yiniga 3 o‘g‘il va 2 qiz bir jamoa bo‘lib qatnashadilar, shuningdek, jamoalardagi 2 nafari milliy kurash (Buxoro va Farg‘onacha usullarda) bittasi tosh ko‘tarish (16 kg) musobaqalarida bellashadi. Kurashda to‘ylarda uyushtiriladigan an‘anaviy xalq bellashuvlari asos qilib olinadi.

Barcha viloyatlardan kelgan jamoalarning tarkibi 15 kishidan iborat bo‘lishi (10 o‘g‘il, 5 qiz) va unga bir murabbiy rahbarlik qilishi shart.

Olimpiada qatnashchilari (murabbiy va hakamlar) musobaqaga milliy kiyimda qo‘yilgan. O‘g‘il bolalar oq surp matodan ishton, yaktak va belida belbog‘ bilan maydonga to‘shadi. Qiz bolalar uchun atlas yoki beqasam matodan sharvar kiyish talab etiladi. Uning o‘rniga oq surpdan tayyorlangan shalvar va ustiga tushib turadigan yaktak (kofta) ham kiyish mumkin. Lekin oyoq kiyimlari yumshoq bo‘lishi qat‘iydir. Yaktakning yelka tomonlariga viloyat nomi qizil rangda (elka harflari balandligiga viloyat nomi qizil 5x0, 5 sm tartibda) yoziladi. Jamoa rahbarlari, murabbiy va hakamlar har bir o‘yinga zarur bo‘lgan shaxsiy jihozlar, asbob- uskunalar, kiyim va belbog‘lar olishni unutmasinlar. Aks holda musobaqaga qo‘yilmaydi.

Nizomda yana g‘olib chiqqan jamoalarni sovg‘a va diplomlar bilan, undan tashqari xalq o‘yinlari turlari bo‘yicha sovrinli o‘ringa sazovor bo‘lgan qatnashchilarga “Oltin”, “Kumush” va “Bronza” medallari topshiriladi.

Musobaqa maydoni bo‘lgan Qizil qirga shu kuni Jizzax viloyatining barcha shahar va tumanlaridan hamda viloyatlardan jamoalar tashrif buyurishadi.

Mustaqillik xalqimizning milliy sport o‘yinlarini qayta tiklash va xalqaro maydonga olib chiqish imkoniyatini berdi. O‘zbekiston Respublikasida 1992-yildan buyon milliy sport turlari va xalq o‘yinlari

festivali o'tkazilib, 1999-yilda ayollar o'rtasida ham "To'maris" milliy sport musobaqalari va xalq o'yinlari festivali o'tkazila boshlandi.

Davlatimiz rahbariyatining doimiy e'tibori tufayli xalqimizning faxri bo'lgan o'zbek kurashi xalqaro maydonda tan olindi. 1992-yildan Termiz, Buxoro, Urganch, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlarda o'zbek kurashi bo'yicha Amir Temur, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Bobur Mirzo, Pahlovon Mahmud xotiralariga bag'ishlangan xalqaro turnirlar o'tkazib kelinyapti. O'zbek kurashining yangi qoidalari, yangi kiyimi tasdiqlanib, 1992-yilda Janubiy Koreyada, 1993-yilda Kanadada, 1994-yilda Yaponiyada, 1995-yilda Hindistonda, 1996-yilda Atlantada, 1998-yilda Moskvada o'tgan xalqaro turnirlarda targ'ib qilinib, ilmiy tizimiga asoslangan tarzda dunyo miqyosiga olib chiqiladi.

1998-yili Xalqaro kurash assotsatsiyasi tashkil etilib, 1999-yilda Toshkent shahrida kurash bo'yicha birinchi, 2000-yilda Turkiyaning Antaliya shahrida ikkinchi, 2001-yilda Vengriyaning Budapesh shahrida uchinchi, 2002-yilda jahon chempionatlari o'tkaziladi.

Shu bilan birga belbog'li kurash, turon yakka kurashi, ko'pkari-uloq kabi o'yinlar munosib o'rin egallay boshladi. Mazkur sport turlari bo'yicha ham mamlakatda muntazam ravishda xalqaro musobaqalar tashkil etilmoqda.

2000-yilda Toshkent shahrida Milliy sport turlarini rivojlantirish markazi tashkil etilgani bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatlashtirish imkonini bermoqda.

Uzoq tarixga ega bo'lgan milliy kurashimiz umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirishi, usullarining boyligi bilan qisqa vaqt ichida ko'pgina mamlakatlar sport jamoatchiligi e'tiborini tortdi. Mamlakatimiz Prezidenti va sport faollari sayi-harakati tufayli xalqaro miqyosda tobora ommalashib borayotgan sportning bu turi yaqin kelajakda Olimpia o'yinlari dasturiga kiritilishi shubhasiz.

1999-yil respublikamiz sportchilari uchun Olimpia o'yinlaridan oldingi juda ma'suliyatli yil bo'ldi, chunki sportchilarimiz juda ham ko'p xalqaro uchrashuvlar va Olimpia o'yinlarida qatnashishga, saralash musobaqalardan muvaffaqiyatli o'tishga qattiq tayyorgarlik ko'rish davri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 271-sonli qarori asosida jismoniy tarbiya va sport ishlarini hayotga tatbiq qilishda xalq ta'limi maktablari jamoalari faol ishtirok etmoqda. Ularda jami 5592400 o'quvchi-yoshlar ta'lim

olmoqda. Maktablarda jismoniy tarbiya bilan muntazam ravishda 5506556 o'quvchi, 989507 nafari sport seksiyalarida, 6239 yoshlar sog'lomlashtirish guruhlarida shug'ullanadi. Ularni jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda 20920 o'qituvchi faol xizmat qilmoqda.

1999-yilning 1-3-may kunlarida Toshkent shahrida Milliy kurash bo'yicha 1-jahon chempionati bo'lib o'tdi. Bu chempionatga 48 davlatdan kurashchilar qatnashdi. Yuqori darajada o'tgan musobaqada respublikamiz vakillarining barcha vazn toifalarida Akbar Qurbonov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyevlar jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdilar.

1999-yilning may oyida Toshkentda Erkin kurash bo'yicha XIII-Osiyo chempionatida muvaffaqiyatli qatnashdilar. Ular 3 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza oldilar.

Shu yili Sidney shahrida o'smirlar o'rtasida jahon chempionati musobaqalari bo'lib o'tdi. Mansurov D 2-o'rinni egalladi. Kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan jahon chempionatida 1ta – 2 o'rinni, 2 ta – 2 o'rinni egallashdi.

1999-yili respublikamizning boks bo'yicha terma komandasi AQShning Xyuston shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida 2 ta oltin, bitta kumush (M.Adbullayev, O'.Xaydarov-oltin), T.Turg'unov kumush medallarini qo'lga kiritdilar. Dzyudo bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida 1 tadan kumush medalini oldilar.

Shu yili og'ir atletika bo'yicha o'smir va yoshlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi. O'smirlar va yoshlar jamoalari umum komanda hisobida birinchi o'rinni oldilar.

2000-yil 23-24-aprelda Qoraqalpoq xalqining sevimli pahlavon farzandi Sapalak polvon xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Turnirga 10 ga yaqin davlatlardan mehmonlar tashrif buyurdilar. Jami yuz nafar kurashchi-polvonlar o'rtasidagi musobaqa 5 vazn toifasida o'tkazildi. Ushbu turnirda Qudrat Rahmetov, Jumaboy Konyarov, Abdulla Saidov, Rustam Otayev, Murod Boltaniyazovlar g'olib chiqdilar.

2000-yil 14-15-aprelda Shahrizabzda o'zbek kurash bo'yicha Amir Temur xotirasiga bag'ishlangan Prezident sovrini uchun Sh-xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda mahalliy polvonlarimiz qatori Rossiya, Polsha, Turkiya, Isroil, Bolgariya, Ozarboyjon, Gurziya, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Litva, Latviya kabi yigirmadan ortiq mamlakatlarning sara pahlavonlari faqat mutloq vazn toifasida g'oliblik uchun bellashdilar. Unda o'zbekistonlik polvon Bahrom Avazov g'olib chiqdi.

Shu yilning may oyida oxirida Rossiyaning Bryansk shahrida xotin-qizlar orasida xalqaro turnir o'tkazildi. Dekabr oyida Belorusiyaning Minsk shahrida erkaklar orasida Yevropa chempionati o'tkazildi.

2000-yil 26-fevralida Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida "belbog'li" kurash bo'yicha "Xojabobo" xotirasiga bag'ishlangan turnir bo'lib o'tdi. Unda Qirg'iziston, Qozog'iston polvonlari ham ishtirok etishdi.

O'zbek kurashi jahonni qamrab olmoqda – 1 milliondan ortiq nusxada chop etiladigan Buyuk Britaniyaning "Totnc sport" jurnalida yangragan bu so'z, bugun haqiqatga aylandi. O'zbek kurashi Amerika, Afrika, Yevropa, Avstraliya, Osiyo qit'alariga tezlik bilan yoyilmoqda.

Bugun Turk polvoni Salim Tatar o'g'lini, Yapon polvoni Komimotani, polshalik Pavel Malavaneski, braziliyalik Karlos polvonni, Parchavaylik Katsugarini, Gurizin Xoxlashvilini, qozog'istonlik Doston Primqulovni, Bolgariyalik Geogriy Tannovni dunyo o'zbek kurashi pahlavni sifatida biladi.

Jahon o'zbek polvonlari-Toshtemir Muhammadiyev, Kamol Murodov, Bahrom Avazov, Akbar Qurbonov, Maxtumquli Mahmudovlarni, Abdulla Tangiriyevlarni san'atiga tan beradi.

Vengriyalik Loslo Tot, Hindistonlik Jagde, Toshler, turkiyalik Ibrohim Uzteq, rossiyalik Igor Yalishev, Boliv Yakil Edgor Kladr, Jarlik Andrey Frenyalar o'zbek kurashining dunyoga yoyilishida jonbozlik ko'rsatayotgan insonlar qatorida tanildi.

Bugungi kunda XKA 5 qit'aning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan madaniy sport aloqalarini yo'lga qo'ygan, jahonning 50 dan ortiq mamlakatlarida esa rasmiy federatsiyalari faol olib bormoqda.

2000-yilning 6-7-may kunlari Rossiya Federatsiyasining Tver shahrida 1984-86- yillarda tug'ilgan yosh yigit va qizlar o'rtasida O'zbek kurash bo'yicha tarixiy 1-jahon birinchiligi bo'lib o'tdi. Unda kurrai zaminimizning 15 dan ortiq davlatlarning yosh polvonlari ishtirok etdilar. Jumladan, Estoniya, Fransiya, Rossiya, Ozarboyjon, Ukraina, Belorusiya, O'zbekiston, Gruziya, Qozog'iston kabi davlatlarning yosh yigit va qizlari g'oliblik uchun o'zaro kuch sinashishdi. Jahon birinchiligi o'g'il bolalar o'rtasida 6 ta vazn toifasida bo'lib o'tdi.

48 kg vazn toifasida Xojiboyev Nizomiddin (O'zb), 50 kgda Nurtoyev Xikmat (O'zb) birinchi o'rinni oldilar. 55 kgda Ermatov Bahrom, Ravshanov Olim, Bekchanov Umidlar 2-3-o'rinlarni egalladi. 60 kgda Mamatov Furqat birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.



Qiz bolalar o'rtasida 48 kg vazn Xaytambetova Feruza 2-o'rin, 52 kgda Jalolova Gulmira, Xazratova Dilshodalar 3-o'rinni, 57 kgda Kojemyaniko Lyudmila 2-o'rinni oldilar.

Umumiy hisobda O'zbekiston sportchilari birinchi o'rinni oldilar (3 ta oltin, 3 ta kumush, 4 ta bronza).

Bir so'z bilan aytganda, 1-Jahon birinchiligini bunday yuqori saviyada, oliy darajada o'tishi O'zbek kurashining kurrai zaminimizda yashovchi barcha millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin olishi, o'zbekistonlik har bir fuqaroning g'ururlanishiga va faxrlanishiga arziydi.

2000-yil 1-3-oktabrda Angliyaning Bedford shahrida "Islom Karimov turniri" muvaffaqiyatli o'tkazildi.

2000-yil 13-17-iyulida Turkiyaning Antaliya shahrida o'zbek kurashi bo'yicha 2-jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda Bahrom Avazov, Maxtumquli Mahmudov jahon chempionatida birinchi o'rin egalladi.

2000-yilda Avstarliyaning Sidney shahrida o'tgan Olimpia o'yinlarida esa 77 nafar sportchimiz Vatanimiz sharafini himoya qilib, bokschildan Muhammadqodir Abdullayev oltin, Rustam Saidov, Sergey Mixaylovlar bronza, erkin kurashchi Artur Taymazov kumush medallari sohibi bo'ldilar.

O'zbekistonda sportchi va murabbiylar mehnatini ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga katta e'tibor berilib, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustasi" va "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlari ta'sis etildi. (1992-y).

2001-yil 28-iyun 1-iyul poytaxtimizdagi JAR sport majmuasida sambo bo'yicha Osiyo X-chempionati bo'lib o'tdi. Bu bahslar qi'tamizning O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Mag'iliston, Yaponiya, Qirg'iziston, Turkiya, Tojikiston singari davlatlari bir qismi Osiyoga tutashgan Rossiya vakillari ham ishtirok etdilar. O'zbekistonlik sportchilar to'rtta 1-o'rinni egalladilar.

2001-yili erkaklar o'rtasida Sambo bo'yicha jahon chempionati musobaqasi Rossiyaning Krasnoyarsk shahrida bo'lib o'tdi. Ushbu bellashuvda 27 davlatdan 300 nafarga yaqin sportchilar 9 vazn toifasida g'oliblik uchun kurashishdi.

52 kg-Shavkat Jo'rayev 2-o'rin. Darqiqat, 27 davlat orasida O'zbekistonning 2-o'rinni qo'lga kiritishi o'ziga xos voqealik edi.

Erkin kurash va Yunon-rum kurashi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida 1 ta kumush va 1 ta oltin medalni olishga muvaffaq bo'ldi.

Boks bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida 1 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

2001-yilda Vengriyaning Budapesht shahrida milliy kurash bo'yicha uchinchi jahon chempionati o'tkazildi.

O'zbekiston sportchilari eng yirik xalqaro musobaqalarda - Olimpiada va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida mustaqil davlat vakili sifatida qatnashishdek ma'suliyatga va sharafiga muyassar bo'ldilar.

1992-yilda Manilada bo'lib o'tgan Butun jahon shaxmat Olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi 100 dan ortiq mamlakat vakillarini ortda qoldirib, jahon chempioni G.Kasparov boshchiligidagi Rossiya terma jamoasidan so'ng faxrli ikkinchi o'rinni egallagan katta voqea bo'lgan edi. 1991-yilda faqat bitta xalqaro Groesmeyster-Georgiy A'zamov yetishib chiqqan bo'lsa, mustaqillik o'n bir yilligida 10 nafar grossmeyster yetishib chiqdi. Shuningdek, o'smirlar o'rtasida Jahon chempioni degan sharafiga muyassar bo'lgan I.Hamraqulov dunyo reytingida yuqori o'rinni egallagan. 2004-yil Tripolida o'tgan jahon chempionati g'olibi sifatida shaxmat tojini kiygan R.Qosimjonov kabi iste'dodli shaxmatchilar ham yetishib chiqdilar.

O'zbekiston sportchilari yozgi va qishki Olimpiya, birinchi Osiyo va butun jahon o'smirlar o'yinlarida hamda eng yirik xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, birgina bokschilarimiz orasidan 1 ta Olimpiya chempioni, 5 ta Olimpiya o'yinlari sovrindori, 3 ta jahon chempioni, 5 ta jahon chempionati sovrindori, 5 ta Osiyo o'yinlari g'olibi, 13 ta Osiyo chempionati, 5 ta jahon Kubogi g'olibi, 1 ta Olimpiada o'yinlari g'olibi yetishib chiqqani ham bu fikrning tasdig'idir.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy bazasini rivojlantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Buxoro, Jizzax, Samarqand, Qarshi, Termiz, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. Toshkent shahridagi Yunusobod "Suv havzasi", "Jar", milliy zali, Namangan shahrida "Paxlovon", Jizzax shahridagi Olimpia zaxiralari kolleji sport majmualari va boshqalar shular jumlasidandir. 2000-yilga kelib mamlakatimizda sport inshootlari soni 7407 taga yetdi yoki 1992-yildagi nisbatan 19 foizga ko'paydi. Ularni bunyod etishda, ayniqsa, murakkab sport inshootlari-stadionlar, suzish havzalariga, sport zallariga alohida e'tibor berilyapti. 2003-yilda 1991-yilga nisbatan 1950 tacha yoki 44 foizga, suzish havzalari 100 taga yoki 87 foizga oshdi. Bundan tashqari, futbol maydonlari soni 2114 taga yoki 37 foizga, tennis kortlari esa 757 ga yoki qariyb 4 barobarga ko'paydi.

Asosiysi, yangidan barpo etilgan yoki rekonstruksiya yo‘li bilan qayta tiklangan barcha sport sog‘lomlashtirish maskanlari zamonaviy loyihalar, sharqona uslub va yuqori samaradorlik asosida tashkil etilayotgani, barcha sport turlari bo‘yicha texnik malakalarni egallash imkonini beruvchi vositalar bilan jihozlanayotgani tahsinga loyiqdir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bunday amaliy ishlar yaqin kelajakda ya’ni ko‘proq natijalar berishi shubhasiz.

2001-yilda boksni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydigan Fondga asos solindi. Shu tufayli respublikada boksni rivojlantirish, tashviqot va targ‘ibot qilish bo‘yicha juda katta ishlar qilindi.

2001-yilda Xitoyda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida 6 ta og‘ir atletikachilarimiz qatnashdi. Ular quyidagi o‘rinlarni egalladilar 1ta – 1-o‘rin, 5ta – 3-o‘rinni egalladilar.

Yunon-Rum kurashi bo‘yicha 1 ta oltin, 1 ta kumush, 3 ta bronza medalini, sambochilar (erkaklar) 4 ta oltin, 2 ta bronza medallari sohibi bo‘ldilar.

Mamlakatda yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportchining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda zamonaviy bolalar sport majmualari tarmog‘ini barpo etish hamda sport asbob-anjom va jihozlari bilan ta’minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida 2002-yil 24-oktabrda O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti jamg‘arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kenges raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar homiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

2002-yilda Tailandda 15 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar o‘rtasida Osiyo birinchiligi o‘tkazildi. Osiyo qit’asidagi 16 davlat o‘rtasida O‘zbekiston terma komandasi ikkinchi marta birinchi o‘rinni egaladi.

Shu yili talabalar va kollej o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan Jahon chempionatida O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti talabalar terma jamoasi umum komanda hisobida 3-o‘rinni egalladilar.

2002-yilda Janubiy Koreyaning Pusan shahrida o‘tkazilgan XIV Osiyo o‘yinlarida respublikamiz terma jamoasi muvaffaqiyatli qatnashdilar. Jumladan, og‘ir atletikachilarimiz 1 tadan 8-o‘ringacha egallab komanda hisobida 5-o‘ringa chiqdilar. Bokschilarimiz 5 ta oltin, 1 ta kumush, 3 ta bronza, erkin kurashchilarimiz 2 ta oltin, Yunon-Rum kurashchilarimiz 1 ta oltin, 1 ta kumush. **Dzyudochilar** (erkaklar) 1 ta

oltin, 3 ta bronza medalini sambochilar (erkaklar) 2 ta oltin, 4 ta kumush, 2 ta bronza, ayollar 2 ta kumush, 3 ta bronza, karate - 2 ta kumush, 1 ta bronza medallarini olishga muvaffaq bo'ldilar.

O'quvchi yoshlar sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda uzluksiz jalb qilish maqsadida, "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" 2003-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarini hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi.

Bolalar uchun sport tovarlari turlarini ko'paytirish hamda mintaqalar maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan "Bolalar sportini targ'ib qilish va bolalar uchun sport tovarlari ishlab chiqarish turlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2003- yilda qarori qabul qilinib, uning asosida mamlakatda sport kiyimlari va anjomlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, uning mohiyatini mamlakat aholisiga keng yetkazish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2003-yilda "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga binoan, O'zbekiston televideniyesida maxsus "Sport" kanali tashkil etildi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir qonun, farmon va qarorlar bu sohaning tez sur'atlar bilan taraqqiy etishiga, xalqaro maydonda O'zbekiston nufuzi va obro'sining oshishiga, qolaversa, aholining, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarning sportga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga olib keldi. Mamlakatda sog'lomlashtirish ishlari barcha ijtimoiy va ishlab chiqarish soha muassasalarida jonlandi, boshlang'ich sport jamoalarining ishlari faollasha boshladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan 504 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari hamda ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar Olimpia zaxiralari maktablari, 11 ta Olimpiya o'rinbosarlari bilan hamda 8 ta Respublika Oliy sport mahorati maktabida yuqori malakali, iste'dodli sportchilar tayyorlamoqda. Malakali sportchilarni tayyorlash bilan birga ommaviy sportni rivojlantirishda sport jamoalari, federatsiyalar va boshlang'ich sport jamoalari tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirildi.

1991-yilda respublikamizda 52 ta sport turi mavjud bo'lsa, 2000-yilga kelib ularning soni 70 taga yetdi. Bugungi kunda amalga bo'lgan 70 ta sport turini ommalashtirish uchun tegishli sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur ishlar evaziga sport bilan shug'ullanayotganlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Joylarda sport turlarining jadal rivojlanishi shug'ullanuvchilar sonining muntazam oshishiga va aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan turli musobaqalar orqali o'quvchi-yoshlar, nogironlar, ishchi va xizmatchilar, barcha ijtimoiy qatlarga mansub aholi vakillari sportga jalb qilindi. Har yili umumta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey o'quvchilari, talabalar, ishchi va xizmatchilar, huquq-targ'ibot, mudofaa xodimlari o'rtasida basketbol va voleybol bo'yicha "Kamolot kubogi", milliy sport o'yinlari musobaqalari, harbiy xizmatga chaqiriladigan yoshlar o'rtasida "Shunqorlar" harbiy sport musobaqalari, nogironlar o'rtasida "Jasorat-iroda g'alaba" musobaqalari, shuningdek, ayollar, qishloq xotin-qizlar spartakiadalari va boshqalar muntazam o'tkazib kelinyapti. 2000-yildan boshlab uzluksiz sport musobaqalari tizimi asosida talabalar o'rtasida "Universiada", o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida "Barkamol avlod" va o'quvchilarning "Umid nihollari" sport musobaqalari o'tkazila boshlandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvaffaq ta'lim modeli asosida, o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga uzluksiz jalb qiladigan, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" ommaviy sport musobaqalarini o'z ichiga olgan uch bo'g'inli yagona tizim tashkil qilinadi va amaliyotgan joriy etiladi.

Respublika aholisining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish orqali sog'lom turmush tarzini ta'minlash, turli ijtimoiy illatlarning oldini olish maqsadida o'z bo'g'inli yagona sport tizimi negizida ommaviy sport harakatining milliy modeli ilmiy asosda tuzildi.

Ommaviy sport harakati milliy modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- aholining barcha qatlamlarini kundalik sport harakatiga jalb etib, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va milliy tarzda sog'lomlashtirish;
- mamlakat aholisining yoshi, hayotiy ko'nikmasi, bilim, ijtimoiy holati, imkoniyati, sharoiti, mustaqil harakatlanishining inobatga olinganligi;
- model barcha bo'g'inlari uzviy va mantiqiy bog'langanligi;

- model har bir bo'g'inning funksional maqsadlarini aniq belgilash asosida ularning o'zaro harakat tizimlari ishlab chiqilganligi;

- modelda belgilangan aholi o'rtasida sog'lom hayot tarzini ta'minlashning funksional maqsadiga ta'sir etishi va zanjirsimon siklga egaligi;

- modelning funksional maqsadi amalga oshishi bilan o'quvchi va talaba yoshlar orasidan yuqori malakali, Vatanga yuksak mehr-muhabbat, o'z mamlakati obro'si uchun munosib kurasha oladigan iqtidorli sportchilar yetishib chiqishi.

Mazkur tizim 5 ta bo'g'indan tashkil topib, u maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni, umumta'lim tizimidagi yoshlarni, oliy ta'limdagi talabalarni hamda ishlab chiqarish sohasidagi va undan tashqaridagi barcha yoshdagi fuqarolarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport o'yinlariga jalb qilish, ularning sog'lomlik darajasini sport harakatlari orqali oshirishga qaratiladi.

Birinchi bo'limning asosiy funksional maqsadi maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda birlamchi jismoniy harakat ko'nikmasini dastlab oila, bog'cha va mahallalarda shakllantirish, bolalarda har kuni sport bilan shug'ullanish ko'nikmasini hosil qilish. Bu kerakli va qiziqarli vositani turli o'yinlar orqali joriy etish; bolalarni yoshiga va xohishiga mos ravishda faol harakatga keltira oladigan tizimning ilmiy va amaliy asosini mamlakat miqyosida yaratish va uni keng joriy qilishdan iborat.

Xalq ta'limi vazirligi, xokimliklar, bolalar sportini rivojlantirish, "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla" jamg'armalari va boshqa tashkilotlar orqali ushbu bo'limning funksional maqsadi amalga oshiriladi.

Ikkinchi bo'limning funksional maqsadi 9748 ta o'rta umum ta'lim tizimi o'quvchilarining dastlabki jismoniy harakat ko'nikmalarini jismoniy tarbiya darslarida va musobaqalarida mustahkamlash hamda ularning sportga bo'lgan mehrini uyg'otish orqali jismoniy sog'lomligini ta'minlash; "Umid nihollari" sport musobaqalari, maktab va maktabdan tashqari sport to'garaklari faoliyati orqali o'quvchilarning sport turlariga qiziqishini kuchaytirish; o'quvchilarning sport turlariga bo'yicha qobiliyatlarini aniqlash, iqtidorli yoshlarni bolalar va o'smirlar sport maktabi, maxsus bolalar va o'smirlar sport maktablari va Olimpia zaxiralari sport kollejariga yo'naltirish hamda bosqich musobaqalaridagi ishtirokini ta'minlash; jismoniy tarbiya va sportni maktab o'quvchilarining kundalik ehtiyojiga aylantirishdan iboratdir.

Xalq ta'lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari Vazirligi, hokimliklar, Milliy Olimpia qo'mitasi, O'zbekiston bolalar sportini

rivojlantirish, “Sogʻlom avlod uchun”, “Mahalla” jamgʻarmalari va boshqa tashkilotlar orqali ushbu funksional maqsad amalga oshiriladi.

### **Uchinchi boʻlimning funksional maqsadi:**

- kasb-hunar taʼlimi oʻquvchilarining jismoniy qobiliyatlarini namoyish etish; jismoniy tarbiya va sport kundalik ehtiyojiga aylangan oʻquvchilarning “Barkamol avlod” sport musobaqalarida faol ishtirokini taʼminlash; sport bilan shugʻullanadigan, sogʻlom turmush tarziga amal qiladigan, maʼnaviy va jismoniy ishlashga intiladigan yoshlarni tarbiyalash, ular orasidan mamlakat terma komandasi aʼzolari va aʼzolikka nomzodlarni yetishtirish.

Madaniyat va sport ishlari vazirligi, hokimliklar va Milliy Olimpia qoʻmitasi, “Oʻzbekiston Bolalar sportini rivojlantirish”, “Sogʻlom avlod uchun”, “Mahalla” jamgʻarmalari va boshqalar orqali ushbu maqsad amalga oshiriladi.

### **Toʻrtinchi boʻlimning funksional maqsadi:**

- oliy taʼlim muassasalari talabalarining umumiy oʻrta va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi tizimida sport turlaridan toʻplangan tajriba va mahoratlarini “Universiada” sport musobaqalarida yanada faollashtirish, talabalarning jismoniy va maʼnaviy salomatligini mustahkamlash, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni yetishtirishdan iborat.

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, hokimliklar, Milliy Olimpia qoʻmitasi va boshqa tashkilotlar orqali ushbu funksional maqsadni amalga oshirish belgilanadi.

### **Beshinchi boʻlimning funksional maqsadi:**

- taʼlim tizimida jismoniy tarbiya va sport harakatidagi oʻyinlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaga oʻtgan mutaxassislarining sportga boʻlgan ehtiyojlarini sohalar boʻyicha sport musobaqalari, oilaviy va boshqa oʻyinlar orqali qondirish va jamiyatda sogʻlom turmush darajasini mustahkamlash; sport sogʻlik harakatidan bosqichma-bosqich oʻtib, sportni kundalik ehtiyojiga aylantirish, ota-onalarning oʻz bolalarini jismoniy tarbiyaga jalb etib ularda sportning birlamchi asoslarini shakllantirishdan iborat.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va hokimliklar, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Bolalar sportini rivojlashtirish, “Sogʻlom avlod uchun”, “Mahalla” jamgʻarmalari va boshqa tashkilotlar orqali ushbu funksional maqsadning amalga oshirish belgilanadi.

Mazkur tizim musobaqalarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 244-sonli qarorini qabul qildi. Qarorga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yoshlarda sportga bo‘lgan havas va intilishni, jamiyatimizni sog‘lomlashtirish tamoyillarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o‘quvchi va talabalarni sport mashg‘ulotlariga uzluksiz jalb qilishga qaratilganligi sport musobaqalari tizimini kadrlar tayyorlash milliy modeli dasturiga muvofiq tashkil qilish hamda uning samarali ishlashini ta’minlash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Qarorda o‘quvchi va talaba-yoshlarning “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport musobaqalarining respublika finalini hududlarda o‘tkazish rejasi belgilandi. Rejaga binoan, final musobaqalari 2004-yildan boshlab uch yilda bir marotaba o‘tkazilib, birinchi davra 2011-yilda yakunlandi, ikkinchi davra esa 2012- yilda boshlandi.

### **“Umid nihollari” sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish**

“Umid nihollari” musobaqalarini birinchi necha bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Musobaqalar bosqichlarini birinchi yil o‘tkazish tartibi.

**1. Maktab bosqichi** (sinflararo musobaqalar). Maktab darajasidagi musobaqalar yilning sentyabr oyidan boshlanib, 1-4, 5-9, 10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasi sportning belgilangan turlari bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘quv yili davomida o‘tadigan sinflararo musobaqalarning muddatlari va ma’sul shaxslari aniq ko‘rsatilib, tasdiqlangan tavqim asosida, may-iyun oyigacha davom etadi.

Sentyabr-oktyabr oylarida maktabning sport turlaridan yaxshi natijalarni ko‘rsatgan, ko‘nikma va mahorati yuqori 1-4, 5-9, 10-11-sinf o‘quvchilari orasida terma jamoalar shakllantiriladi va ular keyingi bosqich maktablararo hudud bosqichi musobaqalarida qatnashadi.

Terma jamoa maktab sporti klubi (jamoasi)ning qaroriga binoan tuzilishi, unga kirgan har bitta o‘quvchining sportdagi yutuqlari barchaga ma’lum qilinishi va sport borasida boshqalarga o‘rnak sifatida ko‘rsatilishi lozim.

1-4, 5-9, 10-11-sinf o‘quvchilarining sog‘lomligini ta’minlashga qaratilgan musobaqalar bosqichini ushbu tarzda belgilash tavsiya etiladi:



- o'quv yili davomida "Umid nihollari" sport musobaqalarining bosqich o'yinlarida olti milliondan ortiq umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchilarining uzluksiz, ommaviy sport harakatida ushlab turishini va bu orqali ularning sog'lom darajasini yuqori fiziologik me'yorga yetkazish;

– sport turlariga katta qiziqishi bo'lgan yoshlar orasidan jamoatchi ----  
----- va ----- yetishtirib chiqarilishi;

– yoshlarda sport turlariga bo'lgan qiziqishlarining oshishi, musobaqalarga ommaviy ravishda jalb qilinib, raqobat asosida ular orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olishi;

– joylarda sport to'garaklarining ochilishiga va yoshlarning sportga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;

– sport seksiyalari ishlarining faollashtirilishi, qiziqarli va bolalar salomatligiga foydali bo'lishi;

– maktab va maktabdan tashqari sport inshootlarini talab darajasiga keltirish, yangilarini qurish va ularni sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash.

**2. Hudud bosqichi** (hudud ichidagi maktablararo musobaqalar). Noyabr-dekabr oylarida maktablarning 1-4, 5-9 va 10-11-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan terma jamoalari o'rtasida o'tkaziladi.

**3. Tuman bosqichi** Yanvar oyida (qishki ta'tilda) maktablarning 5-9-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan hudud terma jamoalari o'rtasida tuman final bellashuvlari o'tkaziladi. Hududlararo musobaqalar bosqichida tumanda joylashgan bolalar va o'smirlar sport maktablarining sportchilari ham qatnashadi. Musobaqalar yakuniga asosan tuman g'olibi aniqlanadi, g'oliblar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi. Ushbu bosqichda maktablar 5-9-sinf o'quvchilarining hudud terma jamoalari o'rtasidagi final o'yinlari yakunlanadi.

**4. Viloyat bosqichi** Mart oyida (bahorgi ta'tilda) 8-11-sinf o'quvchilari, bolalar va o'smirlar sport va maxsus sport maktablari sportchilaridan tuzilgan viloyat terma jamoalari o'rtasida final musobaqalari o'tkaziladi.

## **“Umid nihollari” musobaqalari final bosqichini birinchi yil o‘tkazish tartibi**

“Umid nihollari” musobaqalari final bosqichi Nizom asosida kompleks ravishda to‘rtta hududda o‘tkaziladi. Hududlar viloyat jamoalarining mahorat va imkoniyat darajasi asosida belgilanadi.

1. Birinchi hudud – Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari.

2. Ikkinchi hudud – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari.

3. Uchinchi hudud – Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari.

4. To‘rtinchi hudud – Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari.

Hudud tarkibidagi to‘rtta viloyatlarda musobaqalar o‘tkaziladi va ularning natijalariga asosan, qatnashuvchilarning egallagan o‘rni belgilanadi, g‘oliblar diplom va sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

## **“Umid nihollari” musobaqalari final bosqichlarini ikkinchi yil o‘tkazish tartibi**

Ikkinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Umid nihollari” musobaqalarining bosqichlari birinchi yilda o‘tkazilgan maktab, hudud, tuman va viloyat bosqichlarining tartibi asosida amalga oshiriladi.

Faqat ikkinchi yilda mamlakat darajasidagi final musobaqalarini o‘tkazish tartibi birinchi yildagi tartibdan farq qiladi. Birinchi yilda mamlakat final musobaqalari to‘rt hududda o‘tkazilgan bo‘lsa, ikkinchi yilda esa ushbu musobaqalar ikki guruhda aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

Birinchi yildagi hudud musobaqalarida 1- va 2-o‘rinni egallagan viloyat jamoalari birinchi guruh davrasida 3-4-o‘rinni egallash viloyat jamoalari esa ikkinchi guruhda o‘zaro bellashadilar.

Guruh tartibida o‘tkazilgan musobaqalarning natijalariga asosan, har bitta viloyat jamoasining egallagan o‘rni belgilanadi. G‘oliblar diplom va sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

Birinchi guruhda g‘olib bo‘lgan jamoa, uchinchi yilda Respublika final bosqichida ikkita jamoa bo‘lib qatnashish huquqiga ega bo‘ladi.

## **“Umid nihollari” musobaqalari final bosqichlarini uchinchi yil o‘tkazish tartibi**

Uchinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Umid nihollari” musobaqalarining bosqichlari ikkinchi yilda o‘tkazilgan maktab, hudud, tuman va viloyat bosqichlari tartibi asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi yilda mamlakat darajasidagi musobaqalar finali bir guruhda Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba-yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan rejada belgilangan viloyatda aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

1-2-3-o‘rinni egallagan viloyat terma jamoalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg‘asi va Respublika tashkiliy qo‘mitasining diplomlari bilan taqdirlanadi. Shaxsiy va jamoa musobaqalarida 1-2- va 3-o‘rinlarni egallaganlar oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlanadi.

### **“Barkamol avlod” sport musobaqalarining tashkiliy asoslari**

“Barkamol avlod” musobaqalari tartibini belgilashda quyidagilar inobatga olinadi:

- o‘quvchi-yoshlarning maktab va sport maktablarida to‘plangan jismoniy tarbiya va sportga oid bilim hamda tajribalarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda rivojlantirilishi;

- musobaqalar bosqichining mantiqiy davomiyligi, ommaviylikdan sport mahoratiga chiqishlarini ta‘minlash;

- o‘quvchilarning kundalik jismoniy harakati, davoimiyligining “Barkamol avlod” sport musobaqalari dasturidan o‘rin olgan sport turlaridan o‘tkaziladigan o‘yinlarning uzluksizligi orqali ta‘minlanishi;

- sport turlari bo‘yicha qoidalarning yanada o‘zlashtirilishi hisobiga, o‘quvchilarning bellashuvlardagi texnika qobiliyatlari darajasining oshishi;

- yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan chanqoqligi va talabgarliklarining ortishi hisobiga jismoniy tarbiya o‘qituvchi va murabbiylarining o‘z malaka hamda pedagogik mahoratini muntazam oshirib turishlariga turtki bo‘lishi;

- sport turlaridan malakali sportchilar va hakamlarning yetishib chiqishi;

- yuqori mahoratli sportchilarning mamlakat terma jamoasi safiga kirishi;

- yoshlarda kundalik sport harakatiga bo‘lgan ehtiyojlarning to‘liq tiklanishi va dars oralig‘ida, undan keyingi vaqtdagi musobaqalar orqali yuqori sog‘lomlik darajasiga yetishlari;

- qizlar sport harakatining faollanishi.

## **“BARKAMOL AVLOD” SPORT MUSOBAQALARI BOSQICHLARINING BIRINCHI YIL O‘TKAZISH TARTIBI**

“Barkamol avlod” musobaqalarining bosqichlari belgilangan tamoyillar asosida, tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish tartibi har tomonlama o‘rganilib, quyidagi turda o‘tkazilishi taklif qilinadi.

1. Akademik litsey va kasb-hunar kollej bosqich (guruh va kurslararo musobaqalar). O‘quv yurti darajasidagi musobaqalar yilning sentyabr oyidan guruh va kurslar o‘rtasida sportning belgilangan turlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Mazkur musobaqalar taqvim asosida may-iyun oyigacha davom etadi.

Sentyabr-yanvar oylarida o‘quv muassasalarining terma jamoalari tuziladi va ular keyingi tuman bosqich musobaqalarida qatnashadi.

Yangi uzliksiz ta‘lim tizimiga to‘la o‘tilib, 10-11-sinflar tugatgunga qadar, akademik litsey va kasb-hunar kollej bosqichiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqiladi, yangi ta‘lim tizimi to‘liq joriy qilingandan keyin hududiy bosqich musobaqalari joriy qilinadi va mazkur bosqichdan tuman darajasiga chiqiladi.

2. TUMAN BOSQICHI. Yanvar- fevral oylaridan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari terma jamoalari o‘rtasida tuman final bellashuvlari o‘tkazilib, tuman g‘olibi aniqlanadi.

3. VILOYAT BOSQICHI. Fevral-mart oylarida tuman akademik litsey va kasb-hunar kollejlardan tashkil topgan terma jamoalari o‘rtasida viloyat final musobaqalari o‘tkaziladi.

Ushbu bosqichdagi musobaqalar viloyat va tuman markazlari hamda o‘quv yurti sport bazalarida o‘tkazilib, viloyat g‘oliblari aniqlanadi.

4. RESPUBLIKA BOSQICHI. Aprel-may oylarida viloyat Olimpiya zaxiralari sport kolleji hamda akademik litsey va kasb-hunar kolleji sportchilaridan tuzilgan viloyat terma jamoalari o‘rtasida final musobaqalari o‘tkaziladi.

“Barkamol avlod” musobaqalari final bosqichi kompleks ravishda to‘rtta hududda o‘tkaziladi.

1. Birinchi hudud-Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari.

2. Ikkinchi hudud-Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari.

3. Uchinchi hudud-Toshkent shahri, Tashkent viloyati, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari.

4. To‘rtinchi hudud-Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari.

Hudud tarkibidagi to'rtta viloyatda musobaqalar o'tkaziladi va ularning natijalariga asosan qatnashuvchilarning egallagan o'rnini belgilanadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Guruh tarkibidagi viloyatlarda sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi va ularning natijalariga asosan viloyatlarning egallagan o'rnini belgilanadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

### **“BARKAMOL AVLOD” SPORT MUSOBAQALARI BOSQICHLARINI IKKINCHI YILO‘TKAZISH TARTIBI**

Ikkinchi yil o'tkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqalarining bosqichlari birinchi yilda o'tkazilgan akademik litsey va kasb-hunar kolleji, tuman, viloyat bosqichlarining tarkibi asosida amalga oshiriladi.

Birinchi yildagi hudud musobaqalarida 1-2-o'rinni egallagan viloyat jamoalari birinchi guruh davrasida, 3-4-o'rinni egallagan viloyat jamoalari esa ikkinchi guruhda o'zaro bellashadilar.

Guruh tarkibida o'tkazilgan musobaqalar natijalariga asosan, har bitta viloyat jamoasining egallagan o'rnini belgilanadi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Birinchi guruhda mutloq g'olib bo'lgan jamoa, uchinchi yilda respublika final bosqichida ikkita jamoa bo'lib qatnashish huquqiga ega bo'ladi.

### **“BARKAMOL AVLOD” MUSOBAQALARI BOSQICHLARINING UCHINCHI YIL O‘TKAZISH TARTIBI**

Uchinchi yilda o'tadigan “Barkamol avlod” sport musobaqalarining bosqichlari ikkinchi yilda o'tkazilgan akademik litsey va kasb-hunar kolleji, tuman va viloyat bosqichlari tartibi asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi yilda mamlakat darajasidagi musobaqalar finali bir guruhda Vazirlar Mahkamasining “O'quvchi va talaba-yoshlarni sportga jalb qilish to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan rejada belgilangan viloyatda apreldan may oylarida o'tkaziladi.

1-2-3-o'rinni egallagan viloyat terma jamoalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg'asi va Respublika tashkiliy qo'mitasining diplomlari bilan taqdirlanadi. Shaxsiy va jamoa musobaqalarida 1-2- va 3-o'rinni egallaganlar oltin, kumush hamda bronza medallari bilan taqdirlanadi.

## **“UNIVERSIADA” SPORT MUSOBAQALARINING TASHKILY ASOSALARI**

“Universiada” musobaqalarining bosqichlari belgilangan tamoyillari asosida, uning tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish tartibi har tomonlama o‘rganilib, quyidagi tarzda o‘tkazilishi taklif qilinadi.

“Universiada” sport musobaqalari tartibini belgilashda quyidagilar inobatga olinadi:

- akademik litsey, kasb-hunar kolleji va sport maktablarida to‘plangan sportga oid bilim hamda tajribaning oliygohlarda ro‘yobga chiqarilishi;

- talabalarning kundalik jismoniy harakati uzluksizligini; “Universiada” sport musobaqalari dasturidan o‘rin olgan sport turlaridan o‘tkaziladigan o‘yinlar orqali ta‘minlanishi;

- sport turlari bo‘yicha qoidalarining yanada o‘zlashtirilishi hisobiga talabalardan birinchi bosqich bellashuvlarida yuqori texnik mahoratining rivojlanishi;

- talabalarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan chanqoqligi va talabchanliklari oshishi hisobiga jismoniy tarbiya o‘qituvchi va murabbiylarining o‘z malaka hamda pedagogik mahoratining zamon talabiga yetkazishlariga turtki bo‘lishi;

- sport turlaridan malakali sportchilar va hakamlarning yetishib chiqishi;

- yoshlarda kundalik sport harakatiga bo‘lgan ehtiyojlarning to‘liq shakllanishi, dars va darsdan keyingi vaqtdagi musobaqalar orqali yuqori sog‘lomlik darajasiga yetishishlari;

- sport turlariga bo‘lgan qiziqishining faollanishi;

- qizlarning sport harakatida faol holatga kelishi;

- yuqori mahoratli sportchilarning mamlakat terma jamoasi safiga kirishi;

- yoshlarda sport bilan shug‘ullanish kundalik ehtiyojga aylanishi va har jihatdan sog‘lomlik darajasiga yetishlari.

## **“UNIVERSIADA” SPORT MUSOBAQALARI BOSQICHLARINING BIRINCHI YIL O‘TKAZISH TARTIBI**

1. Oliy ta‘lim muassasasi bosqich (guruh, kurs va fakultetlararo musobaqalar). O‘quv yurti darajasidagi musobaqalar yilning sentyabr oyidan boshlab guruh, kurs va fakultetlar o‘rtasida sportning belgilangan turlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Mazkur guruh, kurs va fakultetlararo musobaqalar har birining muddati, mas‘ullari aniq ko‘rsatilib, tasdiqlangan tavqim asosida may oyigacha davom etadi.

Gʻoliblar diplom va sovgʻalar bilan taqdirlanadi.

Sentyabr- guruh, oktyabr-kurs, noyabr-fakultet va dekabr oylarida oliy taʼlim muassasasining terma jamoasi shakllantiriladi.

2. VILOYAT BOSQICHI. “Talaba” sport jamiyati boshchiligida oliy taʼlim muassasalarining terma jamoalari yanvar-mart oylarida “Musobaqalar dasturida” belgilangan sport turlari boʻyicha viloyat, Toshkent shahri darajasidagi musobaqalarda oʻzaro bellashadilar. Gʻoliblar diplom va sovgʻalar bilan taqdirlanadi.

Musobaqalar yakuniga binoan, sport turlaridan tuzilgan viloyat terma jamoalari mamlakat darajasidagi birinchilik musobaqalarida ishtirok etish huquqiga ega boʻladilar.

Viloyat bosqichidagi musobaqalar viloyat va tuman markazlari hamda oʻquv yurti sport zallarida oʻtkaziladi.

3. RESPUBLIKA BOSQICHI Viloyat terma jamoalari oʻrtasida mamlakat darajasida birinchilik oʻtkaziladi (birinchi va ikkinchiligi).

“Talaba” sport jamiyati viloyatlarda sport turlaridan oʻtkaziladigan birinchilik musobaqalarini Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan kelishgan holda boshqaradi. Birinchilik natijalariga asosan, viloyatlarning sport turlaridan egallagan oʻrni belgilanadi. Gʻoliblar diplom va sovgʻalar bilan taqdirlanadi.

## **“UNIVERSIADA” MUSOBAQALAR BOSQICHLARINI IKKINCHI YILI OʻTKAZISH TARTIBI**

Ikkinchi yilda boʻlib oʻtadigan “Universiada” musobaqalarining bosqichlari birinchi yilda oʻtkazilgan tartib asosida amalga oshiriladi.

Viloyat bosqichdagi musobaqalar viloyat va tuman markazlari hamda oʻquv yurti sport bazalarida oʻtkaziladi.

RESPUBLIKA BOSQICHI. Hududning oliy oʻquv yurti muassasalari sportchilaridan tuzilgan sport turlari boʻyicha viloyat terma jamoalari oʻrtasida mamlakat darajasida birinchiliklar oʻtkaziladi.

“Talaba” sport jamiyati viloyatlarda sport turlaridan oʻtkaziladigan chempionat musobaqalarini Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan kelishgan holda boshqaradi. Birinchilik natijalariga asosan, viloyatlarning sport turlaridan egallagan oʻrni belgilanadi. Gʻoliblar diplom va sovgʻalar bilan taqdirlanadi.

## **“UNIVERSIADA” MUSOBAQALAR BOSQICHLARINI UCHINCHI YIL O‘TKAZISH TARTIBI**

Uchinchi yilda bo‘lib o‘tadigan “Universiada” musobaqalarining bosqichlari ikkinchi yilda o‘tkazilgan tartib asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi yilda mamlakat darajasidagi musobaqalar final Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchi va talaba-yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan rejada belgilangan viloyatda, aprel-may oylarida o‘tkaziladi.

Toshkent shahrida oliy ta‘lim muassasalarining katta qismi joylashganining hisobiga poytaxt jamoasi final musobaqalarida ikkita terma jamoa bo‘lib ishtirok etadi.

1-, 2-, 3- o‘rinni egallagan viloyat terma jamoalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg‘asi va Respublika tashkiliy qo‘mitasining diplomlari bilan taqdirlanadi. Shaxsiy va jamoa musobaqalarida 1-, 2- va 3- o‘rinlarni egallaganlar oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan joriy qilingan mazkur tizim har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu tizim musobaqalarida ishtirok etgan o‘quvchi va talabalar nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy va intellektual jihatdan ham kamol topadi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu yagona tizim mamlakatimizda yangi barkamol avlodni tarbiyalash va uning shuhratini oshirishda katta rol o‘ynashi shubhasiz.

2003-yilda respublikamiz sportchilari bir qator xalqaro musobaqa va turnirlarda muvaffaqiyatli qatnashdilar. Bokschilarimiz jahon chempionatida 1 ta-kumush, 2 ta oltin, sambochilar (erkaklar) 4 ta kumush, 5 ta bronza, ayollar 3 ta-oltin, 2 ta kumush, 5 ta bronza medallarini ko‘lga kiritdilar. Ammo Osiyo chempionati musobaqalarida yaxshi natijalarga erisha olmadilar. Umuman sportchilarimiz saralash musobaqalarida qatnashib olimpiya o‘yinlariga yo‘llanmani ham qo‘lga kiritdilar.

2003-yilda og‘ir atletikachilarimiz AQShning Vankuver shahrida o‘tkazilgan jahon chempionatida qatnashib Afinada o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlariga 3 ta yo‘llanma oldilar.

2004-yilda respublikamiz sportchilari sportning barcha turlaridan saralash, xalqaro turnirlarda, Osiyo chempionatida hamda XXVIII-olimpiada o‘yinlarida muvaffaqiyatli qatnashdilar.



Xalqaro turnirlarda erkin kurashchilarimiz 5 ta oltin medalni Osiyo chempionatida 4 ta oltin, XXVIII-Olimpiadada 1 ta oltin jami 10 ta oltin, 2 ta kumush, 4 ta bronza olishga erishdi.

Yunon-Rim kurash bo'yicha xalqaro turnirlarda 1 ta oltin 2 ta kumush, Osiyo chempionatida 1 ta oltin, Olimpia o'yinlarida 1-oltin, 9 ta bronza 3 ta oltin, 4 ta kumush medaliga sazovor bo'ldilar.

Boks bo'yicha xalqaro turnirlarda 15 ta oltin, 18 ta kumush, Jahon chempionatida 1 ta oltin, 2 ta kumush medalini qo'lga kiritishadi.

O'spirinlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida 3ta kumush, talabalar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida 1ta oltin, 4ta kumush jami 17 ta oltin, 24ta kumush, 25ta bronza.

Sambo (erkaklar) xalqaro turnirda 6ta oltin, 2ta kumush, 10ta-bronza, Osiyo chempionatida medalini yurtimizga olib keladi. o'smirlar, erkaklar jami 3ta oltin, 6ta kumush, 13 ta bronza medalini oldilar.

Pragada o'tkazilgan jahon chempionatida 1ta kumsh, 3ta bronza medaliga ega bo'lishadi.

Toshkentda o'smirlar va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida 4ta oltin, 6ta kumush, 4ta bronza medalini vatanimiz sharafiga yozdirishadi.

Tojikistonda faxriylar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida 7ta-oltin, 5ta-kumush, 10ta-bronza medaliga sazovor bo'lishadi.

Sambo bo'yicha ayollarimiz Osiyo chempionatida 6ta-oltin, 5ta-kumush, 12ta-bronza medalini olishga muvaffaq bo'ladilar.

Toshkent shahrida o'tkazilgan o'smirlar jahon chempionatida o'smirlar, qizlar 2ta-oltin, 2ta-kumush, 12 ta-bronza sazovor bo'ldilar.

Og'ir atletikachilarimiz Qozog'istonda o'tkazilgan xalqaro turnirlarda 2ta-oltin, Olmaotada o'tkazilgan Osiyo chempionatida 1ta-kumush, AQShda o'tkazilgan talabalar Jahon birinchiligida 2ta-kumush Olimpia o'yinlarida 1ta-8 o'rin, 1ta-9 o'rinni egalladilar.

Belbog'li kurash bo'yicha Farg'ona shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda 4ta-oltin, Shahrizabzda o'tkazilgan jahon chempionatida 5ta oltin, 1ta kumush medaliga sazovor bo'ldilar.

2006-yili Qatar poytaxti Dohada 23 noyabrdan-to 15 dekabrgacha XV Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston sportchilari muvaffaqiyatli qatnashib, jami 39 ta medalni qo'lga kiritdilar, shulardan 11-ta –oltin, 14ta kumush, 14ta bronza.

XV Osiyo o'yinlari chempionlari quyidagilar bo'ladilar. Guzal Xubbiyeva, Bohodir Sulaymonov, Elshod Rasulov, Rustam Saidov, Vadim Mankov, Sofiya Kaspo'latova, Vladimir Cherneino, Ruslan

Naurzaliyev, opa-singillar Sevara va Zarina G'aniyevalar, Dilshod Mansurov va Artur Taymazovlardir.

### **Olimpiada o'yinlarining qaytadan tiklanishi**

Ilk olimpiada o'yinlari eramizdan avvalgi 776-yilda Yunonistonda (Gretsiyada) Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. Uning birinchi qahramoni Illiadalik oshpaz Karob hisoblanadi. Rim imperatori Fedosiy birinchi o'z shaxsiy manfaatlaridan foydalanib, 394-yilda Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishini taqiqlagan. Shuni qayd qilish kerakki, Olimpia sport inshootlari bir yilgina ular ko'rdi. 395-yilda Alfey daryosi qirg'oqlaridagi qonli to'qnashuvlar natijasida Olimpia o'yinlarini o'tkazish to'xtatilgan.

426-yilda Fedosiya II Olimpia shahrini yoqib tashlash to'g'risida buyruq bergan. 100 yil o'tgandan keyin, ikki marta yer qimirlagan hamda Alfey va Kloden daryo suvlarining toshishi oqibatida Olimpia shahri qum ostida qolib ketadi. Bir yarim ming yil atrofida Olimpia shahri qoldiqlari ko'milgan holatda qoladi, faqat 1824-yili angiyalik arxeolog Lord Stonnof Alfey daryosi qirg'oqlarida qazish ishlarini olib boradi hamda etnik davrlar Olimpia rejasini tuzib chiqadi.

Zamonaviy Olimpia o'yinlarini qayta tiklash fransuz pedagogi Boron P'erde Kuberiten sa'i harakatlari va fidoyligi tufayli amalga oshgan.

1894-yil 23-iyunda P'er de Kuberten tashabbusi bilan xalqaro Olimpiyada o'yinlarini o'tkazish vazifasini o'z ichiga oluvchi Xalqaro Olimpia qo'mitasi tuzildi.

Xalqaro Olimpia Qo'mitasini ta'sis etuvchi a'zolari:

E.Kallo (Fransiya), General A.D.Butovskiy (Rossiya), General Balk (Shvetsiya), professor U.M.Sloun (AQSh), Lord Amitxill (Buyuk Britaniya), Ch.Xerberg (Buyuk Britaniya), Ferenya Kemen (Vengriya), I.Gut – Yarnovskiy (Bogemiya), X.B.Subner (Argentina), L.A.Kaff (Yangi Zelandiya), graf Lukkezi Palli (Italiya), graf. M. de Buze (Belgiya), Kiyaz d, Anuriya Korafa (Italiya) va V.Gexbordey (Germaniya).

V.Gexbardey Parijda o'tkazilgan kongressda qatnashmagan, lekin 1895-yili uni keyingi chislo bilan Xalqaro Olimpia Qo'mitasini ta'sis etish komissiyasi a'ziligiga kiritishgan.

Xalqaro Olimpia Qo'mitasining prezidenti qilib grek Demetrios Vikelas, bosh kotib qilib esa fransuz baron P'er de Kuberten saylandi. Ikki yildan keyin Vikellas iste'foga chiqadi va 1896-yildan keyin Kuberten prezidentlik lavozimini egallaydi.

Ma'lumki, ta'sis anjumani Olimpiya o'yinlarining asosiy huquqlari, qoida va nizomlarini shuningdek, antik yangiliklariga to'rt yilda bir marotaba o'tkazish to'g'risidagi qarorni Olimpia nizomi (Xortiyasi) tasdiqlaydi. Pe'r de Kuberten birinchi zamonaviy Olimpia o'yinlarini 1900-yilda Parij shahrida o'tkazish to'g'risida taklif kiritadi, biroq gretsiyalik taniqli shoir va tarjimon Demetrios Vikelas anjuman ishtirokchilarining Olimpia o'yinlarini 1896-yil o'tkazishga, shuningdek, 1900-yilda bo'ladigan Olimpia o'yinlarini o'tkazish arenasi Parij shahri bo'lishiga chaqiradi. Bungacha antik Olimpia o'yinlarining beshinchisi hisoblangan Ellada yerida birinchi zamonaviy o'yinlari o'tkaziladi. Masalani shunday xal qilishadi.

O'zbekiston 1991-yili o'z mustaqilligiga ega bo'lgan zabardast davlatga aylanib bormoqda.

1992-yil 21-yanvarda O'zbekiston Respublikasining Milliy Olimpia Qo'mitasi rasmiy ravishda ta'sis qilindi va shu yili 9-martda Xalqaro Olimpia Qo'mitasi tarkibiga kiritilib, haqiqiy a'zosiga aylandi. Bu O'zbekiston sportchilarining Olimpiada, Osiyo va Jahon birinchiliklarida mustaqil terma jamoa sifatida ishtirok etishlariga kengimkon yaratib berdi.

1993-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpia Qo'mitasi (MOK)ning bosh Assambleyasida uning ustavi qabul qilindi. Unda Olimpia o'yinlarining asosiy g'oyalari o'z ifodasini topgan bo'lib, eng muhim yo'nalishlar bo'yicha asosiy vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpia Qo'mitasi o'z faoliyatini Olimpia Hartiyasiga asoslangan holda amalga oshiradi. U o'z oldiga Olimpia g'oyalarini aholi ongiga singdirish, shuningdek, barcha kishilarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qilishni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun Tezroq, Balandroq, Kuchliroq deb nomlangan Olimpia o'yinlari chaqiriqlarini aholiga, ayniqsa, o'quvchi – yoshlarga tushuntirishda bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, Xalqaro Olimpia o'yinlarining "Olimpia o'yinlarida asosiysi talaba emas, balki unda qatnashish!", degan oliyjanob g'oyalari (1908-yil IV Olimpiadada qabul qilingan) mavjud. O'zbekiston Respublikasi bu g'oyalarga amal qilgan holda o'yinlarda qatnashib qolmasdan, balki ulkan g'alabalar uchun ham katta tayyorgarlik ko'rmoqda. Chunki respublikamiz 1994-yil fevraldagi qishki va 1996-yildagi yozgi Olimpia o'yinlarida, shuningdek, Osiyo o'yinlarida, Osiyo chempionatlarida va Jahon chempionatlarida mustaqil jamoa sifatida qatnashib, yaxshi o'rinlarni egallamoqdalar.

Olimpia timsoli “O sport sen-tinchlik ” mashhur iborasining”  
”Tezroq, kuchliroq, balandroq” shiorining muallifi P’er de Kuberton bo‘ladi.

### **Birinchi Olimpiada o‘yinlari**

**(Gretsiya, Afina, 1896-yil 6-15-aprel)**

Birinchi Olimpiada o‘yinlari 1896-yili 6-apreldan – 15-aprelgacha Gretsiyaning Afina shahrida o‘tkazildi. I – Olimpia o‘yinlarida 13 mamlakatdan 285 sportchi qatnashdi. Sportning dasturdagi 9 turi bo‘yicha, dasturning 42 turidan birinchilik o‘tkazildi. (yengil atletika, gimnastika, og‘ir atletika, o‘q otish, velosifey, tennis, qilichbozlik, kurash, suzish)

Zamonaviy Olimpiada o‘yinlariga marafon yugurishning kiritilishining o‘zi qayta voqea bo‘ldi.

Gretsiya Qo‘mondoni Miltiodning elchisi yunonlarning Marafon vodiysida eronliklar ustidan qilgan g‘alabasi haqidagi xabarni Afrikaga yetkazish uchun yugurib borgan yo‘lda birinchi marta marafon yugurishi o‘tkazildi. Bu musobaqa tomoshabinlarning diqqatini o‘ziga ko‘proq jalb etdi va Olimpiada o‘yinlarining asosiy turiga aylangandek bo‘ldi. Yugurishda grek Luis yutib chiqdi.

Noan‘anaviy ochkolar hisobiga ko‘ra Gretsiya birinchi o‘rinni, AQSh ikkinchi o‘rinni va Gremaniya sportchilari uchinchi o‘rinni egalladilar.

### **II – Olimpia o‘yinlari**

**(Fransiya, Parij, 1900 yil 14-maydan 13-sentabrgacha)**

1900-yili Parijda Xalqaro Parij visitavkasi paytida bu shaharda II-Olimpiada o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Bu gal o‘yinlar jamoatchilikning diqqatini unchalik torta olmadi. O‘yinlar dasturi cho‘zilib ketgan bo‘lib, ko‘rgazma davom etib turgan vaqtning boshidan oxirigacha namoyish qilindi, bu esa ularga bo‘lgan qiziqishni pasaytirib yubordi; ko‘rgazma eksponatlari tomoshabinlarning diqqatini sportdan chalg‘itardi.

Olimpia o‘yinlari dasturiga quyidagi yangi sport turlari kiritildi: ot sporti, suv polosi, yelkanli sport, eshkak eshish, futbol, golf, regbi, kamondan o‘q otish.

Bu o‘yinlarda 20 mamlakatdan 1066 sportchi (shulardan 6 tasi ayollar) ishtirok etdi.

Nao‘anaviy ochkolar hisobiga ko‘ra, Fransiya birinchi o‘rinni, AQSh ikkinchi o‘rinni, Buyuk Britaniya uchunchi o‘rinni egalladi.

### **III – Olimpiada o‘yinlari**

**(AQSh Sent – Luis, 1904-yil 1-iyuldan – 29-oktabrgacha)**

III – Olimpiada o‘yinlari AQShning Sent – Luis shahrida o‘tkazildi. Yevropa mamlakatlaridan Olimpiadaga sportchilar kam keldi va o‘yinlar, aslida, Amerika sportchilarining musobaqasiga aylanib qoldi. Bu o‘yinlarda 10 mamlakatdan hammasi bo‘lib, 496 nafar sportchi qatnashdi.

Bu Olimpiada o‘yinni haqida Lozanadachi Olimpiada institutini yozishiga ko‘ra o‘yinning asosiy dasturida 11 ta sport turi va 2 ko‘rgazmali chiqishi taqdim etilgandi. Biroq haqiqat shundan iboratki, yunon, nemis va vengarlardan tashqari barcha Yevropa davlatlari qatnashmasligini e‘lon qildilar. Kuberten o‘zi ham bu o‘yinni o‘tkazishdan bosh tortdi.

Bu Olimpiada o‘yinlari dasturiga ilk marta boks, suvga sakrash, basketbol (ko‘rgazmali sport turi) kiritildi. Kurash va boks musobaqalarida birinchi marotaba og‘irlik toifalari ham kiritildi. Yengil atletika turlarining o‘rtasida eng an‘anaviysi marafon yugurish bo‘lib qoldi. Marafon yugurishda g‘oliblik amerikalik sportchi Lorsga nasib etdi. Biroq uni natijasini hisobga olishmadi.

III – Olimpiada o‘yinlarida 10 ta davlatdan 496 sportchi (shulardan 10 tasi ayollar) dasturdagi 17 sport turi bo‘yicha 103 nomeridan birinchilik o‘tkazildi. Shulardan halqaro dideratsiya sportni 9 turi bo‘yicha 73 ta musobaqani rasmiy ravishda tan oldi. Beysbol bo‘yicha ko‘rgazmali chiqish ko‘rsatildi.

Noa‘anaviy ochkolar hisobiga ko‘ra AQSh – 1 o‘rin, Germaniya – II – o‘rin, Kuba III – o‘rinni egalladilar.

### **IV – Olimpiada o‘yinlari (1908-yil 27-aprel – 29-oktabr Londonda o‘tdi)**

IV – Olimpiada o‘yinlari 1908-yili 27-apreldan 29-oktabrgacha Angliyaning London shahrida bo‘lib o‘tdi. Olimpiadada 22 mamlakatdan 2059 sportchi, qatnashdi. Shulardan 36 ta ayol qatnashdi. Olimpia dasturidagi sportning 23 ta turining 106 nomeri bo‘yicha birinchilik o‘tkazildi.

1000 m ga velosiped poygasida ko‘rsatilgan vaqtdan oshirib yuborganligi sababli sportchi musobaqadan chetlatildi. O‘yinda ko‘rgazmali chiqishlar bo‘lmadi.

Noa‘anaviy ochkolar hisobiga ko‘ra Buyuk Britaniya – 1- o‘rin, AQSh – 2 - o‘rin, Shvetsiya III – o‘rinni egalladi.

## **V – Olimpiada o‘yinlari (1912-yil 5-may – 22-iyul, Stokgolmda o‘tdi)**

V – Olimpiada o‘yinlari 1912-yil 5-maydan 22-iyulgacha Shvetsiya poytaxti Stokgolmda o‘tkazildi. Bunda 28 mamlakatdan 2541 sportchi qatnashdi.

Xotin – qizlar birinchi marta II – Olimpiada o‘yinlarida 1900-yili Parijda golf bo‘yicha, 1904-yili Selet – Luisda yoy otish, 1908-yili Londonda yoy otish, tennis va konkida uchish 1912-yili tennis va suzish bo‘yicha ishtirok etdilar.

## **VI – Olimpiada o‘yinlari**

1916-yilga belgilangan VI – Olimpiada o‘yinlari (Berlinda bo‘lishi kerak edi) birinchi Jahon urushi boshlanib ketganligi sababli o‘tkazilmadi. Ammo o‘yinlarning nomeri saqlanib qoldi.

## **VII – Olimpiada o‘yinlari (1920-yil 30-aprel – 12-sentabr, Antverpen)**

1920-yilda urushdan keyingi davrdagi birinchi Olimpiada o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Bu o‘yinlar 1920-yil 30-apreldan – 12 sentabrgacha Belgiya poytaxti Antverpen shahrida o‘tkazildi. Urush natijasida yetkazilgan zarar hamda iqtisodiy qiyinchiliklar o‘yinlarni tayyorlash va o‘tkazishga ta’sir qildi. Belgiya hukumati zarur bo‘lgan sport inshootlarini qurishga yetarli darajada mablag‘ ajrata olmadi. Shuning uchun ham sport inshootlari ayrim litsent – kapitalistlar bergan yordam va sportchilar orasida to‘plangan mablag‘ hisobiga qurildi.

1920-yilda bo‘lgan Olimpiada o‘yinlari (hisob bo‘yicha VII Olimpiada o‘yinlarga) xalqaro ahvol keskinlashib ketgan bir vaqtda tayyorlanildi. Dunyoning oltindan bir qismida jahonda birinchi ishchi – dehqonlar davlati vujudga keldi.

Birinchi marta VII Olimpiada o‘yinlarida besh qit’a sportchilarining birligi va do‘stligining simvoli – beshinchi halqali Olimpiada bayrog‘i hilpiradi. Ammo bunga qaramasdan, Germaniya va uning 1914–1918-yillar jahon urushidagi ittifoqchilarining sportchilari Olimpiada o‘yinlariga qo‘yilmadi.

VII – Olimpiada o‘yinlarida 29 mamlakatdan 2606 sportchi qatnashdi. Urushda qatnashmagan yoki undan kam zarar ko‘rgan mamlakatlarning sportchilari yaxshigina muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Noan’anaviy ochkolarga ko‘ra AQSh – 1-o‘rin, Shvetsiya – 2-o‘rin, Angliya – 3-o‘rinni egalladi.

## **VIII – Olimpiada o‘yinlar (1924-yil – 3-may 27-iyul Parijda o‘tdi)**

VIII – Olimpiada o‘yinlari 1924-yili Parij (Fransiya)da o‘tkazildi. Bunda 44 mamlakatdan 3092 sportchi qatnashdi. AQSh sportchilari Yevropaga yengilgina g‘alabaga erishish ishonchi bilan keldilar. Ammo yevropalik sportchilar, ayniqsa, fransuzlar, inglizlar ularga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Yengil atletikadan fanlar muvaffaqiyatga erishdilar. O‘sha zamonning eng yaxshi yuguruvchisi, to‘rtta oltin medal olgan Paavo Nurmi jahonga mashhur bo‘ldi. Uning vatandoshi Villi Ritola 10000 m masofaga yugurishda g‘alabaga erishib, oltin medal oldi. Marafon yugurishida va nayza otishda ham Finlyandiya yutib chiqdi. Yengil atletika musobaqalarida Finlyandiya sportchilari, Suzish bo‘yicha AQSh sportchilari eng ko‘p oltin medalni qo‘lga kiritdilar. Gimnastika musobaqalarida avvalgi o‘yinlaridagidek Italiya komandasi g‘alaba qozondi. Erkin kurashdan bu gal ham Finlyandiya sportchilari, erkin kurashdan esa AQSh sportchilari yutuqqa erishdilar. Futbol o‘yinlari, ayniqsa, qiziqarli o‘tdi. Sportning bu turida Urugvay komandasi g‘olib chiqqan edi.

Noa’anaviy ochkolarga hisobiga ko‘ra AQSh – 1 – o‘rin, Fransiya – 2 – o‘rin, Finlyandiya – 3 – o‘rinni oldi.

## **IX – Olimpiada o‘yinlari 1928 – yil 17 – may – 12 avgust, Amsterdamda o‘tdi**

IX – Olimpiada o‘yinlari 1928-yili 17-maydan – 12-avgustgacha Gollandiyaning Amsterdam shahrida dasturdagi sportning 16 turining 122 nomeri bo‘yicha birinchilik o‘tkazildi, 40 mamlakatdan 3015 sportchi (290 ayollar) qatnashdi, jumladan, Germaniya sportchilari ham qatnashdilar. Sport nuqtai nazaridan olib qaragandi bu o‘yinlar uncha ahamiyatga ega emas edi. Sportchining ko‘pgina turlaridan erishilgan texnik natijalar 1924-yildagi Olimpiada o‘yinlaridan past edi – Yengil atletikaning yaqin masofalarga yugurish, balandlikka sakrash, langar cho‘p bilan sakrash, 5000 metr ga va 400 metr ga to‘siqlardan oshib yugurish musobaqalarida yaxshi yutuqlarga erishilmadi. Velosiped sportchi boks va futbol musobaqalarida erishilgan texnik daraja ham past edi.

Olimpiada sportining ayrim turlaridan yuqori natijalar qo‘lga kiritildi. Bunga fin Yur‘elining yengil atletika bo‘yicha beshkurashdan va janubiy afrikalik Atkin sonning 110 metr ga to‘siqlardan oshib yugurish bo‘yicha erishgan yutuqlari kiradi. AQSH komandasi 4x100 m va 4x400 metr ga

estafeta yugurishda jahon rekordlarini o'rnatdi. Yengil atletikachi qizlarning Olimpiada o'yinlarida qatnashishlariga birinchi marta ijodiy baho berildi. Polyak yengil atletikachisi Konapaska disk irg'itishda, kanadalik sportchi Keptervud balandlikka sakrashda jahon rekordidan yuqori ko'rsatkichga erishdilar. Bularning har ikkalasi ayol sportchilardir. 4x100 m ga estafeta yugurishda jahon rekordini qo'ydi. Unga ko'p bo'lmagan bu yaxshi natijalar IX Olimpiadaning sport texnika natijalarining umumiy manzarasi (ya'ni musobaqalarda qo'lga kiritilgan past ko'rsatkichlar)ni o'zgartira olmadi.

Noan'anaviy ochkolar hisobiga ko'ra AQSH-1-o'rin, Germaniya-2-o'rin, Fransiya 3-o'rinni egalladi.

### **X Olimpiada o'yinlari (1932 yil 30-iyul-14 avgust, Los-Anjeles, AQSh)**

X - Olimpiada o'yinlari 1932-yil Los-Anjelos (AQSh)da bo'lib o'tdi. Amerikaning hukmron doiralari Amsterdamda ancha putur yetgan AQShning sport sohasidagi obro'sini tiklashni ko'zlab, X-olimpiada o'yinlarining katta dabdaba bilan o'tkazilishiga qaror qiladi. Los-Anjelosda sport inshootlarining yirik majmuasi-Olimpiada stadioni, suzish xavzasi, mashq qilish maydonlari va Olimpiada qishlog'i qurildi. AQSh komandasining muvaffaqiyat qozonishini ta'minlash uchun unga juda ko'p mashhur negr sportchilari kiritildi.

Ammo AQSh hukmron doiralarning X-Olimpiada o'yinlaridan kutgan umidlari ro'yobga chiqmadi. Olimpiada o'yinlarida 37 mamlakatdan 1408 sportchi qatnashdi, shulardan 127 tasi ideallardir. Bu Amsterdamda bo'lib o'tgan o'yinlardagiga qaraganda ikki baravar kamdir. O'yinlarda kapitalistik mamlakatlar sportchilari o'rtasidagi bo'lmag'ur "murosa qilish" va birlik yuzaga chiqmadi. Musobaqalarda holisona hakamlik qilinmadi, katta janjallar, hattoki mushtalashishlar ham bo'ldi.

Los-Anjelos yengil atletikadan erkaklar 19 ta, xotin-qizlar esa 6ta Olimpiada rekordini o'rnatdilar. 10000 m ga yugurishda polyak sportchisi Ya.Kusochinskiy yuksak natijaga erishdi. Finlardan Matti Yarvinen, Matti Simnali va Eyvo Pentilla nayza uloqtirishda birinchilikni oldilar. Molot uloqtiruvchilar orasida irlandiyalik Patrik O.Kollagin yuqori ko'rsatkichga erishdi, 100 metrga yugurishda amerikalik negr Tollan Olimpiadaning yangi rekordini (10, 3) qo'ydi. Bu rekordga XVII Olimpiada o'yinlariga qadar hech kim erisha olmadi.

Yaponiya vakillari suzishda g'olib chiqdilar va 6 imkoniyatdan 5 ta oltin medal oldilar. AQSh sportchilari sportning shu turidan juda qattiq



magʻbuliyatga uhradilar. Vengerlar suv nologchilari turnirida yutub chiqdi. Gimnastika musobaqalarida italiyalik sportchilar birinchi oʻrinni egalladilar. Skandinaviya mamlakatlarning sportchilari klassik va erkin kurashda hammadan zoʻr chiqdilar. Fransiya sportchilari ogʻir atletika musobaqalarida birinchilikni qoʻlga kiritdi.

Noʻanaviy ochkolar hisobiga koʻra AQSh – 1 – oʻrin, Italiya – 2 – oʻrin, Fransiya - 3 – oʻrinni egalladi.

### **XI - Olimpiada oʻyinlari (1936-yil 1-16 avgust, Berlin)**

Bu galdagi Olimpiada oʻyinlarini qabul qilishga talablar davlatlar soni har qachongidan oshib ketgandi. Ushbu poygada Yevropadan Berlin, Keln, Kyurenberg, Frankfurt – na – mayne (hammasi Germaniyadan), Rim (Italiya), Dublin (Irlandiya), Budapesht (Vengriya), “Qora qitʻadan” Aleksandriya (Misr) va Janubiy Amerikadan Bu ekos – Ayres (Argetina) lar nomzodi koʻrsatilgandi.

Xalqaro Olimpia qoʻmitasi (XOK) ning 1932-yilda boʻlib oʻtgan yigʻilishida “davogar”lar bahsiga uzil-kesil chek qoʻyildi. Berlin XI – Olimpiada oʻyinlarini oʻtkazishga munosib deb topildi.

XI olimpiada oʻyinlarida 49 mamlakatdan 4069 sportchi qatnashdi, shulardan 328 tasi xotin – qizlardir. Ular qatorida birinchi marta Afgʻoniston, Bermud orollari, Boliviya, Kosta – Rika, Lixenshteyn va Peru vakillarini ilk bor uchratish mumkin edi. Sport musobaqalarida, ayniqsa, yengil atletika musobaqalarida negr sportchilar ustunlik qildilar.

AQSh komandasi uchun 4 oltin medal (100 – 200 metrga yugurish, uzunlikka sakrash va 4x100 m estafetasi) keltirgan Djessi Ouens olimpiada qahramoni boʻldi. Negr sportchilarning muvaffaqiyatli chiqishlari tufayli bu gal ham Amerika yengil atletikachilari sportning bu turidan birinchilikni oldilar. Shunisi qiziqni, AQSh terma komandasining aʻzolaridan 10 ta sportchi negr yengil atletika dasturining har xil turlaridan 6 ta birinchi 2 ta ikkinchi va 2 ta uchinchi oʻrinni egalladi.

Suzish musobaqalarida Yaponiya bilan AQSh oʻrtasida keskin kurash ketdi. Natijada yaponlar 3 ta medal, amerikaliklar 2 ta va Vengriya sportchilari 1 ta oltin medal oldilar.

Vengriya komandasi suv ustida toʻp oʻynash (suv palosi) boʻyicha Olimpiada chempioni unvonini saqlab qoldi. Birinchi marta Olimpiada oʻyinlari dasturiga basketbol kiritildi. Oltin medalni amerikalik sportchilar oldi. Gimnastikachilar orasida Gremaniya sportchilarining qoʻli baland keldi.

Noa'anaviy ochkolar hisobiga ko'ra Germaniya – 1 - o'rin, AQSh – 2 - o'rin, Italiya – 3 - o'rinni egalladilar.

XII va XIII Olimpiada o'yinlari 1940 va 1944-yillarga belgilangan bo'lib, Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketganligi sababli o'tkazilmadi. Ammo o'yinlar tartib nomerlari saqlanib qoldi.

#### **XIV – Olimpiada o'yinlari (1948-yil 29-iyul – 14-avgust, London)**

1948-yili Angliya poytaxti Londonda urushdan keyingi birinchi Olimpiadada yani XIV Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda jahonning 59 mamlakatidan 4689 sportchi qatnashdi, shulardan 385 tasi xotin – qizlar edi. Ular sportning 19 turini 150 turlaridan birinchilik o'tkazildi. Bunda Ikkinchi jahon urushida qatnashmagan yoki undan kamroq zarar ko'rgan mamlakatlarning sportchilari muvaffaqiyatliroq qatnashdilar.

Asllar yengil atletikasi tarixida birinchi bor gollandiyalik 4 ta oltin medalni (uch marta yakka va komanda hisobida) qo'lga kiritib Olimpiada qahramoni bo'ldi.

Noa'anaviy ochkolar hisobiga ko'ra AQSh – 1 - o'rin, Shvetsiya – 2 - o'rin, Vengriya – 3 - o'rinni egalladilar.

#### **XV – Olimpiada o'yinlari (1952-yil 19-iyulidan – 3-avgustgacha Xelsinki (Finlyandiya))**

1952-yilning 19-iyulidan 3-avgustgacha Finlyandiyaning poytaxti Xelsinkida navbatdagi Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda ilk bor 69 mamlakatning 4925 nafar sportchisi ishtirok etdi. Bu Olimpiada o'yinlari tarixidagi rekord ko'rsatkich edi. Ushbu yirik sport anjumanida Bagami oroli, Angliya oroli, Gana, Gvatsmila, Isroil, Indoneziya, Nigeriya, Gollandiya, GFR, Tailand, Janubiy V'etnam va sobiq SSSR vakillari birinchi marta Olimpiada medallari uchun kurashishdi.

XV – Olimpia o'yinlarining ochilish marosimi tantanalarida Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Vaaspiva Olimpiada o'yinini ochar ekan, oltinning oq rangli kantorlar o'yinchoq O'zRa moviy osmonga parvoz qildi. Bu tashkilotchilarning sportsevarlarga atagan kutilmagan sovg'asi bo'ldi.

Nihoyat, musobaqalarga izn berildi. Ayollar yengil atletikasining to'qqiz turi bo'yicha bahs yuritishdi. Shunisi e'tiborga molikki, ular sakkiz turda Olimpiada rekordlarini o'rnatishdi. Hatto to'rttasi jahon rekordiga teng keldi. Erkin yengil atletikachilar esa dasturdagi 24 turdagi musobaqadan o'n to'qqiztasida Olimpia o'yinlari rekordini yangilashdi. Shu yerda ham to'rt marta jahon rekordi qayd qilindi. London

Olimpiadasining qahramoni, amerikalik Robert kurash bellashuvlarida yuksak natija ko'rsatdi. Robert jami 7887 ochko jamg'ardi. Brazilyalik Ademar Ferreyroda Sileva esa uch joylab sakrashda tengsiz ekanligini to'la isbotladi.

42 davlatning 140 nafar shtangachisi qatnashgan og'ir atletikachilar bahsi, Olimpiya o'yinlarida birinchi bor qatnashayotgan sobiq ittifoq (SSSR) vakillarining misli ko'rilmagan ustunligida yakunlandi. Ular uchta oltin, uchta kumush va bitta bronza medallarini qo'lga kiritishdi.

Gimnastikachilar bellashuvlari ham sobiq ittifoqchilarning "mo'jizasi" bilan nihoyasiga yetdi. Jamoa birinchiligida chempionlik shohsupasini erkaklar ham, ayollar ham begona qilishmadi. Shaxsiy hisobda mutloq g'olib bo'lgan harnovlik Mariya Goroxovskaya ikkita oltin va bitta kumush medalni qo'lga kiritib, o'ziga xos ko'rsatkichga erishdi. Viktor Chunarik to'rtta oltin va ikkita kumush medaliga loyiq ko'rildi. Shunisi quvonchliki, respublikamiz vakili Galina Shamray chempion gimnastikachilar orasida komanda hisobida oltin medal olib, o'zbek sportchilari o'rtasida birinchi bor Olimpiada o'yinlari chempioni bo'ldi.

XV – Olimpiada o'yinlarida sobiq ittifoq polvonlari jami 10 ta (6 oltin, 2 kumush, 2 bronza) medal sohibiga aylanishdi.

XV – Olimpiada o'yinlarida qator ko'rgazmali sport o'yinlari ham namoyish qilindi. Shvetsiya va Daniya jamoalari qo'l to'pi bo'yicha kuch sinashishgan bo'lsa, fin beysbolligasi va finlyandiya ishchilar sport uyushmasi jamoalari esa "fin beysboli" ni ko'z – ko'z qilishdi. Ko'rgazmali chiqishlar ichida eng ommaviy sport turi – gimnastika bo'ldi. Unda bor-yo'g'i 1175 nafar gimnastikasichi qatnashdi.

Norasmiy jamoa hisobida bir yo'la ikki davlat sportchilari birinchi o'rinni egalladi. AQSh va Sobiq ittifoq (SSSR) jamoalari 494 ochko jamg'arishdi. Sobiq ittifoq vakillarining debyuti 22 ta oltin, 30 ta kumush va 19 ta bronza medallari bilan nishonlandi.

### **XVI – Olimpiada o'yinlari (1956-yil 22-noyabrdan – 8-dekabrgacha Avstraliyaning Melburn shahrida o'tkazildi)**

Xalqaro Olimpiada qo'mitasining 1949-yilgi yig'ilishda XVI – Olimpia o'yinlariga "da'vogarlar imkoniyatlari o'rganib chiqildi. Avstraliyaning Melburn shaxridan tashqari barcha nomzodlar Amerika qit'asidan ko'rsatilgandi. Bular Bu enos – Ayres (Argentina), Mexiko (Meksika), Monreal (Kanada), Los – Anjelos, Minnapolis, San – Fransisko, Filadefiya, Detrayt, Chikago (hammasi AQSh) edi. Ushbu da'vogarlar bellashuvida Melburn g'alaba qozondi.

XVI – Olimpia o‘yinlariga 67 davlatning 3184 ta eng kuchli sportchilari tashrif buyurdi. Unda Keniya, Liberiya, Malayziya, Germaniya birlashgan jamoasi, Gayvon oroli, Uganda, Fidni va Efiopiya olimpiachilari birinchi marta qatnashadi. Shunga qaramay, qatnashchilar soni 1948 - va 1982-yilgi Olimpia o‘yinlariga nisbatan kam edi. Buning asosiy sabablaridan biri o‘yinlarni o‘tkazish muddati (noyabr – dekabr) ning noqulayligi bo‘lib, Shimoliy yarim shardagi mamlakatlarga o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘dirgandi. Transport harakatlarining oshib ketganligi natijasida, ko‘pchilik davlatlar ishtirokchilar sonini qisqartirishga majbur qilishgan.

Sobiq ittifoq vakillari gimnastika, futbol, zamonaviy besh kurash, boks, klassik kurash, baydarka va eshkak eshish, o‘q otish musobaqalarida tengsiz ekanliklarini tasdiqlashgan holda, akademik eshkak eshish, basketbol, erkin kurash, yengil va og‘ir atletika bellashuvlarida ikkinchi bo‘lishdi.

Shuningdek, Olimpiada o‘yinlari “Vladimir Kus Olimpiadasi” deb ataldi. Bu bejiz emas edi, albatta, Kus 5000 va 10000 metrlarga yugurishdi va faqat chempionlik zavqini surdi. Hatto ikki bor Olimpiada rekordini ham yangiladi. Yengil atletikaning nayza uloqtirish bahsida rigalik ayol Chnessa Yauizeme, yadro uloqtirishda leningrad (hozirgi Sank Peterburg)lik Tamari Tishkeevich va Loki masofaga yurishda, moskvalik Leond Spirinlar ham birinchi urinishda, Olimpiya o‘yinlari rekordlarini o‘rnatishdi.

Charm qo‘lqop ustalari bahsida Benger Laslo Papp o‘ziga xos rekord natijaga erishdi. Laslo Papp qatorasiga uchta Olimpiada o‘yinida ishtirok etib, uchinchi bor oltin medal sohibiga aylandi.

Bu jahon boks tarixidagi dastlabki yuksak ko‘rsatkich edi.

Norasmiy komanda hisobida SSSR birinchi o‘rinni, AQSh – ikkinchi o‘rinni, Avstraliya – uchinchi o‘rinni egalladi.

Ushbu Olimpiadada sobiq ittifoq (SSSR) tarkibida ishtirok etgan respublikamiz vakillaridan Sergey Ponov 4-o‘rin (yengil atletika), Galina Shamray jamoada hisobida oltin (sport gimnastikasi) medalni olgan edi.

Respublikamizdan bir kishi – yengil atletikachi Valentina Ballod qatnashdi.

## **XVII Olimpiada o‘yinlari**

(1960-yil 28-avgustdan-11-sentabrgacha Italiyaning Rim shahrida o‘tkazildi).

1960-yilning 28-avgustidan 11-sentabrgacha Italiyaning Rim shahrida XVII Olimpiada o‘yinlari o‘tkazildi.

“Mangu shahri”ga yer qit’asining 8sh4 davlatidan 5337 sportchi yetib keldi (shulardan 537 tasi ayollar) Vest--- federatsiyasi, Marokash, San-Marino qo‘shilishdi.

XVII Olimpia o‘yinlarida ko‘plab yuqori natijalar qayd qilindi. Musobaqalar davomida 74 ta Olimpiada rekordi o‘rnatilganligi va shundan 37 tasi jahon rekordiga teng edi.

Rim Olimpiadasining “Eng yaxshi” sportchisi nomiga atletika bo‘yicha jahon va Olimpiada o‘yinlarining bir necha bor rekordchisi mashhur shtangachi Yuriyga Vlasov loyiq ko‘rildi. Og‘ir vaznda bahs yuritgan Yuriy munosib raqib topilmadi.

Yengil atletika musobaqalari har safardagidek qiziqarli o‘tdi. 10000 metrga yugurishda moskvalik Petr Bolotninov, 20 kmga sportcha yurishda Ukrainaning Sumi shahridan Vladimir Golubnichi, balandlikka sakrashda tiblisilik Robert Shavlakadze, nayza uloqtirishda tivlik Viktor Sibulenkolar chempionlik shohsupasiga ko‘tarilishdi. Yangi zelandiyalik More Xolberk esa 5000 metr masofaga yugurishda zafar quchdi. Ayollar o‘rtasida amerikalik qora tanli Vilma Ruzolf shuhrat qozondi. (100 m 11.0 soniya va 200 da 24.0 soniya, 4x100 mga estofetasida jahon rekordi ko‘rsatildi)

Rim ringi ham yangi iste’dodni kashf etdi. Professional boksning bo‘lg‘usi jahon chempioni, mashhur nemis K—“Charm qo‘lqop” Olimpiadagi dastlabki yirik g‘alabasiga shu yerda asos soldi.

Norasmiy jamoa birinchiligida g‘oliblikni sobiq ittifoq (SSSR) birinchi, AQSh-2-o‘rinni, birlashgan german komandasi uchinchi o‘rinni egalladilar.

Ushbu Olimpiada o‘yinida sobiq Ittifoq tarkibida yengil atletikachi Valentina Ballod ishtirok etdi.

## **XVIII Olimpiada o'yinlari (Tokio (Yaponiya) 1964-yil 10-24 oktabr**

Aslida, Yaponiyaning poytaxti Tokioda 1940-yilgi XII Olimpia o'yinlari o'tkazilishi lozim edi. Biroq avj olgan Ikkinchi jahon urushi sportchilarning yirik anjumanini o'tkazish imkonini bermadi. Oradan yigirma yil o'tgacha, Tokio yana nomzodlar ro'yxatidan o'rin oldi. Bu safar esa xalqaro Olimpia qo'mitasi Rimga "yon bosmadi". Yaponiyaliklar, baribir, niyatlariga erishishdi. 1964-yili Olimpia o'yinlarini o'tkazish sharafiga ularga nasib etdi. Osiyo qit'a'siga ilk bor Olimpiada o'yinlari tashrif buyurdi.

XVIII Olimpiada o'yinlari 1964-yil 10-24 - oktabrgacha Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkazildi.

Tokioga 94 mamlakatdan 5140 ta sportchi keldi. Shuni e'tiborga loyiqlik, Olimpiada hamdo'stligi mustamlakachilik zulmidan xalos bo'lgan ko'plab davlatlar hisobiga boyidi: Aljir, Fil suyagi qirg'og'i, Kamerdi, Kongo, Malagasiya (hozirgi Madagaskar) respublikasi, Mali, Niger, Senegal tanganika va zanzibor (hozirgi Tanzaniya), Trinidad va Tobago, Chat shuningdek, Monologiya xalq respublikasi, Daminikan respublikasi va Neapal sportchilari birinchi marta start olishdi.

Yaponiya imperatori Xiro Xito XVIII Olimpiada o'yinlarini ochiq deb e'lon qildi. Shu dam o'yingohning yugurish yo'lakchasida qo'lida mashala ushlagan yigit paydo bo'ldi. U oddiy bir yapon talabasi Josinori Sakai ekanligini hech kim bilmasdi. Ma'shalani unga topshirganligining o'ziga xos sabablari bor, albatta. Sakai 1945-yili Yaponiyaga atom bombasi tashlangan paytda dunyo yuzini ko'rgandi. Bugungi kunda u yaponiyaliklarning hayot timsoliga aylangan edi. Josinori ma'shala yoqish uchun 163 pog'onadan iborat zinopayaga ko'tarilar ekan, o'yingohga yig'ilgan muxlislar o'rnilaridan turib olqishlar bilan hamrohlik qilishilardi unga.

Olimpiada bayrog'i ko'tarilgan, an'anaga ko'ra qonunlariga sodiqlikni bildiruvchi qasamyod o'qib eshittirildi. Uni yaponiyalik mashhur gimnastikachi Takasi Ona ijro etdi.

Olimpia o'yinlari dasturi har qachongidanda keng qamrovli bo'ldi. O'yinlar ayollar va erkaklar o'rtasidagi voleybol va dyuzdo bilan kengaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, barcha sport turlarida raqobatchilik kuchaygandi. Natijada 776 marta Olimpiada va 35 marta jahon rekordlari o'rnatildi.

Jamoa birinchiligida yana Sobiq ittifoq (SSSR) vakillari g'alaba qozonishdi 607, 0 ochko. Ikkinchi o'rinni AQSh jamoasi. Uchinchi o'rinni Birlashgan German komandasi egalladi.

Yengil atletika musobaqalarida 83 davlatning 1086 nafar yengil atletikachisi kuch sinashdi. Ushbu "sport malikasi" bellashuvlarida 2 marta jahon va 71 bor Olimpiada rekordlariga asos solishdi. Eng asosiysi, shunisi quvonchliki, Tokiodan 3 nafar hamyurtimiz olimpiada medallari bilan qaytishdi. N.Ustanova va S.Baboninalar suzish bahslarida bronza medallarini qo'lga kirtishgan bo'lsa, gimnastikachi S.Diamidov komandada kumush medal bilan taqdirlandi. Shaxsiy hisobda 4-o'rinni oldi.

### **XIX Olimpiada o'yinlari (Mexiko (Meksika) 12-27-oktabr 1968-yil)**

1963-yilning oktabr oyida G'arbiy Germaniyaning Baden-Baden shahrida bo'lib o'tgan xalqaro Olimpia qo'mitasining 60-sessiyasida XIX Olimpiada o'yinlariga davogarlari masalasi uzil-kesil hal qilindi. Olimpia o'yinlari markazi etib Meksikaning poytaxti Mexiko tanlandi. Biroq XOKning ushbu qarori norozilikka uchradi. Ko'pchilik davlat vakillari Mexikoning dengiz sathidan 2240 metr balandlikda joylashganligini, bu esa o'z navbatida sportchilar sog'lig'iga ta'sir ko'rsatish mumkinligini bildirishdi. Lekin xalqaro olimpiya qo'mitasi o'z qaroriga sodiq qoldi.

XIX Olimpiada o'yinlari 1968-yil 12-oktabrdan-27-oktabrgacha Mexikaning Mexiko shahrida o'tkaziladi. Mexiko o'yinlari 12 oktabr (kristifor Kolumbning 1492- yili Amerikaga kirib kelgan kun) dan tantanali ravishda ochildi. Bu Lotin Amerika zaminida uyushtirilgan dastlabki Olimpia o'yinlari edi. Olimpia tarixida, mash'alani ilk bor ayol kishi, mexikalik Norma Epriketta Basilio Sotelo yoqdi.

Meksika poytaxtiga Yer kurrasining 112 mamlakatidan 5531 nafar Olimpiachisi yetib kelgandi. Qolaversa, musobaqalar, birinchi marta zamonaviy texnikalar yordamida televidenye orqali namoyish qilindi.

Bu gal Olimpiada o'yinlarida Barbadas, Britaniya Gondurasi, Varginiya oroli, Gonduras, Kongo (Kinshasi) Quvayt, Liviya, Paragvoy, Salvador, Surinam, Markaziy Afrika Respublikasining sportchilari birinchi bor qatnashdilar.

Mexikodagi Olimpia o'yinlarida 76 marta Olimpiada rekordlari o'rnatilganligi so'zimizning bevosita tasdig'idir (shundan 28 tasi shahar rekordi). Yengil atletika dasturiga kiritilgan 36 turidan 30 bor Olimpiya o'yinlari rekordiga asos solinganligi va 14 jahon rekordiga teng ekanligi

bahslarning qizg'in kechganligidan dalolat beradi. Uzunlikka sakrashda aqlga sig'maydigan (890 sm) natija ko'rsatgan AQShning Texas shtatidagi El-Paso universitetining 22 yoshli talabasi Bob Bimoa XIX Olimpiya o'yinlari qahramoni bo'ldi. U afsonaga aylandi, bu mubolag'a emasdi, albatta.

Norasmiy jamoa hisobida AQSh – 1-o'rin, SSSR-2 - o'rin, Germaniya-3 -o'rinni egalladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, XIX Olimpiada o'yinlarida Afina davlatlari ham qahramonlik ko'rsatishdi. Keniya va Tunis yengil atletikachilari besh marta shohsupaning eng yuqorisiga ko'tarilishdi. Olimpia tarixida birinchi marta 5000 va 10000 metrlarga yugurishdagi barcha sovrinlarni ham afrikaliklar ilib ketishdi.

Ushbu Olimpiadada Sobiq Ittifoq tarkibida 5 kishi ishtirok etgan: respublikamiz vakillaridan Vera Duyunova – oltin (voleybol), N.Ustinova esa bronza (suzish) medallari bilan qaytdi. Shuni e'tiborga molikki, N.Ustinova avvalgi Olimpiya o'yinlarida ham "bronza" medalini olgan edi. Mixail Kolyushev 5-o'rinni egalladi.

## **XX Olimpiada o'yinlari (1972-yil 26-avgustdan-10 sentabrgacha, Myunxen GFR)**

1966-yilning bahorida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi a'zo bo'lgan davlat vakillari XOK ning navbatdagi sessiyasiga yig'ilishdi. Undagi asosiy masala XX Olimpiada o'yinlari poytaxtini aniqlash edi. Bunday sharafiga Germaniya Federativ Respublikasining muhtasham shaharlaridan biri - Myunxen mo'sharraf bo'ldi.

Myunxenda o'tkazilgan Olimpia o'yinlarida jahonning 121 mamlakatidan 7123 nafar sportchi ishtirok etdi. Bu Olimpiya o'yinlari tarixidagi rekord ko'rsatkich sanaladi. Jahonning yirik sport anjumani qatnashchilari safida Albaniya, Yuqori Volta, Gabon, Dagomeya, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Lesato, Malavi, Saudiya Arabiston, Sazilenj, Somali va Togo davlatlari birinchi marta qatnashdi.

Musobaqa tashkilotchilari "Monxen-72"ni yuksak saviyada uyushtirishga jiddiy yondoshishdi. Shaharni obodonlashtirish va qayta qurish ishlariga ancha miqdorda mablag' ajratildi. Mehmonxonalaridagi o'rinlar soni 16 mingdan 150 mingtagacha ko'paytirildi. Qad rostlagan sport inshootlarini aytmaysizmi. Uni besh mingtagacha kishi yashash uchun mo'ljallangan Olimpia qishlog'i "Olimpia" o'yingohi (80 ming o'rinli), sport saroyi (15 ming o'rinli), suzish havzasi (10 ming o'rinli), velotrek (13 ming o'rinli) qilib bitkazilganligi diqqatga sazovardir,



ayniqsa, o‘q otish maji, eshkak eshish kanali va otchopar did bilan ishlanganligi sportchilardan tortib muxlisu mutaxassislargacha ijobiy taassurotlar qoldirdi. Hatto Myunxendagi sport inshootlari zamonaviy texnikalar bilan jihozlanganligi tufayli tezkor ma‘lumot olish imkoniyati yaratildi. Bunday shart-sharoit hali bironta Olimpia o‘yinlarida qayd qilinmagandi.

XX Olimpiada o‘yinlari sobiq SSSR sportchilarining ustunligida o‘tdi, desak mubolag‘a emas. Bu yerda amerikalik yengil atletikachilarning eng qisqa masofaga yugurishidagi an‘anasiga nuqta quyildi. 100 va 200 metrga yugurish bellashuvlaridagi ikkala oltinni ham kiyevlik sprinter Valeriy Borzov egallab, okeanorti vakillarini dog‘da qoldirdi.

Krasnodarlik Lyudmila Bragina esa 1500 metrga yugurish borasida uch marta musobaqaga chiqqan bo‘lsa, uchalasida ham jahon rekordini o‘rnatdi! 400 metrga to‘siqlar osha yugurishda 70 yillik tanaffusdan keyin yana afrikalik sportchi g‘olib chiqdi. Ugandalik Jon Akii-Buk ushbu masofani 47, 8 soniyada bosib o‘tdi.

Bokschilar bahsida kubalik “Charm qo‘lqon” ustasi mo‘jiza ko‘rsatdi. Orollik sportchilar birinchi marta Olimpiadaning uchta oltin medaliga sazovar bo‘lishidi. Og‘ir vaznda kuch sinashda Teofilo Stivenson nafaqat chempionlik gulchambariga burkandi, shuningdek, Olimpiadaning “Eng kuchli bosqichi”ga aylangan ko‘chma sovrin-Val Barker Kubogi bilan taqdirlandi.

Erkin kurash bellashuvida Aleksandr Medved Olimpia o‘yining uchinchi oltin medalini oldi. Ayni damda, Aleksandr Olimpiada o‘yinlarining ushbu turida uch marta chempion bo‘lgan yagona polvon hisoblanadi.

Myunxen Olimpiadasida misli ko‘rilmagan natijaga AQShlik suzuvchi erkin 100 va 200 metrlarga batterflyay usulda, shuningdek, 4x100 va 4x200 metrga erkin usulda ham 4x100 metrga murakkab usulda estafetaga suzishda zafar quchib, yetti marta shohsupaning eng cho‘qqisiga ko‘tarildi. Mark Spita bir yo‘la yetti karra Olimpiada chempioni! Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, barchasida jahon rekordlariga asos solindi.

Norasmiy jamoa hisobida SSSR-1-o‘rin, AQSh – 2 -o‘rin, GFR-3 -o‘rinni egalladi.

XX Olimpia o‘yinlarida olti nafar ham yurtimiz Sobiq ittifoq tarkibida munosib ishtirok etishida gimnastikachi Elvira Saodi jamoa hisobida, yunon-rim kurashida gilamga chiqqan polvonimiz Rustam Kazokov yengil vaznda va voleybol Vera Duyunovalar Olimpiada

chempioni degan sharaflı unvon bilan qaytishdi. Yana uch vakilimiz Mamajon Ismoilov (otda uchkurash), Aleksandr Yudin (Velosport) va Nikolay Anfimov (boks) lar Olimpia o‘yinlarida qatnashganligi bilan tarixga kirishdi.

### **XXI Olimpiada o‘yinlari (Monreal, Kanada 1976-yil 17-iyul-1-avgust)**

Kanada davlatining eng yirik shaharlaridan biri Kvebek provinsiyasi poytaxti -Monreal 1976-yilgi yozgi Olimpiada o‘yinlarini qabul qildi.

XXI Olimpiada o‘yinlari 1976-yil 17-iyuldan 1-avgustgacha Monreal shahrida o‘tkazildi. Unda 88 mamlakatning 6026 nafar sportchisi qatnashish sharafiga muyassar bo‘lishdi. Aslida, “Monreal-76”da 112 davlat vakillari ishtiroki kutilgan edi. Biroq ayrim sabablarga ko‘ra Afrika va Arab delegatsiyalarining ko‘pchiligi Olimpia o‘yinlaridan voz kechishdi.

Yengil atletika bellashuvlarida ayollar uch marta, erkaklar besh marta jahon rekordlarini o‘rnatishdi. Qolaversa, ayollar bahslashishi lozim bo‘lgan 14 ta sport turidan to‘qqiztasida Olimpiada rekordlarini yangilashdi. Erkaklar ham shuncha miqdorda Olimpia o‘yinlari rekordiga asos solishdi. Faqat ular 24 ta turda startga chiqishgandi.

Uch xatlab sakrash borasida g‘olib bo‘lgan tibilisilik atlet Viktor Saneev o‘ziga xos rekord o‘rnatdi. U qatorasiga uchinchi bor Olimpiadada chempionlik gulchambariga burkandi. Natijada Viktor Saneev Olimpia o‘yinlari tarixida uch xatlab sakrash bo‘yicha shunday muvaffaqiyatga erishgan dastlabki sportchi nomiga erishdi.

800 va 1500 metrlarga yugurishda lelingradlik Tatyana Kazankina, 400 va 800 m lik masofada kubalik sprinter Alberto Xukntareno “Qo‘sha” oltin egasiga aylanishdi. Myunxen Olimpiadasining ikki karra chempioni, Fin yigiti Lasse Viren ham an‘anasiga sodiq qoldi. 500 va 10000 metrlarga yugurish bobida unga teng keladigan topilmadi.

To‘rtta oltin va bitta bronza. Shu medalni GDR jamoasining mohir suzuvchisi Korneliya Ender egalladi. Korneliya 100 va 200 metr masofaga erkin usulda, 100 m ga batterflyay holda suzishda, shuningdek, 4x100 m ga estafetada shohsupaning eng yuqorisiga joylashdi. Avvalgi Olimpiada o‘yinlarida bo‘lgani kabi bu gal ham sayyoramizning “Eng kuchli sportchisi” nomini og‘ir atletikachi Vasiliy Alekseyev zabt etdi. U og‘ir vaznli shtangachilar o‘rtasida yana g‘alaba qozondi.

Sport gimnastikasi bellashuvlarida to'liq chempionligi, ayollar o'rtasida ruminyalik 15 yoshli maktab o'quvchisi Nadya Kamanechi hamda erkaklar bahsida rossiyalik Nikolay Andriyanovga tegdi.

Bu safargi Olimpiada o'yinlarida serquyosh yurtimizning to'rt nafar sportchisi kuch sinashishdi. Ayniqsa, "Charm qo'lqon" ustasi Rufat Risqiyevning janglari o'zbekistonliklarga olam-olam quvonch ulashgani hali-hanuzgacha esimizda. 75 kg vaznda ringga chiqqan bokschimiz uchrashuvlarni ko'taringki ruhda olib bordi va Olimpiadaning kumush medalini bo'yniga ildi. Sobiq SSSR tarkibida to'p surgan Feodorov esa faxrli 3-o'rin sohibi bo'ldi. Shuningdek, qilichbozlar bellashuvining rapira turida Sobirjon Ro'ziyev va otda uch kurash mashqlarida Valeriy Dvoryaninovlar ham munosib ishtirok etishdi.

Noan'anaviy jamoa hisobida SSSR-1-o'rin, GDR-2-o'rin, AQSh-3-o'rinni egalladi.

### **XXII Olimpiada o'yinlari(1980-yil 19-iyul-3-avgust, Moskva)**

Xalqaro Olimpia Qo'mitasining 1973-yili Vena shahrida bo'lib o'tgan majlisida, XXII Olimpiada o'yinlarining mezonini etib Moskva tanlandi. Xalqaro Olimpia Qo'mitasining navbatdagi sessiyasida esa musobaqalar o'tkazish muddatlari tasdiqlandi: 19-iyul-3-avgust. Shunisi qiziqki, ayni shu muddatda "Xelsinki-52" Olimpia o'yinlari ham o'tkazilgandi. Bunday "o'xshashlik" Olimpia o'yinlari tarixida ilk bor qayd qilindi.

XXII Olimpia o'yinlari nafaqat Moskvada, qolaversa Tallin (parus sporti), Leningrad (futbol), Kiyev (futbol), Mansk (futbol) shaharlarida uyushtirildi.

"Moskva-80" Olimpia tarixiga qator rekordlarni olib kirdi. Unda 81 davlatning Milliy olimpiya delegatsiyasi ishtirok etdi. Uning tarkibi 8050 kishidan iborat edi. Olimpiyachilar sportning 21 turi bo'yicha 203 to'plam medallar shodasi uchun kurashishdi. Bellashuvlar shu darajada keskin va qiziqarli kehdiki, bunga quyidagi raqam guvohlik beradi. O'n oltin kun mobaynida 74 marta Olimpiada medallarini jami 36 mamlakat vakillari qo'lga kiritishdi. 25 davlat sportchilari esa oltin medallarga sazovar bo'lishdi.

Medallar miqdori borasida mutloq g'oliblik Aleksandr Dityatinga nasib etdi. U gimnastikachilar bahsida uchta oltin, to'rtta kumush va bitta bronza medalini bo'yniga ildi. Besh nafar sportchi esa uch karra Olimpiada chempioni bo'ldi. Bular leningradlik suzuvchi Vladimir Salnikov, beloruslik Baydarkachi Vladimir Parfenovich hamda GDRlik suzuvchi ayollar Rina Raynish, Barbara Krauze va Karen Meguklar edi.

Ruminyalik gimnastikachi qiz Nadya Kamanechi bu gal ham bo'sh kelmadi.

Nadya Moskvadagi bellashuvlarda ikki marta shohsupaning eng yuqorisiga ko'tarildi va ikki marta "Kumush" pog'andan joy egalladi. Zamonaviy besh kurash ustasi Anatoliy Starostin esa sportning ushbu turida "qo'sh" g'alabaga erishdi. Olimpiada tarixida bu ko'rsatkich zamonaviy besh kurashchilar "takroriy" natijasi edi.

XXII Olimpiada o'yinlarida 14 nafar hamyurtimiz ham ishtirok etishdi. Shundan o'n ikkitasi medallar bilan qaytishdi. Ayniqsa, ot sporti musobaqalarida o'zining "Igrok" nomli otida qatnashgan Yuriy Kovshovga havas qilsa arzigulik. Uch kishidan iborat jamoa bahslarida oltin medalga loyiq ko'rildi.

Shaxsiy hisobda 1300 ochko bilan "kumush"lik bo'ldi. Shuningdek, respublikamizning yana ikki vakili Erkin Shagayev (suv to'pi) va Larisa Palova (voleybolchilar) ham O'zbekistonga Olimpiada "Oltin"larini tuhfa etishdi. Sportchilarimizdan A.Panfilov (kurash), R.Yambulov (o'q otish), kamonchi N.Butuzova va qilichboz S.Ro'ziyevlar Olimpia o'yinining kumush medali sohibiga aylanishdi. Chim xokkeychi qizlarimizdan bir yo'la beshtasi esa bronza medalini qo'lga kiritishdi: N.Ovechniki, N.Gorbatkova, V.Zazdravnik, L.Ahmedova va A.Ham. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, chim xokkey turniri Olimpiada o'yinlari tarixida ilk bor o'tkazildi.

Norasmiy jamoa hisobida SSSR-1-o'rin, GDR-2-o'rin, Bolgariya- 3-o'rinni egalladi.

### **XXIII Olimpiada o'yinlari (Los-Anjeles AQSH, 1984-yil 24-iyul-12-avgust)**

Los-Anjeles o'yinlari 1984-yilning 24-iyulida start olib, 12-avgustda nihoyasiga yetdi. XXII Olimpiada o'yinlarida 140 mamlakatning 6797 nafar sportchisi ishtirok etdi. Qolaversa, ular soni yanada oshardi. Biroq amerikaliklarning Olimpiada oldi "tashviqotlari" sabab, qator yetakchi davlatlar o'z vakillarini okean ortiga yuborishdan voz kechishdi. Hatto, qatnashuvchilar safida o'rin olgan 20 dan oshiq milliy delegatsiyalar sof ma'noda "ramziy" jamoalari bilan tashrif buyurishgandi. Aniqrog'i, jamoalar tarkibi bir yoki ikki Olimpiachidan iborat edi.

Bevosita musobaqalar jarayoniga to'xtalsak, Los-Anjelesda bor-yo'g'i 11 marta jahon va 45 marta Olimpiada o'yinlari rekordi yakgilandi, xolos. Agarda Olimpiada tarixiga nazar tashlasak, "Mexiko-68"da mos ravishda

31 va 87, Myunxen-72, da 33 va 54, Monreal-76, da 32 va 52, "Moskva-80" da 30 va 74 marta rekord o'rnatilganligining guvohiga aylanamiz.

Raqamlardagi ko'rsatkichlarning oldingilardan ancha orqada qolib ketishiga Sobiq ittifoq, GDR, Bolgariya kabi mamlakat sportchilarining qatnashmaganliklari sabab edi.

XXII Olimpiada o'yinlarida ayollar ilk bor marafon masofaga yugurishda bahs yurtishdi. Bu yerda ham omad amerikaliklarga kulib boqdi. Olimpia o'yinlari tarixida marafon musobaqasining birinchi chempioni nomiga Joan Benua sazovor bo'ldi.

Umuman olganda, AQSh sportchilari qo'lga kiritgan medallar borasida karvonboshilik qilishdi. Ushbu Olimpia o'yinlari tom ma'noda Amerika Olimpiadasiga aylangan edi.

15 kun davom etgan navbatdagi XXII Olimpia o'yinlar poyoniga yetdi. Shu davr mobaynida ko'plab mashmashali voqealar sodir bo'ldiki, bu hatto sport delegatsiyalarining noroziligiga uchradi. Natijada xorij ommaviy axborot vositalari "Los-Anjeles 84" o'yinlarini so'nggi 30 yil ichidagi eng g'alabali va saviyasiz tashkillashtirilgan Olimpia o'yinlari deb e'tirof etishdi.

#### **XXIV Olimpiada o'yinlari (Seul, Janubiy Koreya, 1988-yil)**

O'n million aholisi bo'lgan "gigant" – shahar Seul - jahon sportchilarining yirik anjumani sanalmush Olimpiada o'yinlarini o'tkazishga munosib tayyorgarlik ko'rdi. Sport inshootlari qurilishi va boshqa tashkiliy ishlarga misli ko'rilmagan miqdorda mablag' sarflandi. Bu raqam oz emas ko'p emas - 3.1 million AQSh dollariga yetdi. Yana shunisi e'tiborga molikki, dunyo axborot vositalarida ham bo'lajak Olimpia o'yinlariga qiziqish kuchaygandi. Natijada, musobaqa boshlanishiga hali 30 kundan ko'p vaqt bo'lsa-da, 110 mamlakatning 5200 muxbiri, 98 nafar televideniye va radio jurnalistlari akkreditatsiya ro'yxatidan o'tishgandi. Bu borada Amerikaning Bi-Bi-Si kompaniyasi otaliq qildi. Uning "jamoasi"ga 1300 dan oshiq sport sharhlovchisi va texnik xodimlar jamlangandi!

Olimpiada o'yinlarining ochilish marosimi tantanalari qisman, Seul orqali o'tadigan Xangan daryosida boshlandi. U yerda uyushtirilgan "Suv bayrami"da turli davrlarga mansub 458 ta katta –yu kichik kemalar va qayiqlar qatnashganligi tomoshabinlarda zo'r taassurotlar qoldirdi. XXIV Olimpia o'yinining asosiy tantanalari olimpia o'yingohida tashkillashtirildi. Ommaviy ko'rgazmali chiqishlarda 13 ming kishi

ishtirok etdi. Bu “shou”ning yuksak darajada kechishini ta’minladi. 160 davlat delegatsiyalarining namoyishi salkam bir soatga cho’zildi.

Orziqib kutilgan damlar yetdi. Qo’lida mash’ala ushlagan 76 yoshli Son Ku Chun paydo bo’ldi. Ayniqsa, u 1936-yilgi Olimpiya o’yinlarida marafonga yugurish bo’yicha chempion ekanligini ko’pchilik bilmasdi, albatta, XXIV Olimpiada o’yinlarining olovini yoqish uchun uch nafar yosh sportchiga nasib etdi. Sun Man Chun, Von Tak Kim va Min Son.

Tashkiliy qo’mita ma’lumotlariga ko’ra, “Olimpiya qishlog’i”da 13 ming 600 (shundan 9 ming 627 sportchi) qo’nim topgandi. Eng ko’p sportchilar jamoasi AQSh hissasiga to’g’ri keldi - 613 sportchi. Sobiq SSSR (510) va Janubiy Koreya (467) jamoalari tarkibi ham kam emasdi.

Olimpiachilar safi yana o’ng davlatga oshdi. Ilk bor Aruba, Guam, Bruney kabi mamlakatlar vakillari musobaqaga chiqishdi. Shu o’rinda qayd etib o’tish joizki, avvalgi Olimpiada o’yinlarida qatnashgan 150 davlatdan 75 tasi hanuzgacha Olimpiada o’yinlari medallarini qo’lga kiritishmagandi.

”Seul-88” medallariga 52 yurt Olimpiachilari sazovar bo’lishdi. Shundan 31 tasi oltin medallarga egalik qilishdi. Medallar miqdori borasida sobiq SSSR jamoasiga munosib raqib topilmadi. Sobiq ittifoqchilar eng ko’p – 132 (55 ta oltin, 31 ta kumush va 46 ta bronza) marta shohsupaga ko’tarilishdi. Keyingi o’rinlarni GDR 102 (37-35-30) va AQSh – 94 (36-31-27) delegatsiyalari egallashdi. Ko’rinib turibdiki, okean orti sport jamoasi birinchi marta uchinchi pog’onaga tushib qolgan. Janubiy Koreya zaminidagi Olimpia o’yinlarida 34 nafar sportchi ikki va undan ko’p “Oltin”ga erishdi. Mutloq g’oliblikni esa suzuvchi ayol Kristin Otto (GDR) zabt etdi. Shuningdek, amerikalik suzuvchilar M.Bionda (5 ta oltin, bittadan kumush va bronza). Janest Evans (3 ta oltin), sport gimnastikachilari Daniel Sinirash (Ruminya 3 ta oltin, va 1 ta bronza), yengil atletikachilar Florens Grifit-Joyner (AQSh 3 ta oltin va 1 ta kumush), Karl Lyuis(AQSh 2 ta oltin va bir bronza)lar ham ajoyib natija ko’rsatishdi.

Shubhasiz, XXIV Olimpiada o’yinlarining “Eng yaxshi sportchisi” unvoniga 22 yoshli nemis ayoli Kiristin Otto loyiq ko’rildi. Keyinchalik, u Janubiy Koreya gazetalari ta’sis etgan “Eng buyuk sportchi” mukofotini ham oldi.

Seul Olimpiadasida sakkiz nafar yurtdoshimiz ishtirok etganligini bugun faxr bilan eslaymiz. Erkin kurashchilarimiz Arsen Fadziyev (68 kg) va Maxrabek Xadrsev (90 kg)lar chempionlik gulchambarig burkanishgan bo’lishsa, yengil atletikachimiz Radion Gastiullin (langar

choʻp bilan sakrash, 585 sm) va ogʻir atletikachimiz Noila Muhammadiyovlar kumush, suzuvchimiz Sergey Zobolotnov esa bronza medali bilan taqdirlanishdi.

Shuningdek, Jamoliddin Abdujabborov (velosport) Akatoli Tankov (ot sporti), Igor Davidov va Nikolay Sankeevich (ikkallasi ham chim xokkey) lar Olimpia oʻyinlari qatnashchisiga aylanishdi.

### **XXV Olimpiada oʻyinlari(Barselona, Ispaniya, 1992-yil)**

Aslida, Barselona shahri oldin ham Olimpiada oʻyinlarini qabul qilish boʻyicha oʻz nomzodini qoʻygandi. Biroq har gal omad ulardan yuz oʻgirardi. 1924- yilga Olimpia oʻyinlariga davogarlar bahsida Parij gʻolib chiqqan boʻlsa, keyinchalik Berlin (1936) va Monreal (1976) “pand” berdi.

Nihoyat, Barselona ahlining orzu umidlari ushaldi va XXV Olimpiada oʻyinlari poytaxti etib saylanganligini bildirdi. Ushbu quvonchli xabarni shahar aholisi qanday kutib olishganini tasavvur qilish mushkul edi.

Qolaversa, tashkiliy qoʻmita Olimpia oʻyinlariga tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborishdi. Olimpiadaning timsoli, ramzi ham tasdiqlandi. Taniqli rassom, 39 yoshli Xaver Mariskal qalamiga tegishli boʻlgan “Kuchuk-Kobi” epiza ushbu konkursda gʻolib deb topildi. Oʻz navbatida, Ispaniya hukmati tayyorgarlik jarayoniga 127 milliard peset miqdorida mablagʻ ajratish toʻgʻrisida qaror chiqardi. Eng koʻp harajat sport inshootlari qurilishi (31 milliard peset)ga va Olimpia qishlogʻi (2 milliard)ni tiklashga sarflandi. 15 ming oʻringa moʻljallangan Olimpia oʻyinlari tarixidagi eng zoʻri edi. Shahar mehmonxonalari assotsiatsiyalari esa 12 ming oʻrin tayyorlashga bel bogʻladi. Shuningdek, qoʻshimcha ravishda oltita (2 ming oʻrin) mehmonxona qurish rejalashtirildi. Bir soʻz bilan aytganda, bahslar yurti, bu borada misli koʻrilmagan ishlarni amalga oshirdi.

XXV Olimpia oʻyinlarining ochilishi marosimi 1992-yilning 27-iyulda boʻlib oʻtdi. Bayram tadbirlari deyarli 3 soat davom etdi. “Olimpia” oʻyingohiga yigʻilgan 66 ming kishi ajoyib tantananing bevosita guvohiga aylanishidi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Olimpia oʻyining ochilish qismiga terin gimnastikasining bahosi 300-500 dollar hisobida qilib belgilanganliga qaramay, uning “qora bozor”dagi narxi 7 ming dollargacha koʻtarilgan. Nihoyat, Ispaniya qiroli Xuan Karlosga soʻz beriladi va u Olimpiada oʻyinlarining ochilish vakolatini ham sidqidildan bajaradi.

“Barsiona-92”ga Olimpia tarixida birinchi marta XOKga a’zo bo‘lgan davlatlarning barchasi jamlanishgandi – 1731 delegatsiya! Bu Xalqaro Olimpia Qo‘mitasi prezidenti Samarangning sa’yi harakatlari samarasi edi, albatta. Eng ko‘p sonli jamoa Ispaniya bo‘ldi. Ularning tarkibi 826 nafar sportchidan tashkil topgandi. AQSh Olimpiachilar soni esa 819 nafarga yetdi. Ushbu Olimpia o‘yinlarida sobiq SSSR vakillari ilk bor va so‘nggi marta Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH)ning birlashgan jamoasi qatnashdi. Jamoa 654 sportchini o‘z ichiga olgandi, XXV Olimpia o‘yinlarida rekord hisobda sportning 25 turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi.

Shunisi e’tiborga molikki, Barselona zaminida 17 nafar o‘zbekistonliklar ham bellashuvlarda qatnashdi. Bu raqam avvalgi o‘yinlarga qaraganla yuqori edi. Yurtdoshlarimiz bu gal uchta oltin, ikkita kumush va bitta bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

Sport gimnastika ustalari Okean Chusovitika va Raziliya Galiyeva, 4x100 metrga estafeta yugurishda Marina Shimoninlar shohsupaning eng yuqorisiga ko‘tarilishdi. Og‘ir atletika musobaqasining donglilar bahsida ishtirok etgan Sergey Sirsov gruziyalik K.Kaxiashvili kabi bir xil natija ko‘rsatishadi 190 kg. Biroq yuz gramm yengil bo‘lgan gruzin shtangachisi “oltin”ni ilib ketdi. Sirsov kumush medal bilan kifoyalandi. Shuningdek, Anatoliy Aeraboyev (merganlik, kumush) va Valeriy Zaharovich (qilichboz, bronza) Olimpiada medallarini zabt etishdi.

Agarda Markaziy Osiyo mamlakatlari ko‘rsatkichlariga nazar tashlasak, Qozog‘iston (21 sportchi-bir oltin, ikkitadan kumush va bronza), Tojikiston (bir oltin), Qirg‘iziston (bir oltin) va Turkmaniston (medal yo‘q) ekanligini ko‘ramiz. Demak, yurtdoshlarimiz erishgan natijalar maqtovga arzigulik.

### **XXVI Olimpiada o‘yinlari (Atlanta, AQSh 1996-yil 19-iyul-5-avgust)**

1996 yil 19 iyul. Bu kun O‘zbekiston sporti tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Aynan shu kuni mamlakatimiz vakillari mustaqil jamoa sifatida XXVI Olimpiada o‘yinlarida ilk bor ishtirok etishdi. Xalqimizning yillab kutgan orzu-umidlari ushladi o‘shanda.

Mana, uzoq kutilgan onlar, nihoyat, Olimpia o‘yinlari qatnashchilarining namoyish boshlandi. Birin-ketin davlatlar milliy delegatsiyalari safi ko‘rinadi. Uzoqdan O‘zbekiston yozuvi ko‘zga tashlanadi. Vatanimiz bayrog‘ini ko‘targan Temur Ibragimov shahdam qadamlar bilan oldinga intilmoqda. Baxtiyor ko‘zlarda yosh qalqiydi.



Qanchalar kutganda bu odamlarni biz. Naqadar zavqli va totli onlar. Axir, yurtimiz nomini yer yuzi aholisi tanimoqda, tan olmoqda.

XXVI Olimpia o'yinlari ma'shalasini yoqish Rim Olimpiadasi g'olibi, professional boks bo'yicha uch karra chempion, qolaversa, mashhur "Charm qo'lqop" ustasi Muhammad Alig topshirildi. Taniqli sportchi titrayotgan qo'llari bilan ma'shalani chashgohga uzatadi. Olimpia olovi yonadi. So'ngra Atlanta o'yinlarining tashkiliy qo'mitasi raisi Ulyam Peyn va Xalqaro Olimpia qo'mitasining prezidenti Xuan Antanio Samaranglar o'zlarining tilaklarini bildirishadi. AQSh prezidenti Bill Klinton XXVI Olimpia o'yinlarini ochiq deb e'lon qildi.

Atlantaga rekord hisobda 197 davlatning o'n bir mingga yaqin sportchisi tashrif buyuradi. Eng ko'p sonli jamoa AQSh bo'ldi - 664 nafar kishi. O'zbekiston jamoasi roppa-rosa 76 Olimpiachidan iborat edi. Vakillarimiz asosan, sportning yakka kurash turlarida bahs yuritishdi.

22 iyul kuni sportchimiz sharafiga birinchi marta mustaqil O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi. Dzyudochilar bellashuvining 86 kg gacha bo'lgan vazn toifasida gilamga chiqqan Armen Bogdasarov kumush medalni qo'lga kiritdi. Dastlabki uch uchrashuvni saf g'alaba bilan yakunlagan Armen hal qiluvchi pallada koreyalik Jean Ki Vongga imkoniyatni boy berdi. Shunga qaramay uning ko'rsatgan natijasi millionlab hamyurtlarimiz tomonidan olqishlandi. Xuddi shunday an'anani bokschimiz Karim To'laganov davom ettirdi. N kg vazn toifasi ringga tushgan vakilimiz bronza medaliga sazovor bo'ldi. Qolgan Olimpiachilarimiz ham faxrli o'rinlarga davogarlik qilishdi. Yengil atletikachi Ramil G'aniyev o'n kurashda Osiyo rekordini o'rnatib, 8-o'rinni egalladi. Sport gimnatsikasining ko'p kurashi bo'yicha esa Chusovitina kuchli o'nlikdan joy oldi. Umuman 15 ta sportchimiz 1-10ga o'rinlarni egalladilar.

Mamlakatimiz debyuti omadli keldi, desak mubolag'a emas. Negaki sportning 143 turida ishtirok etgan jamoamiz norasmiy hisobda 197 davlat ichida 57-pog'onani band etishdi.

Bu ko'rsatkich hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasidagi beshinchi natija ekanligini ham ta'kidlab o'tish joizdir.

### **XXVII Olimpiada o'yinlari (Sidney, Avstraliya, 2000-yil 15-sentabr-1oktabr)**

Avstraliyaning Sidney shahrida 200 mamlakatning 11 mingdan ortiq sportchisi 300 komplekt medallar shodasi uchun bahs yurtdilar. 6 nafar sportchi 3 tadan, 32 qatnashchi esa 2 tadan oltin medal sohiblari bo'lishdi.

Ilk bor ayollar o'rtasida suv polosi, muanteyn-bayk singari bir qator sport turlari Olimpiada dasturidan joy oldi. Doping nazorati kuchaytirilishi hisobiga 7 nafar sovrindor natijalari bekor qilindi. Hatto keyingi Olimpiada o'yinlari dasturidan doping kuchayganligi bois, og'ir atletika turi olib qo'yilishi masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Janubiy Koreya va KXDR vakillari yagona jamoa bo'lib musobaqalarda ishtirok etishi Olimpiada nufuzini yanada oshirganligiga shubha yo'q. Olimpia o'yinlari sharofati bilan birgina Sidney shahri yangi 30 ta zamonaviy sport inshootlariga ega bo'ldi.

XXVII Olimpia o'yinlarining yurtimiz uchun ahamiyati ayniqsa, beqiyosdir. Vakillarimiz O'zbekiston tarixida biirnchi bor Yozgi Olimpiada bahslarida oltin medal sohibi bo'lishdi.

Sidneydagi XXVII yozgi Olimpiadada matonat ko'rsatib jonajon O'zbekistonimiz madhiyasini butun dunyo taratgan, bayrog'imizni yuksak ko'targan Muhammadqodir Abdullayev, Artur Taymazov, Sergey Mixaylov, Rustam Saidovlarning g'alabasidan qalblar g'ururga, zavq-shavqqa to'ldi.

Sportchilarimiz Atlanta Olimpiadasida 1 ta kumush, 1 ta bronza medali bilan taqdirlanib, umumjamoa hisobida dunyoda 58 – o'rinni band etishgandi. Sidneyda o'tkazilgan XXVII Olimpiada esa yurtdoshlarimiz 1 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medaliga egalik qilib, 41-o'indan joy olishdi. Nihoyat, yashil qit'aning Sidney shah rida o'n besh kun davomida turfa shov-shuv hamda qiziqarli bahslarga boy bo'lgan XXVII yozgi Olimpiada o'yinlari yakunlandi. Dunyo sport olamiga olam-olam quvonch va taassurotlar hadya etgan mazkur Olimpiada bejiz "ming yillik o'yinlari" deb nomlanganligi o'z isbotini topdi. Shuning uchun ham MOK prezidenti Samarang Abdul-Adab "Sport - tinchlik va do'stlik elchisi" bo'lib qolishini alohida ta'kidladi.

XXVII Olimpiada g'oliblari orasidan sakkiz nafar XOK ning a'zolari saylandi. Ular safiga sobiq ittifoq respublikalari vakillaridan rossiyalik Aleksandr Ponov, ukrainalik yengil atletikachi, ya'ni langar bilan sakrovchi Sergey Bubkalar kiritildi.

Noan'anaviy jamoa hisobida AQSh (97-39-33) – 1-o'rin, Rossiya (88-28-28) – 2-o'rin, Xitoy (59-28-16-15) -3-o'rinni egalladi. Shunday qilib, Sidney bo'lib o'tgan XXVII yozgi Olimpiada o'yinlari nihoyasiga yetdi. Dunyo esa, 2004-yil Afinada o'tadigan XXVII Olimpiada o'yinlariga tayyorgarlikni boshladi.

## **XXIX OLIMPIYA O‘YINLARI ( Pekin, 2008-yil)**

XXIX Olimpiada o‘yinlari 2008-yil 8-avgustdan 24-avgustgacha belgilanib, Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti Pekindagi “Qush ini” o‘yingohida jahon sport bayrami XXIX Olimpiada o‘yinlari tantanali ravishda ochildi.

Olimp to‘g‘ri (Gretsiyada yondirilgan mash’ala) Xitoy poytaxtigacha bo‘lgan 137 ming kilometrlik yo‘lni bosib, barcha besh qit’a hududidan o‘tib, o‘n olti kun deganda Pekinga yetib keldi. XXIX Olimpiadaning shiori “Yagona olam - yagona orzu” bo‘ldi. Butun dunyo Olimpiada o‘yinlari fikru xayoli bilan yashab, musobaqani milliarddan ortiq kishi oynai jahon orqali tomosha qildi.

Ilk marotaba O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Olimpiada o‘yinlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatdi.

XXIX Olimpiada o‘yinlarida jahonning 204 mamlakatidan tashrif buyurgan 11099 nafar sportchi qatnashdi. Bu yerda 302 ta medallar shodasi uchun kurash bordi. Jami 35 ta jahon va 85 ta Olimpiada rekordlari yangilandi.

Pekin Olimpiadasining qahramoni deb suzuvchi Maykl Felps – (AQSh)ni ko‘rsatish mumkin. U sakkizta jahon rekordini o‘rnatgan holda sakkizta oltin medalni qo‘lga kiritdi.

“Qush ini” o‘yinlari yo‘lakchasida yengil atletika sportida uchta jahon rekordi o‘rnatildi, erkaklarning - 100m, 200m ga yugurish musobaqalarida va 4x100 m lik estafetada jahon rekordlarida yamaykalik sprinter - Useyn Boltning bevosita “qo‘li” bor edi.

Langar cho‘p bilan sakrash sektorida ayollar o‘rtasida o‘ta qizg‘in kurash ke- chib, bunda rossiyalik sportchi Yelena Isinbayeva yuksak natija - 5 m 05sm, ya’ni yangi jahon rekordi bilan g‘olib chiqdi.

Olimpiada medallari 87 ta mamlakat sportchilariga nasib etdi.

Pekindagi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekitondan sportning 15 turi bo‘-yicha 58 sportchi qatnashdi: yunon-rum kurashi va erkin kurash, boks, dzyudo, ta-ekvando (VTF), og‘ir va yengil atletika, o‘q otish, sport gimnastikasi, akademik eshkak eshish, baydarka va kanoeda suzish, trampolin, velosport-shosse, suzish, tennis. Delagatsiya vakillarining umumiy soni - 87 kishini tashkil etdi. Sportchilarimiz bitta oltin, ikkita kumush va uchta bronza medalini yutib oldilar. Ayniqsa, Vadim Menkovning bir kishilik baydarkadagi musoba qasiga to‘xtalib o‘tishni istar edik. Vadim finalda 1000 m masofaga bo‘lgan musobaqada avvaliga 900 metr davomida hammadan 50 metrga ilgarilab ketganiga qaramay,

oxir-oqibat unga biroz tajriba yetishmadi va sportchimiz marraga to'rtinchi bo'lib keldi.

O'zbekistonga Pekin Olimpiadasi o'yinlarida medallar keltirgan sportchilar quyidagilar:

- 1.Artur Taymazov erkin kurash - oltin medal
- 2.Soslan Tagiyev erkin kurash - kumush medal
- 3.Abdulla Tangriyev- dzyudo kurashi - kumush medal
- 4.Anton Fokin gimnastika, brusya-bronza medalni
- 5.Rishod Sobirov –dzyudo kurashi- bronza medali
- 6.Ekaterina Xilko- trampolinda sakrash-bronza medali.

Umum jamoa hisobida MDH davlatlari orasida 40-o'rinni egalladi.

(1 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza jami 6 ta medalni qo'lga kiritdilar.)

### **XXX OLIMPIYA O'YINLARI LONDON, 2012-YIL.**

Pekin Olimpiadasidan keyin (2012-yil 27-iyundan 12-avgustgacha) o'zbekistonlik sportchilarning London Olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rishi va qatnashishiga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012-yil London shahri (Buyuk Britaniya)da bo'lib o'tadigan XXX yozgi Olimpiada va XIV paraOlimpiada o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to'g'risida"gi PK -1029-son Qarori to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan. Endi esa sportchilarimizning ushbu Olimpiadada qanday natijalarga erishgani va umuman, Olimpiada bahslari qanday o'tgani va nimasi bilan yodda qolgani haqida to'xtalib o'tamiz. O'zbekistonlik sportchilar Buyuk Britaniya poytaxtida boshqa mamlakatlardan kelgan sportchilar bilan 2180 ta medal uchun kurash olib bordilar.

O'ttizinchi yozgi Olimpiada o'yinlari Buyuk Britaniya poytaxti London shahrida 2012-yilning 27-iyunidan 12-avgustiga qadar bo'lib o'tdi. Bu London tarixida uchinchi marta Olimpiada o'yinlarini qabul qilishi edi. (bungacha Londonda Olimpiada o'yinlari 1908-va 1948-yillarda o'tkazilgan edi). O'yinlar tumori qilib Venlok va Mandevil tanlandi.Olimpiadada 204 ta mamlakatdan 10956 nafar sportchi ishtirok etdi. 26 sport turida 302 ta komplekt medallar shodasi o'ynaladi. Jami medallar soni esa 2100 tani tashkil etadi.

Oldingi o'yinlarga nisbatan dasturga bir qancha o'zgarishlar kiritildi. Saylovdan ikki kun o'tgach – 2005-yil 8-iyundan boshlab XOQ beysbol va softbolni o'yinlar dasturidan chiqarishga qaror qildi. Ularning o'rniga golf,

karate, regbini kiritish taklif qilindi, rolikda uchish va skvosh soʻnggi daqiqalarda kerakli ovoz toʻplay olmadi. 2009-yilning 13-avgustida XOQ ijroiyo qoʻmitasi ayollarga boks boʻyicha musobaqalarda qatnashish ga ruxsat berdi. Ular 12 sportchidan uch vazn toifasida ishtirok etadigan boʻlishdi ( 51, 61 va 75 kg), erkaklardan esa bir vazn toifasi olib tashlandi. Tarixda birinchi marta ayollar yozgi Olimpiada oʻyinlari dasturidagi barcha musobaqalarda ishtirok etish huquqiga ega boʻlishdi. 500 metrga eshkak eshishda va kanoeda, ikki kishilik kanoeda erkaklar musobaqasi 200 metrlik ayollar musobaqasiga almashtirildi. Shu bilan erkaklarning 500 metrga boʻlgan barcha musobaqalari 200 metrga qisqartirildi (baydarka bir kishilik, baydarka ikki kishilik, kanoe bir kishilik). Yelkanli musobaqalarning “Tornado” turi olib tashlandi, ”Inglings” turi esa “Elliot” bilan almashtirildi. Velosportda ham bir qator oʻzgarishlar roʻy berdi.

Qoʻl toʻpi musobaqalarida chorak finalda yutqazganlar uchun 5-8 – oʻrinlar turniri bekor qilindi. Zamonaviy beshkurashda ham biroz oʻzgarishlar kiritilib, yugurish va oʻq otish bir musobaqa turiga aylantirildi.

Shunday qilib, musobaqalar sportning 26 turidan va 39 sport yoʻnalishida oʻtkazildi.

Yengil atletikada 3 ta jahon rekordi ( 800 metrga yugurish-erkaklar, 4x100 m ga yugurish-ayollar va erkaklar ) oʻrnatildi.

London Olimpiadasining haqiqiy qahramoni amerikalik suzuvchi ushbu Olimpiadada 4 ta oltin medalni qoʻlga kiritgan Maykl Felps boʻldi. U Olimpiada tarixida eng koʻp medalni qoʻlga kiritgan sportchi hisoblanadi – 23 ta medal.

Yamaykalik yengil atletikachi Useyn Bolt 3 ta oltin medalning sohibi va bir jahon rekordi muallifi (4x100 m estafeta yugurishda) boʻldi.

Bellashuvlar dasturidan oʻrin olgan asosiy sport turlari: boks, basketbol voleypol, yengil atletika, gimnastika, velosport, dzyudo, ot sporti, yelkanli sport, miltiqdan va toʻpponchadan otish, oʻq-yoy otish, suzish va suvga sakrash, zamonaviy beshkurash, suv polosi, stol tennisi, taekvando, akademik kanoe va baydarkada eshkak eshish, qoʻl toʻpi, qilichbozlik, erkin va klassik kurash, chim ustida xokkey, ogʻir atletika va futbol.

Oʻzbekistonlik sportchilar Londondagi 30-Olimpiada oʻyinlarida 47-oʻrinni egalladi. Quyidagi sportchilarimiz medallar olishga muyassar boʻldi:

- 1.Artur Taymazov – erkin kurash – oltin medal
- 2.Abbos Atoyev – boks – bronza medali
- 3.Rishod Sobirov – dzyudo – bronza medali.

## **XXXI OLIMPIYA O‘YINLARI 2016-yil Rio-de Janeyro.**

2016-yilda XXXI yozgi Olimpiada o‘yinlari 5-avgustdan 21-avgustgacha Rio-de-Janeyroda - Braziliyada bo‘lib o‘tdi. Bu Janubiy Amerikada o‘tkazilayotgan birinchi Mexikodagi 1968-yilgi, 1996-yili Atlantada Olim-piada o‘yinlaridan so‘ng Lotin Amerikasida o‘tkazilayotgan ikkinchi va janubiy yarimsharda 2000-yildan keyin o‘tkazilayotgan dastlabki Olimpiada o‘yinlari edi. Musobaqalarda 207 mamlakatdan kelgan 12500 dan ortiq atlet sportning 28 turida 306 komplekt medallar uchun kurashdi. Jami medallar soni 2106 donani tashkil etdi.

Riodagi musobaqalar dasturi Londondagiga nisbatan deyarli o‘zgarmadi, ushbu o‘yinlarda Kosovo va Janubiy Sudan jamoalari birinchi bor ishtirok etishdi. Regbi-7 va golf Olimpiada sport turlari qatoridan o‘rin oldi.

O‘yinlar tumori Braziliya o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘zida mujas-samlashtirgan - Vinisius va Tom bo‘lishdi. Olimpia o‘yinlari tumori Vinisius sariq rangga ega va Braziliya hayvonot dunyosining yorqin vakillarini o‘zida ifoda etadi. ParaOlimpia o‘yinlari tumori Tom esa Braziliya o‘simlik olamining umumlashgan obrazi sifatida gavdalandi. Uning ko‘rinishida daraxt va gullar elementini payqash mumkin.

Olimpiada o‘yinlarining ochilish marosimidan ikki kun avval Juan Avelanj nomidagi Olimpia stadionida Shvetsiya va JAR ayollar terma jamoalarining futbol bo‘yicha musobaqasi bilan ochildi.

Ushbu Olimpiada o‘yinlari oldidan qabul qilish bilan bog‘liq ayblovlar tufayli XOK, Butunjahon Dopingga qarshi kurashish agentligi va AQSh siyosatchilari rossiyalik sportchilarning bellashuvda qatnashishlariga qarshi turdilar. O‘yinlar ochilishiga bir kun qolganda XOK rossiyalik ayrim sportchilarga musobaqada ishtirok etishga ruxsat berdi. Rio-de –Janeyro Olimpiadasida rossiyalik 286 nafar sportchi sportning 34 turidan 29 tasida ishtirok etdi. Ular yengil atletika bellashuvlaridan to‘liq chetlashtirildi. Shunday bo‘lsa-da, rossiyalik sportchilar katta jasorat ko‘rsatib, umumjamoaa hisobida 4-o‘rinni egalladilar.

Rio Olimpiadasining qahramonlari sifatida uchta oltin medalni qo‘lga kiritgan Useyn Bolt (100, 200 va 4x100 m estafeta yugurishda), amerikalik mashhur suzuvchi Maykl Felps (u Olimpiadada qo‘lga kiritgan medallar sonini 28 taga yetkazdi), Buyuk Britaniya vakili Muhammad

Farax (u Londondagi 2 ta oltin medalga yana 2 ta oltin medalini qo'shdi - 500, 10 000 m ga yugurishda) keltirib o'tish mumkin.

Bellashuvlar dasturidan o'rin olgan asosiy sport turlari: boks, basketbol, voleybol, yengil atletika, gimnastika, velosport, dzyudo, ot sporti, elkanli sport, miltiqdan va to'pponchadan otish, o'q-yoy otish, suzish va suvga sakrash, zamonaviy beshkurash, suv polosi, stol tennisi, taekvando, akademik va kanoe, baydarkada eshkak eshish, qo'l to'pi, qilichbozlik, erkin va klassik kurash, chim ustida xokkey, og'ir atletika va futbol.

2016-yilning 1-avgustida O'zbekiston sport delegatsiyasi "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining maxsus samolyotida Braziliya poytaxti Rio-de-Janeyroga XXXI yozgi Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish uchun jo'nab ketdi. 70 sportchidan iborat delegatsiya jami bo'lib - sportning 13 turida bellashdi. Ular orasida akademik eshkak eshish, badiiy gimnastika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, boks, dzyudo, yengil va og'ir atletika, sport gimnastikasi, stol tennisi, suzish, taekvando (WTF), tennis, trampolin, o'q otish, erkin va yunon-rim kurashi vakillari bo'lgan.

2016-yilning 2-avgustida Rio-de - Janeyrodagi Olimpiada qishloqchasida O'zbekiston Respublikasi bayrog'ining ko'tarilishi marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda sport amaldorlari, Olimpiada o'yinlari vakillari va Rio-de-Janeyro shahri ma'muriyati ishtirok etishdi. Delegatsiya rahbari Olimpia qishlog'i meriga O'zbekiston sportchilari nomidan sovg'alar topshirildi.

"Rio-2016" da dunyoning ikki yuzdan ziyod davlatlaridan sportchilar qatnashdi, ular orasida 87 davlat sportchilarigina shohsupaga ko'tarildi. Oltin medallarni qo'lga kiritganlar yanada kam - 59 ta. Yurtimiz sportchilari 13 ta medal jamg'arib, umumjamo'a hisobida 21-o'rinni band etdi. O'zbekiston sport delegatsiyasi Osiyo davlatlari orasida to'rtinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o'rinni egalladi. E'tibor bergan bo'lsangiz, sportchilarimiz Olimpiada o'yinlaridan hech qachon medalsiz qaytmagan.

Bokschilarimiz 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritib, Kuba, AQSh, Buyuk Britaniya va Rossiya kabi boks eng rivojlangan davlat sportchilarini ortda qoldirdi va dunyoda birinchi bo'ldi.

**YOZGI OLIMPIYA  
O'YINLARI**

<b>Yil</b>	<b>O'yinlar</b>	<b>Mezbon shahar</b>	<b>Sport turlari</b>	<b>Medallar komplekti</b>	<b>Mamlakatlari</b>	<b>Sportchilar</b>
1896.	I	Afina	9.	43.	14.	241.
1900.	II	Parij	19.	85.	24.	997.
1904.	III	Sent-Luis	16.	94.	12.	651.
1908.	IV	London	22.	110.	22.	2008.
1912.	V	Stokgolm	14.	102.	28.	2407.
1916.	VI	Berlin	-	-	-	-
1920.	VII	Antverpen	22.	154.	29.	2626.
1924.	VIII	Parij	17.	126.	44.	3089.
1928.	IX	Amsterdam	14.	109.	46.	2883.
1932.	X	Los-Anjeles	14.	117.	37.	1332.
1936.	XI	Berlin	19.	129.	49.	3963.
1940.	XII	Xelsinki	-	-	-	-
1944.	XIII	London	-	-	-	-
1948.	XIV	London	17.	136.	59.	4104.
1952.	XV	Xelsinki	17.	149.	69.	4955.
	XVI	Melbrun/	17.	151.	72.	3314.



1956.						
1960.	XVII	Rim	17.	150.	83.	5338.
1964.	XVIII	Tokio	19.	163.	93.	5151.
1968.	XIX	Mexiko	18.	172.	112.	5516.
1972.	XX	Myunxen	21.	195.	121.	7134.
1976.	XXI	Monreal	21.	198.	92.	6084.
1980.	XXII	Moskva	21.	203.	80.	5179.
1984.	XXIII	Los-Anjeles	21.	221.	140.	6829.
1988.	XXIV	Seul	23.	237.	159.	8391.
1992.	XXV	Barselona	25.	257.	169.	9356.
1996.	XXVI	Atlanta	26.	271.	197.	10318.
2000.	XXVII	Sidney	28.	300.	199.	10651.
2004.	XXVIII	Afina	28.	301.	201.	10625.
2008.	XXIX	Pekin	28.	302.	204.	10942.
2012.	XXX	London	26.	302.	204.	10568.
2016.	XXXI	Rio-de-Janeyro	28.	306.	207.	12500.
2020.	XXXII	Tokio				

**O‘ZBEKISTON MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI  
PREZIDENTLARI**

<b>PREZIDENT</b>	<b>PREZIDENTLIK DAVRI</b>
Obid Nazirovich Nazirov	1992-1994
Sobirjon Sobitovich Ro‘ziyev	1994-2003
Aziz Nosirovich Nosirovich	2003-2004
Rustambek Javdatovich Qurbanov	2004-2009
Malik Qurbanaliyevich Babayev	2009-2012
Mirabror Zufarovich Usmonov	2012-2017
Alisher Saidabbasovich Sultanov	2017-

**OSIYO O‘YINLARI**

<b>O‘yinlar</b>	<b>Yil</b>	<b>Mezbon shahar</b>	<b>Ishtirokchi mamlakatlar</b>
I	1951.	Dehli	11.
II	1954.	Manila	19.
III	1958.	Tokio	16.
IV	1962.	Jakarta	12.
V	1966.	Bangkok	16.
VI	1970.	Bangkok	16.
VII	1974.	Tehron	19.
VIII	1978.	Bangkok	19.
IX	1982.	Dehli	23.
X	1986.	Seul	23.
XI	1990.	Pekin	36.
XII	1994.	Xirosima	42.
XIII	1998.	Bangkok	41.
XIV	2002.	Pusan	44.
XV	2006.	Doxa	45.
XVII	2014.	Incheon	45.
XVIII	2018.	Jakarta/Palembang	45.
XIX	2022.	Xanchjou	

## QISHKI OSIYO O‘YINLARI

O‘yinlar	Yil	Mezbon shahar
I	1986.	Sapporo
II	1990.	Sapporo
III	1996.	Harbin
IV	1999.	Kanvondo
V	2003.	Aomori
VI	2007.	Chanchun
VII	2011.	Olmaota, Ostona
VIII	2017.	Sapporo, Obxiro

## YOZGI OLIMPIYA O‘YINLARINING UMUMJAMOA HISOBIDA SOVRINDORLARI

№	Yil	1.	2.	3.
I	1896.	AQSh	Gretsiya	Germaniya
II	1900.	Fransiya	AQSh	Buyuk Britaniya
III	1904.	AQSh	Germaniya	Kuba
IV	1908.	Buyuk Britaniya	AQSh	Shvetsiya
V	1912.	AQSh	Shvetsiya	Buyuk Britaniya
VI	1916.	BIRINCHI JAHON URUSHI		
VII	1920.	AQSh	Shvetsiya	Buyuk Britaniya

VIII	1924.	AQSh	Finlyandiya	Fransiya
IX	1928.	AQSh	Germaniya	Finlyandiya
X	1932.	AQSh	Italiya	Fransiya
XI	1936.	Germaniya	AQSh	Vengriya
XII	1940.	IKKINCHI JAHON URUSHI		
XIII	1944.	IKKINCHI JAHON URUSHI		
XIV	1948.	AQSh	Shvetsiya	Fransiya
XV	1952.	AQSh	SSSR	Vengriya
XVI	1956.	SSSR	AQSh	Avstraliya
XVII	1960.	SSSR	AQSh	Italiya
XVIII	1964.	AQSh	SSSR	Yaponiya
XIX	1968.	AQSh	SSSR	Yaponiya
XX	1972.	SSSR	AQSh	GDR
XXI	1976.	SSSR	GDR	AQSh
XXII	1980.	SSSR	GDR	Bolgariya
XXIII	1984.	AQSh	Ruminiya	FRG
XXIV	1988.	SSSR	GDR	AQSh
XXV	1992.	MDX	AQSh	Germaniya
XXVI	1996.	AQSh	Rossiya	Germaniya

XXVII	2000.	AQSh	Rossiya	Xitoy
XXVIII	2004.	AQSh	Xitoy	Rossiya
XXIX	2008.	Xitoy	AQSh	Rossiya
XXX	2012.	AQSh	Xitoy	Buyuk Britaniya
XXXI	2016.	AQSh	Buyuk Britaniya	Xitoy

### QISHKI OLIMPIA O‘YINLARINING UMUMJAMOA HISOBIDA SOVRINDORLARI

№	Yil	1.	2.	3.
I	1924.	Norvegiya	Finlyandiya	Avstriya
II	1928.	Norvegiya	AQSh	Shvetsiya
III	1932.	AQSh	Norvegiya	Shvetsiya
IV	1936.	Norvegiya	Germaniya	Shvetsiya
	1940.	IKKINCHI JAHON URUSHI		
	1944.	IKKINCHI JAHON URUSHI		
V	1948.	Norvegiya	Shvetsiya	Shveysariya
VI	1952.	Norvegiya	AQSh	Finlyandiya
VII	1956.	SSSR	Avstriya	Finlyandiya
VIII	1960.	SSSR	Germaniya	AQSh
IX	1964.	SSSR	Avstriya	Norvegiya
X	1968.	Norvegiya	SSSR	Fransiya
XI	1972.	SSSR	GDR	Shveysariya
XII	1976.	SSSR	GDR	AQSh
XIII	1980.	SSSR	GDR	AQSh
XIV	1984.	GDR	SSSR	AQSh
XV	1988.	SSSR	GDR	Shveysariya
XVI	1992.	Germaniya	MDX	Norvegiya

XVII	1994.	Rossiya	Norvegiya	Germaniya
XVIII	1998.	Germaniya	Norvegiya	Rossiya
XIX	2002.	Norvegiya	Germaniya	AQSh
XX	2006.	Germaniya	AQSh	Avstriya
XXI	2010.	Kanada	Germaniya	AQSh
XXII	2014.	Rossiya	Norvegiya	Kanada

## XULOSA

Jismoniy tarbiya dastlab mehnat jarayonida tahlil qilingan va unga tayyorlashdagi mashq hamda o'yinlardan iborat bo'lgan. Jismoniy mashqlar, raqslar, jamoa musobaqa o'yinlari va yakkama-yakka kurashlar diniy marosimlar, bayramlardagi urf-odatlarining ajralmas qismi bo'lib Jismoniy tarbiya mehnat ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Ibtidoiy jismoniy tarbiya barcha urug' a'zolarining boyligi bo'lib, urug' qabila mehnati va turmushi bilan chambarchas bog'langan edi.

Shu bilan jismoniy tarbiya urug' qabila aslzodalarining bundan keyingi bosqichi, ya'ni sinfiy ajralishiga, sinfiy quldorchilik jamiyatining paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

Qadimgi Sharq, o'rta va kichik Osiyo, Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rim mamlakatlarida mavjud bo'lgan quldorlik jamiyatlari qadimgi Dune jumlasiga kiradi. Bu jamiyatlarning har biri ozod kishilarga va qullarga bo'lingan edi. Moddiy boyliklarning asosiy ishlab chiqaruvchilari – qullar xech qandan huquqqa ega emas edilar. Ular ishchi hayvonlar bilan teng edi. Qullarda jismoniy mashqlar va o'yinlar bilan shug'ullanish uchun vaqt ham, kuch ham yo'q edi. Shunday ekan, qullarning biror xildagi jismoniy madaniyati haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Musobaqa o'yinlari quldorlarni jismoniy jihatdan tayyorlashning eng muhim shakllaridan biri edi. Musobaqa o'yinlari barcha quldorlik davlatlarida o'tkazilar edi. Ular Yunon Olimpia ritsarlari g'oyat darajada ravnaq topdi. Musobaqa o'yinlari quldorlarni jipslashtirar va ularning jangavor qudratini o'z sinfiy imtiyozlarini himoya qilish uchun tayyorgarlik darajasini namoyish etuvchi o'ziga xos ko'rigi edi.

Agar quldorlik tuzumida jismoniy tarbiya quldorlar orasida taraqqiy etgan bo'lsa feodal tuzumda esa nafaqat hukmron sinf o'rtasida, balki oddiy aholi o'rtasida ham rivojlanadi. Shaharliklar va dehqonlar o'rtasida o'tkaziladigan xalq jismoniy tarbiyasi mustaqillik va hukmronchilari oshirilar edi. Bu tarbiya moddiy boyliklarni bevosita yaratuvchilarning jismoniy kamolotiga imkon berar va shuning uchun quldorlik jamiyatidagi jismoniy tarbiyaga nisbatan Progressiv edi.

So'nggi o'rta asr davrida burjua ishlab chiqarishi munosabatlari tug'ilib, burjua ideologiyasini vujudga keltirar edi. Burjua ishlab chiqarish munosabatlari va burjua idielogiyasi jamiyatining feodal tuzilishi, feodal ideologiyasi va madaniyatini larzaga keltirdi.

O'rta asrning oxirida aholi bir xalqning yagona jismoniy tarbiyasi va jismoniy tarbiya to'g'risida yagona bir ta'limot yo'q edi. Bu davr feodal tuzilishining eski feodal ideologiyasi va madaniyatining yemirilishi davri shu jumladan, burjua jismoniy madaniyatining tug'ilishi davri edi. Ikkala jahon urushi o'rtasidagi davrda jismoniy tarbiya va sportni taraqqiy ettirishning eng muhim yakunlari – SSSRda ommaviy fizkultura harakati va kamintalistik mamlakatlardan ishchilar sinfi ommaviy sport tashkilotlari burjua sinfiy harakatiga qarshi turgan va promitiriyatni harbiylashtirishga, fashizmga va yangi impirialistik urushni ochishga qarshi umumiy kurashida ishtirok etadi.

Urushdan keyingi yillarda barcha davlatlarda jismoniy tarbiya va sportning taraqqiy etishida keskin o'zgarishlar yuz berdi.

Ulug' vatan urushi yillarida sovet fizkultura tashkilotlari ko'chirildi. Shu yillarda umumiy harbiy ta'lim berish sistemasida amalga oshirilgan. Harbiy jismoniy tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ko'p sonli jismoniy tarbiya mutaxassisleri va jamoadagi faollar urush yillari umumiy harbiy ta'limining harbiy o'quv punktlarida, stadionlarida va sport maydonlarida Qizil Armiyaning bo'lajak jangchilariga ta'lim berdilar. Ular yakkama-yakka jang o'tkazdilar, chizgichi jangchilarni tayyorladilar, ularning harbiy dala gimnastikasida hamda harbiy-jismoniy ta'limning boshqa turlariga o'rgatdilar.

Ulug' Vatan urushi sovet xalqining shu jumladan, sovet fizkulturchilari va sportchilarining ma'naviy, axloqiy va jismoniy kuchlari uchun buyuk sinov bo'ldi va bu sinovlarni muvaffaqiyatli yengib o'tdi.

Urushdan keyingi yillarda sovet jismoniy tarbiya sistemasining g'oyaviy, metodik va tashkiliy asoslari yanada keng taraqqiy etdi. Urush tamom bo'lishidan so'ng fizkultura tashkilotlarining eng muhim vazifasi-qisqa muddat ichida tinchlik davri sharoitlariga muvofiq ommaviy fizkultura va sinfiy ishlarini qaytadan qurish, uni tashkiliy jihatdan mustahkamlash va mamlakatimizda fizkultura harakatining yanada uzluksiz taraqqiy etishini ta'minlash edi.

1959-yil 9-yanvardagi «Mamlakatda fizkultura va sportga rahbarlik qilish to'g'risi»gi qaror qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq mamlakatdagi fizkultura harakatiga rahbarlik qilish jamoat tashkiloti SSSR sport jamiyatlari va tashkilotlari Sayuziga topshirildi.

Rahbarlik qilishning davlat shaklidan jamoatchilik tomonidan rahbarlik qilish shakliga o'tishi, sovet fizkulturchilarining keng ommasida ijodiy tashabbuskorlik, faollik va havaskorlikni uyg'otdi.



Sovet fizkultura harakatining jamoatchilik asosida taraqqiy etish sohasidagi muvaffaqiyatlari, shu jumladan, O'zbekiston SSSR xalqlarining 2-3-Spartakiadalarida, 17-Olimpiada o'yinlarida, jahon, Yevropa, birinchiliklarida va chet el mamlakatlarining sportchilari bilan bo'lgan o'rtoqlik uchrashuvlarida ham yorqin namoyish qilindi.

Jismoniy tarbiya va sport aholi turmushiga keng singib bormoqda, ularning dam olishlari, sog'liklarini mustahkamlash va kuch quvvatlarini oshirishda tobora muhim va zaruriy omil bo'lib qolmoqda.

Xalqning jismoniy tarbiyasi, kishilarimizning sog'lig'ini mustahkamlash, ularning ijodiy faolligini bir necha yilga uzaytirish haqidagi hukmatimiz doimiy g'amxo'rligining yorqin misoli Vazirlar Mahkamasining ketma-ket jismoniy tarbiya va sport va boshqa sport turlarini yanada rivojlantirish choralari haqidagi qarorlari muhim hisoblanadi. Bu qarorlarda mehnatkashlar orasida fizkultura-sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlari, mashtablar, kasb-hunar kollejlarda, letseylarda va oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning o'tilishini yaxshilash, jismoniy tarbiya kurslarining aniq yo'llari belgilangan. Bu esa ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan yaqqol ko'rinib qoldi. Masalan, sportchilarimizning jahon musobaqalarida Olimpiya o'yinlarida, Osiyo o'yinlari chempionatlarida, Xalqaro turnirlardagi muvaffaqiyati buning dalilidir.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiyaning va sinfiy va ommaviy ravishda rivojlanishi xalqimizning ma'naviy va axloqiy qiyofasining shakllanishida jamiyatga ta'sir etuvchi yanada faolroq omil bo'lishi, uning har tomonlama va gormonik rivojlanishi taraqqiyotiga uzoq yillar davomida sog'-salomati va ijodiy faol b'lishiga, Vatan himoyasiga tayyor bo'lish zamin yaratadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., «O‘zbekiston», 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risi»gi qonuni (yangi tahrirda), 2000
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risi» gi qonuni, 1997.
  - O‘z RVM ning «Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risi»gi qarori. 1993.
  - O‘zR Prezidentining «Sog‘lom avlod uchun ordenini ta‘sis qilish to‘g‘risi»gi Farmoni, 1993-yil 4-mart.
  - O‘zRVM ning Sog‘lom avlod uchun Davlat dasturi. 1997-yil.
  - O‘zRVM ning «Yosh avlodni sog‘lomlashtirish muammolarini har tomonlama hal qilish to‘g‘risi»gi qarori, 1993-yil 3-dekabr.
4. O‘zRVMning «O‘zbekiston futbolini rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi»gi qarori, 1996-yil 17- yanvar.
5. O‘zRVMning «Uzbek milliy kurashini rivojlantirish to‘g‘risi»gi qarori, 1998.
6. O‘zRVM ning «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi»gi qarori, 1999-yil 27-may.
7. O‘zRVM ning «O‘zbekiston Olimpia harakatini yanada rivojlantirish va mamlakat sportchilarining Sidney shahri (Avstraliya)dagi XXVII Olimpia o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risi»gi qarori, 2000-yil 7-iyun.
  - O‘zRVM ning «Ayollar va usib kelayotgan avlod sog‘ligini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi»gi qarori 2002-yil 25-yanvar.
8. Karimov I.A, O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat, T., «O‘zbekiston», 1992.
9. Karimov I.A, «O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyoti yo‘li»T, «O‘zbekiston», 1992.
10. Karimov I.A, «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», T, «O‘zbekiston», 1994-y.
11. Karimov I.A, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida», T, «O‘zbekiston», 1997-y.
12. Karimov I.A, «O‘zbekiston XXI asrga intilmokda», T, «O‘zbekiston», 1999 y.

13. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh.X, Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, darslik, Farg'ona 2001-yil
14. Abdumalikov R, Kudratov R.K, Yarashev K.D, Kupkari, ilmiy-ommabop kitob, T, UzDJTI nashr 1997-yil.
15. Akromov A.K, «O'zbekiston jismoniy tarbiya madaniyati va sport tarixi», o'quv qo'llanma, T, UzDJTI nashr 1997-yil.
16. Atoyev A.K., «Kurash» darslik, T. «O'qituvchi», 1984-yil.
17. F.Xo'jayev, O'zbekistonda jismoniy tarbiya T., «O'qituvchi» 1997-yil.
18. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish, Tong., T., UzDJTI 2005-yil.
19. Ahmedov B.A., Amir Temur, tarixiy roman., T., 1995-yil.
20. Jismoniy tarbiya tarixi, darslik (tarjima), T., «O'qituvchi», 1975-yil
21. Ismoilov R.I., Sholmoiskiy Yu.S., O'zbekistonda fizkultura tarixi., MMT.kul., T., «O'qituvchi» 1968-yil.
22. Kaziyeva R.A.Razvitie Jenskogo fizkulturnogo dvijeniya v Uzbekistane, T., «O'zbekiston», 1979-yil.
23. Ponomarev N.I., Vozniknovanie i pervonachalnoe razvitie fizicheskogo vospitaniya, M., FiS, 1970-yil.
24. Temur tuzuklari. T., G'ofur G'ulom nashriyoti. 1991-yil
25. Toshpo'latov J.T., Surxondaryoda jismoniy tarbiya va sport, T., Uz DJTI nashr., 1991-yil.
26. Usmonxujayev T.S., Xujayev F., 1001 o'yin, T., Ibn Sino, 1990-yil
- 27.F.Xo'jayev, X.Meliyev, D.Yunusova Jismoniy tarbiya tarixi-Toshkent 2013
- 28.J.Eshnazarov "Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish"-Toshkent-2008

F.XO‘JAYEV, S.XO‘JAYEVA

# **JISMONIY TARBIYA TARIXI**

Muxarrir: *Yu. Isoqova*  
Texnik muxarrir: *U. Asadov*  
Saxifalovchi: *M. Xamitov*

**Nashriyot litsenziyasi № 001734, 12.04.2021 y.**

Bosishga 10.04.2021 ruxsat etildi  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>, « Times New Roman » garniturasida, Ofset qog‘ozi  
Bosma tabog‘i 17,25. Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 88  
«UMID DESIGN» nashriyoti  
«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.  
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri  
Navoiy ko‘chasi 22-uy